

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

# **MANBASHUNOSLIK**

**FANIDAN O`QUV-USLUBIY MAJMUA**

**TO`YCHIBOEV B.B. , MAMATOV SH.M.** "Manbashunoslik" fani bo`yicha zamonaviy pedagogik texnologiya asosida yozilgan oquv uslubiy majmua.-Guliston. 2012. 92 bet.

V 5220200 - tarix yo`nalishi bo`yicha 3 kursda tahsil olayotgan talabalar uchun mo`ljallangan. Oquv uslubiy majmua to`plami Guliston Davlat Universiteti Ilmiy Kengashi tomonidan (2012 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_sonli bayonnomma) nashrga tavsiya etilgan.

Tuzuvchi: TO`YCHIBOEV B.B., O`zbekiston tarixi kafedrasining dotsent v.b.,t.f.n., MAMATOVSH.M. O`zbekiston tarixi kafedrasi o`qituvchisi.

Taqrizchilar: XOLLIEV G., O`zMU professori, t.f.d.  
SUVONOV O.S., GulDU katta o`qituvchisi

## M U N D A R I J A:

|  |              |
|--|--------------|
| <b>1. Kirish.....</b>  | <b>4</b>     |
| <b>2. Fanning hajmi va mazmuni.....</b>  | <b>4-8</b>   |
| <b>3. Fanning reyting ishlanmasi va baholash mezoni.....</b>                                       | <b>9</b>     |
| <b>4. Multimediya vositalari va taqdimotlar ro`yxati.....</b>                                      | <b>10-11</b> |
| <b>5. Fanni o`qitish uchun ta'lim texnologiyasini ishlab chiqishning kontseptual asoslari.....</b> | <b>12-13</b> |
| <b>6. Ma'ruzalar kursi.....</b>  | <b>14-77</b> |
| <b>7. Seminar mashg`ulotlari.....</b>  | <b>78-79</b> |
| <b>8. Talabalar mustaqil ishlari.....</b>  | <b>80-82</b> |
| <b>9. Fan bo`yicha nazorat savollari.....</b>  | <b>83-84</b> |
| <b>10. Test namunalari .....</b>   | <b>85</b>    |
| <b>11. Fanda yechimini kutayotgan ilmiy muammolar va masalalar.....</b>                            | <b>86-87</b> |
| <b>11. Glossariy.....</b>  | <b>88-90</b> |

## **1. KURSNING MAQSADI VA VAZIFALARI:**

### **1.1. Kursning maqsadi:**

«Manbashunoslik» fanini o'rganishdan maqsad talabalarda ushu soha to'g'risida umumiyl tushuncha hosil qilish va ularda qiziqish uyg'otish hamda O'zbekiston tarixini manbalar asosida mustaqil o'rganish malakasini hosil qilishdan iborat.

«Manbashunoslik» fani yurtimiz tarixi to'g'risida xolis va ob'yektiv bilim olishga, o'zligimizni anglashga, boy va qadimiy madaniyatimizni bilishga xizmat qiluvchi tarix fanining muhim sohalaridan biridir.

«Manbashunoslik» kursi 3-Umumkasbiy fanlar blokidagi 3.10.-“Arxivshunoslik va manbashunoslik” faniga kirgan bo'lib, tarix yo`nalishi kurs (6 semestr) talabalariga Vatanimiz tarixiga oid manbalar haqida atroficha tushuncha beradi.

### **1.2. Kursning vazifalari:**

Yuqorida ta'kidlangan maqsaddan kelib chiqib, fanni o`qitishda quyidagi vazifalarni hal etish ko`zda tutiladi:

- Turli manbalarni o'rganish hamda ulardan ilmiy foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish;
- Tarixiy manbalar turlarini tasniflash;
- O'zbekiston tarixining turli davrlariga oid manbalar haqida tushunsha hosil qildirish;
- Talabalarda tarixiy manbalar bilan ishlash malakalarini takomillashtirish.

**1.3. Kursni o`rganishda** tarixiy manbalar, ko`rgazmali qurollar, statistik ma'lumotlardan, davriy marbuot, arxiv hujjatlari, Internet resurslaridan foydalanish, shuningdek, mushohada, tahlil usullaridang keng foydalaniladi.

**1.4. Kursni o`rganishda “O'zbekiston tarixi” fanidan olingan bilimlarga suyanadilar. Bundan tashqari bu fan asoslarini teran anglashda talabalarga “O'rta asrlar tarixi”, “Arxivshunoslik”, “Epigrafika”, «Paleografiya» kabi fanlar ham asqotishi shubhasiz.**

### **2. Ushbu kursning mazmuni:**

«Manbashunoslik» kursini 3 kurs 6 semestrda o'rganish jarayonida mavjud o`quv dasturiga asoslangan holda masalalarning tub mohiyati, tarixiy manbalar turlari, tarixiy davrlarga oid manbalar haqida bilimlar beriladi.

### **2.1. O`tiladigan ma'ruza mavzulari, ko`rildigan masalalar va ajratilgan vaqt:**

|  | <b>Ma'ruza mavzulari</b>   | <b>Ko`rildigan masalalar</b>   | <b>Vaqt</b> |
|--|--|--|-------------|
|  | Manbashunoslik fanining predmeti, maqsadi va vazifalari hamda uning nazariy masalalari | Manbashunoslik fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Manbalar turlari: yozma, moddiy, etnografik, lingvistik manbalar, xalq og`zaki ijodiyoti, miniatyuralar. Manbashunoslikning yo`nalishlari. Manbalarni guruhlash va turkumlash. Tarixiy manbalarni aniqlash, tanlash va tahlil etish. Manbalarni tahlil etish. Manbalarni o`rganish va o`rgatish usullari. Hujjatlar. Tarixiy asarlar xususiyatlari. Manbashunoslikning boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Manbashunoslik tarixi va muammolari. | 2           |
|  | O'rta Osiyo tarixiga oid qadimgi va ilk o'rta asrlar manbalar                          | Markaziy Osiyo tarixi qadimgi davriga oid eron va hind manbalar. Mixiy yozuvlar. «Xvaday namak». «Matakdani xazar datastan». Shohnoma. Mahobharat. Qadimgi yunon va rim manbalarida Markaziy Osiyo tarixining yoritilishi. Herodot, Diodor, Pompey Trog, Arrian Flaviy, Kvint Kurtsiy Ruf, Strabon va boshqalar.   | 2           |
|  | "Avesto" Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga oid ilk                                      | "Avesto" - zardushtiylikning muqaddas kitobi. "Avesto"ning yaratilishi. "Avesto"da O'zbekiston   | 2           |

|  |   |   |           |
|--|---|---|-----------|
|  | yozma manba   | tarixiga oid ma'lumotlarning mavjudligi. Asarda jamiyat hayotining aks ettirilishi. "Avesto"ning xorijiy va o'zbek olimlari tomonidan o'r ganilishi.  |           |
|  | O'rta Osiyo tarixini aks etgan IX-XII, XIII-XIV asrlarga oid arab, fors va boshqa tillardagi manbalar | Qadimgi Turk manbalari: Yenisey bitiklari, Mo'g'ulistonndagi bitiklar. Xitoy manbalari: «Shi szi», «Syan Xan shu», «Suy shu» va boshqalar. So'g'd tilidagi manbalar. IX-XII asrlardagi O'zbekiston xalqlari tarixini yorituvchi huquqiy hujjatlar va yozishmalar. Arab tilidagi manbalar: «Kitob at-tarix», «Kitob futuh al-buldon», «Tarixi ar-rusul va-l-muluk», «Kitob masolik ul-mamolik», «Osor ul-boqiya», «Devonu lug'at at-turk» va boshqalar. Mo'g'ul va xitoy tilidagi manbalar: Szin-Shi, Yuan-Shi va boshqalar. Fors tilidagi manbalarda O'zbekiston tarixining yoritilishi. «Buxoro tarixi», «Siyosatnama», «Tarixi Mas'udiy», «Tarixi jahonkushoy», «Jome' ut-tavorix», «Tarixi guzida» va boshqalar. Fors tilidagi manbalarda Movaraunnahr va Xurosonning XIII-XIV asr birinchi yarmi tarixining yoritilishi | 2         |
|  | Amir Temur va Temuriylar davri manbalar   | Tarixiy manbalarda Amir Temur davlati, hayoti va faoliyatining yoritilishi. «Temur tuzuklari» Temuriylar hukmronligi davri tarixining manbalarda aks ettirilishi. Alisher Navoiy asarlarida tarixiy ma'lumotlar. Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asari. Amir Temur va temuriylar davrini yorituvchi fors tilidagi manbalar: «Zafarnoma», «Majmu at-tavorix», «Zafarnomayi Temuriy», «Tarixi arba' ulus», «Ravzat us-safo» va boshqalar.   | 2         |
|  | XV-XVI asrlarga (Shayboniyilar) oid yozma manbalar  | Shayboniyilar davri tarixini yorituvchi fors tilidagi manbalar: «Fathnoma», «Shaybonynoma», «Mehmonnomayi Buxoro», «Habib us-siyar», «Tarixi Rashidiy», «Abdullahoma», «Akbarnama». O'zbek tilidagi manbalarda shayboniyxonlar davri tarixining aks ettirishi. «Shaybonynoma», «Tavorixi guzida. Nusratnama», «Zubdat ul-asar».   | 2         |
|  | Markaziy Osiyo xonliklari tarixini yorituvchi manbalar  | Xiva xonligi tarixiga oid manbalar: «Shajarayi tarokima», «Firdavs ul-iqbol», «Shajarayi Xorazmshohiy». Manbalarda Buxoro xonligi tarixining yoritilishi. «Musaxxir al-bilod», «Tarixi Muqimxoniy», «Ubaydullanova», «Tarixi Abulfayzxon», «Tuhfat ul-xoniy», «Fathnomay sultoniy», «Tarixi Amir Haydar», «Tarixi salotini Mang'itiya». Qo'qon xonligi tarixining manbalarda aks ettirilishi. «Ansob us-salotin», «Muntaxab ut-tavorix», «Tarixi jadidayi Toshkand», «Tarixi Shohruhiy»   | 2         |
|  | Chor Rossiysi mustamlakachiligi davriga oid manbalar  | O'rta Osiyoning istilo qilinishiga hamda Turkistonda chorizmning mustamlakachilik siyosatiga oid manbalar. Mahalliy manbalar. Rossiya manbalari. Rasmiy hujjatlar va adabiyotlar. Turkiston to'plami. Turkiston albomi.   | 2         |
|  | Mustaqil O'zbekiston tarixini yorituvchi manbalar   | Rasmiy hujjatlar. I.A.Karimov asarlari mustaqil O'zbekiston tarixini o'r ganishda muhim manba. Mustaqil O'zbekiston tarixini yorituvchi adabiyotlar. Mustaqillik davri tarixiga bag'ishlangan zamonaviy tadqiqotlar. Ommaviy axborot vositalaridagi materiallar.  |           |
|  | <b>JAMI:</b>  |   | <b>20</b> |

## 2.1. O`tiladigan seminar mavzulari, ko`riladigan masalalar va ajratilgan vaqt:

| <b>Nº</b> | <b>Seminar mavzulari</b>  | <b>Ko`riladigan masalalar</b>  | <b>Vaqt, soati</b> |
|-----------|---|--|--------------------|
| 1         | Manbashunoslik fani predmeti, vazifalari va ahamiyati                               | 1. Manbashunoslik fanining predmeti va vazifalari.<br>2. Manbalar turlari tasnifi<br>3. Manbashunoslik yo`nalishlari<br>4. Manbashunoslikning boshqa fanlar bilan aloqadorligi   | 2                  |
| 2         | Manbalarni o`rganish: aniqlash, tiklash va tahlil qilish                            | 1. Manbalarni guruhash, turkumlash.<br>2. Arxeografiya<br>3. Tarixiy manbalarni aniqlash, tanlash va tahlil etish.<br>4. Manbalarni o`rganish va o`rgatish usullari  | 2                  |
| 3         | Manbashunoslik tarixi va muammolari   | 1. Manbashunoslik fanining paydo bo`lishi va tarixi<br>2. O`zbekistonda manbashunoslik fani tarixi<br>3. Zamonaviy manbashunoslik muammolari<br>4. O`zbek xalqining shakllanishiga oid manbalar                            | 2                  |
| 4         | O`rta Osiyo tarixiga oid qadimgi manbalar   | 1. Markaziy Osiyo tarixi qadimgi davriga oid arxeologik manbalar<br>2. Qadimgi Eron manbalar<br>3. Qadimgi Hind manbalar<br>4. Qadimgi yunon manbalar<br>5. Qadimgi rim manbalarida Markaziy Osiyo tarixining yoritilishi. | 2                  |
| 5         | O`rta Osiyo o`rta asrlar tarixiga oid yozma manbalar                                | 1. Geografiya va kosmografiyaga oid manbalar<br>2. Biografik asarlar<br>3. Agiografik asarlar  | 2                  |
| 6         | O`zbekiston xalqlari tarixiga oid qadimgi turk, xitoy va so`g`d tilidagi manbalar   | 1. Qadimgi turk tilidagi manbalar.<br>2. Xitoy tilidagi manbalar.<br>3. So`g`d tilidagi manbalar.  | 2                  |
| 7         | O`rta Osiyo tarixini aks etgan IX-XII asrlarga oid arab tilidagi yozma manbalar     | 1. Huquqiy hujjatlar va yozishmalar<br>2. VIII-XII asrlardagi O`zbekiston xalqlari tarixini yorituvchi arab tilidagi manbalar.<br>3. Arab tilidagi manbalarning xususiyatlari va ahamiyati                                 | 2                  |
| 8         | IX-XII asrlardagi Markaziy Osiyo xalqlari haqida forsiy yozma manbalar              | 1. Fors tilidagi manbalarda VIII-XII asrlardagi O`zbekiston tarixining yoritilishi.<br>2. Fors tilidagi manbalarda Movarounnahr va Xurosonning XIII-XIV asr birinchi yarmi tarixining yoritilishi                          | 2                  |
| 9         | Markaziy Osipyoga mo`g`ullarning bosqini va hukmronligi tarixiga oid yozma manbalar | 1. Mo`g`ul va xitoy tillarida yozilgan manbalar<br>2. Markaziy Osipyoga mo`g`ullar bosqiniva ular hukmronligi davri tarixiga oid arab tilidagi manbalar.   | 2                  |
| 10        | Amir Temur davriga oid manbalar   | 1. Tarixiy manbalarda Amir Temur davlati, hayoti va faoliyatining yoritilishi.<br>2. Temur tuzuklari<br>3. Amir Temur davriga oid yangi davr Yevropa tillaridagi manbalar  | 2                  |
| 11        | Temuriylar tarixiga oid yozma manbalar  | 1. Temuriylar hukmronligi davri tarixining arab tilidagi manbalarda aks ettirilishi.<br>2. Temuriylar davri tarixiga oid fors tilidagi manbalar  | 2                  |

|             |  |  |           |
|-------------|--|--|-----------|
|             |  | 3. Temuriylar tomonidan yaratilgan manbalar (Ulug'bek, Bobur)  |           |
| 12          | XV-XVI asrlarga (Shayboniyilar) oid yozma manbalar   | 1. Shayboniyilar davri tarixini yorituvchi eski o'zbek tilidagi manbalar.<br>2. Fors tilidagi manbalarda shayboniyxonlar davri tarixinining aks ettirishi.   | 2         |
| 13          | Qo'qon xonligi tarixini yorituvchi manbalar  | 1. Qo'qon xonligi tarixinining manbalarda aks ettirilishi<br>2. "Muntahab ut-tavorix " - Qo'qon xonligi tarixiga oid fors tilidagi manbalar  | 2         |
| 14          | Buxoro amirligi tarixiga oid tarixiy manbalar  | 1. Manbalarda Buxoro xonligi va amirligi tarixinining yoritilishi<br>2. "Tarixi salotini Mang'itiya" asari - Buxoro amirligi tarixiga oid muhim manbalar   | 2         |
| 15          | Xiva xonligi tarixini aks ettiruvchi manbalar  | 1. Xiva xonligi tarixiga oid manbalar<br>2. "Firdavs ul-iqbol" asarida Xiva xonligi tarixinining fors tilidagi manbalarda yoritilishi  | 2         |
| 16          | XVII-XIX asrlar Markaziy Osiyo tarixiga oid eski o'zbek tilidagi yozma manbalar                  | 1. Shajarayi Xorazmshohiy<br>2. Shajarayi tarokima   | 2         |
| 17          | O'rta Osiyoni Rossiya tomonidan bosib olinishini aks ettiruvchi tarixiy manbalar                 | 1. O'rta Osiyoning istilo qilinishiga oid mahalliy va rus tilidagi manbalar.<br>2. Chorizmning mustamlakachilik siyosatiga oid mahalliy va rus tilidagi manbalar.<br>3. Rasmiy hujjatlar, to'plamlar   | 2         |
| 18          | O'zbekistonda Sho'rolar tuzumi va tarixiga oid manbalar  | 1. Turkiston va O'zSSR dagi siyosiy jarayonlarni aks ettiruvchi materiallar<br>2. Sho'rolar davri tarixi bilan bog'liq tarixiy adabiyotlar<br>3. O'zbekistonning 1930-1985 yillardagi tarixini yorituvchi sovet, xorijiy va zamonaviy manbalar<br>4. Rasmiy manbalar | 2         |
| 19          | Davriy matbuot va arxiv hujjatlari hamda statistika O'zbekiston tarixini o'rganishda muhim manba | 1. Arxiv hujjatlari - XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr O'zbekiston tarixini o'rganishda muhim manba.<br>2. Davriy matbuot va statistika hujjatlari manba sifatida<br>3. Tarixiy manbalarni to`plash va saqlash  | 2         |
| 20          | Mustaqil O'zbekiston tarixini yorituvchi manbalar  | 1. I.A.Karimov asarlari mustaqil O'zbekiston tarixini o'rganishda muhim manba<br>2. O'zbekiston Oliy Majlisи hujjatlari va boshqa rasmiy hujjatlarning manba sifatidagi ahamiyati<br>3. Mustaqil O'zbekiston tarixini yorituvchi tadqiqotlar va adabiyotlar          | 2         |
| 21          | O'zbekiston manbashunosligining dolzarb masalalari va istiqboli                                  | 1. Zamonaviy O'zbekiston manbashunosligining dolzarb masalalari<br>2. O'zbekiston manbashunos olimlari<br>3. O'zbekiston manbashunosligining istiqboli   | 2         |
| <b>JAMI</b> |  |  | <b>44</b> |

## Talaba mustaqil ishiga reyting balli berish tartibi

Reyting ballari berish tartibi har bir mavzu mustaqil ish topshiriqlari uchun 1-5 ballgacha deb belgilangan. Barcha 4 ta mavzudan mustaqil ish topshiriqlarning har biri uchun talaba 1-5 ballgacha oladi. Jami 20 ballgacha yig`adi. 1 tur oraliq baholashda asar tahlili bo`yicha TMI 1-dan 10 ballgacha baholanadi, jami 10 ballgacha yig`adi. Talabaning mustaqil ish topshiriqlarini bajarish faoliyati maksimal 30 ballik tizim asosida baholanadi.

### **Talabalar mustaqil ishlari:**

#### **Joriy baholashdagi TMI - Mustaqil holda o`rganiladigan mavzular (uyga vazifa)**

|  | MAVZU                                    | O`rganiladigan masalalar   | Berila digan ball | Ajratil gan vaqt | TMI topshirish sanasi |
|--|--|--|-------------------|------------------|-----------------------|
|  | Manbalarni o`rganish usullari            | Yozma manbalarning tavsif usuli. Kodikologik ma'lumotlar. Asar muallifi va uning davri. Asarning tarkibi va mazmuni tahlili. Manbaning o`rganilishi.   | 0-5               | 5 s              |                       |
|  | Tarixiy asarlar xususiyatlari va turlari | Arab tilida yozilgan manbalar xususiyatlari. Fors tilidagi manbalar. O`zbek tilidagi manbalarning xususiyatlari. Georgafiya va kosmografiyaga oid manbalar. Biografik asarlar. Agiografik asarlar. Memuar asarlar. Esdaliklar. Rasmiy hujjat va yozishmalar. | -5                | 0 5 s            |                       |
|  | Manbashunoslik tarixi va muammolari      | Manbashunoslik fanining paydo bo`lishi. O`zbekistondagi manbashunoslik tarixi. Zamonaviy manbashunoslik muammolari.  | -5                | 0 5 s            |                       |
|  | Davriy matbuot va arxiv hujjatlari       | Davriy matbuot materiallarining manbashunoslikdagi o`rni. O`zbekistondagi arxivlar. Arxiv hujjatlari.  | 0-5               | 5 s              |                       |
|  | Oraliq baholashdagi asar tahlili         | 1ta asar tahlil qilinadi (1 turda) Z.M.Boburing «Boburnoma» asari  | 1-10              | 5 s              |                       |
|  | Seminarlarga tayyorgarlik ko`rish        | 22ta seminar joriy baholash bo`yicha baholanadi.   | -                 | 23 s             |                       |
|  | JAMI                                     |  | 30 ball           | 53 soat          |                       |

#### **Mustaqil ish**

I modul – 2 ta

II modul – 2 ta

B 5220200 "Tarix" bakalavriat yo'naliishi 3 kurs 7 semestr uchun  
 "MANBASHUNOSLIK" fanidan 2010-2012 o'quv yiliga mo'ljallangan  
**REYTING ISHLANMASI**

| T-r            | Nazorat turlari        | Mashg'ulot ko'rinishi          | Soni       | Jami yig'il.ball |
|----------------|------------------------|--------------------------------|------------|------------------|
| 1tur           | <b>Joriy baholash</b>  | Seminar                        | 11ta x 1,5 | 16,5 ball        |
|                |                        | TMI                            | 2ta x 5    | 10 ball          |
| 2 tur          | <b>Joriy baholash</b>  | Seminar                        | 11ta x 1,5 | 16,5 ball        |
|                |                        | TMI                            | 2ta x 5    | 10 ball          |
|                |                        | Konspekt                       | 1ta x 2    | 2 ball           |
| <b>Jami JB</b> |                        |                                | <b>55%</b> | <b>55 ball</b>   |
| 1 tur          | <b>Oraliq baholash</b> | Og'zaki so'rov                 | 1x 5       | 5 ball           |
|                |                        | TMI (adabiyot tahlili)         | 1 x 10     | 10 ball          |
| 2 tur          | <b>Oraliq baholash</b> | Test                           | 1 x 5      | 5 ball           |
|                |                        | Referat                        | 1 x 10     | 10 ball          |
| <b>Jami OB</b> |                        |                                | <b>30%</b> | <b>30 ball</b>   |
| 3.             | Yakuniy baholash       | Yozma nazorat ishi (3ta savol) | 1 ta x 15  | <b>15 ball</b>   |
| <b>JAMI</b>    |                        |                                |            | <b>100 ball</b>  |

**Baholash mezoni:**

**1.J.B.** 1.1.JB bo'yicha amaliy mashg'ulotga qatnashib, savollarga to`liq javob bergen talabaga javobning mazmuniga qarab 1.5-1 ball, agar to`liq bo`lmasa 1-0.5 ball beriladi.

1.2.TMI.uya berilgan topshiriqning bajarilishi sifati va mazmuniga qarab to`liq, bajarilsa 5 -3 ballgacha, qisman bajarilsa 2.5-0.5 ball beriladi.

2.OB 2.1 Nazorat ishi yozma tarzda o'tkaziladi. Har bir variant 5 ta savoldan iborat bo`lib, har bir to`g`ri javob uchun mazmunini sifatiga qarab 0.5-1 ball, jami 5 ballgacha qo`yiladi.

**2.O.B.** 2.2. Birinchi OBda Og`zaki so`rov o'tkaziladi. Unda har bir to`g`ri, aniq javobga 1 balldan, qisman javob bersa 0.5 ball, jami 5 ballgacha qo`yiladi.

2.3. Ikkinchchi OBda Test o'tkaziladi. Unda har bir to`g`ri, aniq javobga 0.2 balldan, 25 ta testga to`gri javob bersa 5 ballgacha qo`yiladi.

2.4. Referat mavzusi to`liq reja asosida ochib berilsa ,8-10 ball;

-mavzu mohiyati ochilgan,lekin kamchiligi bo`lsa, -5-7 ball;

-qisman ochilgan bo`lsa -1-5 ball beriladi

**3.YaB.** YaB test shaklida bo`lib, 30 ta testni 30 minut ichida ishlab, kamida 17 ta to`g`ri topishi lozim. YaBda 17x0.5q8,5 ball o`tish bali ?isoblanadi.

Agar YaB yozma tarzida o'tkazilsa har bir to`g`ri javob uchun 5-4 ballgacha ,to`g`ri bo`lmasa, javoblar qisman, umumiy holda yoritilgan bo`lsa 1-3 ball qo`yiladi .

Izoh. Talabalar 47 balldan yuqori ball to`plasalar, YaBga kiritiladi. Saralash ball 55 ball hisoblanadi. YaBda 8.5 ball olgan talaba o`tgan hisoblanadi.

#### **IV. MULTIMEDIA VOSITALARI VA TAQDIMOTLAR RO`YXATI:** **Asosiy adabiyotlar:**

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.- Т.:Шарқ, 1998
2. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд. – Т.:Ўзбекистон, 1996.
3. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2-жилд. – Т.:Ўзбекистон, 1996.
4. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд. – Т.:Ўзбекистон, 1996.
5. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. 4-жилд. – Т.:Ўзбекистон, 1996.
6. Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. 5-жилд.- Т.:Ўзбекистон, 1997
7. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. 6-жилд.– Т.:Ўзбекистон, 1998. .
8. Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. 7-жилд. – Т.:Ўзбекистон, 1999.
9. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-жилд. – Т.:Ўзбекистон, 2000
10. Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. 9-жилд. – Т.:Ўзбекистон, 2001.
11. Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун қурашмоқ керак. 10-жилд. – Т.:Ўзбекистон, 2002.
12. Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт, маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. 11-жилд. – Т.:Ўзбекистон, 2003.
13. Каримов И.А. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. 12-жилд. – Т.:Ўзбекистон, 2004.
14. Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон ҳеч кимга қарам бўлмайди. 13-жилд. – Т.:Ўзбекистон, 2005.
15. Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.:Ўқитувчи, 2001.
16. Madraimov A., Fuzailova G. Tarixiy manbashunoclilik. T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010
17. Тарихий манбашунослик (Тузувчилар: А.Мадраимов, Г.Фузаилова) – Т.:Фан, 2006
18. Манбашунослик фанидан ЗПТ асосида маъруза матнлари. Тузувчи Б.Тўйчибоев. Гулистон, 2001
19. To'ychiboyev B., Mamatov Sh. Manbashunoslik fanidan o'quv-uslubiy majmua. Guliston, 2010

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

20. Аҳмад Закий Валидий Тўғон. Бўлиганни бўри ер. – Т.:Адолат, 1997
21. Аҳмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии XVI-XVIII вв. (Письменные памятники).- Т.:Фан, 1985
22. Аҳмедов Б. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари.- Т.:Ўқитувчи, 1991
23. Аҳмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. – Т.:Ўқитувчи, 1994
24. Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. –Т., 1968.
25. Бертельс Е.Е. История персидско-таджикской литературы. М., 1960
26. Бобур Захириддин Муҳаммад. Бобурнома. Т.:Фан,1960
27. Бобур. Бобурнома.- Т.:Юлдузча, 1994
28. Бухорий Ҳофиз Таниш. Абдулланома. I-II жилд. Т., “Шарқ”, 1999-2000.
29. Вахабова М. Памятники арабоязычной биографической литературы XII-XIV веков как источник для истории культуры Средней Азии. // Автореф.дисс. канд.фил.наук.-Т., 1970.
30. Восточное историческое источниковедение и специальные исторические дисциплины. Выпуск 1. –М.:Наука, 1989.
31. Ибрат.... Наршахий...Мерос туркуми.- Т.:Камалак, 1991
32. Исҳоқов М., Раҳмонов Н., Содиқов Қ., Тўхлиев Б. Ўлмас обидалар (Ўзбекистон халқларининг қадимги ёзма ёдгорликлари бўйича тадқиқотлар). – Т., 1989
33. Ислом энциклопедияси. Т.:Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2004
34. Ислам. Энциклопедический словарь. – М.:Наука, 1991.
35. Источниковедение: Теория. История. Метод. Источники Российской истории. – М.,1998.
36. Крачковский И.Ю. Арабская географическая литература. Соч. 4-том. – М.-Л., 1957.
37. Лунин Б.В. История Узбекистана в источниках. 1-2 тт. – Т.:Фан, 1984, 1988

38. Лунин Б.В. История Узбекистана в источниках.- Т.:Фан, 1990
39. Манбашуносликдан маърузалар мажмуаси. Тузувчи А.Мадраимов. – Т.:ТДПУ, 2001
40. Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъатидан. – Т.:Фан, 1971
41. Мулло Олим Маҳмуд Ҳожи. Тарихи Туркистан. Қарши:Насаф, 1992
42. Муҳаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азизий. Т.:Маънавият, 1999
43. Муҳаммад Солих, Шайбонийнома- Т., 1987
44. Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917 гг) – Т.,1997
45. Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.:Ўзбекистон, 1996
46. Ртвеладзе Э.В. Великий шёлковый путь. – Т., 1999.
47. Рукописная книга в культурах народов Востока. Книга первая. – М.:Наука, 1987.
48. Сайдкулов Т.С. Ўрта Осиё ҳалқлари тарихининг тарихнавислигидан лавҳалар. – Т.:Ўқитувчи, 1993
49. Сагдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда.- Т.,1996
50. Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан. История. Составители Д.Ю.Юсупова, Р.П.Джалилова. – Т.:Фан, 1998.
51. Стори Ч.А. Персидская литература. М, 1958
52. Таварихи гузиде. Нусратнама. Исследование, критический текст, аннотированное оглавление и таблица сводных оглавлений А.Микрамова. Т., 1977
53. Тарихий манбашуносликнинг долзарб муаммолари илмий-амалий анжуманлар материаллари). /Тузувчилар: А.Мадраимов, П.Фузаилова. – Т.:ТДПУ, 2001
54. Темурийлар даври маданий ёдгорликлари. 1 китоб. – Т., 2003
55. Темур тузуклари. – Т.,1996
56. Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб.- Т., 1964
57. Улуғбек. Тўрт улус тарихи.- Т.,1994
58. Умняков И.И. «Абдулланаме» Хафиза Таниша и ее исследователи. // Записки коллегии востоковедов. 5 том. Л., 1930
59. Халидов А.Б. Арабские рукописи и арабская рукописная традиция. – М., 1985.
60. Фозилбек Отабек ўғли. Дукчи Эшон воқеаси – Т., 1992
61. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Т., 1997
62. Шониёзов К. Ўзбек ҳалқининг шаклланиши жараёни. – Т.:Шарқ, 2001
63. O'zbekiston tarixi. – Т.:Yangi asr avlodi, 2005
64. Ўзбекистон тарихи. –Т.:Янги аср авлоди, 2003
65. Ўзбекистоннинг ислом цивилизациясига қўшган ҳиссаси. (Масъул муҳаррирлар Б.А.Абдухалимов, З.И.Мунавваров) – Тошкент-Самарқанд, 2007
66. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2 китоб. Ўзбекистон совет мустамлакаси даврида. – Т.:Шарқ, 2000
67. Фаниева С., Содиқов Қ. Ёзув тарихи ва китобат санъати. – Т., 2006
68. Қуръони Карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Т., 1992
69. Қаюмов А., Исҳоқов М., Отахўжаев А., Содиқов Қ. Қадимги ёзма ёдгорликлар. – Т.:Ёзувчи, 2000.
70. Ҳабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншунослик. Т.:ТДШИ, 2000

**Internet resurslari:**

- ✓ [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
- ✓ [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)
- ✓ [www.google.uz](http://www.google.uz)
- ✓ [www.ferghana.ru](http://www.ferghana.ru)
- ✓ [www.khangoo.net](http://www.khangoo.net)
- ✓ [www.ref.uz](http://www.ref.uz)
- ✓ [www.kulichki.ru](http://www.kulichki.ru)
- ✓ [www.bankreferatov.ru](http://www.bankreferatov.ru)

## V. FANNI O`QITISH UCHUN TA'LIM TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Bilim olish jarayoni bilan bog`liq ta'lism sifatini belgilovchi holatlar: darsni yuqori ilmiy-pedagogik darajada tashkil etilishi, muammoli mashg`ulotlar o`tkazish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg`or pedagogik texnologiyalardan va multimedia qo`llanmalardan foydalanish, tinglovchilarni mustaqil fikrlashga undaydigan, o`ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo`yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishslash, ijodkorlikka yo`naltirish, erkin muloqotga kirishishga, ilmiy izlanishga jalb qilish va boshqa tadbirlar ta'lism ustuvorligini ta'minlaydi. Ta'lism samaradorligini orttirishda fanlar bo`yicha ta'lism texnologiyasini ishlab chiqishning kontseptsiyasi aniq belgilanish va unga amal qilishi ijobiy natija beradi. Fanni o`qitishning maqsadi va ta'lism berish texnologiyasini loyihalashtirishdagi asosiy kontseptual yondashuvlar quyidagilardan iborat.

**FANNING MAQSADI:** Fanning maqsadi tarix ta'lism yo`nalishi bo`yicha tahsil olayotgan talabalarni kishilik jamiyatining paydo bo`lishida muhim rol o`ynaydigan shaxsiy egalikning paydo bo`lishi, ijtimoiy tengsizlik va davlat hokimiyatining vujudga kelishini tushinishda hamda halq va elatlarning paydo bo`lish jarayonlarini o`rganishga qaratilgan va nihoyat sinfiy jamiyat va davlatlarning paydo bo`lish omillari keng yoritilgan holda ochib berishdan iboratdir. Ibtidoiy jamoa davrining davrlanishi va sanalari, tosh, mis, temir asrlari. Sanalarini aniqlashda tabiiy fanlarning o`rni, antropogonez, ibtidoiy urug` jamoasining vujudga kelish davrlari, ibtidoiy jamoa bosqichlarining umumiy tariflari bilan tanishtirishdan iboratdir.

Fanning yakunida talabalar ibtidoiy jamoa davrida insoniyatning vujudga kelishidan tortib to sinfiy jamiyat paydo bo`lgungacha bo`lgan davr bosqichlarini o`rganishi orqali tushuncha va ko`nikmalarga ega bo`ladilar.

Fanni o`rganishda talabalar ibtidoiy tarixining manbashunoslikka, arxeologik manbalarga va ularning imkoniyatlari, etnografiya, tarixiy antropologiya, geologiya, paleogeografiya, tilshunoslik, yozma manbalardan olingan bilimlarga suyanadilar.

**FANNI O`QITISH VAZIFALARI.** Maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish tavsiya etiladi:

Shaxsga yo`naltirilgan ta'lism. O`z mo?iyatiga ko`ra ta'lism jarayonining barcha ishtiroychilarini to`laqonli rivojlanishlarini ko`zda tutadi. Bu esa ta'lismni loyi?alashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lism oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bo?liq o`qish maqsadlaridan kelib chiqqan ?olda yondoshishga e'tibor qaratishni amalga oshiradi. ?ar bir talabaning shaxs sifatida kasbiy takomillashuvini ta'minlaydi. Ta'limgning markaziga bilim oluvchi qo`yiladi.

Tizimli yondashuv. Ta'lism texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o`zida mujassam etmo?i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo`qinlarini o`zaro bog`langanligi, yaxlitligi bilim olish va kasb egallashning mukammal bo`lishiga hissa qo`shadi.

Faoliyatga yo`naltirilgan yondashuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lism oluvchining faoliyatini jadallashtirish va intensivlashtirish, o`quv jarayonida barcha qobiliyat va imkoniyatlarni, tashabbuskorlikni ochishga yo`naltirilgan ta'lismni ifodalaydi. Egallangan bilimlarning ko`nikma va malakaga aylanishi, amaliyotda tatbiq etilishiga sharoit yaratadi.

Dialogik yondashuv. Bu yondoshuv o`quv jarayoni ishtiroychilarining psixologik birligi va o`zaro munosabatlarni yaratish zaruriyatini bildiradi. Uhing natijasida shaxsning o`z-o`zini faollashtirishi va o`z-o`zini ko`rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi. O`qituvchi va talabaning hamkorlikdagi ta'limi faoliyat yuritishiga zamin yaratadi.

?amkorlikdagi ta'lismi tashkil etish. Demokratilik, tenglik, ta'lism beruvchi va ta'lism oluvchi o`rtasidagi sub'ektiv munosabatlarda ?amkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda erishilgan natjalarni ba?olashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi. Ta'lism jarayonida “sub'ekt-sub'ekt” munosabatlari tarkib topadi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qaramaqshiligi va uni ?al etish usullarini, dialektik musho?adani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda kullashni ta'minlaydi. Muammoli savol, vazifa, topshiriq va vaziyatlar yaratish va ularga echim topish jarayonida ongli, ijodiy, mustaqil fikrleshga o`rgatiladi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini kullash - ?ozirgi axborot kommunikatsiya texnologiya vositalari kuchli rivojlangan sharoitda ulardan to`?ri va samarali foydalanish, axborotlarni tanlash, saralash, saqlash, qayta ifodalash ko`nikmalari ?osil qilinadi. Bu jarayonda kompyuter savodxonligi alo?ida a?amiyat kasb etadi.

O`qitish metodlari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, viziuallash), muammoviy usul, keys-stadi, pinbord, paradokslar, loyi?a va amaliy ishlash usullari. Interfaol usullarni mavzu mazmuninga mos ?olda tanlash va ulardan samarali foydalanishga o`rgatadi.

O`qitish vositalari: o`qitishning an'anaviy vositalari (darslik, ma'ruza matni, ko`rgazmali qurollar, xarita va boshqalar) bilan bir qatorda – axborot-komunikatsiya texnologiya vositalari keng ko`lamda tatbiq etiladi.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ ikki yoqlama (teskari) aloqaga asoslangan bevosita o`zaro munosabatlarning yo`lga qo`yilishi.

Teskari alo?a usullari va vositalari: kuzatish, bilim-so`rov, joriy, oraliq va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o`qitish diagnostikasi amalga oshiriladi. Ta'lim jarayonida kafolatlangan natijaga erishish ta'minlanadi.

Boshqarish usullari va tartibi: o`quv mashg`uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik xarita ko`rinishidagi o`quv mashg`ulotlarini rejalshtirish, qo`ylgan maqsadga erishishda o`qituvchi va tinglovchining birgalikdagi ?arakati, nafaqat auditoriya mash?ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati ham tartibli yo`lga qo`yiladi.

Monitoring va baholash: butun kurs davomida ham o`qitish natijalari reyting tizimi asosida nazorat va ta?lil qilib boriladi. Kurs oxirida yozma, og`zaki yoki test topshiriqlari yordamida ta'lim oluvchilarning bilimlari baholanadi.

**VI. MA'RUZALAR KURSI**  
**Fanni o`qitish texnologiyasi:**  
**“MANBASHUNOSLIKNING PREDMETI VA VAZIFALARI”**  
**mavzusi bo`yicha ma'ruza darsining texnologik xaritasi**

| No<br>Bosqich | Bajariladigan ish mazmuni  | Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt  |
|---------------|--|--------------------------------|
| 1             | <p><b>Tayyorlov bosqichi</b></p> <p><b>1.1 Dars maqsadi:</b> Manbashunoslik fanining predmeti va vazifalarini ochib berish va talabalarda manbashunoslik faniga qiziqish o`yg`otish.</p> <p><b>1.2.Identiv maqsadlar:</b><br/> Manbashunoslik fani predmeti mohiyatini tushunadi.<br/> Manbashunoslik fanining boshqa tarix fanlari bilan aloqadorligini anglaydi.<br/> Manba mohiyati va turlarini biladi.<br/> Manbashunoslik fani vazifalarini tushunadi va tahlil qiladi.</p> <p><b>1.3.Asosiy tushunchalar:</b></p> <p><b>1.4.Dars shakli:</b> Ma`ruzaga</p> <p><b>1.5.Metod va usullar:</b> Ogzaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum</p> <p><b>1.6.Kerakli jihoz va vositalar:</b> O`quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor.</p> | O`qituvchi                     |
| 2             | <p>Oquv mashg`ulotni tashkil qilish bosqichi:</p> <p>2.1. Mavzu e'lon qilinadi.<br/> 2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.</p>  | O`qituvchi<br>30 min.          |
| 3             | <p>Guruhdha ishslash.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Aqliy hujum usulidan foydalangan holda manbasunoslik fanining yuzaga kelish omillarini tahlil qilish</li> <li>Mavzuning mu?im bosqichlari bo`yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash. Umumiylar xulosalar chiqarish</li> </ul>   | O`qituvchi – talaba<br>30 min. |
| 4             | <p><b>Mustahkamlash va baholash:</b><br/> Berilgan ma'lumotni talabalar tomonidan o`zlashtirilganini ani?lash uchun quyidagi savollar beriladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Manbashunoslik fanining boshqa tarixiy fanlar bilan aloqadorligini tahlil qiling.</li> <li>Manbashunoslik fanining vazifalarini aniq bir manba misolida tushuntirib bering.</li> </ul>  | O`qituvchi – talaba<br>10 min. |
| 5             | <p><b>O`uv mashg`ulotini yakunlash.</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Ma'ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo`yicha yakuniy fikr aytildi va mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi</li> </ul> <p><b>Mustaqil ish topshirig`i:</b></p>   | O`qituvchi<br>10 min.          |

**ASOSIY SAVOLLAR:**

1. Manbashunoslik fanining predmeti va vazifalari.
2. Manbalarni guruhash va turkumlash.
3. Tarixiy manbalarni aniqlash, tanlash va taxlil etish.

**Tayanch tushuncha va iboralar:**

Manbashunoslik, moddiy manbalar, ma'naviy manbalar, manbashunoslik vazifalari, etnografik manbalar, lingvistik manbalar, xalq og`zaki adabieti, yozma manbalar, rasmiy hujjatlari, asarlar, tarixiy manbalar, tashqi va ichki belgilari.

**Mavzuga oid muammolar:**

Manbashunoslik bilan tarixshunoslik orasidagi farq nimada?

Hozirgi kunda manbashunoslik fanining ahamiyati kuchayib bormoqda. Buning sababini nimada deb bilasiz?

Manbalarni guruhash va turkumlash bo`yicha taklif va mulohazalaringizni bildiring.

#### 1-ASOSIY SAVOL:

Manbashunoslik fanining predmeti va vazifalari.

#### **Asosiy savol bayoni:**

Manbashunoslik - tarix fanining asosiy va muhim tarmoqlaridan bo`lib, turli (moddiy, yozma, etnografik va boshqa) manbalarni o`rganish hamda ulardan ilmiy foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini o`rganadi.

Tarixiy manba o`zi nima? Tarixiy manba deganda uzoq o`tmishdan qolgan, tabiat va jamiyatning ma'lum bosqichdagi kechmishini o`zida aks ettirgan moddiy va ma'naviy yodgorliklarni tushunamiz. Moddiy manbalar turkumiga ko`hna manzilgohlar va mozorlar, shaharlar va qasrlar hamda qal'alarining xarobalari, o'sha joylardan topilgan ishlab chiqarish qurollari, uy-ruzg`or buyumlari, zeb-ziynat ashyolari, tangalar va boshqalar kiradi. Ma'naviy manbalar turkumiga esa uzoq o`tmishdan qolgan qo`lyozma asarlar hamda odamlarning turish-turmushi va urf-odatlarini o`zida aks ettiruvchi materiallar, shuningdek, kishilar ongida saqlanib qolgan urf-odat va an'analar kiradi. Xullas, tabiat va jamiyatning kechmishi bilan bog`liq bo`lgan har bir narsa tarixiy manba bo`lishi mumkin.

Manbashunoslikning vazifalariga kelsak, tarixiy manbalarni topish, ularni turkumlash, chuqur va atroficha tadqiq etish, manbada o`z aksini topgan yoki bayon etilgan voqealar, keltirilgan faktlarning to`la va xolisligini aniqlash manbashunoslikning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Muhokama uchun savollar:

O`zbekiston tarixi manbashunosligini o`rganishda qaysi manbalarga katta ahamiyat beriladi?

Moddiy manbalarning tarixni o`rganishdagi o`rn ni qanday?

Yozma manbalar va ma'naviy manbalar orasidagi farqni izohlang.

#### NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

Moddiy manbalarni toping:

- A. Ishlab chiqarish qurollari, "Avesto", Zarautsoydagagi rasmlar.
- V. Taqinchoqlar, cho`kmor, Erqurg`on qoldiqlari
- S. Afrosiyobdagagi yodgorliklar, charx, "Shohnoma".
- D. Navro`z, "Avesto", Selungurdan topilgan topilmalar
- E. Teshiktosh yodgorliklari, Mehrjon, Varaxsha.

To`g`risini ko`rsating:

1) Ma'naviy manbalar

2) Moddiy manbalar

- A. Bexustun yozuvlari
- V . Otashkada
- S. "Xvaday namak"
- D. Navro`z
- E. Garpun

Dafn marosimi

Neandertal bola suyaklari

"Zafarnoma"

Ko`za

Manbashunoslik fani vazifalarini aniqlang:

- A. Manbalarni topish, manbalarni yozish.
- V. Manbalarni turkumlash, manbalarni to`ldirish
- S. Manbalarni tadqiq etish, manbalarni turkumlash
- D. Manbalarni o`rganish, manbalarni saqlash
- E. Manbalarni saqlash, manbalarni solishtirish

#### ADABIYOTLAR:

Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q.- T.:Sharq,1998.

Ahmedov B. O`zbekiston xalqlari tarixi manbalari.-T.:O`qituvchi, 1991.

Sagdullaev A. O`zbekiston tarixi ilk yozma manbalarda.- T.:O`qituvchi, 1996.

## **ASOSIY SAVOL:**

Manbalarni guruhlash va turkumlash.

## **MAQSAD:**

Manbalarni guruhlash va turkumlash yo'llarini yoritib berish, talabalarni tarixiy manbalarni avaylab-asrashga o'rgatish.

## **IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

2.1. Manbalarni guruhlarga bo`lishni biladi.

Manbalarni turkumlashni farqlaydi.

Manbalarni guruhlash va turkumlashni nazariy va amaliy asoslarini egallaydi.

Manbalarni guruhlash va turkumlashni qiesiy o`rganadi.

## **2- asosiy savolning BAYONI:**

Manboshunoslik fani manbalarni avvalo guruhlarga bo`lib o`rganadi. Tarixiy manbalarni, ularning umumiylar xarakteri, o`tmishni o`zida aks ettirishiga qarab, quyidagi besh asosiy guruhga bo`lish mumkin:

1. Moddiy (asheviy) manbalar. Moddiy manba deganda ibridoib davrdan boshlab istiqomat qilgan va dafn etilgan joylar, ularning mehnat va urush qurollari, bino va turli inshootlarning qoldiqlari, uy-ro`zg`or va zeb-ziynat buyumlari tushuniladi.

Moddiy yodgorliklarni qidirib topish va o`rganish ishlari bilan arxeologiya fani shug`ullanadi.

Etnografik manbalar. Xalqlarning kelib chiqishi bilan bog`liq bo`lgan material va ma'lumotlar, masalan, xalq,qabila va urug` nomlari, inson qo`li va aql-zakovati bilan yaratilgan qurol va buyumlarning naqsh va bezaklari, kishilar ongida, shuningdek og`zaki va yozma adabiyotda saqlanib qolgan urf-odatlar va an'analar, kishilarning turmush tarzi etnografik manba hisoblanadi.

Bularning barchasini etnografiya fani o`rganadi.

2. Lingvistik manbalar. Tilimizning leksik tarkibida uzoq o`tmishdan qolgan, ijtimoiy-iqtisodiy ,ma'muriy, siesiy va yuridik atamalar, masalan, hiroj, iqto', xalifa, miroxo'r, erlig`, saroy, mang`it kabi atamalar uchraydi. Bu qimmatli tarixiy atamalarning kelib chiqishi va etimologiyasini lingvistika fani o`rganadi.

3. Xalq og`zaki adabiyoti. Og`zaki adabiyot madaniyatning eng qadimgi sohalaridan bo`lib, uning ildizi ibridoib jamoa davriga borib taqaladi. Bizgacha Qayyumars, Jamshid, To`maris, Shiroq, boshqa afsona va qissalar etib kelgan. Yozma adabiyotdan avval paydo bo`lgan bu durdonalar uzoq o`tmish tarixini o`rganishda muhim ahamiyatga molikdir. Tarixiy manbalarning bu turi bilan folklor fani shug`ullanadi.

4. Yozma manbalar. Yozma manbalar tarixiy manbalarning muhim va asosiy turidir. Yozma tarixiy manbalar o`z navbatida ikki turga bo`linadi: 1)rasmiy hujjatlar, moliyaviy-hisobot daftarlari, rasmiy yozishmalar; 2) tarixiy, geo-kosmografik hamda biografik asarlar.

Manboshunoslik fani manbalarni o`rganishda paleografiya, diplomatiya, geraldika, sfragistika, epigrafika, numizmatika, metrologiya, xronologiya kabi yordamchi tarix fanlari yutuqlariga suyanadi.

Manbalar o`rganilar ekan, ular turkumlanadi. Olimlar o`rtasida manbalarni turkumlash borasida yagona bir fikr yo`q. Bir guruh olimlar manbalarni mazmuniga qarab, boshqalari kelib chiqishi, qachon va qaerda yozilganligiga qarab turkumlashni ma'qul ko`radi. Ba'zilari esa manbalarni turlariga qarab, boshqalari avtograf yoki ko`chirma nuxsaligiga qarab turkumlashni tavsiya qiladi. B.Ahmedov manbalarni turlariga qarab turkumlashni maqsadga muvofiq deb hisoblab, 1) rasmiy hujjatlar; 2) tarixiy, geo-kosmografik ,biografik manbalar turlarini farqlaydi.

Rasmiy hujjatlar (yorliqlar, farmonlar,vaqfnomalar, rasmiy yozishmalar va hk.) ijtimoiy-siyosiy hayotni bevosita qayd etishlari bo`yicha faktik materialga boyligi bilan tarixiy manbalarning boshqa turlaridan ajralib turadi.

Tarixiy, geo-kosmografik, biografik asarlarda tarixiy voqealar keng va to`laroq yoritiladi. Shuning bilan birga bu asarlar faktik materialga boy bo`ladi. Biroq muallif voqealarga sub'ektiv yondoshgan bo`lishi va voqealarni xaspo'shlab ko`rsatgan bo`lishi ham mumkin. Shuning uchun bunday manbalar o`rganilayotganda yuqoridaq holatni yodda saqlamoq zarur.

Muhokama uchun savollar:

Moddiy manbalar deganda nimani tushunasiz?

Etnografik manbalar yordamida nimalar o`rganiladi?

Lingvistik manbalar qimmatli tarixiy material ekanligini isbotlang.  
Xalq og`zaki adabiyotining tarixni o`rganishdagi o`rnini ochib bering

**NAZORAT TOPShIRIQLARI:**

Tarixiy manbalar necha guruhga bo`linadi?

- A. 6ta
- V. 4ta
- S. 5ta
- D. 3ta
- E. 10ta

Lingvistik manbalarni toping:

- A. Selungur, mirishkor, To`maris,Saroy
- V. Kang`li,muqta, juz'ya, sarorat
- S. "Zafarnoma", suyurg`ol,o`zbek, jaloyir
- D. Ark,Kampirak, Shiroq,do`ppi
- E. Shahriston, Ayrat, "Alpomish",ming

Qadimgi muhrlar va ulardagi yozuvlarni \_\_\_\_\_  
fani o`rganadi.

Yordamchi tarix fanlarining manbalarni o`rganishda ahamiyatini aniq misollarda tushuntiring.  
Manbalarni turkumlash bo`yicha olimlar qarashlarini tahlil qilish.

**ADABIYOTLAR:**

Ahmedov B. O`zbekiston xalqlari tarixi manbalari.-T.:O`qituvchi,1991  
Sagdullaev A. O`zbekiston tarixi ilk yozma manbalarda.- T.:O`qituvchi,1996

**3-ASOSIY SAVOL:**

Tarixiy manbalarni aniqlash ,tanlash va tahlil etish.

Maqsad:

Manbalarni tanlash, aniqlash va tahlil qilishning nazariy va amaliy tomonlarini ko`rsatib berish  
hamda talabalarda manbalarni o`rganishga qiziqish uyg`otish.

**IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

Tarixiy manbalarni aniqlashni o`rganadi.

Mavzuga oid tarixiy manbalarni tanlashni bilib oladi.

Tarixiy manbalarni tahlil qilish asoslarini egallaydi.

Tarixiy manbalarini ichki va tashqi belgilari asosida tahlil qilishning ahamiyatiga baho beradi.

**3- asosiy savolning BAYONI:**

Tarixiy manbani aniqlash,tanlash va, nihoyat, uni ilmiy tahlil qilish har qanday ilmiy tadqiqotning dastlabki bosqichi hisoblanadi. Tadqiq etilayotgan mavzuning ilmiy hamda nazariy jihatdan to`g`ri hal etilishi ko`p jihatdan har qanday ilmiy ishning asosini tashkil etadigan manbaning sifat va salmog`iga, ya`ni to`laligi va faktik materialga boyligiga bog`liqdir. Yana shuni ham edda tutish lozimki, aniq biron ilmiy masalani tadqiq etishda bir emas, balki bir necha asarga, qolaversa, turli tipdagи manbalar (rasmiy hujjatlar,solnomalar, biografik asarlar)ga tayanmoq zarur. Bularning qay biri asosiy, qaysinisi yordamchi rol o`ynashi esa tadqiq etilayotgan muammoning mavzusi va xarakteriga bog`liqdir. Masalan, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni o`rganishda rasmiy hujjatlar asosiy manba rolini o`taydigan bo`lsa, siesiy hamda madaniy hayotni yoritib berishda solnomalar va biografik asarlar birinchi o`rinda turadi. Yoki aniq misol keltiraylik. Temur davlati ma'muriy-boshqaruv tizimini o`rganar ekanmiz, albatta "Temur tuzuklari" birinchi ahamiyatga molik asardir. Temurning harbiy yurishlarini o`rganar ekanmiz, Nizomiddin Shomiy "Zafarnoma" asari, Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" asari, Ibn Arabshohning "Temur tarixi" asarlari muhimdir.

Biroq ilmiy tadqiqot olib borishda faqat asosiy hisoblangan manba bilangina kifoyalanib qolmay, ikkinchi darajali manbalarni ham jalb etmoq kerak. Chunki ular bir-birlarini to`ldiradi.

Belgilangan biron mavzuga tegishli manbalar tanlab olingandan keyin, ularning har biri tashqi va ichki belgilariga ko`ra ilmiy tahlili etilishi darkor. Manbaning tashqi belgilari deganda uning muqovasi, kog`ozi, xatidan tashqari, asarning yozilgan vaqt, joyi, muallifi, yozilish sabablari, asar

yozilgan vaqtdagi ijtimoiy-siyosiy muhit anglashiladi. Bu masalalarni aniqlamay turib, asarda bayon etilgan voqealar haqida, umuman asar haqida to`g`ri va to`la tasavvurga ega bo`lish, uning xususida biron bildirish mumkin emas.

Qadimiy qo`lyozma asarlarining yozilgan vaqtini va joyini aniqlash qiyin. Ba`zi hollarda asar oxirida faqat uning ko`chirilgan vaqtini va joyi hamda kotibning ismigina qayd etiladi, xolos. Bunday ma'lumotlar keltirilmagan taqdirda, asarning yozilishi va ko`chirilishi tarixi uning kog`ozi, xati hamda tili va til uslubiga qarab taxminan belgilanadi.

Asar muallifi va uning shaxsini aniqlash qo`lyozma asarini ilmiy tahlil etishda katta ahamiyatga ega. Bu asarning yaratilishi tarixi va uning yozilishiga sabab bo`lgan ijtimoiy-siesiy muhitni aniqlab olish uchun ham kerak. Shuningdek, muallifning shaxsi, ya`ni uning qaysi ijtimoiy guruhga mansubligi, uning dunyoqarashini aniqlash uchun, asarning umumiy g`oyaviy yo`nalishini to`g`ri belgilab olish uchun ham muhim.

Manbalarni tashqi belgilariga qarab tahlil etishning yana bir muhim shartlaridan biri - uning yozilish sabablarini to`g`ri aniqlashdan iboratdir. Buni asarni zo`r diqqat-e'tibor bilan o`rganish orqali uddalash mumkin. Busiz esa manbada keltirilgan faktik materialdan to`g`ri foydalanib bo`lmaydi.

Manbani ichki belgilariga qarab tahlil qilish deganda, uni mazmuniga qarab tahlil qilish, tushuntirish, g`oyaviy-siesiy saviyasi va ilmiy qimmatini aniqlash masalalari anglashiladi. Har qanday asarning ilmiy qimmati unda bayon etilgan voqealarning xolisligi, keltirilgan faktlarning to`g`riliqi, nihoyat, oldinga surilgan fikr va g`oyalalar bilan o`lchanadi. Shuning bilan birga bunda asarning asl nusxa yoki kompilyatsiya (terma) bo`lishi, to`la va qisqaligi, voqealarning qay tarzda bayon etilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki odatda ilmiy tadqiqotda asl nusxalarga tayanib ish olib boriladi.

Manbaning mazmunini tahlil etishda yana bir narsaga e'tibor berish zarur. Muallifning dunyoqarashidagi cheklanishlar, voqealar va faktlar ustidan xulosa chiqarganda yuz beradigan ziddiyat va qarama-qarshiliklar bilan bir qatorda, ayrim xollarda xolis fikr yuritish xollari ham uchrab turadi.

Xulosa qilib aytganda, manbani ilmiy tahlil qilishdan kuzatilgan maqsad, uning muhim va ilmiy tomonlarini aniqlash, unda keltirilgan faktlarning birinchi darajadagisini ikkinchi darajadagisidan, to`g`risini xaqiqatdan yiroq bo`lganlardan ajrata bilish hamda asarda bayon etilgan voqealarni to`g`ri baholay olishdan iboratdir. Yana shuni ta'kidlash kerakki, manbani unda keltirilgan voqealarni unga o`xshash manba bilan solishtirib, tekshirish lozim.

Muhokama uchun savollar:

O`zbekiston tarixiga oid yozma manbalari qaysi tularga bo`linib o`rganilishi tavsiya etiladi?

Manbaning tashqi belgilariga nimalar kiradi?

Manbani ichki belgilariga qarab tahlil etishda nimalarga e'tibor berish zarur?

NAZORAT TOPShIRIQLARI:

1) Tashki belgilar:

2) Ichki belgilar: A. Yili

- V. Mazmuni
- S. G`oyaviy-siesiy saviyasi
- D. Muallifi
- E. Kog`ozi

Xati

Ilmiy qimmati

Ezilish sababi

Shahri

Arab istilosи va hukmronligiga oid manbalarni aniqlang.

- A. "Tarixi ar-rasul va -l- muluk", "Kitob al- mag`oziy"
- V. "Kitob futux ul-buldon", "Shohnoma"
- S. "Zafarnoma", "Shaybonynoma", "Avesto"
- D. "Kitob masolik ul-mamolik", "Ravzat us-safo"
- E. "Kitob surat al-arz", "Ravzat us-safo"

"Zafarnoma" asarining tashqi belgilarini toping.

- A. Nizomiddin Shomiy, Temur davlati tarixi
- V. Fors tilida, 1402-1404 yillarda yaratilgan
- S. Temur topshirig`i bilan yozilgan, ilmiy qimmatga ega

- D. Temurning harbiy yurishlari keng yoritilgan, Shanbi  
G`ozondan
- E. Faktik materialga boy, 1404 yilgacha bo`lgan voqealar  
yoritilgan
4. Manbalarni aniqlash va tanlashning ahamiyatini tahlil qiling
5. Manbalarning ichki va tashqi belgilaringin bir-biri bilan bog`liqligini tushuntirib bering

**ADABIYOTLAR:**

Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. -T:Sharq, 1998.  
Ahmedov B. O`zbekiston xalqlari tarixi manbalari.-T.:O`qituvchi,1991  
Sagdullaev A. O`zbekiston tarixi ilk yozma manbalarda.- T.:O`qituvchi, 1996.

**Fanni o`qitish texnologiyasi:**  
**“o`rta Osiyo tarixiga oid qadimgi va ilk o`rta asrlar manbalari”**  
**mavzusi bo`yicha ma`ruza darsining texnologik xaritasi**

| No<br>Bosqich | Bajariladigan ish mazmuni   | Amalga oshiruvchi<br>shaxs, vaqt  |
|---------------|---|-----------------------------------|
| 1             | <p><b>Tayyorlov bosqichi</b></p> <p><b>1.1 Dars maqsadi:</b> Markaziy Osiyo xalqlari qadimgi davr tarixini yorituvchi Eron manbalarining mohiyati va ahamiyatini ochib berish, talabalarni eron manbalarini o`rganishga qiziqtirish, ularni tarixiy merosni avaylab-asrashga o`rgatish.</p> <p><b>1.2.Identiv maqsadlar:</b><br/>Markaziy Osiyo xalhlari tarixini yorituvchi eron manbalarini ayтиб beradi.<br/>Eron manbalarini ahamiyatini sharhlaydi.<br/>Markaziy Osiyo xalqlari tarixini aks ettiruvchi eron manbalarini xususiyatlarini aniqlaydi.<br/>Mamlakatimiz tarixini yorituvchi eron manbalarini tahlil qiladi.<br/>Eron manbalarining Vatanimiz qadimgi davrini o`rganishdagi o`rni va roliga baho beradi.</p> <p><b>1.3.Asosiy tushunchalar:</b> Eron manbalari, suratlar, mixxat yozuvlari, katibalar, Naqshi Rustam, Bexistun bitiklari, Xvaday namak, Shohnoma, yunon manbalari, rim manbalari.</p> <p><b>1.4.Dars shakli:</b> Ma`ruzda</p> <p><b>1.5.Metod va usullar:</b> Ogzaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum</p> <p><b>1.6.Kerakli jihoz va vositalar:</b> O`quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor.</p> | O`qituvchi                        |
| 2             | Oquv mashg`ulotni tashkil qilish bosqichi:<br>2.1. Mavzu e`lon qilinadi.<br>2.2. Ma`ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.  | O`qituvchi<br>30 min.             |
| 3             | Guruhda ishslash.<br>Mavzu bo`yicha talabalarning fikrini bilish;<br>Talabalarda tahlil qilish qobiliyatini kuchaytirish;<br>Talabalarni bahsga jalb qilish.  | O`qituvchi –<br>talaba<br>30 min. |
| 4             | <p><b>Mustahkamlash va baholash:</b><br/>Berilgan ma'lumotni talabalar tomonidan o`zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi:</p> <p>Mixat yozuvlari qaerdan topilgan? Ularda O`rta Osiyo xalqlari tarixi xususida qanday ma'lumotlar mavjud?</p> <p>“Avesto” – O`zbekiston tarixini o`rganishda muhim manba ekanligini isbotlang</p> <p>“Xvaday namak”da qaysi sulola tarixi yoritilgan?</p> <p>Qadimgi Eron manbalaridan qaysilari Sosoniylar davlati tarixini yoritadi?</p>   | O`qituvchi –<br>talaba<br>10 min. |

|   |  |                                      |
|---|--|--------------------------------------|
|   | “Shohnoma”ning tarixiy ahamiyati nimada?   |                                      |
| 5 | <p><b>O`uv mashg`ulotini yakunlash.</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Ma`ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo`yicha yakuniy fikr aytildi va mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi</li> </ul> <p><b>Mustaqil ish topshirig`i:</b></p> | <p><b>O`qituvchi<br/>10 min.</b></p> |

### **Asosiy savollar:**

- Markaziy Osiyo tarixi qadimgi davriga oid eron manbalari.
- Qadimgi yunon va rim manbalarida Markaziy Osiyo tarixining yoritilishi.

Mavzuga oid muammolar:

Tosh va sopolga o`yib yozilgan katibalarning ahamiyati nimada?

Qadimgi eron manbalarining qaysilarida O`rta Osiyo xalqlari tarixiga oid ma'lumotlar keltirilgan?

Qadimgi hind manbalarida qanday muhim tarixiy ma'lumotlar keltirilgan?

O`rta Osiyo tarixini o`rganishda qadimgi yunon va rim manbalarining o`ni katta. Ularda asosan qaysi davr tarixi yoritilgan?

1-asosiy savol:

Markaziy Osiyo tarixi qadimgi davriga oid eron manbalari.

### **1-asosiy savolning BAYONI:**

Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi davri tarixini o`rganishda eron yozma manbalari alohida ahamiyatga ega. Vatanimizning er.av. IX-IV asrlardagi tarixini faqatgina eron manbalaridagina yoritilgan. Qadimgi davr tarixini yorituvchi dastlabki yozma manbalardan biri - bu tosh va sopolga o`yib yozilgan katibalardir (mixxat yozuvlari). Bunday yozuvlar Ahomoniylarning qadimiylar poytaxti Persepol , shuningdek Suza va Ekbatana shaharlari va ularning atrofidan topilgan. Ayniqsa, Persepoldan (Sherozning shimoliy tarafida, undan taxminan 50 km masofada joylashgan, er.av. 520-450 yillar orasida qurilgan) topilgan yozuvlar va tasviri suratlari (releflar) zo'r ilmiy qimmatga ega. Ulardan ayrim namunalar XVII asrda (1625 y) ochilgan va italiyalik sayex Petro Della Valle va daniyalik olim K.Nibur nomi bilan bog`liq. 1931-1934, 1935-1939 va undan keyingi yillarda nemis olimi E. Xertsfeld, amerikalik E.Shmidt, frantsuz A.Godar hamda eronlik M.T.Mustavfiy va A.Somiy tarafidan o`tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Persepolda juda ko`p noyob yodgorliklar ochildi. Ular orasida Apadana zinapoyalari ustiga solingen tasviri suratlari alohida ahamiyat kasb etadi. Suratlarda (balandligi 3 fut) Ahomoniylar imperiyasiga tobe bo`lgan 23 satraplikdan (mamlakatdan) ulpon olib kelgan kishilar surati tasvirlangan. Bular orasida baqtriyaliklar (turli idishlar, teri, mo`yna va tuya bilan) , so`g`dliklar (turli gazlamalar, teri va qo`ylar bilan), saklar ( ot va chakmonlar bilan), parfiyaliklar (idishlar va tuya bilan) va xorazmliklar (ot va quroq-aslaxa bilan) ham bor.

Persepoldan 6 milya (qariyb 5 km) masofada, uning shimol tarafida Xusaynkuh qoyalarida Axomoniylardan Doro I, Kserks I (er.av. 486-465 yy), Artakserks I (er.av. 465-424 yy) hamda Doro II (milodning 423-404 yy) larning maqbaralari hamda ularga kiraverishda o`yib yozilgan katibalar bor. Mazkur yodgorlik sosoniy sarkardalardan Rustam (636 yili arablar bilan bo`lgan urushda xaloq bo`lgan) nomi bilan ham bog`liq va tarixda ko`pincha Naqshi Rustam deb ataladi. Katibalarda ayniqsa Doro I tasviri ostiga yozilgan katibada, uning davlati ko`klarga ko`tarib maqtaladi, uning tarafidan bosib olingan xalqlar esa itoatkorlikka va xalol mehnat qilishga chaqiriladi, bo`ysunmaganlar va shu sababdan jazoga tortilganlarning nomlari ko`rsatiladi. Shuningdek, Doro I ning 19 marta qilgan urushlari va u asirga olgan 9 podshoning nomlari qayd etiladi. Muhimi shundaki, katibada Axomoniylar imperiyasiga tobe bo`lgan 28 satraplik va xalqlarning to`la ro`yxati yozilgan. Bular orasida parfiyaliklar, baqtriyaliklar, so`g`dienaliklar hamda xorazmliklar bor.

Yodgorliklar orasida muhimlaridan yana biri mashhur Bexistun yozuvlaridir. Bu yozuvlar (uzunligi 22 m, umumiyl balandligi 7,8 m.) Shimoliy Eronda, Kirmonshohdan 30 km masofada, dara bo`ylab o`tgan qadimgi karvon yo`li yoqasida (uning chap tarafida) Zagros nomli tik qoyaga (taxminan 105 m balandlikda) Doro I ning amri bilan yozdirilgan g`alaba yodgorligidir. Yozuv elam, bobil va qadimgi eron tillarida bitilgan va er.av. 523-522 yillari Axomoniylar imperiyasini larzaga keltirgan Gaumata (522 yil 22 sentyabrda xaloq bo`lgan), Frada (marg`ienalik, er.av. 522

yil 10 dekabrdan asirga olingen), Skunxa (Qozog'iston va O'zbekiston hududida istiqomat qilgan sak qabilalarining etakchisi) boshliq xalq harakatlari haqida hikoya qiladi.

"Xvaday namak" ("Podshohnoma") kadimgi Eronning 627 yilgacha bo`lgan ijtimoiy-siesiy hayotidan bahs etuvchi yarim afsonaviy tarixiy asar bo`lib, paxlaviy tilida yozilgan. Sosoniylardan Yazdigerd III (632-651 yy)ga yaqin kishi tomonidan 632-637 yillar orasida ezib tamomlangan. Asar ayniqsa Ahomoniylar, Ashkoniyilar va sosoniylar tarixi bo`yicha muhim manbalardan hisoblanadi.

"Xvaday namak"ning o`zi ham, mashhur shoir, olim va tarjimon Abdullox ibn Mukaffa (721-757 yy) tarafidan qilingan tarjima ("Siyar al-muluk" deb atalgan) ham bizgacha etib kelmagan. Lekin undan ayrim parchalar Ya'qubiy (897 eki 905 yili vafot etgan), ibn Qutayba (8280889 yy), Tabariy, Ibn al-Asir, shuningdek Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma"sida saqlangan.

"Matakdani xazar datastin" ("Bir ming nafar yuridik ajirim") pahlaviy tilida yozilgan (VIII asr) Eronning Sosoniylar davridagi davlat tuzilishi va uning ijtimoiy hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar bor. Asarning faqat ayrim qismlarigina saqlangan. Mitropolit Ishobaxt qilgan sureniycha tarjimasi (VIII asr) saqlangan. Inglizcha tarjimasi S.Y.Bulsara tomonidan chop etilgan (Bombey, 1937 y).

"Shohnoma" asari Abulqosim Firdavsiy (taxm. 940-1030 yy) qalamiga mansub, uch kism va 65 ming baytdan iborat epik asar. 976-1011 yillari yozilgan. Uning birinchi qismi afsonaviy bo`lib, "Avesto" materiallariga asoslangan holda yozilgan va Eron hamda O`rta Osiyo xalqlarining diniy aqidalari va rivoyatlaridan bahs yuritadi. Asarning ikkinchi va uchinchi qismlari muhim hisoblanadi. Ikkinchi qism qahramonlik eposi bo`lib, qadimgi Eron podsholari va ularning zamonida o`tgan qahramonlar: Rustam va Kova obrazlari yaratilgan.

"Shohnoma"ning uchinchi qismi tarixiy doston bo`lib, unda Eron va O`rta Osiyoning zardo`shtiylikning paydo bo`lishidan to arablar istilosigacha bo`lgan siyosiy hayoti talqin etilgan.

"Shohnoma"ning qo`lyozma nusxalari respublikamizda va xorijiy mamlakatlar kutubxonalarida saqlanmoqda. Asarning to`la matni Hindiston (1829 y), Frantsiya ( 1838-1878 yy), Germaniya ( 1877-1884 yy), Eron (1934-1936 yy) va sobiq ittifoqda (1960-1971 yy) chop etilgan, rus va o`zbek tillariga tarjimalari ham bor.

#### NAZORAT TOPShIRIQLARI:

Frada qo`zg`oloni to`g`risida ma'lumot beradigan manbani toping.

- A. Persepol saroyidagi yozuvsular
- V. Naqshi Rustam
- S. Xvaday namak
- D. Bexistun yozuvsular
- E. Shohnoma

Persepoldagi suratlarda xorazmliklar nimalar bilan tasvirlanganini aniqlang.

- A. turli idishlar, teri, ot bilan
- V. ot va qurol-aslaxa bilan
- S. ot, tuya, chakmonlar bilan
- D. teri, gazlama, tuya va qo`ylar bilan
- E. Turli idishlar, tuya, chakmonlar bilan

1) Naqshi Rustam

2) Behistun yozuvsulari

- A. 1621 yil
- V. Xusaynkuh
- S. 105 metr balandlik
- D. Gaumata
- E. 19 marta
- F. elam, bobil
- G . 10 dekabr
- H . Artakserks 1
- 1. 22 metr

Eron manbalarini Vatanimiz tarixiga oid qismlarini konspekt qiling.

Markaziy Osiyo xalqlari qadimgi davriga oid moddiy manbalar bilan Eron yozma manbalarini qiesiy tavsiflang.

Adabiyotlar:

Ahmedov B. O`zbekiston xalqlari tarixi manbalari.- T.:O`qituvchi, 1991.

Sagdullaev A. O`zbekiston tarixi ilk yozma manbalarda.- T.:O`qituvchi, 1996.

O`zbek adabiyoti tarixi.- T.:O`qituvchi, 1994.

2-asosiy savol:

Qadimgi yunon va rim manbalarida Markaziy Osiyo tarixining yoritilishi.

MAQSAD:

Qadimgi yunon va rim manbalarida Markaziy Osiyo tarixining aks etilganligini ko`rsatib berish, talabalarni milliy g`urur ruhida tarbiyalash.

IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:

Markaziy Osiyo tarixini yorituvchi qadimgi yunon va rim manbalarini biladi.

Yunon va rim manbalarining ahamiyatini sharxlaydi.

Markaziy Osiyo tarixini o`rganishda yunon va rim manbalaridan foydalanadi.

Yunon va rim manbalarining o`ziga xos tomonlarini ko`rsatib beradi.

Markaziy Osiyo tarixini o`rganishda qadimgi yunon va rim manbalarining ahamiyatiga baho beradi.

2-asosiy savolning BAYONI:

Markaziy Osiyo, shuningdek O`zbekistonning qadimgi va antik davrdagi tarixini o`rganishda qadimgi Gretsiya va Rim tarixchilari hamda geograflarining asarlari muhim manba bo`lib xizmat qiladi. Ulardan ayrim va muhimlariga qisqacha to`xtab o`tamiz.

Gerodot (er.av. 490 va 480 yillar o`rtasi - 425 y.) - yirik entsiklopedist olim, "tarix fanining otasi"; asli Kichik Osiyoning Galikarnas shahridan; er.av.455-447 yillari Evropa, Osiyo va Misr bo`ylab sayohat qilgan.

Gerodot Ellada va Sharq mamlakatlari (Liviya, Misr, Assuriya, Vavilon, Persiya va Skifiya)ning qadim zamonlardan to miloddan avvalgi 479 yilgacha bo`lgan ijtimoiy-siyosiy hayotidan hikoya qiluvchi 9 kitobdan iborat "Tarix" nomli asari bilan mashhur. Bu asar umumiy tarix tipida yozilgan birinchi asar hisoblanadi. Shu boisdan ham Gerodot, Sitseronning (er.av. 106-43 yy) so`zlar bilan aytagnida, tarix fanining otasi hisoblanadi.

Gerodot garchi o`zi bayon etayotgan voqealar ustida chuqur mulohaza yuritmasa ham, ularni to`g`ri bayon etishi, o`zga xalqlar va mamlakatlar tarixiga hurmat nuqtai nazari bilan qarashi bilan ba`zi tarixchilardan ajralib turadi.

Gerodotning mazkur asarida O`rta Osiyo va Qozog`istonning qadimiylari xalqlari bo`lmish argippaylar, isserdonlar, massagetlar, daylar va saklar haqida, ularning turish-turmushi, urf-odatlari hamda qo`shni mamlakatlar (Eron va b.) bilan aloqalari haqida qimmatli ma'lumotlar uchratamiz.

"Tarix"ning Shteyn tarafidan tayyorlangan tanqidiy matni 1869-1871 yillarda chop etilgan. Asar ingliz (Roulinson, London, 1856-1860 yy) hamda rus (F.G.Mishchenko, M., 1858-1860 yy) tillariga tarjima qilingan. 1982 yilda asarning mamlakatimiz tarixiga oid qismlari zarur izohlar bilan A.N.Davatur, D.G.Kallistov hamda I.A.Shishova tomonidan yangidan nashr etiladi.

Diodor (er.av. 90-21 yy) yirik tarixchi olim; asli Sitsiliyaning Argiriya shahridan. Diodor "Tarixiy kutubxona" nomli 40 kitobdan iborat asar yozib qoldirgan. Umumiylari tarix tipida yozilgan bu asar asosan Gretsiya va Rimning qadim zamonlardan to eramizning I asr o`rtalarigacha bo`lgan tarixini o`z ichiga oladi. Asarda Sharq xalqlari, shuningdek, O`rta Osiyo va O`zbekistonning qadimiylari xalqlari (skifilar, saklar, massagetlar, baqtriyaliklar va b.), O`rta Osiyo-Eron munosabatlari haqida qimmatli ma'lumotlar bor.

Diodorning mazkur asari ko`p jihatli bilan ko`chirma (kompilyativ) hisoblanadi. Muallif Efor, Polibiy asarlaridan keng foydalangan. Bundan tashqari, ko`p hollarda bayon etilgan voqealar uzviy bog`lanmay qolgan. Shunga qaramay, Diodorning "Tarixiy kutubxona"si tarixiy faktlarga boy va bu jihatdan ilmiy ahamiyatga egadir.

"Tarixiy kutubxona" to`la holda bizning zamonamizgacha etib kelmag'an. Uning faqat 15 kitobi - qadimgi sharq xalqlarining tarixi va afsonalari haqida hikoya qiluvchi 1-5 kitoblari, Gretsiya hamda Rimning yunon-eron urushlari ( er.av. 500-449 yillardan to er.av. 301 yilgacha) bo`lgan tarixini o`z ichiga olgan 11-20 kitoblarigina saqlangan, xolos. Asar 1774- 1775 yillari I.Alekseev tomonidan (olti qismda) va 1874-1875 yillari F.G.Mishchenko tarafidan (ikki qismda) nashr etilgan.

Pompey Trog (er.av. I - eramizning I asrlari orasida o'tgan) - "Filipp tarixi" asari bilan mashhur bo'lgan Rim tarixchisi. 44 kitobdan iborat bu asar afsonaviy Assuriya podsholari zamonidan to Rim imperatori Avgust (er.av. 63- eramizning 14 yy.) davrigacha dunyoda bo'lib o'tgan voqealarni bayon qiladi, lekin asosiy e'tibor Gretsyaning makedoniyalik Filipp II (er.av. 359-336 yy) va Aleksandr Makedonskiy davridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini bayon etishga qaratilgan.

Mazkur asarning qimmati shundaki, u bir talay noma'lum kitoblarga suyanib yozilgan; Rim, Gretsya kabi yirik davlatlarning paydo bo'lishi va tarixini keng yoritib bergan. Muhibi shundaki, muallif bunday davlatlarning oqibatda inqirozga uchrashini aytadi. Lekin Pompey Trogning tarixiy jarayon va uning taraqqiyotiga qarashli idealistikdir, chunki u tarixni harakatga keltiruvchi kuch - urf-odat va taqdir, deb hisoblaydi.

"Filipp tarixi"da skiflar, Baqtriya, Aleksandr Makedonskiy davrida Baqtriya va So'g'dda qurilgan shahar va binolar, Aleksandr Makedonskiy vafotidan so'ng yuz bergen voqealar, parfiyaliklarning kelib chiqishi, Parfiya podsholigining tashkil topishi, parfiyaliklarning urf-odati, Baqtriya, Parfiya va Midyaning o'zaro munosabatlari oid muhim materiallar mavjud.

Pompey Trogning mazkur asari Yustin (II-III asrlar) tarafidan qisqartirib qayta ishlangan variantda etib kelgan va Ruxl tomonidan 1935 yili chop qilingan. Asarning ruscha tarjimasi (tarjimonlar A.A.Dekonskiy va M.I.Rijskiy) "Vestnik drevney istorii" oynomasining 1954 yil 2-4 va 1955 yil 1 sonlarida bosingan.

Arrian Flaviy (taxminan 95-175 yy) - yirik grek yozuvchisi, tarixchi va geograf olim; asli Kichik Osiyoning Nikomadiya shahridan; "Aleksandr haqida", "Parfiyaliklar haqida", "Hindiston" va 7 jildlik "Aleksandrning yurishlari" nomli kitoblar muallifi. O'rta Osiyo va Eronning qadimiy tarixini o'rganishda Arrianning so'nggi asari ("Aleksandrning yurishlari") muhim ahamiyat kasb etadi. Asarda Aleksandr Makedonskiyning Eron, O'rta Osiyo va boshqa mamlakatlarga qilgan istilochilik yurishi tarixi bat afsil bayon qilingan. Asar panegirizm ruhidagi yozilgan - muallif Aleksandr Makedonskiy va uning faoliyatini ko'klarga ko'tarib ulug'laydi. Shunga qaramay, asar Aleksandr Makedonskiy harbiy yurishlari bo'yicha muhim va asosiy manbalardan hisoblanadi. Mazkur asarning yana bir qimmatli tomoni shundaki, u ko'pgina qo'lyozma manbalar va rasmiy hujjatlar asosida yozilgan.

Arrian Flaviyning "Aleksandr yurishlari" asari nemis (Myuller, Leyptsig, 1886.) hamda rus (Korenkov, Toshkent, 1982 va M.E.Sergeenko, M.-L., 1962) tillarida nashr etilgan.

Kvint Kurtsiy Ruf (milodiy 1 asr) - mashhur Rim tarixchisi; Aleksandr Makedonskiyning Eron, O'rta Osiyo va boshqa mamlakatlarga qilgan harbiy yurishi haqida 10 kitobdan iborat "Buyuk Aleksandr tarixi" nomli asar yozib qoldirgan. Muallif Ptolomey Lag va Aleksandr Makedonskiyning safdoshlari Onesikrit va Kallisfenning xotira va asarlaridan keng foydalangan.

Rufning mazkur asarida O'rta Osiyoning Aleksandr Makedonskiy qo'shinlari tomonidan istilo qilinishi, O'rta Osiyo xalqlarining chet el bosqinchilariga qarshi kurashi, xususan Spitamen boshliq qo'zg'olon keng yoritib berilgan.

"Buyuk Aleksandrning tarixi" 1841 yili Myutzel, 1867 yili T.Nyoldeke va 1885 yili Fogel tomonidan nashr qilingan. Ruscha yangi tarjimasi V.S.Sokolov taxriri ostida chop etildi (M., 1963).

Strabon (er.av. 63- milodiy 28 yy) - qadimgi Gretsyaning atoqli geograf olimlaridan; asli Amosiyalik (Pont podsholarining qarorgohlaridan); mo'tabar va badavlat oiladan chiqqan; mashhur grek faylasufi Arastu (Aristotel)ning (er.av. 384-322 yy) shogirdi; qariyb 80 yil umr ko'rGAN.

Strabonni dunyoga tanitgan narsa uning 17 kitobdan iborat "Geografiya" nomli klassik asari bo'ldi. Asarning 1-2 kitoblari muqaddima deb ataladi va undan geografiya ilmi va uning hokimlar, sarkardalar va savdogarlar faoliyatidagi o'rni haqida gap boradi; Eratosfen, Poseydon va Polibiyning er tuzilishi haqidagi ta'lomi tanqid qilinadi; er yuzini tavsiflash haqida umumiyl tushuncha beriladi. 3-10 kitoblarda Evropa mamlakatlarining tafsifi (shundan 8-10 kitoblar Ellada va unga tutash mamlakatlarga bag'ishlangan) berilgan. Asarda Osiyo mamlakatlariga ham katta o'rIN berilgan - bu 11-16 kitoblarni o'z ichiga oladi. Asarning so'nggi 17 kitobi Afrika mamlakatlariga bag'ishlangan.

Strabon "Geografiya"sida Girkaniya, Parfiya, Baqtriya va Marg'ienaning tabiiy holati, shaharlari, qisman ularga borish yellari; Oxa (Xerirud), Oks va Yaksart daryolari haqida, O'rta Osiyoning qadimiy xalqlari: saklar, massagetlar, daylar, atasiyalar, toxarlar hamda xoramzliklar va ularning kelib chiqishi, bu xalqlarning turish-turmushi, urf-odatlari va e'tiqodi, shuningdek Parfiya va Baqtrianing er. av. III asrning birinchi choragidagi ichki ahvoli va o'zaro munosabatlari haqida muhim ma'lumotlar uchratamiz.

Strabonning mazkur asari 1844 xamda 1848 yillari Kramer va Myuller tarafidan (maxsus xarita va tarxlar bilan) nashr qilingan. Uning nemischa (Grosskurd, Berlin, 1831-1834 yy) hamda ruscha (F.G.Mishchenko, M., 1879; G.A.Stratanovich. M., 1964) tarjimalari ham mavjud.

Muhokama uchun savollar:

Qadimgi yunon va rim manbalarida O`rtal Osiyo tarixining qaysi davrlariga oid ma'lumotlar uchraydi?

Qadimgi yunon va rim geograf olimlarining qaysi asarlarida muhim ma'lumotlar mavjud?

Nima uchun qadimgi yunon va rim manbalari qimmatli manba hisoblanadi?

**NAZORAT TOPShIRIQLARI:**

Gerodot "Tarix" asarida Vatanimiz tarixiga oid bergen ma'lumotlar ko`rsatilgan javobni toping.

- A. To`maris to`g`risida
- V. Baqtriya to`g`risida
- S. Sug`diena to`g`risida
- D. Xorazm to`g`risida
- E. To`g`ri javoblar A,V,S.

Aleksandr Makedonskiy yurishlarini nisbatan to`la eritadigan manbalarni aniqlang.

- A. "Tarix", "Buyuk Aleksandrning tarixi"
- V. "Filipp tarixi", "Aleksandrning yurishlari"
- S. "Geografiya", "Filipp tarixi"
- D. "Aleksandrning yurishlari", "Tarix"
- E. "Tarixiy kutubxona", "Al - Magest"

Manbalarning yaratilishi yiliga binoan ketma-ketlikda joylashtiring.

- A. "Aleksandrning yurishlari"
- V. "Geografiya"
- S. Behistun yozuvlari
- D. "Tarix"
- E. "Xvaday-namak"

Qadimgi Eron manbalari bilan yunon-rim manbalarini qiesiy konspekt qiling.

Mavjud yunon va rim tarixchilari asarlarining O`zbekiston tarixiga oid qismlarini konspekt qiling.

Adabiyotlar:

Sagdullaev A. O`zbekiston tarixi ilk yozma manbalarda.- T.:O`qituvchi, 1996.

Istoriki antichnosti. T.1-2.- M.:Nauka, 1986.

Gerodot. Istorya. - M.,1981.

### **3 mavzu: "Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga oid ilk yozma manbalar"**

**Ajratilgan vaqt: 2 soat**

**Fanni o`qitish texnologiyasi:**

**"Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga oid ilk yozma manbalar"  
mavzusi bo`yicha ma'ruza darsining texnologik xaritasi**

| No<br>Bosqich | Bajariladigan ish mazmuni   | Amalga<br>oshiruvchi<br>shaxs, vaqt |
|---------------|---|-------------------------------------|
|               | <p><b>Tayyorlov bosqichi</b></p> <p><b>Dars maqsadi:</b> "Avesto"ning yaratilishi tarixini va zardushtiylik dinining mohiyatini yoritib berish, talabalarni "Avesto" tarixini o`rganishga qiziqtirish va ularda milliy g`ururni shakllantirish. "Avesto"da jamiyat hayotining aks ettirilishini ochib berish, talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.</p> <p><b>1.2.Identiv maqsadlar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• "Avesto"ning yaratilishi tarixini biladi.</li> </ul> | O`qituvchi                          |

|   |  |  |
|---|--|--|
| 1 | <ul style="list-style-type: none"> <li>• Zardushtiylik dinining mohiyatini tushunadi.</li> <li>• "Avesto" tarixini o'rganishdagi muammolarni aniqlaydi.</li> <li>• "Avesto" borasidagi ilmiy qarashlarni umumlashtiradi.</li> </ul> <p><b><u>1.3.Asosiy tushunchalar:</u></b> Avesto, zardushtiylik, ikkixudolik, ezgu va yovuz kuchlar, Yasna, Yasht, Visparad, Vendidat.</p> <p><b><u>1.4.Dars shakli:</u></b> Ma'ryuba</p> <p><b><u>1.5.Metod va usullar:</u></b> Ogzaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum</p> <p><b><u>1.6.Kerakli jihoz va vositalar:</u></b> O`quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor,</p> |  |
| 2 | <p>Oquv mashg`ulotni tashkil qilish bosqichi:</p> <p>2.1. Mavzu e'lon qilinadi.</p> <p>2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.</p>  | <b>O`qituvchi<br/>30 min.</b>              |
| 3 | <p>Guruhdha ishlash.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Talabalarни bahsga jalg qilish.</li> <li>• Mavzuning muhim bosqichlari bo'yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash</li> </ul> <p>Umumiy xulosalar chiqarish</p>  | <b>O`qituvchi –<br/>talaba<br/>30 min.</b> |
| 4 | <p><b>Mustahkamlash va baholash:</b></p> <p>Berilgan ma'lumotni talabalar tomonidan o'zlashtirilganini ani?lash uchun quyidagi savollar beriladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• «Avesto»dagi ijtimoiy tabaqaqalanish bo'yicha eng oliv hukmdor kim bo`lgan?</li> <li>• «Avesto» jamiyat qanday jamiyat bo`lgan?</li> <li>• «Avesto»da aks ettirilgan oila kimlardan iborat bo`lgan?</li> </ul>  | <b>O`qituvchi –<br/>talaba<br/>10 min.</b> |
| 5 | <p><b>O`uv mashg`ulotini yakunlash.</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Ma'ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo'yicha yakuniy fikr aytildi va mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi</li> </ul> <p><b>Mustaqil ish topshirig`i:</b></p>   | <b>O`qituvchi<br/>10 min.</b>              |

Asosiy savollar:

"Avesto" - zardushtiylikning muqaddas kitobi.

"Avesto"da jamiyat hayotining aks ettirilishi.

"Avesto"ning o'rganilishi.

Mavzuga oid muammolar:

Avesto – Eron va O'rta Osie tarixini o'rganishda asosiy manba hisoblanadi. Buning sabablari nimada?

"Avesto"dagi jamiyat tuzilishi qaysi davrga oid?

O'rta Osiyo hududida zardushtiylikning tarqalishini o'rganishda "Avesto"ning ahamiyati?

1-asosiy savol:

**"Avesto" zardushtiylikning muqaddas kitobi.**

1-asosiy savolning BAYONI:

"Avesto" zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lib, uning ilk sahifalari Zardusht tomonidan 548-529 yillar orasida Amudaryo sohillarida yaratilgan. Keyinchalik Janubiy Eronda otashparastlik dinining ulamo-kohinlari to`ldirilib, takomillashtirilgan. Bu kitob, Beruniyning ma'lumotiga ko'ra, 12 ming xo'kiz terisiga bitilgan.

Makedoniyalik Aleksandr Sharqni eabt etganda uning nodir nusxasini Elladaga eltilib, o`ziga kerakli joylarini tarjima qildirgan, qolganini esa yoqtirgan. Eramizning birinchi asrida ashkoniyilar hukmdori Valages Ariakid va uchinchi asrda Xusrav Parviz, Shopuri Xurmuzd

davrida "Avesto" bir necha bor ko`chirilgan, qayta tiklangan. Keyingi vaqtlargacha qadar "Avesto"ning vatani xususida olimlar o`rtasida jiddiy bahslarda bo`lib kelardi.

80- yillarning o`rtalariga kelib barcha tadqiqotchilar "Videvdad"da uchraydigan Marv, Baqtriya, Hirot, So`g`d, Niso, Xorazm, Siyston, Amudaryo, Sirdaryo kabi jo`g`rofiy atamalarga asoslanib, "Avesto"ning vatani O`rta Osiyo va unga chegaradosh yurtlaridir, degan qat'iy xulosaga keladilar. Haqiqatdan ham "Avesto" dagi jo`g`rofiyasiga doir ma'lumotlar bu xulosani to`la tasdiqlaydilar. Zeroiki, unda ikki daryo hududidagi joylar, tog`lar, yaylovlar haqidagi mulohazalar ko`p.

Arablar VIII asrda Eronni zabit etganda zardushtiylikka sadoqatini saqlagan bir necha ming mahalliy aholi Janubiy Hindistonga qochib o`tadilar. Ular qadimgi madaniyat, adabiyot va e'tiqodga doir yodgorliklarni ham o`zlar bilan olib ketadilar. Jumladan, "Avesto"ning to`rtadan bir qismining eng nodir nusxasini ham saqlaydilar.

1723 yili inglez olimi Jorj Bouje "Avesto"ning bir nusxasini Hindistondan olib, Oksford kollejining kutubxonasiga topshiradi. Shundan so`ng 1755-1761 yillarda Hindistonda otashparstlar orasida yurib, ularning qadimgi tilini o`rgangan frantsuz olimi Anketil Dyupperon 1771 yili "Avesto" ning bir qismini so`zboshi, asl matn va tarjimasi bilan nashr etadi. Bu ish tufayli G`arbiy Evropada "Avesto"ga qiziqish va uni o`rganish avj oladi.

Hozir ana shu dastxatlardan biri Bombaydagisi Koma sharqshunoslik ilmgohida saqlanadi. Bu ilmgoh zardushtiylarning madaniy markazi bo`lib, shu jamoa mablag`i hisobiga ishlaydi. Kitob 1615 yilda parfiyona yozuvida ko`chirilgan bo`lib, 672 betdan iborat.

Bizga qadar "Avesto"ning quyidagi qismlari etib kelgan:

Yasna- ibodat paytida ijro etiladigan matnlar. 72 bob ibodat bo`lgan bu qismning 17 bobi Zardo`sht qo`shiqlari - Got-madhiyalardan iborat.

Yasht-otashparastlarning Olloohni tavsif etadigan maxsus oxanglar asosiga qurilgan madhiyalari.

Vendidad- devlarga-zulmat timsoliga qarshi qonunlar majmuasi. Mazkur bo`limda diniy qonunlar matni, qadimgi dostonlar, miflarning mazmuni parchalari saqlangan, mifologik qahramonlarning nomlari zikr etilgan.

Visparad- butun borliq Allohning, Ibodatlar to`plami, ibodat yo`slnari.

"Yasht" hamda "Vendidad"da Zardushtning shaxsiyati, ruhiy olami, ijtimoiy kelib chiqishiga oid dalillar, zardushtiylikning tarqalishi yo`lidagi ziddiyatlar haqida ma'lumotlar mavjud.

"Avesto" zardushtiylikning muqaddas kitobi bo`lish bilan birga, ilm-fan, hayotning barcha sohalari bo`yicha mukammal bilim beradigan ulkan, eng ko`hna manba hisoblanadi. Grek olimi Pliniy "Avesto" ni 2 million baytdan iborat (er.av III asri) degan edi. Biz undan Markaziy Osiyo, Eron va Ozarbayjon xalqlarining eng qadimgi marosimlari: urf-odat, e'tiqod, ibodat paytida qiroat qiladigan oyatlari, diniy marosimlarda ijro etiladigan qo`shiqlari, minglab xalq oxanglari haqida ma'lumot olamiz. Bundan tashqari, kitobda qadimgi xalq og`zaki ijodiga taaluqli yagona syujetlar-dostonlar, parchalar mavjud; Jamshid, Kayumars, Mitra, Anaxita, Ardivissura, Zahhok, Faridun, Bahrom singari ko`plab mifologik timsollar, rivoyatlar bilan bog`liq atamalar tilga olinadi. Chorvachilik, dehqonchilik, savdo-sotiq, hunarmandchilik bilan bog`liq juda ko`p lavhalar bayon etiladi. Masalan, Zardusht qurg`oqchilik yuz berishi bilan dehqonchilikka zavom' kelib, yaylovlar kamayib, chorva mollari qirilib ketayotganidan Xumuzdga iltijo bilan murojaat qiladi.

Zardusht ta`limotida olov, er, tuproq, suv va havo muqaddas hisoblanadi. Ularni iflos qilish katta gunoh deb qaralagan.

"Avesto"da olm qarama-qarshiliklardan iborat. Yorug`lik va zulmat, hayot va o`lim, ezgulik va yovuzlik, adolatli qonunlar va qonunsizliklar o`rtasida kurash unda o`z ifodasini topgan. Zardo`shtning diniy ta`limotida ezgulikni qaror toptirish ruhi (Axuramazda) bilan yovuzlik ruhi (Axrimon) o`rtasidagi kurash ta`riflanadi. Axuramazda ezgulikni vujudga keltirishda odamlarni imonli bo`lishga undayveradi, Axrimon esa unga qarshi odamlarni yomon ishga boshlaydi.

Zardushtiylik dinida imon uch tayanchga asoslanadi: 1) fikrlar sofligi; 2) so`zning sobitligi; 3) amallarning insoniyligi.

Umuman olganda, "Avesto" dunyodagi eng qadimgi din bo`lgan zardushtiylik ta`limotini asoslab bergen kitobdir. Lekin bu kitob faqat diniy emas, balki keng ma'noda tarixiy, falsafiy, adabiy manba sifatida ham g`oyat qimmatli bo`lib, ajdodlarimizning uzoq o`tmishi tarixi va tafakkur taraqqiyotining qomusiy yig`indisidir.

Muhokama uchun savollar:

## 1. NAZORAT TOPShIRIQLARI:

- "Avesto" yaratilgan hududni toping
- a. Balh
- v. Xorazm
- s. Eron
- d. Ozarbayjon
- e. Hindiston

"Avesto" qismlarini aniqlang.

- A. Yasna ,Osor-ul boqiya, Vendidod, Yashtov
- V. Yashtov, Denkard, Vedidat, Vispered
- S. Yasna, Denkadr, Zend Avesto, Vedidat
- D. Zend Avesto, Osor-ul Boqiya, Yasna, Yashtov
- E. Yasna, Yashtov, Vedidat, Vispered

3."Avesto"da qayd etilgan Markaziy Osiyo davlatlari bu...

- A. Midiya, Baqtriya, Xorazm
- V. Xorazm, Baqtriya, Marg`iena
- S. Baqtriya, Marg`iena, Midiya
- D. Marg`iena, Midiya, Niso
- E. Midiya, So`g`d, Niso

4."Avesto" yaratilishi tarixiga oid ilmiy qarashlarni qiyosiy tavsiflash

5.Zardushtiylik dini mohiyatini islom dini mohiyati bilan solishtirib, umumiy va farqli tomonlarini konspekt qilish

Adabiyotlar:

- Asqarov A. O`zbekiston tarixi. T.:O`qituvchi, 1994
- Sagdullaev A. O`zbekiston tarixi ilk yozma manbalarda - T.:O`qituvchi, 1996
- Mahmudov T. "Avesto" haqida.- Guliston jurnali, 1999, №4-5.
- "Avesto" - Guliston, 1999, № 1-5
- Ishoqov M., Sulaymonov R. Zaratushtraning vatani va yashagan davriga oid mulohazalar.- O`zbekiston tarixi. 1999.№1.

2-asosiy savol:

"Avesto"da jamiyat hayotining aks ettirilishi.

## IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:

"Avesto"da qadimgi davrda mamlakatimiz hududidagi iqtisodiy-ijtimoiy hayotni yoritilishini bilib oladi.

Qadimgi davrda jamiyatdagi ijtimoiy tabaqlanishni asosli sharhlaydi.

"Avesto"da jamiyat hayotining aks ettirilishini o`ziga xos tomonlarini aniqlaydi.

"Avesto"ni qadimgi davr ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotini o`rganishda muhim manba ekanligini tahlil qiladi.

"Avesto"ni qadimgi davrdagi davlatchilik tarixini va ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o`rganishdagi ahamiyatiga baho beradi.

2-asosiy savolning BAYONI:

"Avesto" nafaqat zardushtiylikning muqaddas kitobi, u shu bilan birgalikda mamlakatimizning eng qadimgi davrdagi tarixini o`rganishda ham muhim manbadir.

Zardusht yashagan zamonda O`rta Osiyo aholisining aksariyat ko`pchiligi ko`chmanchilikdan o`troq hayotga, dehqonchilik va hunarmandchilikka o`ta boshladи. Ko`chmanchi chorvachilikka e'tibor ko`chaydi, qadimgi shaharlar va dehqonchilik viloyatlari (So`g`dien, Marg`iena, Baqtriya, Parfiya, Xorazm) ning shakllanish jarayoni kechayotgan davr edi. Turon zamin xalqlari hayotida yuz berayotgan bu ijtimoiy va iqtisodiy o`zgarishlar uning taraqqiyot yo`liga g`ov bo`layotgan mafkurani yangilashni, yangi jamiyat talablariga javob bera oladigan diniy islohotni talab etar edi. "Avesto"da ana shu davr ijtimoiy va iqtisodiy hayoti hamda Eron va Turon xalqlarining zamon talabi asosida qurilgan ma'naviyati o`z aksini topgan.

"Avesto"da asosan patriarchal urug` jamoasi haqida fikr yuritiladi. Shu bilan birga so`nggi qismi Videvdatda iqtisodiy tengsizlik, tabaqalanish haqida ham gap boradi. Masalan, "Avesto"da "azata" atamasi bor. U erkin, mo`tabar odam ma'nosini beradi. "Asna" atamasi esa jamoa ulug`lari, erkin jamoa a'zosi ma'nosida qo`llaniladi. "Avesto"da boylik hayvon bilan o`lchanadi. Xonodonning asosiy boyligi hayvon hisoblangan. Boylik "gayta" atamasi bilan berilgan. Boylikka shaxsiy uy, hovli-joy, qal'a-qo`rg`onlar ham kirgan. Shuning uchun biron shaxsnig boyligi haqida gap ketganda, birinchi navbatda hayvon, so`ngra mulk, nihoyat boshqa boyliklar eslatib o`tiladi.

"Avesto"da jamiyat ijtimoiy tarkibi haqida gap ketganda, birinchi navbatda "nmana" atamasi uchraydi. "Nmana" oila birligi, xonodon, uy ma'nosida berilgan. U jamiyatning birinchi kurtagi, asosi. Oila boshlig`i "nmanapati" shaklida berilgan. Oila tarkibini oila boshlig`i, uning xotini (nmanapatni), bolalari, nabiralari (o`g'il farzandlar) va evaralari tashkil etgan."Avesto"ning qadimgi qismi Gotlarda boshqaurug` va qabilalardan keltirilgan tub ma'nodagi qullar haqida so`z yuritilmaydi. Ammo uning Videvdat kitobida qul atamasi uchraydi, u "vaysa" shaklida, urug` quli sifatida eslatiladi.

"Avesto"da erkak kishi "vira" shaklida berilgan. Vira bir vaqtning o`zida askar ma'nosini ham anglatadi. Yashtlarda payg`ambar Zaratushra xudo Axuramazdaga iltijo qilib, undan chorvador uchun hayvon va vira - qul, ya'ni xonodon xizmatkori so`raydi. Demak, vira- katta oila xizmatkori, vira nmana. "Avesto"da erkin jamoa a'zolaridan kambag`allashganlari "pariaytar" - cho`pon atamasi bilan yuritilgan."Pariaytar" Kimgadir qaram, tobe odam bo`lib, lekin u hali qul emas.

"Avesto"da "vaysa", "vira", "pariaytar" katta oilaning, patriarchal oilaning kichik a'zolari bo`lib, oilaning boshqa erkin a'zolariga nisbatan haq-huquqlari chegaralangan a'zolari sifatida berilgan.

"Avesto"da jamiyat ijtimoiy tarkibida "vis" atamasi ham keltirilgan. Vis - urug`, qishloq. Visga kamida 5ta bir-biriga qarindosh nmana kirgan. Ammo visga qizning farzandlari kirmagan. Bu esa visning mutlaqo patriarchal oila ekanligidan dalolat beradi.

Urug` jamoasi "Avesto"da jamiyat iqtisodiy asosini tashkil etgan. U barcha muhim siyosi, ijtimoiy va huquqiy vazifalarni bajargan. Yaylov, ekinzorlar, kanallar vis mulki bo`lgan. "Avesto"ning qadimgi qismida o`ch olish, nikoh munosabatlari, garovga turish tartib-qoidalari jamoa tasarrufida edi. Jamoani boshqarishda harbiy demokratiya printsiplariga amal qilingan. Vis tepasida vispati turgan. U nmanapatilar ichidan saylab olingan. U urug` boshlig`i, sudya, diniy ustoz, rahnamo.

"Avesto"da "vrzana" atamasi ham uchraydi. U bir qishloqda joylashgan bir necha urug`larning hududiy birlashgan uyushmasi. Vrzana qatorida aryaman atamasi ham bor. U urug`doshlar ittifoqi, qabila degan ma'noni anglatadi. Qabila atamasi "Avesto"da Zantu deb berilgan. Qabila boshlig`i Zantupatidir.

"Avesto" davri jamiyat tarkibida visdan yuqori turgan hududiy birlik "daxyu" deb atalgan. Daxyu - bu viloyat, yirik okrug, yirik hududiy birlik. Bu hududda bitta emas, bir necha qabilalar yashaydi. Ma'lum bir etnik uyushmaning ma'muriy hududi bo`lgan. Daxyu boshlig`i "daxyupati" deb yuritilgan. "Avesto"da shu kabi atamalar ko`p uchraydi. Ana shunday atamalardan yana biri "sastar" bo`lib, hukmdor, viloyat boshlig`i, hokim ma'nosini anglatadi. Sastar odatda daxyulardan birini boshqaradi yoki daxyu poytaxtini hokimi bo`lishi mumkin. Uning vazifasiga harbiy ko`mondonlik, o`lkani boshqarish kiradi. Bir necha daxyular tepasida daxyu sasti- hukmdor turgan. Daxyu sasti - bu daxyuning davlat darajasiga o`sib chiqqan bo`g`ini. Masalan, Yashtning o`ninch bashoratida Hirot va Marvdan to Orol dengizigacha, undan Sirdaryogacha bo`lgan erlarning daxyu sastiga qaraganligi eslatilgan.

Qadimgi manbalarda O`rtta Osiyodagi eng qadimgi davlatlar sifatida "Qadimgi Baqtriya" podsholigi va Katta Xorazm podsholigi haqida xabarlar bor. Ana shu qadimgi podsholiklar tepasida daxyu sasti turgan bo`lishi mumkin. Ammo daxyu sasti qo`l ostidagi podsholikka hali mutlaq hokim bo`Imay, uning huquqlari cheklangan. U daxyu hokimlaridan tashkil topgan kengashni boshqaradi. Xullas, daxyu sasti "Avesto" davri jamiyatida bir necha viloyatlarni nominal birlashtiruvchi ilk uyushmaning boshlig`i, ya'ni oliy kengash raisi. Bu uyushmaning diniy rahbari, oliy sudyasi Zaratushtroema deb ataladi. U payg`ambar. Zaratushra darajasidagi Oliy diniy boshliq. Umuman olganda, "Avesto" miloddan avvalgi IX-VII asrlar jamiyatining ijtimoiy tarkibi haqida ana shunday tasavvurni beradi.

Agar biz "Avesto"da jamiyat ijtimoiy tarkibi hakida keltirilgan ma'lumotlarga suyanib fikr yuritadigan bo`lsak, er. av. I ming yillikning birinchi choragida O`rtta Osiyo sharoitida ibridoijamoa hayotida yangi, ilk sinfiy jamiyat tarkib topayotgan jarayonni kuzatamiz. Bu, bir tomonidan, ibridoijamoa xo`jaligida hali jamiyatni demokratik printsiplar asosida boshqarish hukmon ekanligini ko`rsatsa, ikkinchi tomonidan ana shu erkin jamoa ildiziga zil ketganligini ko`rsatadi. Jamiyatni

boshqarishda qishloq, tuman, viloyat va bir necha viloyatlarni siyosiy jihatdan birlashtiruvchi ilk davlatchilik kurtaklari haqida habar topamiz.

#### NAZORAT TOPShIRIQLARI:

"Avesto"da oila nima deb atalganini toping.

- A. daxyu
- V. vira
- S. vaysa
- D. nmana
- E. vis

"Avesto"da ko`rsatilgan tabaqalar berilgan qatorini aniqlang.

- A. zantu, pariaytar, nmanapati, vis.
- V. vira, vaysa, pariaytar, sastar.
- S. sastar, nmana, vispati, vaysa.
- D. vis, vaysa, nmanapati, zantu.
- E. vrzana, daxyu, azata, vira.

1) Iqtisodiy hayot

2) ijtimoiy-siyosiy hayot

- |            |            |
|------------|------------|
| A. Gava    | F. gatu    |
| V. Vis     | G. mouru   |
| C. barzish | H. chilvot |
| D. gayta   | I. vrzana  |
| E. sastar  |            |

"Avesto"da berilgan jamiyat xayotini yorituvchi atamalarni mazmuni bilan kospekt qiling.

"Avesto"da eng qadimgi davrdagi mamlakatimiz siyosiy tarixini yoritilishini tahlil qilish.

Adabiyotlar:

Mahmudov T. "Avesto" haqida.g`g` Guliston, 1999, № 4-5.

Asqarov A. O`zbekiston tarixi.- T.:O`qituvchi, 1994.

Avesto.g`g` Guliston, 1999, № 1-5.

Ishoqov M., Sulaymonov R. Zaratushtraning vatani va yashagan davriga oid mulohazalar.g`g`Uzbekiston tarixi. 1999, № 1.

3-asosiy savol:

**"Avesto"ning o`rganilishi.**

Maqsad:

"Avesto"ning tarixchilar tomonidan tadqiq etilishini yoritib berish, talabalarni "Avesto" tarixini o`rganishga qiziqtirish, ularga milliy istiqlol mafkurasini singdirish.

IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:

"Avesto" tarixshunosligini bilib oladi.

"Avesto"ning tarixchilar tomonidan o`rganilishini sharhlaydi.

"Avesto"ni o`rganishdagi muammolarni aniqlaydi.

"Avesto"ni tadqiq etishdagi muammolarni o`ziga xos tomonlarini ko`rsatadi.

"Avesto" tarixshunusligi yutuq va muammolarini umumlashtiradi.

"Avesto"ni o`rganishning ahamiyatiga baho beradi.

3-asosiy savol BAYONI:

Zardushtiylik - dunyodagi eng qadimgi dinlardan biri bo`lib, u insoniyat madaniy hayotiga chuqur iz qoldirgan. Bundan 2700 yil muqaddam Markaziy Osiyoda vujudga kelgan bu din Markaziy Osiyo, Eron va boshqa Sharq mamlakatlarda keng tarqalgan edi.

Evropada zardushtiylik ta`limoti antik davrdayoq katta qiziqish uyg`otgan, Zardusht va uning ta`limoti haqida ko`pchilik yunon va rimlik yozuvchilar, faylasuflar va tarixchilar ilmiy asarlar yozgan. Sosoniylar sulolasi davrida, ya`ni III-VII asrlarda zardo`shtiylikning muqaddas kitobi - "Avesto" matnlarit o`rta forsiy tilga ko`chirilib, kitob holiga keltirila boshlagan vaqtlardayoq mazkur din tarixshunusligi tug`ila boshlagan edi.

Abu Rayhon Beruniy o`zining "Osor-ul boqiya" asarida birinchi marta zardushtiylik dini va uning muqaddas kitobi "Avesto" to`g`risida mufassal fikr yuritadi. Beruniy "Avesto" 12000 xo`kiz terisiga zarhal harflar bilan ko`chirilganligini, uning uch nusxada bo`lganligini aytadi. Abu Rayhon

Beruniy yozadi:"Podshoh Doro ibn Doro xazinasida (Abistonning) o`n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxa bor edi. Iskandar otashxonalarini vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarini o`ldirgan vaqtida uni kuydirib yubordi. Shuning uchun o`sha vaqtdan beri Abistonning beshdan uchi yo`qolib ketdi. Abisto o`ttiz "nask" edi, majusiylar qo`lida o`n ikki nask chamasi qoldi. Biz Qur'on bo`laklarini haftiyak deganimizdek, nask Abisto bo`laklaridan har bir bo`lakning nomidir".

Tarixchi Mas'udiyning "Muruj az-zihob"("Oltin vodiy") kitobida qayd etilishicha, Aleksandr Makedonskiy Istahr shahrini bosib olib, olimlariga "Avesto"dagi tibbiyat, falsafa va ilmi nujumga doir o`rirlarni tarjima qilib, qolgan qismini yoqib yuborishni buyurgan. Mas'udiylar ma'lumotiga ko`ra, "Avesto" matni 12 ming oltin taxtaga yozilgan.

Tarixchi Balxiyning "Forsnoma" kitobida "Avesto" 12 ming oshlangan mol terisiga bitilgan hikmatlar kitobi ekanligi qayd etiladi. Abu Ali Muhammad bin Muhammad Bal'amiyning "Tarixi Bal'amiy" kitobida ham "Avesto" shoh Gushtasp farmoni bilan 12 ming mol terisiga podshoh mirzolari tomonidan tillo suvida yozilgani haqida rivoyatlar bor.

VII-VIII asrlardagi arab bosqinidan so`ng islom dini keng yoyiladi va boshqa dinlar qatori zardushtiylik ham taqiqlanadi. Natijada zardushtiylik diniga oid barcha yodgorliklar, jumladan "Avesto" ham arablar tomonidan yo`qotildi. Sosoniylar davrida amalda bo`lgan "Avesto" to`plamining taxminan to`rtadan uch qismi yo`qolib ketdi.

Mana shu hol zardushtiylik ta'lomi tarixini va uning tarixshunosligini o`rganish uchun katta qiyinchilik tug`diradi. Shu ma'noda zardushtiylik mavzuining o`zi qator tarixiy-madaniy muammolarni o`rganish uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Yirik eronshunos olim, London universitetining professori Meri Boys shu mavzuga doir quyidagi muammolarni sanab o`tadi:

Qadimgi diniy ta'lilmotlarni tekshiruv jarayoni Qadimgi Sharq va antik dunyo mamlakatlari - kichikroq qabilalar va shahar davlatlardan yirik markazlashgan podshohliklar, so`ng imepriyalarga qadar kechgan siyosiy taraqqiyotning umumiy yo`nalishlari o`zaro bog`liqdir. Ilk ulug` davlat "yirik davlat tuzilmasidan biri Ahmoniyalar davlati (er.av. VI-IV asrlar) edi. Bu davlat Yaqin va O`rta Sharq mamlakatlarini, butun O`rta Osiyonni va ba`zi yunon shahar-davlatlarini o`z hokimiyati ostida birlashtirgan edi.

Keyinroq markazi Eronda bo`lgan yirik Sharq davlatlari, unga qo`shni O`rta Osiyodagi Parfiya, so`ng uning o`rniga kelgan sosoniylar davlati va Qadimgi Xorazm davlati, Frta Osiyodagi Qang`, Dovon davlatlari mavjud bo`lib, har bir o`ziga xos iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotga ega edi.

Eron, Afg'oniston va O`rta Osiyo xalqlari tarixini o`rganishda "Avesto" muhim manbadir. Chunki "Avesto" faqat zardo`shtiylik dinining urf-odatlari, e'tiqodi jamlangan muqaddas kitob bo`libgina qolmay, unda O`rta Osiyo va Eronning qadimgi tarixi, madaniyati va siyosiy tuzumi ham aks ettirilgan. "Avesto" shuningdek O`rta Osiyodagi eng qadimgi qabilalar va elatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini ham o`rganishda qo`l keladi.

"Avesto" ni tadqiq qilish va uni o`rganishni Abu Rayhon Beruniy boshlab bergan bo`lsa, Evropada 1723 yil Jorj Bouje va ayniqsa frantsuz olimi Anketil Dyuperonning xizmati katta bo`ldi. Anketil Dyuperon 1755-1761 yillarda Hindistonda zardo`shtiylar tilini o`rgandi, ular bilan birga yashadi. So`ng 1771 yili u "Avesto"ning bir qismini so`z boshi, asl matni va tarjimasini nashr etadi. Bu ish natijasida G`arbiy Evropada "Avesto"ni o`rganishga qiziqish avj oldi. Hozirgi kunda "Avesto" olimlarning keng ommasi tomonidan har tomonlama tadqiq etildi. Bu borada amerikalik R.Fray,frantsuz sharqshunosi E.Benvenist, belgiyalik professor J.Dyujen-Gyuyimen, shved eronshunoslari X.Yu.Nyuberg va G.Videngran, daniyalik K.Barr, nemis olimi V.Xints asarlarini, tarixchi olimlar I.A.Aliev, V.I.Abaev, M.A.Dandamaev, I.M.Dyakonov, V.A.Livshits, B.Gafurov va boshqalar asarlarini ko`rsatish mumkin.

London universiteti professori M.Boys Eron tarixi va madaniyatiga oid asarlari bilan zardushtiylikning o`cta asrlardagi va yangi zamondagi tarixini o`rganishga katta hissa qo`shdi.M. Boys 1963-1964 yillarda Yazd vodiysi shimolida olib borilgan dala qazilma ishlari vaqtida hozirgi zardo`shtylarning e'tiqodlari va rasm-rusumlarini o`rgandi.

Yuqoridagi ishlari natijasida Meri Boys 4 jilddan iborat "Zardushtiylik tarixi" nomli yirik ilmiy asarni tayyorladi va qisman nashr etdi. Bu asarning qimmatli ahamiyatini e'tirof etgan holda, unda zardushtiylikning keyingi davriga oid ma'lumotlar avvalgi davrlarga ko`chirilganligini aytib o`tish kerak. Shuningdek, M.Boysning zardushtiylikning qachon vujudga kelganligi haqidagi fikrlari munozaralidir. U miloddan oldingi V asr oxirida zardushtiylik yuzaga kelgan deydi va uning payg`ambari Gerodotning zamondoshi midiyalik Ksanor Zardo`sht degan fikrni ilgari suradi.

Keyingi tarixshunoslarning yozishicha, Ktesiy o`z asarida Zardushtni assuriyaliklارлардан engilgan Baqtriya podshosi sifatida tilga oladi. Shuni ta'kidlash lozimki, Ktesiy asari ancha ilgari qayta ishlangan bo`lib, keyinroq o`tgan qadimiylar olimlar ana shu qayta ishlangan nusxadan foydalanganlar. Ammo Ksenofotning "Kiropediya" va "Anabasis" asarlarida Zardusht haqida ma'lumot uchramaydi. Holbuki, Ksenofont Ahmoniyalar davlatining ahvoli, xalq urf-odatlari va marosimlari bilan yaxshi tanish edi. Gerodot, Ktesiy va Ksenofont asarlaridan keltirilgan ma'lumotlarni umumlashtirib, aytish mumkinki, Ahmoniyalar davrida hali Zardushtni hukmron din asoschisi deb hisoblashmagan, Zardushtiylik dini tadqiqotchilar E.Benvenist, A.K.Kristensen, X.Nyuberg, V.Struve va boshqalar ham shu fikrdalar.

Zardushtiylik dini tarixiga oid ko`plab maqolalar va asarlar yaratilgan bo`lsada, ammo mamlakatimiz xalqlari tarixida zardushtiylikning o`rni va ahamiyati haqida jiddiy umumlashma asarlar hanuz yuzaga kelmaydi. Ikkinchidan, bugungi kungacha "Avesto" forsiy tilidagi manba sifatida o`rganilar edi. Endilikda tarixchi olimlar "Avesto" turkiy tilidagi manba bo`lganligi haqidagi fikrni o`rtaga tashlashdi. Hozir ana shu fikrni isbotlash uchun tadqiqotlar olib borilmoqda.

Muhokama uchun savollar:

M.Boys «Avesto»ni o`rganish bo`yicha qanday muammolarni ilgari surgan?

Markaziy Osiyo allomalarining qaysi birlari «Avesto» haqida ma'lumot qoldirishgan?

Mustaqillik yillarda O`zbekistonda «Avesto»ning o`rganilishi haqida nima deya olasiz?

#### Nazorat TOPShIRIQLARI:

"Avesto" to`g`risida ma'lumot bergen olimlarni toping.

A. Beruniy, Bal'amiy, Balxiy

V. Balxiy, Mas'udiy, Tabariy

S. Balazuriy, Beruniy, Ibn Sino

D. Madoniy, Beruniy, Balxiy

E. Istahriy, Mas'udiy, Bal'amiy

P.Tedesko fikriga ko`ra "Avesto"

A. Midiyada yaratilgan

V. Xorazmda yaratilgan

S. Baqtriyada yaratilgan

D. Parfiyada yaratilgan

E. Eronda yaratilgan

1976 yilgi statistik ma'lumotga ko`ra dunyoda qancha odamlar zardushtiylik diniga e'tiqod qilganligini aniqlang.

A. 82 ming

V. 90 ming

S. 103 ming

D. 115 ming

E. 129 ming

Evropada "Avesto"ni o`rganishni boshlab bergen olimlarni toping.

"Avesto" to`g`risidagi tarixchi olimlarning qarashlarini tahlil va konspekt qiling.

Adabiyotlar:

Saidqulov T. O`rta Osiyo xalqlari tarixi tarixshunosligi.- T.,1993.

Mahmudov T. "Avesto" haqida.- "Guliston" jurnali, 1999, № 4-5.

Gafurov B. Tadjiki. T.1. -Dushanbe:Irfon, 1989.

Mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar:

1.

2.

3.

**4 mavzu: O`zbekiston xalqlari tarixini ilk feodalizm davriga oid qadimgi turk, xitoy va so`g`d tilidagi manbalar.**

**2 soat**

**Fanni o`qitish texnologiyasi:**

**“O`zbekiston xalqlari tarixini ilk feodalizm davriga oid qadimgi turk, xitoy va so`g`d tilidagi manbalar”**

**mavzusi bo`yicha ma'ruza darsining texnologik xaritasi**

| <b>No<br/>Bosqich</b> | <b>Bajariladigan ish mazmuni</b>   | <b>Amalga<br/>oshiruvchi<br/>shaxs, vaqt</b> |
|-----------------------|--|--|
| 1                     | <p><b>Tayyorlov bosqichi</b></p> <p><b>1.1 Dars maqsadi:</b> O`zbekiston xalqlari tarixini o`rganishda turk tilidagi manbalarning ahamiyatini yoritib berish, talabalarda turk tilidagi manbalarni o`rganishga qiziqish uyg`otish va ularda madaniy yodgorliklarni avaylab-asrash hissini tarbiyalash.</p> <p><b>1.2.Identiv maqsadlar:</b></p> <p>Turk tilidagi manbalarni aytib beradi.</p> <p>Turk tilidagi manbalarni ahamiyatini sharhlaydi.</p> <p>Turk tilidagi manbalarni guruhlaydi.</p> <p>Turk tilidagi manbalarni O`zbekiston tarixini o`rganishdagi o`rni va rolini aniqlaydi.</p> <p>Turk tilidagi manbalarni Vatanimiz tarixini o`rganishdagi ahamiyatiga baho beradi.</p> <p><b>1.3.Asosiy tushunchalar:</b> Enisey bitiklari, To`nyuqq bitigi, Kultegin bitigi, Bilga hoqon bitigi, Ongin bitigi, "Tarixiy esdaliklar", "Xan sulolasi tarixi", "Shimoliy sulolalar tarixi", "Tan sulolasining eski tarixi", Mug` hujjatlari, qoyatosh bitiklari.</p> <p><b>1.4.Dars shakli:</b> Ma`ryuzा</p> <p><b>1.5.Metod va usullar:</b> Ogzaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum</p> <p><b>1.6.Kerakli jihoz va vositalar:</b> O`quv-uslubiy maimua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor,</p> | O`qituvchi                                   |
| 2                     | <p>Oquv mashg`ulotni tashkil qilish bosqichi:</p> <p>2.1. Mavzu e`lon qilinadi.</p> <p>2.2. Ma`ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.</p>  | O`qituvchi<br>30 min.                        |
| 3                     | <p>Guruhda ishlash.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Talabalarda tahlil qilish qobiliyatini kuchaytirish;</li> <li>• Mavzuning muhim bosqichlari bo`yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash</li> <li>• Umumiylar xulosalar chiqarish</li> </ul>   | O`qituvchi –<br>talaba<br>30 min.            |
| 4                     | <p><b>Mustahkamlash va baholash:</b></p> <p>Berilgan ma'lumotni talabalar tomonidan o`zlashtirilganini ani?lash uchun quyidagi savollar beriladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Dovon davlati to`g`risida keng ma'lumot beradigan xitoy tilidagi manbani toping.</li> <li>• Turk manbalari guruhlari to`g`ri ko`rsatilgan qatorni toping.</li> </ul>  | O`qituvchi –<br>talaba<br>10 min.            |
| 5                     | <p><b>O`uv mashg`ulotini yakunlash.</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Ma`ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo`yicha yakuniy fikr aytildi va mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi</li> </ul> <p><b>Mustaqil ish topshirig`i:</b></p>   | O`qituvchi<br>10 min.                        |

**Asosiy savollar:**

- 1.1 Turk tilidagi manbalar.
- 1.2 Xitoy tilidagi manbalar.
- 1.3 So`g`d tilidagi manbalar.

1-asosiy savol:  
Turk tilidagi manbalar.

1-asosiy savolning BAYONI:

Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o`rganishda qadimgi turk tilidagi yozma manbalarning ahamiyati beqiyosdir. Turk tilidagi manbalar turkiy xalqlarning tarixini, Turk xoqonligi tarixini o`rganishda alohida o`rin tutadi.

Turk manbalari orasida XVII asrda Sibir hamda Mug`ulistonda, Oltoy hamda O`rtta Osiyoda topilgan runik bitiklar aloxida o`rin tutadi. Bu yozuvlarning hozir etti guruhi Lena-Baykalbo`yi bitiklari, Enisey, Mug`uliston, Oltoy, Sharqiy Turkiston, Sharqiy Evropa, O`rtta Osiyo bitiklari ma'lum. Bu bitiklar O`rtta Osiyo, shuningdek O`zbekiston xalqlarining arablar istilosiga ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayotini o`rganishga erdam beradi.

Enisey bitiklari mashhur rus xaritograf olimi S.U.Remezov (1642- taxm 1720yy.) tarafidan XVII asr oxirida Enisey havzasida (Xakas avtonom viloyati hududida) topilgan. Undan keyin bu haqda harbiy asir F.Stralenberg (Tabbert) ma'lumot beradi. U Enisey havzasidagi qabrlardan toshga o`yib yozilgan notanish xatlarni topgan. Bu yozuv haqidagi ma'lumotlar birinchi marta o'tgan asrning birinchi choragida "Sibirskiy vestnik" oynomasida e'lon qilindi. 1889 yili finn olimlari Eniseydan topilgan yozma yodgorliklar xaritasini tuzdilar. Mug`ulistonдан topilgan bitiklar orasida Tunyuquq, Kultegin, Bilga xoqon va Ongin bitiklari muhim o`rin tutadilar.

To`nyuquq bitigi. Ulan-Batordan 66 km sharqi-janubga, Bain Sokto manzilida joylashgan va ikkinchi Turk xoqonligining asoschisi Ilterish xoqonning (681-691 yy) maslahatchisi sarkarda To`nyuquqqa bag`ishlangan. 712-716 yillar orasida yozilgan. 1897 yili rus olimi D.A.Klements (1848-1934) va uning xotini Elizaveta Klementslar tarafidan ochilgan. V.V.Radlov (1899 y), V.Tomsen (1922 y), X. Sheder (1924 y), D.Ross (1930 y) hamda G.Aydarov (1971 y) tarafidan yaxshi o`rganilgan va matni nemischa, daniyacha, inglizcha va ruscha tarjimalari bilan chop etilgan. Obida G.A.Abdurahmonov hamda A.Rustamov tomonidan o`zbek tiliga qisqacha tarjima qilingan (1982 y).

Kultegin bitigi. Bilga xoqonning (716-734 yy) inisi Kultegin (731 yili vafot etgan) sharafiga yozilgan. Mo`g`ulistonning Kosho Saydan vodiysida Ko`kshin Urxon daryosi bo`yida rus arxeolog va ethnograf olimi N.M.Yadrinsev (1842-1894 yy) tomonidan 1889 yili topilgan.

Bitik V.V.Radlov (1891 y), A.Xeykel (1892 y), V.Tomsen (1896 y), T.M.Melioranskiy (1897 y), X.Sheder (1924 y), Yu S.E.Malov (1951 y), G.Aydarov (1971 y) lar tomonidan nemischa, frantsuzcha, ruscha tarjimalarda chop etilgan. G.A.Abdurahmonov va A.Rustamov tarafidan qilingan qisqacha o`zbekcha tarjimasi (1982 yil) ham bor.

Bilga xoqon bitigi. Yuqorida zikr etilgan Kultegin bitigidan 1 km g`arbi-janubda Ko`kshin-Urxo`n daryosi havzasida topilgan obida 735 yili bitilgan.

V.V.Radlov, S.E.Malov, P.M.Melioranskiy va V.Tomsen tomonidan o`rganilgan va chop qilingan.

Ongin bitigi. Mo`g`ulistonning Kosho Saydan vodiysidan topilgan. Kimga atalganligi aniq ma'lum emas. Ba`zi fikrlarga qaraganda, yuqorida tilgan olingen Ilterish xoqon va uning xotini Elbilga xotun sharafiga qo`ylgan (735 y). Boshqa fikrga ko`ra, Qopog`on xoqonga (691-716 yy), yana boshqa bir ma'lumotga (J.Kloson) qaraganda, Bilga xoqonning harbiy boshliqlaridan Alp Eletmish (Taxminan 731 yilda o`lgan) sharafiga qo`ylgan.

Obida 1892 yili V.V.Radlov tarafidan (estompaji) va 1957 yili J.Kloson tomonidan (englizcha tarjimasi va tadqiqot bilan) nashr qilingan.

Bundan tashqari Qorabalg`asun shahri (Ulan-Batordan taxminan 400 km janubda joylashgan qadimi shahar) xarobalaridan Xoyto-Tamir, Cho`yren, Beyshin-Udzur, Bayan-Xo`ngur va boshqa joylardan topilgan yozuvsular ham muhimdir.

Oltoydan topilgan bitiklardan Chorish, Katandi darelari, Qo`shog`och hamda tog`lik rayonlardan topilgan bitiklarni aytib o`tish mumkin. Bular Urxon-Enisey bitiklaridan farqli o`lar oq etnografik materiallarga boydir. Oltoydan topilgan yozuvsular P.M.Melioranskiy, E.R.Tenishev, A.K.Borovkov, K.Seydakmatov, V.M.Nadelyaev hamda D.D.Vasilev tomonidan e'lon qilingan.

Sharqiy Turkistondan topilgan bitiklar orasida Turfon vohasidagi g`orlarda joylashgan ibodatxona devorlariga yozilgan bitiklar alohida o`rin tutadi. Bitiklar asosan V.Tomsen tarafidan chop qilingan.

Qozog`iston hamda Qирғизистондан topilgan bitiklar xali chuqur o`rganilmagan. Bular orasida Talas vohasidan (Ayratom, Teraksoy, Qulonsoy, Toldiqurg`on, Urjor, Sirdare, Ila, Olmaota, Tolgar, Tinbas va hk.) topilgan bitiklar muhim ahamiyat kasb etadi.

Qozog`iston hamda Qирғизистон hududidan topilgan bitiklarning ba'zilari S.Sodikov, M.E.Masson, A.N.Bernshtam, A.S.Omonjalov, G.Musaboev, Ch.Jumagulov, G.Karagulovlar tomonidan e'lon qilingan.

Qadimgi turk runik yozuvlari (asosan sopol idishlariga yozilgan) Farg`ona, Oloy vodiysi hududidan, ya'ni Bekobod, Isfara, Marg`ilon, Andijon, Quvasoy , O'sh, O'zgan, Kofirnixon, shuningdek Sug`dan ham topilgan va A.N.Bernshtam, B.A.Litvinskiy, V.A.Bulatova, E.R.Tenishev, Yu.A.Zadneprovskiyalar tomonidan o`rganilgan.

#### NAZORAT TOPShIRIQLARI:

Kultegin bitigini topgan olimni aniqlang.

A. S.U.Remezov

V. V.V.Radlov

S. V.Tomsen

D. N.M.Yadrintsev

E. V.A.Klements

Turk manbalari guruhlari to`g`ri ko`rsatilgan qatorni toping.

A. Lena-Baykalbo`yi, Oltoy, Sharqiy Evropa, Kultegin

V. Enisey, Mo`g`uliston, Sharqiy Turkiston, O`rta Osiyo

S. Ongin, Enisey, O`rta Osiyo, Sharqiy Evropa

D. Mo`g`uliston, Oltoy, Bilga xoqon, Lena-Baykalbo`yi

E. Enisey, Oltoy, Talas, Sharqiy Turkiston

1)Avesto

2)Turk manbalari

A. F.Stralenberg

V. Struve

S. Ban Gu

D. Kosho Saydon

E. Zantu

F. fikrlar sofligi

G. 1893 yil

H. runik

I. 1772 yil

Turk tilidagi manbalarni konspekt qiling.

Vatanimiz tarixini o`rganishda turk tilidagi manabalar ahamiyati to`g`risida yozma ijodiy ish tayyorlang.

Adabiyotlar:

1. Nasimxon Rahmon. Turk xoqonligi.-T.,1992
2. Ahmedov B. O`zbekiston xalqlari tarixi manbalari.- T.:O`qituvchi, 1991.
3. Sodiqov Q. Kultegin va Bilga xoqon bitiklari, tarixiy manbaning matn tuzilishi.- O`zbekiston tarixi. 1993.-№ 2.
4. Sodiqov Q. Kultegin, Bilga xoqon bitiklaridan o`rin olgan "xoqon so`zi"ning boshlanmalari va yodnomalarining matn tuzilishi haqida.- O`zbekiston tarixi. 1999. № 3.

2-asosiy savol:

#### Xitoy tilidagi manbalar.

**Maqsad:** Xitoy tilidagi manbalarni O`zbekiston tarixini o`rganishdagi ahamiyatini ko`rsatib berish, talabalarni Vatanga muhammad ruhida tarbiyalash.

#### IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:

Xitoy tilidagi manbalarda mamlakatimiz tarixini qay darajada yoritilganligini bilab oladi.

Xitoy tilidagi manbalardan O`zbekiston tarixini o`rganishda qay darajada foydalanishni tushunadi.

Xitoy tilidagi manbalarni ahamiyatini aniqlaydi.

Xitoy tilidagi manbalarni O`zbekiston xalqlari tarixiga oid qismlarini tahlil qiladi.

O`zbekiston xalqlari tarixini o`rganishda xitoy tilidagi manbalarning o`rni va roliga baho beradi.

#### Bayoni:

Markaziy Osiyo xalqlari tarixini, ayniqsa Dovon, Qang` , Kushon davlatlari tarixini o`rganishda xitoy tilidagi manbalar muhim ahamiyatga ega. Xitoy manbalari haqida shuni qayd etish kerakki,

ulardan Xitoy tarixi to`liq yoritilsada, boshqa xalqlarning tarixi ko`p hollarda bir taraflama yoritilgan. Lekin xitoy manbalarida bo`lib o`tgan voqealarning vaqtি va o`rni aniq ko`rsatiladi, u yoki bu territoriyada istiqomat qiladigan xalqlar, shuningdek bir-biriga qarshi turgan qo`shinlarning umumiy soni aniq ko`rsatiladi.

O`rta Osiyo, xususan O`zbekistonning uzoq o`tmishdagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o`rganishda quyidagi xitoy manbalari muhim rol o`ynashi mumkin.

Sima Syan - Xitoy tarixchilarining otasi (er.av. 145 yoki 135 -er.av. taxminan 86 yillar); Lunmin (hozirgi Shensi viloyati) shahrida saroy tarixchisi Sima Txan oilasida tug`ilgan; mamlakat bo`ylab ko`p sayohat qilgan; otasi vafot etgandan (er.av. 108 yil) keyin uning o`rniga saroy tarixchisi sifatida qabul qilinadi.

Sima Syan "Shi Szi" ("Tarixiy esdaliklar") nomli 130 bobdan iborat yirik tarixiy asar yozib qoldirgan. Asar Xitoyning qadimiy zamonalardan to er.av. 1 asr boshlariga qadar o`tgan tarixini o`z ichiga oladi. Asarda O`rta Osiyo, uning 123-bobida xususan Farg`ona va uning qadimiy xalqi, uning hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud.

"Shi Szi"ning to`la matni olti jild qilib, 1959 yili Pekinda chop etilgan. Uning bir qismi rus tiliga (N.Ya.Bichurin, L.S.Vasilev, L.S.Perelomov, Yu.L.Krol va b.) ingliz tiliga (B.Uotson, F.Kirman va b.) to`liq ravishda E.Shavann (1865-1918) tomonidan frantsuz tiliga tarjima qilinib, 1895-1905 yillari (5 jilda) chop etilgan. "Shi Szi"ning ruscha tarjimasi ham tamomlandi (R.V.Vyatkin, V.S.Taskin). Uning bir qismi 4 kitob bo`lib, 1972, 1975, 1984, 1986 yillari bosmadan chiqdi.

Ban Gu (32-92 yy)- yirik tarixchi olim; Anmin (Shensi viloyati) shahrida G`arbiy Xan sulolası (er.av. 206- er. 220 yy.) xizmatida turgan yirik mansabdar va tarixshunos oilasida tug`ilgan; 47-55 yillarda Loyanda oliv o`quv yurtida ta`lim olgan. 58-82 yillarda o`zining "Syan-Xan shu" ("Avvalgi Xan sulolasining tarixi") asarini yozgan. "Syan-Xan shu"da, xususan uning 95-bobida, O`rta Osiyo(ayniqsa Kangyuy,yuechji va usunlar haqida) va Sharqiy Turkistonning qadimiy tarixi, xalqi va uning hayoti haqida ko`p muhim ma'lumotlarni uchratamiz.

"Syan-Xan shu" 1962 yilda Pekinda 12 jilda nashr qilingan. Inglizcha tarjimasi (G.Dube, Baltimor, 1938-1944) ham bor.

Fan Xua (398-445 yy) - avvalgi Xan sulolası (25-220 yy.) tarixchisi. Avval kichik davlat lavozimlarida turgan va 424 yili viloyat hokimligiga ko`tarilgan. Davlatga qarshi isyonda qatnashganlikda ayblanib, qatl etilgan.

Fan Xua Xitoyning avvalgi Xan sulolası davridagi tarixini o`z ichiga olgan "Xou-Xan shu" ("Keyingi Xan sulolası tarixi") nomli katta asar (130 bobdan iborat) muallifi. Asarda O`rta Osiyo, Sharqiy Turkiston va Jung`oriyaning 25-221 yillar orasidagi tarixi haqida diqqatga sazovor ma'lumotlar bor.

Li Yan-shou (taxm. 595-678 yy)- Tan sulolası (618-907 yy) davrida o`tgan yirik tarixchi. U Shimoliy Xitoya hukmronlik qilgan Vey (386-535 yy), Si (550-577 yy), Chjou (557-581 yy) hukmronligi, ya`ni 386-581 yillardagi tarixini o`z ichiga olgan 100 bobdan iborat "Bey-shu" (Shimoliy sulolalar tarixi) nomli asari bilan mashhur.

Asarda O`rta Osiyo, Xorazm hamda Sharqiy Turkiston haqida ham qimmatli ma'lumotlar uchratamiz. "Bey-shu"ning matni 1958 yili Shanxayda chop etilgan.

Vey Chjen (580-643 yy) Tan sulolası davrida o`tgan tarixchi, imperator Chjen-Guan (627-650 yy) davrida uning o`g`li va toju taxti vorisiga tarbiyachi bo`lgan. Ana shu imperator davrida tarixchi olimlardan Yan Shi-gu hamda Kxun In-da bilan birgalikda Xitoyning Suy sulolası davridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o`z ichiga olgan "Suy shu" (Suy xonadonining tarixi) nomli 85 bobdan iborat asar yozib qoldirdi. Asarning 55 bobi 637 yilda yozib tamomlangan. Qolgan 30 bobiga esa yana 20 yil vaqt ketgan. Asarning Xitoyning V-VI asrlardagi tarixini o`z ichiga olaji.

Asarda uning 83 bobida O`rta Osiyo (Janubiy Qirg`iziston, Pomir, Toshkent va b.) hamda Sharqiy Turkiston (Xara-shahar, Kucha, Qashg`ar, Xo`tan) haqida ham diqqatga sazovor ma'lumotlar uchratamiz.

Asar ko`p jildlik "Dinastiylar tarixi" tarkibida (9 jild) 1958 yili Shanxayda bosingan.

Ouyan Syu(1007-1072 yy) va Sun Si (998-1061 yy) 960-1279 yillari hukmronlik qilgan Sun (Janubiy va Shimoliy Xitoy) sulolası tarixchilari, imperator Jen-Tszunning (1023-1063 yy) topshirig`i bilan 940-945 yillari yozilgan "Szyu-Tan shu" (Tan sulolasining eski tarixi) o`rniga (uning kamchilik va nuqsonlari aniqlangach), 1043-1060 yillari shu sulolaning yangi tarixini - "Sin Tan shu" (Tan sulolasining yangi tarixi) ni yozganlar

Har ikkala asar ham o`ziga xos afzallikkarga ega bo`lib, ma'lum darajada bir-birini to`latadi. XVIII asrda tarixchi Shen Bin-Chjen har ikkala tarixni bir-biriga bog`lab, unga "Sin szyu Tan shu

xechao" (Tan sulolasining bir-biri bilan qo'shilgan yangi hamda eski tarixi) deb nom qo'ydi. Asarda 618-907 yillar voqealari bayon etilgan. "Sin Tan shu" da Samarcand, hozirgi O'zbekistonning janubiy rayonlari, Eron, Afg'oniston hamda Sharqiy Turkiston (Xara-shahar, Kucha, Qoshg'ar) haqida ma'lumotlar uchraydi.

Asar 1958 yili ko'p jildlik "Dinastiyalar tarixi"ning 12-jildida Shaxnayda chop etilgan.

#### NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

Dovon davlati to'g'risida keng ma'lumot beradigan xitoy tilidagi manbani toping.

- A. Avvalgi Xan sulolasining tarixi
- V. Shimoliy sulolalar tarixi
- S. Suy xonardonining tarixi
- D. Tarixiy esdaliklar
- E. Tan sulolasining yangi tarixi

Ban Gu qalamiga mansub asar bu...

- A. Keyingi Xan sulolasining tarixi
- V. Suy xonardonining tarixi
- S. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar
- D. Tarixiy kutubxona
- E. Avvalgi Xan sulolasining tarixi
- 1) Qadimgi Eron manbalari
- 2) Xitoy manbalari
- A. Xvaday namak
- V. Ongin
- C. Dovon davlati
- D. Shaxnay
- E. Zagros
- F. Bey shu
- G. Daxyu
- H. Dalle Valle
- I. Yuechji

Turk tilidagi va xitoy tilidagi manbalarni O'zbekiston tarixini o'rganishdagi ahamiyatini qiyosiy tavsiflang.

Xitoy tilidagi manbalarni O'zbekiston tarixiga oid qismlarini konspekt qiling.

Adabiyotlar:

Ahmedov B. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari.- T.:O'qituvchi, 1991.

3-asosiy savol:

So'g'd tilidagi manbalar.

Maqsad:

So'g'd tilidagi manbalarni tariximizni o'rganishdagi ahamiyatini ochib berish, talabalarda milliy ong, milliy g'oyani shakkantirish.

#### IDENTIV O'QUV MAQSADLARI:

So'g'd tilidagi manbalarni Vatanimiz tarixini o'rganishdagi ahamiyatini bilib oladi.

So'g'd tilidagi manbalar ahamiyatini asoslar bilan sharhlaydi.

So'g'd tilidagi manbalarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi.

So'g'd tilidagi manbalarni tahlil qiladi.

So'g'd tilidagi manbalarni O'zbekiston tarixini o'rganishdagi ahamiyatini boshqa manbalar bilan solishtiradi.

Bayon:

So'g'd tilidagi manbalar asosan IV-X asrlarga oid bo'lib, turli mazmundagi yuridik hujjatlar (ahdnama, nikoh haqidagi shartnomalar, oldi-sotdi hujjatlari, tilxatlar), hukmdorlar (So'g'd, Shosh, Turk va Farg'ona hukmdorlari) o'rtaсидаги ezishmalar, xo'jalikning kundalik turmushiga oid hujjatlar, masalan, xarajatlardan iborat hujjatlar hamda farmonlardan iborat.

Bu hujjatlar So'g'dienanining o'zidan (Mug' qal'asidan), Samarcandda (Afrosiyobdan), Qirg'iziston va Sharqiy Turkistondan topilgan. Bular orasida Mug' qal'asi xarobalaridan 1932 yilda topilgan hujjatlar alohida ahamiyatga ega. Hujjatlar 1932 yilning bahorida Tojikiston Respublikasi Varzimino (hozirgi Zahmatobod) rayoniga qarashli Xayrobod kishlog'ida shu rayonda istiqomat qiluvchi A.Po'lotiy tomonidan topilgan. Hujjatlar 80 nafar bo'lib, bulardan 74tasi qadimgi so'g'd, 1tasi arab, 3tasi xitoy va 1tasi turk tilidadir. Ular har xil materialga: charmga, taxtaga, kog'ozga

yozilgan. Hujjatlar so`g`d dehqoni va podshosi Devashtich ( 708-722 yy) va yirik mansabdorning (framandar), shuningdek, Xoxsar xamda Kshtut dehqonlarining shaxsiy arxiviga tegishli bo`lib, So`g`dning VIII asr birinchi choragidagi iqtisodiy, siesiy va madaniy haetini o`rganishda muhim manba rolini o`ynaydi.

Mug` qal`asidan topilgan hujjatlar A.A.Freyman, A.V.Vasilev, I.Yu.Krachkovskiy, M.N. Bogolyubov, V.A.Livshits hamda O.I.Smirnova, M.Ishoqovlar tarafidan chuqur o`rganilgan.

Mug` hujjatlarining topilish tarixi va ular haqidagi dastlabki ma'lumotlar 1934 yili maxsus to`plam shakliida ("Sogdiyskiy sbornik"-Leningrad, 1934) e'lon qilingan. Ayrim hujjatlarning tarjimasi I.Yu.Krachkovskiy va A.A.Freyman tomonidan 30-yillari e'lon qilindi. Yuridik hujjatlar hamda maktublar tarjimasi, zarur izoh va tadqiqotlar bilan (Sogdiyskie dokumento` s goro` Mug. Chtenie, perevod, kommentariy. 2 vo`pusk. M.,1962) 1962 yili V.A.Livshits tomonidan chop qilindi.

1961 va 1965 yillari O`zbekiston FA tarix va arxeologiya instituti ekspeditsiyasi Afrosiyobda (Samarcand) V-VII asrlarga oid saroy xarobalarini ochdilar. Saroy mehmonxonasining devorlari turli mazmundagi rasmlar bilan bezatilgan bo`lib, ular orasida oq kiyim kiygan Chag`onien elchisining surati ham bor. Uning etagiga so`g`d tilida o`n olti satrdan iborat ishonch erlig`i ham ezib qo`ylgan.

Muhim hujjatlar so`g`diylarning Qozog`iston, Qирғизистон hamda Sharqiy Turkistondagi savdo koloniyalardan ham topilgan. Bular orasida ayniqsa A.Steyn (1862-1943) tomonidan 1907 yili Dunxuan (Xitoyning Gansu viloyatida) va Turfonda (Sharqiy Turkiston) topilgan hujjatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Talas daryosining o`ng sohilida, hozirgi Talas shahridan 7-8 km shimolda joylashgan Kulonsoy hamda Teraksoy qoyalarda qoya toshlarga o`yib bitilgan yozuvlar alohida e'tiborga ega. Bu yozuvlar IV-XI asrlarda So`g`d koloniyalarining ijtimoiy ahvoli haqida, ayniqsa O`rta Osiyo bilan Sharq mamlakatlari o`rtasidagi savdo aloqalari va bunda so`g`diylarning roli haqida ma'lumot beradi.

Dunxuan va Xo`ton hujjatlari A.Steyn, Talasdan topilgan yozuvlar esa V.A.Kallaur, M.E.Masson, D.F.Vinnik, A.Asanaliev, K.Ashiraliev, U.Jumag`ulovlar tomonidan o`rganilgan.

#### NAZORAT TOPShIRIQLARI:

So`g`d tilidagi hujjatlar topilgan joyni toping.

A. Mug` qal`asi

V. Varaxsha

S. Bolaliqtepa

D. Tuproqqa'l'a

E. Afrosiyob

So`g`d tilidagi manbalarning bugungi kungacha to`liq etib kelmaganligi sababini aniqlang.

A. Manbalar mo`g`ullar tomonidan yo`q qilingan

V. so`g`d tilida manbalar kam bitilgan

S. So`g`d manbalari sosoniylar tomonidan yoqib yuborilgan

D. Qutayba arab bosqini davrida manbalarni yo`q qilgan

E. So`g`d tilidagi manabalar rus bosqinchilari tomonidan yoqib yuborilgan

1)Yunon rim manbalari

2) So`g`d tilidagi manbalar

A. Gekatey Miletksiy

V. Fatufarn

C. 80 ta

D. Tarix otasi

E. Tarixiy kutubxona

F. Livshits

G. Tarixiy esdaliklar

H. Unutilgan podshlikdan xatlar

I. A-4

E'lon qilingan so`g`d tilidagi manbalarni konspekt qiling.

O`zbekiston tarixini o`rganishda so`g`d tilidagi manbalar o`rnni va roli to`g`risida ijodiy ish ezing.

Adabiyotlar:

Ishoqov M. Unutilgan podsholikdan xatlar. - T:Fan, 1994

Gafurov B. - Tadzhiki. -Dushanbe, Irfon, 1989.

Xolmatov A. So`g`d yozma yodgorliklarda ijtimoiy hayot munosabatlarining aks etishi.- "O`zbekiston tarixi" jurnali, 1999, № 2.

Mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar:

- 1.
- 2.
- 3.

### **5 mavzu: Temur va temuriylar hukmronligi tarixiga oid manbalar**

**2 soat**

**Fanni o`qitish texnologiyasi:**

**“MANBASHUNOSLIKNING PREDMETI VA VAZIFALARI”  
mavzusi bo`yicha ma`ruza darsining texnologik xaritasi**

| <b>No<br/>Bosqich</b> | <b>Bajariladigan ish mazmuni</b>   | <b>Amalga<br/>oshiruvchi<br/>shaxs, vaqt</b> |
|-----------------------|--|--|
| 1                     | <p><b>Tayyorlov bosqichi</b></p> <p><b>1.1 Dars maqsadi:</b> Amir Temur hukmronligi davri tarixini yorituvchi manbalarning mazmun mohiyatini ochib berish. Talabalarni Temur davriga oid manbalarni o`rganishga qiziqtirish, ularda milliy iftixon ruhini shakllantirish.</p> <p><b>1.2.Identiv maqsadlar:</b><br/>Amir Temur davri tarixini yorituvchi manbalarni aytib beradi.<br/>Temur davriga oid manbalarni sharhlaydi.<br/>Amir Temur davri tarixini aks ettiruvchi manbalarni xususiyatlarini aniqlaydi.<br/>Temur davriga oid muhim manbalarni ajratib ko`rsatadi.<br/>Temur shaxsi va davlati tarixini o`rganishda manbalarning ahamiyatini umumlashtiradi.<br/>Temur davriga oid manbalarni bir-biri bilan qiyoslaydi.</p> <p><b>1.3.Asosiy tushunchalar:</b> Amir Temur, G`iyosiddin Ali, Nizomiddin Shomiy, "Zafarnoma", Hofizi Abru, "Zubdat ut-tavorix", Abdurazzoq Samarcandiy, "Matla' us- sadayn va majma' ul-bahrayn", "Temur tuzuklari", Rui Gonsales de Klavixo, "Ulug` Tamerlan tarixi", logani Shiltberg, Ibn Arabshoh, "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur", Mirxon, "Ravzat us-safo".</p> <p><b>1.4.Dars shakli:</b> Ma`ryusa</p> <p><b>1.5.Metod va usullar:</b> Ogzaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum</p> <p><b>1.6.Kerakli jihoz va vositalar:</b> O`quv-uslubiy maimua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor.</p> | O`qituvchi                                   |
| 2                     | Oquv mashg`ulotni tashkil qilish bosqichi:<br>2.1. Mavzu e`lon qilinadi.<br>2.2. Ma`ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.   | O`qituvchi<br>30 min.                        |
| 3                     | Guruhda ishlash.<br>Mavzu bo`yicha talabalarning fikrini bilish;<br>Talabalarda tahlil qilish qobiliyatini kuchaytirish;<br>Talabalarni bahsga jalb qilish.  | O`qituvchi –<br>talaba<br>30 min.            |
| 4                     | <b>Mustahkamlash va baholash:</b><br>Berilgan ma'lumotni talabalar tomonidan o`zlashtirilganini ani?lash uchun quyidagi savollar beriladi:<br>Amir Temur davri tarixiga oid ilk manbalardan birini aniqlang.   | O`qituvchi –<br>talaba<br>10 min.            |

|   |  |                               |
|---|--|-------------------------------|
|   | XIV asr ikkinchi yarmi- XV asr boshlari dagi Movaraunnahr tarixini yorituvchi xorijiy manbalarni aniqlang.<br>Manbalarni yaratilgan yiliga qarab xronologik ketma-ketlikda joylashtiring   |                               |
| 5 | <p><b>O`uv mashg`ulotini yakunlash.</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Ma`ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo`yicha yakuniy fikr aytildi va mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi</li> </ul> <p><b>Mustaqil ish topshirig`i:</b></p> | <b>O`qituvchi<br/>10 min.</b> |

### **Asosiy savollar.**

Tarixiy manbalarda Amir Temur davlati, hayoti va faoliyatining yoritilishi.  
Temuriylar hukmronligi davri tarixining manbalarda aks ettirilishi.

1- Asosiy savol:

#### **Manbalarda Amir Temur davlati , hayoti va faoliyatining yoritilishi.**

Bayon:

Tabiiyki, Temurdek atoqli tarixiy shaxs, uning ishlari va hayoti O`rtal Osiyoda, jahonning ko`pgina mamlakatlarida yorqin iz qoldirgan, u haqda turli-tuman ma'lumotlar, rivoyatlar mavjud. Bularning bir qismi haqiqatga yaqin bo`lsa, qolaganlari afsona, bir qismi Temur davrida yozilgan bo`lsa, ikkinchilari keyingi davrlarda buniyod etilgan. Mazkur ma'lumotlarning aksariyati o`rta asrlarning so`nggi davrida yashagan mualliflarning qalamiga mansub bo`lib, Sharq qo`lyozmalari nomi bilan ma'lumdir.

Bizning kunlargacha etib kelgan manbalarning asosiy mazmuni, eng avvalo, Temurning harbiy yurishlarini tavsiflash tashkil etadi. Bu jihatdan tarixshunoslikda Temurning mashhur hamda eng katta harbiy yurishlarini uch asosiy davrga bo`lish rasm bo`lgan: 1386 yildan boshlangan "uch yillik yurish" davrida asosan Mavarounnahrga bostirib kirgan Oltin O`rda xoni To`xtamishxon bilan kurash olib borildi; 1392 yildan boshlangan "besh yillik yurish"da Kaspiy bo`yi viloyatlari G`arbiy Eron hamda Bog`dod zabit etildi, Janubiy Russiyaga yurish amalga oshirildi, Terek daryosi bo`yida To`xtamishxon qo`shinlari tor-mor etildi, Hindiston hududiga kirildi. 1399 yildan boshlangan "etti yillik yurish" da Ozarbayjon va Kavkazorti hokimi bo`lgan o`g`li Mironshoh erlariga bostirib kirgan dushmanlarni yakson qildi, Usmonlilar sultonni Boyazid, Mirs sultonni Faroj bilan urush qildi. Kichik Osiyodagi Sivasni hamda Halabni (Alepponi) egalladi, so`ngra Suriyadagi Damashq bosib olindi. 1402 yilgi Anqara yonidagi mashhur jangda "engilmas" Boyazid qo`shini tor-mor etildi. 1404 yili Samarcandga qaytib kelgan Temur ko`pdan beri rejalab yurgan Xitoya qarshi yurishga tayyorgarlikni davom ettirdi.

Temur davriga oid eng ilk manbalardan biri fiqhshunos G`iyosiddin Ali ibn Jamol al-Islom Yazdiyning "Ro`znomai g`azavati Hindiston" asari bo`lib, bunda Amir Temurning Hindistonga yurishining kundaligi berilgan.

Bu "Kundalik" shaxsan Temurning topshirig`i bilan olim tomonidan 1399-1403 yillar oralig`ida yozilgan. Ushbu "Kundalik" Amir Temurning Hindistonga qilingan alohida yurishiga bag`ishlagan bo`lib, bizgacha etib kelgan mukammal qo`lyozmalardan biridir. "Kundalik"ning ayrim joylari balandparvoz, Temur shaxsini madhiya qilishga bag`ishlangan bo`lishiga qaramay, unga tanqidiy ko`z bilan qaralsa, Temurning harbiy yutuqlarining ildizini uning urushlarda va shaharlarni qamal qilishda qo`llagan strategiya hamda taktikaga oid usullarni, Temur zamonasida amal qilgan amirlar va bahodirlar tuzimining mohiyati va strukturasini tushunishga taalluqli qiziqarli ma'lumotlar, hind xalqining Temur qo`shinlariga ko`rsatgan qarshiliklari to`g`risida muhim xabarlarni shohidi bo`lamiz.

Bulardan tashqari Temur zamondoshlari hamda safdoshlari to`g`risida, Samarcand va boshqa shaharlar haqida ham qiziqarli ma'lumotlar bor.

G`iyosiddan Ali yuqoridagilarni ko`rsatishdan avval maxsus bobda Temurni Samarcandga kelishidan tortib, uning hokimiyatining Mavarounnahrda mustashkamlanishigacha bo`lgan davrdagi yurishlari haqida hikoya qiladi. So`ngra uning Mo`g`uliston, Xorazm, Mozandaron, Ozarbayjonga qilgan yurishlari Mahmud G`aznaviy erlarining tobe qilinishi to`g`risida so`z boradi. Muallifning Temur hokimiyat natijasida unga qaram bo`lgan hududlardan savdo olib borish uchun xavf tugatilganligini qayd qilishi ahamiyatga molikdir.

1902 yilda Toshkentda bo`lib, Turkiston xalq kutubxonasining qo`lyozma asarlari bilan tanishgan V.V. Bartold "Kundalik" ning qo`lyozmasiga e'tiborini qaratdi. Qo`lyozmaning forscha matni uning shoiri L.A. Zimin tomonidan nashrga tayyorlandi va V.V.Bartoldning tahriri va kirish so`zi bilan chop etildi.

Kitobda yozilgan kirish so`zida G`iyosiddin Alining ushbu asari Temur tarixini yoritishda muhimligi ta'kidlanib, bu kitobdan mashhur tarixshunoslar, sohibqiron zamondoshi Nizomiddin Shomiy Amirdan so`ng yigirma yildan so`ng u haqda asar yozgan Sharafuddin Ali Yazdiy foydalaniganliklari ko`rsatib o`tiladi. 1958 yilda A.A.Semyonov tomonidan fors tilida rus tiliga o`girilgan G`iyosiddin asarining nashri chiqdi.

Shunday qilib, Temur yurishlariga bag`ishlangan asosiy manbalardan yana biri fan olamining mulki bo`lib qoldi.

G`iyosiddin Ali asarining asosida Temurning Hindistonga yurishida u bilan bo`lgan Nasriddin Umarning kundaligi yotadi, degan taxmin bor. Bu kundalik voqealarning kuruq ro`yxatidan iborat bo`lib qolganligi Temurni qoniqtirmaydi va u G`iyosiddin Aliga yurishini batafsil yoritishini topshiradi.

Shuning uchun bo`lsa kerak, muallif tomonidan yozilgan asar o`z matnining ko`tarinkiligi va Temur qiyofasini ilohiy kuchga ega bo`lgan paxlavon sifatida ta`riflash bilan ajralib turadi. A.A. Semyonov shu narsaga e'tiborni jalb qildiki, G`iyosiddin Temurning shiori "Adolat va kuchni" eslatadi, bu esa shu davrgacha fanda ustivor bo`lib kelgan "Adolat kuchdir", degan tushunchadan ko`p jihatdan farq qiladi.

Yana bir Temur saroyining tarixchisi Nizomiddin Shomiyning asari ham qimmatlidir. U Tabrizlik bo`lib, Bog`dorra yashagan, bu shahar Temur tomonidan zabit etilgandan so`ng, unga sodiq fuqaro bo`lish uchun qasamyod etgan. 804 (1401-1402) yilda Nizomiddin Shomiy Temurning podsholigi tarixini kitobxonlarga tushunarli tilda yaratish to`g`risida farmoni oliy olgan. Saroy solnomachisi sifatida Temurning keyingi yurishlarida u bilan birga bo`lgan Nizomiddin Shomiyning asari "Zafarnoma" yoki "Temur Zafarnomasi" nomi bilan ma'lum. Mazkur asar bizning davrimizgacha ikki tahrirda etib kelgan va unda voqealar tafsiloti 816(1404) yilning oxirlarigacha etkaziladi. Muallif asarni yaratishda Temur tarixiga oid qator og`zaki va yozma manbalardan, jumladan uning yurishlarida bitilgan kundaliklardan ham foydalangan.

Fanda Nizomiddin Shomiyning asarini G`iyosiddin asari kabi saroy tarixchilari tomonidan yaratilgan Temurning "rasmiy" tarixi qatoriga qo`shadilar. Bu borada, deb ko`rsatadi V.V.Bartold, G`iyosiddin Alining asari Temur tarixini yaratishdagi birinchi tajriba sifatida Alini qoniqtirmaydi va uning buyrug`i bilan Nizomiddin Shomiyning asari bilan almashtiriladi. 1937 yilda Nizomiddin Shomiy asari F.Tauer tomonidan chek tilida chop etiladi. Shungacha "Zafarnoma" Ovrupo tillariga o`girilmagan edi, "ruschaga o`girilgan ayrim narsalarning nashrini mustasno etganda".

G`iyosiddin Ali va Nizomiddin Shomiy asarlaridan so`ng Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" siga murojat qilamiz. Mazkur asar Temurning harbiy yurishlari tarixini yoritishga yakun yasaydi, V.V.Bartold ta'kidlaganidek bu "ko`p nusxalarda saqlangan, jamoatchilik o`rtasida keng tarqalgan hamda keyingi tarixchilarga o`z ta'sirini o`tkazgan" asar edi.

Sharafuddin Ali Yazdiyning asari "Temur Zafarnomasi" va "Jahongir Temur tarixi" nomlari bilan ma'lum.

Tarixchi va shoir Mavlono Sharafuddin Ali Yazdiy Yazd shahridagi yirik olim shayx Xojiji Yazdiyning o`g`li bo`lib, o`siprinligida otasi kabi shahardagi so`fiylik oqimiga mansub shayxlar bilan muloqotda bo`lgan. Ma'lum vaqtidan so`ng u Shoxruxning o`g`li fors hokimi Sulton Ibrohim saroyiga yaqinlashishiga muvaffaq bo`ldi. Noqulay vaziyatning vujudga kelishi- uning sotqinlikda ayblanishi, saroyning tark etishga majbur qildi va u ma'lum vaqt Samarqandda yashadi, keyinchalik o`zining qadron qishlog`i Yazd yaqinidagi Taftga qaytib keldi. Shu qishloqda Alisher Navoiy bilan Sharafuddin Ali Yazdiyning uchrashganlari ma'lum. Yazdiy 858(1454) yilda vafot etdi. "Zafarnoma"dan tashqari uning qalamiga bir necha boshqa asarlar, shu jumladan nazm tarzida yozilgan "Temur tarixi" ham mansub.

Muallif o`z "Zafarnomasi"ni "sohibqiron fathnomasi" yoki "Jahongir tarixi" deb ham nomlaydi.

Temuriy shahzodalaridan Sulton Ibrohim istagi bilan boshlangan "Zafarnoma" Sharafuddin Ali Yazdiy tomonidan 828 (1424-1425) yillarda tugallanadi.

"Zafarnoma" ning asosiy matnida 1414 yila yozilgan kirish ("Zafarnoma" muqaddimasi), ayrim hollarda Boshlanish (Iftitax) deb ataladigan qism ham beriladi. Mazkur qismda Temurning naslnasabi, O`rta Osiyoda Chingizzondan boshlab to Temurgacha mo`g`ullar tarixi va Temur tarixiga oid birinchi hamda uning vafotidan so`nggi, qator voqealar tafsiloti beriladi. Qo`lyozmaning bir necha tahriri, jumladan qisqartirilgani ham mavjud. Sharafuddin Ali Yazdiyning asari ko`p hollarda

va asosan Nizomiddin Shomiyning asari negizida yozilgan. Bunga dalil uning asaridan keltirilgan qator parchalardir.

Umuman olganda "Zafarnoma"ning manbalari quyidagilar edi: Nizomiddin Shomiy "Zafarnoma" sining rejasi va tuzilishi; Temurning ayrim yurishlarining tafsilotlari va kundaliklari, bulardan Sharafuddin Ali Yazdiy o`zining o`tmishdoshiga qaraganda to`laroq foydalanadi; Temurga hamroh bo`lgan fors va uyg`ur mirzalarining yozuvlari: nazm shaklida yozilgan "Xon tarixi" nomli turkiy solnomasi; yurish qatnashchilari va zamondoshlarining og`zaki aytganlari.

Keyinchalik "Zafarnoma" matni shoir Lutfiy tomonidan fors, Xotifiy (1521 yilda vafot etgan) tomonidan tojik tilida she'riy usulda yoziladi. XVI asr boshlarida bu asar matnnini Muhammad Ali Ibn Darvishali Buxoriy o`zbek tiliga o`giradi.

Ali Yazdiy "Zafarnoma"sining fors tilidan frantsuz va ingliz tillariga birinchi tarjimasi 1722-1723 yillarda chop etildi. Tarjimon Peti de Iya Krua tarjimasining inglizcha rivoyati, 1885-1888 yillarda Kalkuttada "Hindiston kutubxonasi" seriyasida ikki tomlik tarjima amalga oshirildi. Rus tilida "Zafarnoma"dan parchalar turli paytlarda chop etilgan, shulardan birinchisi 1836 yilda Peterburgda amalga oshirilgan edi.

XVI-XIX asrlarda al-Buxoriy, al-Hivoqiy tomonidan o`zbek tiliga, al-A'jamiy tomonidan turk tiliga o`girilgan matlar qo`lyozma tarzida mavjud. Eng yangi aynan nusxa nashri 1972 yilda Toshkentda A.K.Arends tahriri ostida, Asom O`rinboevning mufassal kirish so`zi bilan chiqdi.

Umuman olganda "Zafarnoma" ning forscha matni bir necha marotaba, to`liq va qisman, frantsuz, ingliz, turk, rus, o`zbek va boshqa tillarga o`girilgan holda chop etilgan. Biz bu joyda, "Zafarnoma"ning turli mualliflar tomonidan boshqacha tarzda ifodalangan va qisqartirilgan matnlarini qayd qilmaymiz.

Hozirga kunlarda Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiylarning "Zafarnoma"lariga o`hshash, o`zlarida chin va yolg`onni (o`rta asrlarda bular orasidagi tafovutni aniq ajratavermas edilar) uyg`unlashtirgan tarixiy solnomalarni adabiyotshunoslik nuktai nazaridan tahlil qilish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yana shu narsa qilish lozimki, Ali Yazdiyda Temur shaxsi va faoliyati haqida mavjud bo`lgan tole'noma ma'nosini ochish shu narsadan dalolat beradiki, muallif o`z tomonidan kuklarga ko`tarib maqtalgan ideal podsho Temurni ayni vaqtida zulm tashuvchilar qatoriga qo`shadi, zero, Ali Yazdiy zamonasidagi mualliflar ezgulik bilan zulmning (xudo jazosi), yaxshilik bilan yomonlikning doimiy va qonuniyligiga ishonganlar. Bu narsada so`fiylik dunyoqarashining ta'siri mavjud.

Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy va boshqalarning asarlaridan tashqari Temur va Shohruhning zamondoshi Tojiddin as-Salmoniyning asari "Zayli Zafarnoma" yoki "Tarixnomai Salmoniy" (1410y) diqqatga sazovordir. Muallif Shohruhning amriga binoan o`z asarida Temur (sohibqiron Hazrat) podsholigining oxirga yillari va u vafot etganidan keyingi davrni (to 1409 yilgacha) ko`rsatgan. Shuni aytish lozimki, tarixiy manbalardan biri sifatida "Salmoniy tarixnomasi" qanchalik muhim bo`lmasisin, unda shaxsan Temur haqidagi ma'lumotlar oz, borlari ham uning oxirgi yillariga oid bo`lib, Mo`g`uliston va Xitoya yurishlariga tayyorgarlik haqidadir. Temurning kasalga chalinishi va vafot etishi esa yorqin bo`yoqlarida mufassal berilgan: "Hijriy bo`yicha 807 yilning 18 sha'boni chorshanba o'tar kechasi" uning xoni "o`z uyidan chiqib, olloq qarorgohiga otlandi" va hozir undadir, u erda Qur'on ta'biricha "osoyishtalik, xushbo`ylik, rohat bog`i mavjud".

Ayniqsa Tojiddin tomonidan Temur vafotidan so`ng hokimiyat uchun kurashning qizib ketishiga tegishli xabarlar keltirilishi qimmatlidir.

Shu narsa aniqlanganki, Sharafuddin Ali Yazdiy o`zining "Zafarnoma" asarida Temur podsholigining so`nggi davrlarini yoritishda as-Salmoniy asaridan foydalangan.

Temur davriga yaqin, uning vorislari temuriylarning faoliyati bilan bog`liq manbalardan alohida e'tibor beradigani Hofizi Abruning asarlaridir. Bu asarlar asosan, XV asrning ikkinchi va uchinchi o`n yilliklariga tegishlidir. Hofizi Abru (Shahobuddin Abdulloh bin Lutfulloh bin Abdurashid al-Havofiy) Hirotda tug`ilgan bo`lib, Temur saroyiga yaqin turgan, keyinchalik Shohruhning saroy tarixchisi bo`lgan (1431 yilda, ba'zi ma'lumotlarga ko`ra 1430 yilda vafot etgan). Uning qalamiga biri jo`g`rofiya, ikkinchisi tarixga oid ikki yirik asar mansub. Tarixga oid asarda butun dunyo tarixi bo`yicha to`plamning ("Majma' ut-tavorix") mundarijasi va kirish so`zi berilgan. Ushbu to`plamning birinchi jildining birinchi bo`limi Temurga bag`ishlangan.

Hofizi Abru asarining tarixga bag`ishlangan qismi masalaning manbashunosligiga "Zubdat ut-tavorix" ("Solnomalar qaymog`i"), oldingi matn esa "Majma' ut-tavorix" ("Tarix to`plami") nomi bilan kirgan. Hofizi Abru to`plovchi sifatida o`z asarlariga unga ma'lum, keyinchalik yo`qolib ketgan bir

qator xabarlarni qo'shgan. Shuning uchun ham uning asarlarini ma'lum bo'limlari shu davrdagi voqealar va sharoitni ko'rsatish uchun muhim birinchi manba hisoblanadi. Ilgari Hofizi Abru asarlarining ayrim bo'limlari ma'lum bo'lgan bo'lsa, hozirga kelib u matnlarning hammasi bor, lekin ular G`arb va Sharqdagi turli kutubxonalardagi qo'lyozmalar ro'yxatida ayrim-ayrim holda saqlanmoqda.

Hofizi Abru tomonidan tayyorlangan Temur podshohligi tarixiga kelsak, uning tadqiqotchilar e'tiborini tortadigan ba'zi bir tomonlari bor. Masalan, Temurning rasmiy tarixchilari, asosan uning harbiy yurishlariga, qisman u qurban saroylar va masjidlarga ko'proq to'xtalgan bo'lsalar, Hofizi Abru Temur tomonidan Samarqand yaqinidagi Anhor tumanida va Murg'ob o'zanining yuqorigi qismida amalga oshirilgan sug'orish ishlari haqida ham yozadi.

Bundan tashqari, Hofizi Abru o'z asarida Temur o'limi to'g'risida ham hikoya qiladi, bunday xikoya Sharofuddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarcandiylar asarlarida ham yo'q. Yana shu narsani aytish lozimki, Hofizi Abru asarlarini Abdurazzoq Samarcandiylar foydalangan asosiy manbadir.

Bizning davrimizda Hofizi Abru asariga F. Tauerning nashrlari bag'ishlangan. Hofizi Abru asaridan so'ng Kamoliddin Abdurazzoq bin Jamoliddin Ishoq as-Samarcandiylar (816(1413)-839(1434) yillar) tojik tilida yozilgan, "Matla' us-sa'dayn va majma' ul-bahrayn" ("Ikki baxtli yulduzning balqishi va ikki dengizning birlashishi) asari katta e'tiborga molikdir. Abdurazzoq Samarcandiylar asari Ali Yazdiyning kitobi bilan birgalikda Temur tarixining eng batafsil BAYONIni tashkil qilishi ko'pchilik tomonidan tan olingan.

Abdurazzoq Samarcandiylar asari 1304 yildan to 1470 yilgacha bo'lgan tarixiy davrga bag'ishlangan bo'lib, mo'g'ullar hukmronligining oxirgi o'n yilligini va Temur hamda temuriylar davrini o'z ichiga oladi.

Abdurazzoqning tarjimai holiga kelsak, u Hirotda tug'ilib shu joyda vafot etgan. Otasi Shohruh saroyida qozi va imom bo'lib xizmat qilgan. Uning o'zi elchi lavozimida Hindistonda bo'lgan, Shohruh vavotidan so'ng Abdusaid Bahodir va boshqa temuriylarda xizmatini davom ettirgan. 1463 yilda Shohruh tomonidan qurilgan Hirotdagi so'fiylar xonakoxiga shayx qilib tayinlangan. Sulton Husayn Boyqaro hokimligi yillarda vafot etgan. O'z asarini yozish jarayonida Abdurazzoq Samarcandiylar asari Ali Yazdiyning kitobi bilan birgalikda Temur tarixining eng batafsil BAYONIni tashkil qilishi ko'pchilik tomonidan tan olingan.

Abdurazzoq Samarcandiylar asari, Temurga bag'ishlangan o'tmishdoshlarning asarlarini kabi Temurni ulug'lagan va maqtov xarakteriga ega. Tadqiqotchilarichan ta'kidlashlaricha Abdurazzoq asarlarining uning o'tmishdoshlari bo'lmish Nizomiddin Shomiy, Sharofuddin Yazdiylarning "G`alabalar kitobi", Hofizi Abruning "Solnomalar qaymog'i", Musaviyning tarixi hayrat" kabilalar va boshqalarning asarlarini bilan bog'liqligi bor, shu bilan birga uning asarlarida bir qator tafsilotlar mavjudki, bundaylar boshqa mualliflarning asarlarida uchramaydi.

Bizning kunlarda Abdurazzoq Samarcandiylar asari fors, tojik tilidan o'zbekchaga o'girilgan.

Amir Temur. Temur davriga oid manbalar haqida gap borar ekan, uning o'zi tomonidan yozilgan emish, degan bir asarga alohida to'xtalishimiz lozim. "Malfuzati Temuriy" yoki "Voqeoti Temuriy" ("Temurning tarjimai hol esdaliklari") qo'lyozma asarida Temurning 7 yoshligidan tortib to vafotiga bo'lgan hayotining tafsiloti berilgan. So'ngra ilova tarzida "Temur tuzuklari" va "Temur o'gitlari" keltiriladi.

Turkiy tilda yozilgan qo'lyozmaning asl nusxasi barcha izlanishlarga karmasdan hozirgacha noma'lum. Bizgacha etib kelgan kulyozmaning asli Xurosonlik Abu Tolib al-Husayn Arabiston bo'y lab sayoxati davrida Yaman volisi Ja'far Poshsho kutubxonasidan topib, turkiy tildan fors tiliga o'girgan. O'zi tarjima kilgan bu kulyozmani u 1047 (1637-38) yillar oraliqidagi buyuk boburiylardan Shoh Jahonga (1628-1659 yillar) taqdim qilgan. Shoh Jahonning topshirig'iga binoan shu yilning o'zida kulyozma matni Muhammad Afzal Buxoriy tomonidan tahrir qilinib, undagi tafsilotlar to Temur vafotigacha, ya'ni 1405 yilgacha "Yulduzlari baxtli ravishda uyg'unlashgan kishining hikmatli so'zlar" nomida etkazilgan. Zo'r berib izlashlarga qaramasdan, hozirgi kungacha turkiy tildagi "Tarjimai hol" va "Tuzuklar"ning qo'lyozmasi topilgani yo'q. U haqda yagona eslatma Tolib al-Husaynga mansub. O'rta Osiyoda ham qo'lyozmani topishga urindilar. Zero "Temur tuzuklari" asl matnida uning shaxsini, sarkarda, moxir davlat arbobi, diplomat, O'rta Osiyoda hamda bosib olinib, uning bepoen imperiyasi tarkibiga kirgan mamlakatlarda xalqlar turmushining tashkilotchisi, qonun va qoidalar asoschisi sifatida yanada yaxshi anglab olgan bo'lar edik.

Asosiy rivoyatlarga qaraganda "Tuzuklar" Temurning devonida yaratilib, uning o`zi tahrir qilgan yoki hech bo`lmasganda, uning saroyiga yaqin odamlar tomonidan tuzilgan. Yana rivoyatga qaraganda "Tuzuklar"ni Temur mirzalarga aytib turib yozdirgan.

Matnda davlatni va uning "12 sinfdan" iborat aholisini idora qilishda 12 qoidaga asoslanganligini va mazkur qoidalarga qo`shin tashkil qilish va uni saqlash usullari, fuqaro va qo`shinlarni boshqaradigan yuqori martabalai amaldorlar tomonidan o`z vazifalarini sifatli bajarishga qaratilgan talablar, "Dushmanlar va do`stlar bilan muomala" tamoyillari, soliqlar borasidagi siyosatning asoslari, urushlar olib borish strategiyasi va taktikasi, tashqi siyosat asoslari va boshqalar kirishi ta'kidlangan. "Temur tarjimai holi" fors-tojik tilidadan o`zbek tiliga asli Ho`jandlik Qo`qon qozisi Nabijon Xotifiy tomonidan 1251(1835-36) yillarda qisman, ya`ni Temurning amir Husayn bilan yarashish voqeasigacha tarjima qilingan.

1891 yilda N.P.Ostromov Nabijon Xotifiy tarjima qilgan "Tamerlan avtobiografiyası" ni nashr qildirdi.

Shu nashrdan rus tiliga tarjimani N.S.Likoshin amalga oshirdi.

1934 yilda Nabijon Xotifiyning yuqoridagi qo`lyozmasining mukammal tarjimasi mamlga oshirilgan. Bu nashrda "Avtobiografiya"ning sharhi va tasnifi berilib, uning adabiy-badiiy morfologiysi "Temur tushlari"ning alomatlari ko`rib chiqildi va quyidagilar ta'kidlandi. "Avtobiografiya" da sodir bo`layotgan vokealarning realligi g`ayritabiylilik bilan birga ko`rsatiladi, buning ustiga hayotning asosiy stixiyasi - urush, deb sanaladi. Mazkur tarjimada Britaniya muzevida saqlanayotgan XVII asrga oid qo`lyozmalarining matni ham hisobga olindi. Bundan ilgari Orenburg ilmiy arxiv komissiyasi to`plamiga oid bo`lgan XVII asr qo`lyozmalaridan dostonlar nashri amalga oshirilgan edi. Britaniya muzeyining qo`lyozmalarida Orenburgdagidan farq qiladigan nuxsalar bor edi.

"Tuzuklar" masalasiga kelsak, uning 1783 yildayoq Olksfordda Devi Uayt tomonidan fors matni va uning tarjimasi nashr qilindi. Biroq bu tarjima allaqachon eskirgan, uning izohlangan matnini yangidan nashr qilish lozim.

1308 hijriy yilda "Tuzuklar" Bombay shahrida fors tilida nahr etildi

Rus tilida "Tuzuklar" 1894 yilda chiqqan edi. 1968 yilda uning aynan nusxasi I.M.Mo`minov so`zboshisi bilan yangidan nashr qilindi.

Hozirgi paytda "Tuzuklar"ning fors tilidan o`zbekchaga o`girilgani nashrdan chiqdi.

G`arbiy Ovrupo adabiyotlariga kelsak, ularning orasida o`zining ilmiy va ma'rifiy ahamiyati jihatidan hozirgacha yagona o`ziga xos manba-1403 yili Temur poytaxti Samarqandga yuborilgan ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixonning xotira daftarıdır.

Mazkur kundalik daftar birinchi marta 1582 yili Sevile shahrida "Ulug` Tamerlan tarixi" nomi bilan, so`ngra 1782 yili Madridda "Ulug` Tamerlanning xayoti va faoliyatı" nomida nashr qilingan. Bu asar keyinchalik ham to`liq yoki ayrim parchalar holida ingliz va boshqa tillarda bosilgan.

"Kundalik daftar" matnining rus tiliga tarjimasi akademik I.I.Sreznevskiy tomonidon amalga oshirilgan. Ushbu matnni sharhlashda ko`zga ko`ringan sharqshunoslar V.V.Grigorev, P.I.Lerx, K.P.Patkanovlar qatnashgan. Tarjima 1881 yili, Sreznevskiy vafotidan so`ng nashr qilindi. Sreznevskiyning ta'kidlashicha, "Klavixonning vokealarini bayon qilish usulining o`ziyoq muallifni nohaqlik va noinsoflikda ayplashga yo'l qo`ymaydi... U doimo o`zining kuzatishlari orqali ko`rgan narsalari qaysi-yu, boshqalarning hikoyalardan bilib olgani qaysi ekanligini yozib boradi".

Eng yangi, aniq va mukammal tarjimani, yangilangan va to`ldirilgan sharhi bilan I.S.Mirokov amalga oshirdi. De Klavixo kundalik daftarinining kattagina qismi uning Kadiks yaqinidagi Avliyo Mariya portidan to O`rta Osiyo chegaralariga, Samarqandgacha bo`lgan sayyoxatining yorqin bo`yoqlarda qiziqarli tasvirlashga bag`ishlangan. Mazkur qismida Temur tarjimai holiga hamda tarixiga, uning harbiy va siyosiy faoliyatiga tegishli ma'lumotlar ham bor. Bu borada bizni qiziqtiradigan Klavixo va uning hamrohlaringin "Samarqand podsholigi"da, ayniqsa uning poytaxti Samarqandda bo`lishidir. Klavixo Temur qarorgohini, uning saroylari, bog`lari, Temur oilasi va uning o`zi bilan uchrashuv, tantana marosimini, soxibqironning amri bilan o`tkaziladigan bazm-ziyofatlar, to`y-tomoshalarini qiziqarli, ko`p hollarda juda bo`rttirib tasvirlaydi. Muallifning etnografik kuzatishlari, Samarqandning turli-tuman binolari, savdo joylari va bozordagi tovarlar tarkibi, mahalliy sud ishlari haqidagi ma'lumotlari o`ta qimmatlidir.

Bu asnoda qayd qilish lozimki, Klavixo qudratli va kuchli irodali Temurning so`zlari va hatti-harakatlariga e'tiroz qilib bo`lmasligini, uning yo`l-yo`rig`ini buzganlar ustidan jazo shafqatsiz ekanligini tasdiqlaydi.

Klavixo nazaridan quruvchilarning kundalik hayoti, Samarqandda aholining tig`iz joylashganligi ham chetda qolmaydi. Shuning uchun aholining bir qismi shahar atrofida, yashashga majbur, edi deb ko`rsatadi. Bu tafsilotlarning hammasi Temur, uning atrofidagi bayonlar va mamlakat poytaxti haqidagi tasavurimizni boyitadi. Shu jihatdan vokealarni bevosita o`zi ko`rgan kishi Klavixo xotira daftari Temur va uning davrini o`rganishda noyob qo`shimcha manba vazifasini o`taydi.

"Ulug` Tatariya", O`rtta Osiyo va Temur haqida birinchilar qatori xabar bergenlardan yana biri bavariyalik dvoryanin yarog`bordori logann (Gans, Ivan) Shiltberg (Shildberger) (1382-1440) edi. Sulton Boyazid jangchilari tomonidan Nikopoldagi 1396 yildagi urushda asir olingan Shiltberger, keyinchalik Sulton qo`shini tarkibida 1402 yilgi Anqaradagi jangda qatnashib, Temurga tutqin bo`lib qoladi. U Temur qo`shinlari safida bir necha mamlakatlarda bo`ladi, jumladan O`rtta Osiyoda xam. Temur vafotiga qadar Samarqand saroyida saqlanadi. Keyinchalik u Oltin O`rdaga jo`natiladi va faqatgina 1427 yilda Batum hamda Konstantinopol orqali o`z vataniqa qaytishga muvaffaq bo`ladi.

"Myuxenlik Shiltbergerning asirga tushishi va qaytib kelishi haqidagi g`aroyib qissa" bir necha marotaba nashr qilindi hamda XV-XVI asrlarda mashhur bo`lgan.

Shiltbergerning 60 hikoyasidan 10 tasi (№12-21) O`rtta Osiyoga bag`ishlangan.

Temur saroyidagi o`z hayotining ayrim tomonlarini qiziqarli tafsilotlari bilan bergen Shiltberger hikoyalarining umuman olganda ilmiy ahamiyati oz. Uning ustiga u o`zi qatnashgan janglarni tasvirlanganda aql bovar qilmaydigan ishonchhsiz ma'lumotlarni ko`plab ishlataladi.

Arxiepiskop Ioann (Djon) Suianiyskiyning Temur qo`shinlari Boyazidni tor-mor qilgandan sal keyin, Parijda yozilgan esdalik yodnomasi ham qiziqarlidir. Ioann Temur saroyida Frantsiya qiroli Karl U1ning vakili vazifasini bajarar edi va o`zining esdaligida Temurning harbiy yutuqlarini tasvirlaydi. Arxiepiskop Ioanning ma'lumotlari Temur iqtisodiy siyosatining ayrim tomonlarini tushunishga yordam beradi. Masalan, u o`zining esdaligida tijorat ahli uchun qulay imkoniyatlar yaratilganligi va ularning manfaatlarining himoya qilinishi, savdo muomalalaridan boj olinishi, muhim konlar ustidan davlat hukmronligi, istilo qilingan mamlakatlardan olinadigan xirojlarning tartibi, hukmdorlarga pul va mahsulot soliqlari to`liq olingandan so`ng, boshqa majburiyatlar bajarilgandan keyin hisob-kitoblar haqida batafsil to`xtalib o`tadi.

O`z vataniqariga o`rtaosiyolik qo`shinlarini kiritib amalga oshirgan ishlarni vasf etuvchi manbalarni bir guruhini fors arab, gruzin, arman, vizantiyalik va boshqa mualliflarning asarlari tashkil etdi.

Temur davri bilan shug`ullanuvchi tarixchilar bu guruh manbalari bilan hisoblashmasdan ularni e'tibordan chetda qoldirmasliklari yoki past baholamasliklarini kerak, albatta. Bu hildagi asarlarning mualiflari ko`pchiliklari o`zları yozgan vokealarni guvohi bo`lganliklaridan ularning kitoblarida kam ma'lumot bo`lgan ayrim vokealar, harbiy xarakatlar ularning natijalari haqidagi xabarlar ko`plab topiladi.

Tabiiyki, ularning Temur shaxsiga va ishlari bo`lgan munosabatlari ochiq dushmanlik ruhida. Temurning zafarona yurishlari unga turkiy va mo`g`ul xalqlarining harbiy mahoratini yuksaltirgan engilmas qo`mondon shuhratini keltirgan. Zabt etilgan xalqlar xotirasida esa Temur ismi bosqinchi lashkarboshi va shavkatsiz podsho ramzi sifatida saklanib qolgan.

Mazkur manbalar ichida to`liqligi va mahoratliligi jihatidan birinchi o`ringa suriyalik Ibn Arabshohning (1392-1950) asaridek muhim manbani qo`ysak bo`ladi. U o`zining "Ajoyib al-makdur ori navoyib Temur" asarida Temurning to`lik tarixini yaratishga harakat kilgan.

Damashqlik Ibn Arabshoh o`z shahrini Temur tarafidan tor-mor qilinishining guvohi bo`ldi. U 12 yoshligida tutkinga olinib, Samarkandga yuborildi. Samarqandda Temur podshohligi so`nggi yillarining shohidi bo`ldi. 1401-1411 yillarda Ibn Arabshoh O`rtta Osiyo, Volga bo`yini (Oltin O`rdani) kezib chiqdi. Bundan so`ng ham u Turkiya va Misrga borishga muvaffaq bo`ldi. U yuqori bilimli va ko`jni ko`rgan kishi edi. V.V.Bartold Ibn Arabshohni "ajoyib kishilar" qatoriga qo`shgan.

Ibn Arabshoh Temurga nisbatan o`ta dushmanlik hissi bilan yongandan saroy tarixnavislari asarlari tankidiy, qarshi fikr yuritib, buyuk jahongirni qoralaydi.

Ibn Arabshoh, asosan Temur yuritgan urushlarning salbiy natijalari haqida hikoya qildi. Masalan, u Azak-Azovni olish kezida shunday yozadi: "U ko`p mollarni bosib oldi, ularni bo`ldi va olib ketdi. Bosib olinganni, o`ljani taqsim qilib berdi, talashga, zo`rlikka, o`ldirishga, asir olishga ruxsat berdi, qabilalarni yo`q qildi, tartibni o`zgartirdi. Qo`lga olingen oltin-kumushni, asirlarni, mol-mulkni olib ketdi."

Shu bilan Ibn Arabshohning Temur shaxsiga bergen baxosi e'tiborga molik: "U o`zining 70 yoshiga qaramasdan aqli ziyrak, jismonan kuchli va mahkam... U zaharxandalik va riyokorlikni

yaxshi ko`rmas, baxtsizlikda tushkunlikka tushmas edi... o`tkir va qo`rqmas edi, tashqi ko`rinishi bo`ysunishni va hurmatlashni talab etar edi. U botir va shijoatli askarlarni sevardi. U baxslashishga moyil edi, ishning po`stkallasini darrov tushunib etar... haqiqatni yolg`ondan bir zumda ajratar, muxlis yo`l ko`rsatuvchilarni ayyor va tulki yolg`onchilardan farqlar edi. Agar biror ishni bajarish haqida buyruq yoki belgi bersa, u boshqa eslatmas edi, o`z echimini hech qachon o`zgartmas edi. Uni etti iqlimning Engilmas Egasi-sohibqiron, ya`ni qulay joylashgan yulduzlar turkumining, hukmdori deb atadilar".

Hozirgi kunda Ibn Arabshoh asari o`zbek tiliga tarjima qilingan.

Yuqorida Amir Temur davrini tarixini yorituvchi manbalar tahlili shu ko`rsatadiki, tarixchilar ham barcha manbalarni to`liq tadqiq etishmagan. Shuning uchun ham Amir Temur davrini har tomonlama to`liq o`rganmoqchi bo`lgan odam avvalo shu davr tarixiga oid manbalarni to`liq o`rganmog`i darkor.

Nazorat topshiriqlari:

Amir Temur davri tarixiga oid ilk manbalardan birini aniqlang.

- A. "Tarixi Xoni"
- V. "Ro`znomai g`azovoti Hindiston"
- S. "Zafarnoma"
- D. "Zubdat at-tavorix"
- E. "Temur tuzuklari"

XIV asr ikkinchi yarmi- XV asr boshlaridagi Movaraunnahr tarixini yorituvchi xorijiy manbalarni aniqlang.

- A. "Matla' us-sadayn", "Ulug` Tamerlan tarixi"
- V. "Zubdat at-tavorix", "Ro`znomai g`azovoti Hindiston"
- S. "Kundalik daftar", "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur"
- D. "Zafarnoma", "Anonim Iskandandar"
- E. "Temur tuzuklari", "Majmua-yi Hafizi Abru"

1) Amir Temur davriga oid manbalar

2) IX-XII asrlarga oid manbalar

- |                       |                    |
|-----------------------|--------------------|
| A. "Jome' ut-tavorix" | F. Gardiziy        |
| V. "Siyar ul-muluk"   | G. "Hudud al-olam" |
| F.Trauer              | H. Juvayniy        |
| D. Zayl               | I."Zafarnoma"      |
| E. "Temur tarixi"     |                    |

Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Azi Yazdiy "Zafarnoma"lari qiyosiy tavsiflash (og`zaki). "Temur tuzuklari"ning davlat boshqaruviga oid qismini konsept qilish.

Adabiyotlar:

Ahmedov B. O`zbekiston xalqlari tarixi manbalari.- T.:O`qituvchi, 1991.

Temur va Ulug`bek davri tarixi.- T.:Komuslar bosh tahririysi, 1996.

Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma.- T.:O`zbekiston,1996.

Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma.- T.:Sharq,1997.

Temur tuzuklari.- T.:Sharq, 1996.

2-asosiy savol:

**Temuriylar hukmronligi davri tarixining manbalarda aks ettirilishi.**

Maqsad:

Temuriylar davri tarixining manbalarda yoritilishini ko`rsatib berish, talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:

Temuriylar davri tarixini yorituvchi manbalarni bilib oladi.

Manbalarda temuriylar davri tarixining aks ettirilishi tushunadi.

Temuriylar tarixini o`rganishda manbalardan foydalananadi.

Temuriylar davrini yorituvchi manbalarni tahlil qiladi.

Temuriylar hukmronligi tarixini o`rganishda manbalarning ahamiyatiga baho beradi. Bayon:

Amir Temur vafotidan so`ng davlatni uning avlodlari - temuriylar boshqardi. Temuriylarning Mavarounnahr va Xurosondagi hukmronligi XVI asrning boshlarigacha davom etdi. Mana shu davr, ya`ni 1405-1506 yillardagi Mavarounnahr va Xurosonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti tarixini ham yorituvchi qator manbalar mavjud.

Temuriylar hukmronligi davrini yorituvchi manbalar to`g`risida shuni ta'kidlash joizki, Amir Temur davriga oid manbalarning aksariyatida temuriylar davri tarixi ham qisman eki keng yoritilgan. Masalan, birinchi savolda ko`rib o`tilgan Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Ibn Arabshohnning "Temur tarixi", Abdurazzoq Samarqandiyning "Matla' us-sadayn" kabi asarlarida buni ko`rish mumkin.

"Zafarnoma" bilan "Temur tarixi" asarlarida temuriylar hukmronligining 1405-1408 yillardagi tarixi, ya`ni Temur vafotidan keyin Xalil Sulton tomonidan taxtning egallanishi, Xalil Sulton bilan Shohrush Mirzo o`rtasidagi kurash, Xalil Sultonning Shayx Nuriddinlar bilan olib borgan kurashi, Xalil Sultonning asir qilinishi va uning Shohruh tomonidan ozod qilinishi, Shohruhning Mavarounnahrdagi ota taxtini qo`lga kiritishiga oid voqealar bayon etiladi.

Temuriylar davri tarixini o`rganishda Abdurazzoq Samarqandiyning "Matla' us-sadayn" asari alohida o`rin tutadi. Abbdurazzoq Samarqandiy 1438 yili o`zining qozi Azududdinning arab tili grammatikasining ba`zi masalalariga (yuklama va olmoshlarga) bag`ishlangan "Risola-yi Azudiya" kitobiga yozgan sharhini yozib tamomladi va Shohruhga taqdim qildi. Hukmdor asar bilan tanishib esh olimdagisi ulkan salohiyatni ko`rib, uni saroy xizmatiga (devoni inshoga) tayin qildi. Shu vaqtadan boshlab to 1463 yilgacha qadar Abdurazzoq Samarqandiy dastlab Shohruh, so`ngra Abulqosim Bobur (1451-57) va boshqa Temuriy shahzodalarning saroyida xizmat qildi.

Abdurazzoq Samarqandiy ko`proq boshqa davlatlar bilan olib boriladigan yozishmalar, shuningdek elchilik ishlari bilan mashg`ul bo`lgan. Masalan, u Shohruh davrida 1441 yili Janubiy Hindistonga elchi qilib yuboriladi. Kalikut shahrida hamda Vijayanagar knyazligida bo`lib, oradan 2 yil o`tgach, 1444 yili dekabrda Hirotga qaytib keladi. Mazkur elchilik Temuriylar davlatining Hindiston bilan munosabatlarni mustahkamlash va rivojlantirishda katta rol o`ynadi. Abdurazzoq Samarqandiy Hindiston safari vaqtida ko`rgan-bilganlarini to`plab bir xotira sifatida yozib qoldirgan va bu Temuriylar davlati bilan Hindistonning o`sha vaqtidagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, ayniqsa Xindistonning ijtimoiy va madaniy hayotini o`rganishda katta o`rin tutadi.

Abdurazzoq Samarqandiy 1447 yili Shohruhning topshirig`i bilan Gilonga bordi va uning hokimi amir Muhammad bilan muzokaralar olib bordi. O`sha yili u misrga elchi qilib tayinlandi, lekin Shohruhning vafoti tufayli bu missiya amalga oshmay qoldi.

Abdurazzoq Samarqandiy Abulqosim Bobur xizmatida bo`lgan kezlarida uning harbiy yurishlarida, masalan, 1453 yili Mozandaron va 1454 yili Samarqand ustiga qilgan yurishlarda qatnashdi. 1463 yili Sulton Abu Said (u Hirotni 1458 y. Egallagan) uni Hirotdagi Shohruh xonaqosiga shayx qilib tayinladi va Abdurazzoq umrining oxirigacha o`sha manzilda istiqomat qilib, asosan ilmiy ish bilan mashg`ul bo`ldi.

Abdurazzoq Samarqandiy yirik tarixshunos olim sifatida nom qoldirdi. U Eron va O`rta Osiyoning XIV-XV asrdagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotidan, shuningdek, Temuriylar davlatining qo`shti mamlakatlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalari tarixidan bahs yorituvchi "Matla' us-sa'dayn va majma' ul-baxrayn" (Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo`shilishi o`rni) deb ataluvchi asari bilan mashhur bo`ldi. Asar 1467-69 yillar orasida yozilgan.

"Matla' us-sa'dayn" 2 qismidan iborat: 1) Elxon Abu Said (1317-1335 yy)davridan to Amir Temurning vafoti va Halil Sultonning Samarqand taxtiga o`tirishigacha bo`lgan davr (1304-1405 yy) tarixi va 2) Shohruhning Temuriylar imperiyasining oly hukmdori deb e`lon qilinishidan to Temuriy Abu Saidning o`ldirilishigacha (1469) bo`lgan davr tarixi. Asarning 1427 yilgacha bo`lgan davrni o`z ichiga olgan qismi kompilyatsiya bo`lib, Hofizi Abruning yuqorida tilga olingan "Majmu' at-taroix" kitobi asosida yozilgan.

"Matla' us-sa'dayn"ning 2 qismi, xususan uning 1427-1468 yillar voqealarini o`z ichiga olgan qismi original bo`lib, Eron va O`rta Osiyoning shu davr ichidagi ijtimoiy-siyosiy tarixi va madaniy hayotini o`rganishda asosiy manba vazifasini o`taydi. Asarda voqealar xronologik tartibda keltirilgan. Bu hol asardan foydalanishda katta qulayliklar tug`diradi, albatta.

Aburazzoq Samarqandiy va uning mazkur asari rus, sovet va xorijiy mamlakatlar olimlari (B.A.Dorn, V.Bartold, V.F.Minorskiy, A.Yu.Yakubovskiy, Muhammad Shafe' va b.) tomonidan birinchi darajali tarixiy manba sifatida yuksak baholangan.

Asarning qo`lyozma nusxalari Sankt-Peterburg, Toshkent, Dushanbe va xorijiy mamlakatlarning (Angliya, Frantsiya, Hindiston, Eron) kutubxonalarida saqlanmoqda.

Asarning matni pokistonlik sharqshunos olim Muhammad Shafe' tarafidan 1941 va 1049 yillarda Lohurda chop etilgan. Ayrim parchalar rus, ingliz, frantsuz va turk tillarida e'lon qilingan.

Abdurazzoq Samarcandiying Hindistonga qilgan safari bayon etilgan qismi hamda ikkinchi daftarning 1405-1429 yillar voqealarini o`z ichiga olgan birinchi qismi A. O'rboev tomonidan o`zbek tiliga tarjima qilinib, 1960 va 1969 yillari chop etilgan.

Temuriylar davri tarixini o`rganishda Mirxon davri asarlari ham alohida o`rin tutadi. Mir Muhammad ibn sayyid Burxonuddin Xovandshoh ibn Kamoluddin (Muhammad) Mahmud al-Balxiy (Mirxon) o`rta asr tarix fanining ko`zga ko`ringan namoyandalaridan biridir. Ota-bobolari asli buxorolik bo`lib, fiqh ilmida zamonasining etuk olimlari sifatida mashhur bo`lganlar. Masalan, ulardan biri Mahmud ibn Ahmad al-Mahbubiyy fiqh ilmida peshqadam olim bo`lganligi uchun toj ash-shari'a (Shariat toji) nomi bilan mashhur bo`lgan va Sharqning mashhur fiqh olimi, sayyid Burxonuddin Marg`inoniying (1197 y vafot etgan) mashhur "Al-Hidoya" asariga sharh yozgan. Bu sharh "Viqoya ar-rivoyat fi masoil al-Hidoya" ("Hidoya" masalalarini himoya qiluvchi rivoyatlar) deb ataladi. Ulardan yana biri Ubaydulla ibn Mas'ud al-Mahbubiyy (1346 yili vafot etgan) toj ash-shari'a soniy (ikkinchi shariat toji) nomi bilan mashhur bo`lgan va "Sharq al-viqa", "In-nihoya mustasar al-viqa" nomli mashhur kitoblar yozib qoldirgan. Mirxonning otasi sayyid Burxonuddin Xovand shoh ham o`qimishli va keng ma'lumotli kishi bo`lib, Temuriylar hukmronligi davrida Balxga kelib qolgan va o`sha erda vafot etgan.

Mirxon 1433 yili Balxda tug`ildi, lekin umrining ko`p qismini Hirotda o`tkazdi. Hayoti va ilmiy faoliyatiga oid ma'lumotlar kam. Nabirasi Xondamir "Xulosat ul-axbor" kitobida uning haqida quyidagilarni yozadi:"Padarpanoh janob amir Xovand Muhammad yigitlik chog`larida turli ilmlarni tahsil etish va nafis fazilatlarni kamoliga etkazish yo`lida tirishqoqlik va zo`r mehnat qildi... Qisqa vaqt ichida bilimdonlikda zamon fozillarining peshqadami bo`lib oldi. U ko`proq tarix osor-atiqalarini tahqiq qilishga kirishdi. Olijanob xotirini tez fursat ichida bu fanni egallashdan foriq` qildi, ammo fe`lu atvori maishat ahli bilan qo`shilishga yo`l bermadi, zavqu mavqqa berilmadi..., dars berish va amriu ma'rifatga ishtiyoq uning ravshan xotiridan aslo ko`rimmad. Ammo bu hol orzu va omonlikning qiblagohi, ya`ni olijanob, Sulton (Husayn) hazratlari yaqin do`stining (A.Navoiy) huzurlariga borgunicha va uning har turli navozish, marhamat, iltifot hamda muruvvatlarini topmagunlaricha davom etdi". O`shanda, Xondamirning yana guvohlik berishicha, Navoiy unga o`zining "Ixlosiya" xonaqosidan bir hujra ajratib bergen va undan bir tarixiy asar yozib berishni iltimos qilgan. Mirxon bu asarni qisqa vaqt ichida yozib tamomlagan, so`ng, umrining oxirida, bir yil chamasi, Gozirgohda istiqomat qilgan. 1497 yil bahorida Mirxon og`ir kasallikka (sariq suv kasali) chalinib qolib, 1498 yilning 22 iyunida olamdan o`tgan.

Navoiyning ko`rsatmasi va homiyligi bilan Mirxon yaratgan asarning nomi "Ravzat us-safo fi siyrat al-anbiyo va-l-muluk va-l-kulafo" (Payg`ambarlar, podsholar va xalifalarning tarjimai holi haqida jannat bog`i) bo`lib, unda dunyoning "yaratilishi"dan to 1523 yilga qadar O`rta Osiyo, Yaqin va O`rta Sharq mamlakatlarida bo`lib o`tgan ijtimoiy-siyosiy vaqealar bayon etilgan.

"Ravzat us-safo" muqaddima, xotima va 7 jilddan iborat. 1) Dunyoning yaratilishidan to Sosoniy Yazdigard III (632-651) davrigacha o`tgan tarixiy voqealar; 2) Muhammad payg`ambar va xalifayi Roshidin davrida bo`lib o`tgan voqealar; 3) o`n ikki imom tarixi; Umaviya va Abbosiya xalifalari; 4) Abbosiylar bilan zamondosh sulolalar; 5) Chingizxon va uning avlod; 6) Amir Temur va uning zamonidan to Sulton Abu Said o`limigacha (1469) bo`lib o`tgan voqealar; 7) Sulton Husayn va avlodining tarixi (1523 y gacha). Lekin asarning so`nggi 7chi jildi musavvadaligicha, Xondamirning guvohlik berishicha, sodir bo`lgan ba`zi ishlar va sozibqiron hazratlari bilan (husayn bilan) yuz bergen ahvol tufayli (uning o`limi tufayli) yo`qolgan. Bu jild keyinchalik Xondamir tarafidan yozilib asarga qo`shib qo`yilgan.

Asarning 1-5 jildlari mustaqil ahamiyatga ega emas. Uning so`nggi qismlari 6 jildning bir qismi va 7 jildi original bo`lib, XV asrning ikkinchi yarmi tarixini o`rganishda katta ahamiyat kasb etadi. Asarning qo`lyozma nusxalari jahon kutubxonalarining ko`pchiligidagi saqlanadi. Matni Bombe (1845, 1848), Tehron (1853-57, 1960) va Lakxnavda (1874, 1883, 1891) chop qilingan. Asardan ayrim parchalar rus, frantsuz, ingliz va nemis tillarida chop etilgan. Asarning eski o`zbek hamda turk tillariga qilingan tarjimalari ham mavjud.

Temuriylar davri manbashunosligi tahlili shuni ko`rsatadiki, manbalarda e'tibor ko`proq Ulug`bek hayoti va faoliyatiga qaratilgan. Ulug`bek hayoti va faoliyati to`g`risida G`iyosiddin Ali, Nizomiddin Shomiy, Hofizi Abru, Ibn Arabshoh, Sharafiddin Ali Yazdiy asarlarida qisman

ma'lumotlar berilgan. Ulug`bek davriga yaqin bo`lgan qimmatli asarlardan yana biri Abdurazzoq Samarqandiyning "Matla' us-sa'dayn" solnomasıdır. O`z davrida Abdurazzoq Samarqandiy Ulug`bek observatoriyasını borib ko`rgan. Shuning uchun ham asarda muallif biz uchun qimmatli bo`lgan observatoriyasining binosi baland va doiraviy shaklda bo`lganligi, uning ichida doirali osmon qubbasi, 7 harakatdagi yulduzlar tasviri bo`lgan rasm va chizmalar to`g`risida ma'lumotlarni bergen.

Mirxond ham "Ravzat us-safo" asarida Ulug`bek to`g`risida ezadi. Undagi muhim xabarlar qatoriga rasadxona qurilishi va obodonlashtiruvida Ulug`bekning safdoshlari qatnashganligini kiritishimiz mumkin. Bu bino "aniqlik va ijтиҳод ila qisqa vaqt ichida qurib bitirildi".

Ulug`bek va uning zamondoshlari haqidagi ma'lumotlarni uning dahshatli o`limidan 40 yil so`ng tasnif etilgan Davlatshohning "Tazkirat ush-shuar" (892 xijriy (1486-87 yy milodiy) nomli mashhur baezida uchratishimiz mumkin. "Ulug`bek, -deb ko`rsatadi Davlatshoh, - olimlikning yuqori darajasiga ko`tarildi. Ikki shoxli Iskandar Zulqarnayn davridan hozirgacha hokimiyat boshida Ulug`bek singari podshoh-olim bo`lImagen. U ... rasadxonaga asos soldi... boshqa olimlar, jumladan ilm ahli va fozillar shuhrati Qozizoda Rumiy va Mavlono G`iyosiddin Jamshid Koshiy bilan birgalikda Rasadxona qurilishini tugatdi hamda "Sulton ziji"ni yozib tugatdi. Ulug`bek boshqarish va sud ishlarida tahsinga sazovor qoidalarga roya qilar edi." G`iesiddin Koshiyning o`z otasiga Samarqanddan Koshonga yozgan xatining to`liq tarjimasini keltirish mumkin. Mazkur xatda Ulug`bek, uning xodimlari, Samarqand rasadxonasini qurish va jixozlash haqida qimmatli xabarlar zikr etilgan.

Temuriylar sulolasidan chiqqan davlat arbobi, shoir va adib Zahiriddin Muhammad Bobur o`zining "Boburnoma"sida Ulug`bek Mirzo qurban binolar qatorida rasadxonani atab, uning uch qavatlari bo`lganligi haqida qimmatli ma'lumot qoldirgan.

Ulug`bek davri epigrafik obidalari qatoridan 1425 yilda Ilon o`tdi darasida bitilgan yodgorlik ton yozuvini qayd etishimiz lozim. Ushbu yodgorlikda Ulug`bek o`zi olib borgan harbiy harakatlari munosabatlari bilan "Ulug` sulton, dunyo xalqlari sultanatlarini zabit etuvchi, Alloh taolloning erdag'i ko`lankasi" sifatida tavsiflanadi.

XVI asr qo`lyozma asarlari ichida Bobur ma'lumotlaridan tashqari, Ulug`bek haqidagi xabarlarni Zaynuddin Vosifiyning (1517-1539) "Badoye' ul-vaqoe", Muhammad al-Balxiyning (1575 y) "Nodir xabarlar majmuasi", Ahmad ibn Ali al-Balxiyning "Xalq xotirasidagi qikmatlar xazinasi", noma'lum muallifning "Ajoyib al-akbar", Hofiz Tanishning (1584 y) "Sharafnama-yi shohiy", Amin Ahmad Roziyoning (1593 y) "Haft iqlim", al-Hasaniy al-Majdiyning (1595 y) asarlarini ko`rsatish mumkin.

Ulug`bekning "Tarixi arba' ulus" asari ayrim tadqiqotchilar fikricha, Ulug`bekning o`zi bo`lImagen taqdirda ham, aniq uning boshchiligi va bevosita ishtirokida yozilgan. Har qanday sharoitda nomi zikr etilgan asar Ulug`bekning har taraflama rivojlangan, qobiliyatli olim ekanligini isbotlaydi.

Ulug`bek safdoshlari ijodi haqida gapirliganda, Qozizoda Rumiyning "Bir gradus sinusini aniqlash haqida risola"si birinchi galda eslatilar edi. Lekin ma'lum bo`lishicha, bu asar ham Ulug`bek qalamiga mansub ekan. Ma'lumki, Ulug`bek yuksak madaniyatli kishi bo`lgan. U o`z tili turkiy (chig`atoy, eski o`zbek) tilidan tashqari, arab va fors tillarini yaxshi bilgan. U she'rlar ham ezib turgan. Afsuski, bu she'rlarning matnlari so`nggi davrlargacha noma'lum bo`lib qolaetir. Faqatgina birgina bizning davrimizga yaqin zamonda yashagan shoir uning ne'rleridan namuna keltiradi. Shunisi diqqatga sazovorki, Ulug`bekning buyuk zamondoshlari adiblar Mavlono Sakkoki va Mavlono Lutfiy, Mirzoning shoirlik mahoratini yuqori baholaganlar. Ehtimol, Ulug`bek o`z she'rlarini biror taxallus, mumkinki Durbek nomi bilan bitgan. Lekin bu ehtimol dalillarni talab etadi.

Shuni eslatib o`tish joizki, Ulug`bek o`z mashhur bobosi Amir Temurga hurmat va e'zoz hissi bilan qaragan. Masalan, Temur vafotidan so`ng uning nomi temuriylar zarb etgan tangalardan o`chib ketadi. V.Bartold qayd etishicha, faqat Ulug`bekkina sulola asoschisi xotirasiga sodiq qoladi. Biz Ulug`bek chiqqargan tangalardan shu so`zlarni o`qiyimiz:"Amir Go`rogan ximmatidin Ulug`bek Go`rogan so`zimiz". Ulug`bek shaxsini va uning davrini tushunishda manbalar ichida uning fandagi yaqin safdoshlarining hayoti va faoliyati haqidagi, ularning astronomik asarlari haqidagi sharq qo`lyozmalaridagi ma'lumotlar katta o`rin tutadi. Ulug`bekning bebaho xizmatlari qatoriga Samarqand observatoriyasida ishslash uchun yirik astronom va matematiklarni u tomonidan taklif etilishi; ularning sermahsul faoliyati uchun barcha sharoitlarning yaratilishimiz mumkin. Samarqand astronomik matabining dunyo faniga qo'shgan ulkan hissasini, uning ish natijalarini ilmiy baholash uchun Ulug`bek ustozlari, safdoshlari va o`quvchilarining ulushini hisobga olmasdan

belgilash mumkin emas. Shu sababdan ularning hayoti, ilmiy faoliyatini o`rganish, ular qoldirgan ilmiy merosni nashr etishga bo`lgan qiziqish kattadir. Bizning kunlarda Ulug`bek safdoshlari astronom va matematiklarning asarlarini yorituvchi maxsus adabiet mavjuddir. Ulug`bek zamondoshlari ichidan "O`z davri Aflatuni" Salohiddin Musa iyubn Muhammad ibn Mahmud Qozizoda Rumiy (1360-1437), G`iesiddin Jamshid Koshiy (1430 yili vafot etgan), Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchi (1402-1474)larni sanab o`tishimiz kerak. Ular haqida kitoblar, ularning o`zlarining asarlari ko`plab nashr etilgan. Barcha tadqiqotchilarining isbotlashicha, Ulug`bek astronomiya maktabi vakillarining ilmiy fikrlari umumjahon tabiiy fanlarining rivojlanishi uchun mal`um ahamiyatga ega bo`lgan.

Yuqorida manbalar tahlilidan ko`rinib turibdiki, temuriylar davri tarixini o`rganishda manbalarni o`rganish juda ham muhimdir. Shuning uchun ularni har tomonlama tadqiq etmoq lozim.

#### NAZORAT TOPShIRIQLARI:

- Mirxondning asarini toping
- A. Matla' us-sadayn
- V. Ravzat us-safo
- S. Zafarnoma
- D. Tarixi jahonkushoi
- E. Badoye' ul-vaqoye'

Manbalarni yaratilgan yiliga qarab xronologik ketma-ketlikda joylashtiring

- A. Boburning "Boburnoma" asari
- V. Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asari
- S. Shahobuddin Nasaviyning "Sirot us-sulton Jaloluddin Menkburni" asari
- D. Mirxondning "Ravzat us-safo" asari
- E. Samarqandiyning "Matla' us-sa'dayn" asari

1) Temuriylar davriga oid manbalar

2) Arablar bosqiniga oid manbalar

- |                      |                          |
|----------------------|--------------------------|
| A. Zubdat ut-tavorix | F. Anonim Iskandar       |
| V. Madoiniy          | G. Tarixi Yaminiy        |
| S. Tarix             | H. Zafarnoma             |
| D. Tabariy           | I. Kitob futux ul-buldon |
| E. 1425 yil          |                          |

Ulug`bekning "To`rt ulus tarixi"ni tahlil qiling (og`zaki)

Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" va Ibn Arabshohning "Temur tarixi" asarlarini temuriylarga oid qismini qiyosiy konspekt qiling

Adabiyotlar:

Ahmedov B. O`zbekiston xalqlari tarixi manbalari.- T.,1991

Ulug`bek. To`rt ulus tarixi.- T.,1994

Temur va Ulug`bek davri tarixi.- T.:Komuslar bosh nashrieti, 1996.

Mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar:

- 1.
- 2.
- 3.

#### 6 mavzu: XV-XVI asrlarga (Shayboniyar) hukmronligiga oid yozma manbalar

2-soat

Fanni o`qitish texnologiyasi:

**“MANBASHUNOSLIKNING PREDMETI VA VAZIFALARI”**  
**mavzusi bo`yicha ma'ruza darsining texnologik xaritasi**

| Nº<br>Bosqich | Bajariladigan ish mazmuni   | Amalga<br>oshiruvchi<br>shaxs, vaqt |
|---------------|---|-------------------------------------|
|               | <b>Tayyorlov bosqichi</b><br><b>1.1 Dars maqsadi:</b> XVI asrda yaratilgan fors tilidagi manbalarda |                                     |

|   |   |                                   |
|---|---|-----------------------------------|
| 1 | <p>, O`zbekiston tarixining yoritilishini ko`rsatib berish, talabalarni tilidagi manbalarni o`rganishga qiziqtirish, ularni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash.</p> <p><b>1.2.Identiv maqsadlar:</b></p> <p>O`zbekiston tarixining Shayboniyxonlar davrining yorituvchi eski o`zbek tilidagi manbalarni biladi..</p> <p>Shayboniylar davridagi eski o`zbek tilidagi manbalarni mazmun-mohiyatini tushunadi.</p> <p>Eski o`zbek tilidagi manbalarning O`zbekiston tarixini o`rganishdagi ahamiyatini aniqlaydi.</p> <p>Shayboniylar davrida yaratilgan eski o`zbek tilidagi manbalarning mamlakatimiz tarixini o`rganishdagi ahamiyatini umulashadiradi.</p> <p>O`zbekiston tarixining XVI asrdagi davrini tadqiq etishda eski o`zbek tilidagi manbalarning o`rni va roliga baho beradi.</p> <p><b>1.3.Asosiy tushunchalar:</b> "Tavorix-i guzide. Nusratnoma", Bobur, Muhammad Solih, "Shaybonynoma", "Mehmonnoma-i Buxoro", Xondamir, "Sharafnama-yi shohiy", Hofiz Tanish Buxoriy.</p> <p><b>1.4.Dars shakli:</b> Ma`ruzsa</p> <p><b>1.5.Metod va usullar:</b> Ogzaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum</p> <p><b>1.6.Kerakli jihoz va vositalar:</b> O`quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor.</p> | O`qituvchi                        |
| 2 | <p>Oquv mashg`ulotni tashkil qilish bosqichi:</p> <p>2.1. Mavzu e`lon qilinadi.</p> <p>2.2. Ma`ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.</p>   | O`qituvchi<br>30 min.             |
| 3 | <p><b>Guruhdha ishlash.</b></p> <p>Mavzu bo`yicha talabalarning fikrini bilish;</p> <p>Talabalarda tahlil qilish qobiliyatini kuchaytirish;</p> <p>Talabalarni bahsga jalb qilish.</p>  | O`qituvchi –<br>talaba<br>30 min. |
| 4 | <p><b>Mustahkamlash va baholash:</b></p> <p>Berilgan ma'lumotni talabalar tomonidan o`zlashtirilganini ani?lash uchun quyidagi savollar beriladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ XVI asrda yaratilgan fors tilidagi manbalarni aniqlang.</li> <li>✓ "Mehmonnoma-yi Buxoro" asari yozib tamomlangan vaqtini toping.</li> </ul>   | O`qituvchi –<br>talaba<br>10 min. |
| 5 | <p><b>O`uv mashg`ulotini yakunlash.</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Ma`ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo`yicha yakuniy fikr aytildi va mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi</li> </ul> <p><b>Mustaqil ish topshirig`i:</b></p>  | O`qituvchi<br>10 min.             |

#### Asosiy savollar:

Shayboniylar davri tarixini yorituvchi eski o`zbek tilidagi manbalar.

Fors tilidagi manbalarda shayboniyxonlar davri tarixining aks ettirishi.

1- Asosiy savol:

**Shayboniylar davri tarixini yorituvchi eski o`zbek tilidagi manbalar.**

#### Bayon:

Shayboniyxonlar hukmronligi davri, ya`ni XVI asrdagi O`zbekiston tarixini o`rganishda, tadqiq etishda XVI asrda yaratilgan eski o`zbek tilidagi manbalarning o`rni beqiyosdir. Buni quyidagi manbalar misolida ko`rish mumkin.

"Tavorix-i guzide, Nusratnoma". Muallifi noma'lum: tadqiqotchilar orasida bu xususda turlicha fikrlar mavjud. Masalan, P.I.Lerxning so`zlariga qaraganda, asar mashhur mutasavvuf shoir Jaloluddin Rumiying o`g`li Sulton Valad tarafidan yozilgan. Lekin Sulton Valad mazkur asar yozilmasdan qariyb 300 yil muqaddam (1226-1312 y) oldin yashagan. O`z-o`zidan ko`rinib

turibdiki, bu fikr haqiqatdan tamoman yiroq. A.A.Semenov, R.G. Muqminova va V.P. Yudin "Tavorix-i guzide Nusratnoma" Shayboniyxon tomonidan yoki uning faol ishtiroki bilan yozilgan, deb hisoblaydilar. Asarning chuqur va atroficha o`rgangan yana bir olim- A.M.Akramovning fikricha, "Tavorix-i guzide, Nusratnoma" mashhur "Shayboniynoma" dostonining muallifi shoir Muhammad Solihning qalamiga mansubdir. Afsuski, bu fikrlarga ham qo'shilib bo`lmaydi. Asar muqaddimasida noma'lum muallif o`zini "ojiz", "g`arib", "hokisor" deb ataydi va Munkeqoon nomiga yozilgan "Tavorix-i jahonkushoy", G`ozonxonning qizi otiga bitilgan "Tavorix-i guzide" va Ulug`bek Mirzo nomidan yozilgan "Muntaxab at-tavorix-i shohiy" nomli kitoblardan saylab tortib qilish haqida buyruq olganligi va unga Shayboniyxon tarixini ham qo'shib bir asar yaratganligi va asarga "Tavorix-i guzide,Nusratnoma" deb ot qo'yilganligini ochiq aytgan. O`z-o'zidan ko`rinib turibdiki, mazkur asar Shaybonixonning topshirig`i bilan saroyga yaqin turgan tarixchilardan biri tomonidan yaratilgan.

"Tavorix-i guzide, Nusratnoma" 1502-1505 yillar orasida yozilgan bo`lib, ikki mustaqil qismdan- "Tavorix-i guzide" va "Nusratnoma"dan iborat. Birinchi qismda O`g`izzon va qadimgi turklar, Chingizzon hamda uning Mo`g`uliston, Dashti Qipchoq, O`rta Osiyo va Eronda hukmronlik qilgan avlod tarixi; ikkinchi qismda esa Shayboniyxon tavalludidan to uning O`rta Osiyoni istilo qilishigacha (1500-1505), Dashti Qipchoq hamda O`rta Osiyoning ijtimoiy-siyosiy ahvoli bayon qilingan.

Asar, aynqsa uning ikkinchi qismi zo`r ilmiy qimmatga ega. Unda Shayboniylar ko`shinining tuzishi, uning etnik tarkibi, shuningdek ko`chmanchilarning Qorako`l, Hisor, Chag`oniyon, O`ratepa hamda Xo`jand viloyatlarida qilgan yovuzliklari haqida qimmatli ma'lumotlar bor. Asarning yana bir qimmati shundaki, unda muhim tarixiy voqealarning sodir bo`lgan vaqtani aniq ko`rsatilgan. Bundan tashqari, Shayboniy qo`shinlari tarafidan Farg`ona viloyatining bosib olinishi faqat "Nusratnoma"da to`la va to`g`ri yoritilgan.

"Tavorix-i guzide, Nusratnoma" ning faqat ikkita qo`lyozma nusxasi bizgacha etib kelgan. Ulardan biri Leningradda, ikkinchisi esa Angliya (Britaniya muzeyida) saqlanmoqda. Asarning fotomatni zarus izohlar va tadqiqotlar bilan, 1967 yili Toshkentda chop etilgan. Undan ayrim parchalar (rus tilida) 1969 yili Almatida V.P.Yudin tomonidan e'lon qilingan.

Muhammad Solih (1455- taxm.1535 yy). Hayoti haqida quyidagilar ma'lum: turkiyzabon bilkut qabilasidan chiqqan; Shohruk va Ulug`bek davrida zo`r nufuzga ega bo`lgan amir Shohmalikning nabirasi. Otasi amir Nur Saidbek ham Mirzo Ulug`bek, so`ngra Sulton Abu Said Mirzo xizmatida bo`lgan; 1464-1467 yillari Xorazmda hokim bo`lgan va 1467 yili Sulton Abu Saidning amriga binoan qatl etilgan. Muhammad Solihning yoshligi Hirotda o`tgan va o`sha erda o`qib ta'lif olgan, so`ngra Sulton Husayn, 1494 yildan Samarqandda Darvish Muhammad tarhon va Xoja Ahrorning o`g`li xoja Muhammad Yahyo, 1500 yildan esa Shayboniyxon xizmatitda bo`lgan. 1500-1504 yillari Buxoro va Chorjo`y hokimi bo`lib shundan keyin to vafotiga qadar Shayboniylardan Mahmud Sulton va Ubaydullaxonning kotibi bo`lib ishlagan.

Muhammad Solih Shayboniyxonning hayoti va u olib borgan qonli urushlar haqida hikoya qiluvchi she'riy asar yozib qoldirgan. U Shayboniyxon tug'ilganidan boshlab, to 1505 yillar orasida Dashti Qipchoq, Movarounnahr hamda Xorazmning ijtimoiy -siyosiy tarixidan bahs yuritadi. Asar Shayboniy qo`shinlarining yovuzliklari, mehnatkash xalqning og`ir ahvoli, Qorako`l, Qarshi va G`uzorda Shayboniylarga qarshi bo`lib o`tgan qo`zg`olonlar haqida ham qimmatli ma'lumotlar bor. Asar boy geografik va ethnografik ma'lumotlarga ham ega. "Shayboniynoma" 1505 yildan keyin yozilgan. Uning qo`lyozma nusxalari kam, hozirgacha faqat ikkita nusxasi ma'lum: bulardan biri Venada, ikkinchisi esa Leningrad dorilfununi kutubxonasida saqlanadi. Asar to`rt marta (1885,1908, 1861, 1989 yy) nashr etilgan.

Bobur. (1483-1530). XVI asrda o`tgan yirik olim va iste'dodli shoir. Zahiruddin Muhammad Bobur Farg`ona hokimi temuriy Umar Shayx mirzoning to`ng`ich o`g`li; 1494 yil 5 iyunda 12 yilda otasi o`rniga Farg`ona taxtiga o`tqaziladi. Lekin oradan ko`p vaqt o`tmay, mamlakatda kuchayib ketgan feudal kurash natijasida, aniqrog`i Sulton Ahmad Tanbal bosh bo`lgan feudal guruh bilan kurashda mag`lubiyatga uchrab Farg`onani tashlab chiqishga majbur bo`ladi. Uning 1497-1500 yillari Samarqand taxi uchun olib borgan kurashi ham mag`lubiyat bilan tugadi. Bobur 1504 yilga qadar Farg`ona uchun kurashdi, lekin muvaffaqiyat qozonolmay, 1504 yilning yozida O`rta Osiyoni tark qildi va Afg`onistonga bordi. O'shanda Bobur Afg`onistondagi feudal tarqoqlikdan ustalik bilan foydalandi va Qobulni egalladi.

1511 kuzida Bobur Eron podshosi Ismoil Safaviyning (1502-24) harbiy yordamida Samarqandni egallahsga muvaffaq bo`ldi, lekin uning hukmronligi bir yilga ham etmadidi. 1512

yilning bahorida Ko`li Malik (Xayrobod bilan Qorako`l orasida joylashgan mavze') degan joyda bo`lib o`tgan jangda Shayboniyarning (Ubaydullaxon, Muhammad Temur Sulton, Jonibek Sulton va b) birlashgan kuchlari uni tor-mor keltirdi. Bobur Hisori shodmonga qochdi va qariyb ikki yil mobaynida o`sha viloyatda kun kechirdi va 1514 yili yana Qobulga qaytdi. U 1514-1526 yillar orasida Shimoliy Hindistonga, uni bo`ysundirish maqsadida besh marta qo`shin tortadi, lekin faqat so`nggi urushda (1526) u boy mamlakatni bosib oldi va tarixda Boburiylar (g`arbda Buyuk mo`g`ullar) imperiyasi nomi bilan mashhur bo`lgan feodal davlatga asos soldi.

Bobur o`zining ajoyib lirik shekrlari hamda "Boburnoma" nomli entsiklopedik asari bilan tarixda o`chmas nom qoldirdi. "Boburnoma" memuar tipda yozilgan asar bo`lib, unda Farg`ona, Toshkent, Samarcand, Hisori shodmon, Chag`oniyon Afg`oniston hamda Shimoliy Xindistonning XV asrning 80-90 yillari va XVI asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli yoritilgan. Bundan tashqari, asar geografik hamda etnografik faktlarga boy. Asarning bizgacha etib kelgan qo`lyozma nusxalari, shuningdek nashrlari ham to`liq emas negadir 1509-1518 yil voqealari asardan tushib qolgan.

"Boburnoma" ko`p martaba nashr etilgan. Uning tanqidiy matni U.N.Ilminskiy (1857) va A.Beverej 91905) tomonidan chop etilgan; hozirgi o`zbek imlosida (1960,1982) nashri qilingan. Uning forsiycha (1518), inglizcha (1826,1921), frantsuzcha (1871,1986), turkcha (1943-46), hamda rus tilida (1958) qilingan to`la tarjimalari ham bor. Asardan ayrim parchalar Rossiya va xorijiy mamlakatlarda chop etilgan.

#### NAZORAT TOPShIRIQLARI:

"Tavorix-i guzide, Nusratnoma" asarining muallifini toping.

- A. Muhammad Solih
- V. Bobur
- S. Sulton Valad
- D. Muhammad Shayboniyxon
- E. To`g`ri javob yo`q

Muhammad Solihning "Shaybonynoma" asarining so`nggi nashri nechanchi yil chop etilganligini va uni kim nashrga tayyorlaganligini aniqlang.

- A. A.Semyonov, 1959 yil.
- V. B.Ahmedov, 1999 yil
- S. S.Mirzaev, 1961 yil
- D. A.Ahmedov, 1989 yil
- E. A.Akramov, 189 yil

- 1) Amir Temur davriga oid manbalar.
- 2) Shayboniyxonlar davriga oid manbalar
  - A. Zafarnoma
  - V. 1451 yil
  - S. V.P. Yudin
  - D. G`iyosiddin Ali
  - E. Tauer
  - Yo. "Tarixi jahonkushoyi"
  - J. "G`alaba kitobi
  - Z. 1508-1519 yillar
  - I. 1425 yil.

Muhammad Solihning "Shaybonynoma" asarini tahlil qilish (og`zaki)

Boburning "Boburnoma" asarining Movarounnahr taxti uchun olib borgan kurashi tarixi yoritilgan qismini konsept qilish.

Adabiyotlar:

Ahmedov B. O`zbekiston xalqlari tarixi manbalari T.: O`qituvchi, 1991.

To`ychiboev B. Boburnoma - kobus.- G., 1992

Muhammad Solih. Shaybonynoma.-T.:1989.

Bobur.Boburnoma-T.:Yulduzcha,1994.

2-Asosiy savol

**Fors tilidagi manbalarda shayboniyxonlar davri tarixinining aks ettirilishi.**

Identiv o`kuv maqsadlari:

Shayboniyxonlar hukmronligi davri tarixini yorituvchi fors tilidagi manbalarni biladi.

Fors tilidagi XVI asrda yaratilgan manbalarning mamlakatimiz tarixini o`rganishdagi ahamiyatini sharhlaydi.

Fors tilida yaratilgan manbalarni O`zbekiston tarixini o`rganishda qo`llaydi.

Shayboniylar davrida yaratilgan fors tilidagi manbalarni taxlil qiladi.

XVI asrda yaratilgan eski o`zbek va fors tillaridagi manbalarni O`zbekiston tarixining roli va o`rnini qiyoslaydi.

Bayon:

XVI asrdagi O`zbekiston tarixini o`rganishda shu davrda yaratilgan fors tilida manbalar ham muhim o`rin tutadi. Quyida ularning muhimlari ustida to`xtalib o`tamiz.

Kamoluddin Binoiy. XV-XVI asr boshlarida o`tgan atoqli shoir va tarixchi olim. Xaqiqiy ismi: Ali ibn Muhammad al-Haraviy (1453-1512). Ko`pincha Kamoluddin Binoiy nomi bilan mashhur Hirotda ko`zga ko`ringan me'mor ustod Muhammadxon Sabz oilasida dunyoga kelgan. Yoshlik paytlari og`ir sharoitda, Shohruh vafotidan keyin mamlakatda kuchayib ketgan toju taxt uchun kurash va feodal urushlar davrida o`tdi. 1458 yili Qora qo`yunlilar sulolasidan bo`lgan Jahonshoh (1438-1467) Xurosonda bostirib kirdi va Hirotni egalladi. Lekin oradan ko`p vaqt o`tmay, 1459 yil Sulton Abu Said qo`shinlarining tazyiqi ostida u shahar va mamlakatni bo`shatib chiqishga majbur bo`ldi. Ushanda Jahonshoh hirotlik 100 nafar hunarmand oilani o`zi bilan birga olib ketdi. Bular orasida me'mor Muhammad Sabz va uning oilasi bor edi. Binoiy qariyib uch yil Sherozda istiqomat qilib, 1561 yili yana Hirota qaytib keldi.

Navoiy, Xondamir va Boburning guvohlik berishiga qaraganda, Kamoluddin Binoiy keng ma'lumotli kishi bo`lib, she'riyat, insho, ilohiyot, musiqa va tarix ilmlarini chuqur bilgan. Bundan tashqari, u me'morlik san'atida ham zamonasining peshqadamlaridan hisoblangan. Muhammad Sabz va uning o`g`li qo`li bilan qurilgan binolar Hirotda va mamlakatning boshqa shaharlarda juda ko`p bo`lgan. Masalan, 1481 yili hozirgi Afg`onistonning Mozori Sharif shahrida (eski nomi Xoja hayron) Ali inb Abi Tolib (956-61) "mozori" tepasiga qurilgan muhtasham maqbara va boshqa binolar shular jumlasidandir. Etuk shoir va olimning "Binoiy" atalishi ham shundan.

Binoiy oradan ko`p vaqt o`tmay, Tabrizga ketib qoldi va 1492 yilga qadar Sulton Ya'qub Oq Qo`yunlu (1478-1490) saroyida xizmat qildi. 1492 yili Binoiy yana Hirota qaytdi, lekin 1495 yil ayrim sabablarga ko`ra (o`zining so`zlariga qaraganda, ba'zi hasadgo`ylarning ig`vosi tufayli), Samarqandga ketib qoldi. U dastlab Xoja Ubaydulla Ahrorning to`ng`ich o`g`li va vorisi xoja Qutbuddin Yahyo, Zahiruddin Muhammad Bobur, so`ngra 1501 yildan to umrining oxirigacha Shayboniyxon huzurida uning saroy shoiri va tarixchisi bo`lib xizmat qildi. 1507 yili Binoiy Shayboniyxon bilan birga Hirota keldi va 1510 yilgacha ona shahrida istiqomat qildi. 1511 yili, shaharga Ismoil Safaviy qo`shinlari yaqinlishishi bilan, u yana Movaraunnahrga ketib qoldi va Qarshi shahrida kun kechirdi. Kamoluddin Binoiy 1512 yili Qarshi mudofaachilari safida turib shaharni qamalga olgan qizilboshlarga qarshi kurashdi va o`sha jangda xalok bo`ldi.

Kamoluddin Binoiy iste'dodli va yirik shoir va ulkan tarixchi olim sifatida mashhur. U O`rta Osiyo va Qozog`istonning XV asrning so`nggi choragi va XVI asrning boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o`rganishda alohida ahamiyatga ega bo`lgan "Shayboniynoma" nomli kitob yozib qoldirdi.

Binoiyning "Shayboniynoma" si ham yuqorida tilga olingan "Tavorix-i guzide, Nusratnomma" va "Fathnama" asarlari bilan bir rejada yozilgan bo`lib, Shayboniyxon tavalludidan to ko`chmanchi o`zbeklar tomonidan Movarounnahr va Xorazmning bo`ysundirilishiga qadar (1505) Dashti Qipchoq va O`rta Osiyoda bo`lib o`tgan tarixiy voqealar haqida hikoya qilinadi. Asar 1505-1507 yillar orasida yozilgan.

Asar 1450-1505 yillar ichida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealarni qisqa, lekin aniq bayon etgan. U muhim geografik hamda etnografik faktlarga benihoyat boy. Bundan tashqari, asarda shayboniy amirlar va askarlarning beboshliklari, ularning bosib olingan shahar va qishloqlarda qilgan talon-tarojlari haqida ham muhim ma'lumotlarni uchratish mumkin.

"Shayboniynoma" ning matni chop etilmagan. Uning qo`lyozma nusxalari ko`p. Faqat O`zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining bir o`zida undan etti nusxa saqlanadi. Bulardan biri (inv.№844) eng ko`hna nusxa bo`lib, Shayboniyxon hayat vaqtida uning kotibi Muhammad Mo`min tarafidan ko`chirilgan, ayrim satrlari esa Shayboniyxonning o`z qo`llari bilan ko`chirilgan. Yana bir e'tiborli nusxa (inv №3422) "Shayboniynoma"ning xorazmlik mashhur tarixchi va tarjimon Muhammad Yusuf BAYONly (1858-1923) tomonidan qilingan o`zbekcha tarjimasidir. Asardan ayrim parchalar rus tilida e'lon qilingan.

Fazlulloh ibn Ruzbehon. XV asrning oxir va XVI asrning birinchi choragida o'tgan yirik olim. To'liq ismi: Fazlulloh ibn Ruzbexon al-Isfahoni bo`lib, ko`pincha xoja Mullo nomi bilan mashhur. Ruzbexon 1457 yili Fors viloyatining Xunji qishlog`ida tug'ilgan. Otasi Jamoluddin Ruzbexon yirik ilohiyot va fiqh olimi va mansabdar bo`lgan. Fazlulloh ibn Ruzbexon asosiy ma'lumotni Isfahon maktablarida va madrasalarida oldi, so`ng bilimini yanada kengaytirishi va chuqurlashtirish maqsadida ikki marta (1474,1482) Arabistonga bordi va yirik ilohiyot olimi shayx Jamoluddin Ardastoniy hamda misrlik mashhur tarixshunos va tilshunos olim Shamsuddin Muhammad as-Sahaviydan (1427-1497) ta'lif oldi.

Xullas, Fazlulloh Ruzbexon o'rta asr fanining bir munkha sohalarini , xususan ilohiyot, fiqh, falsafa, tarix va sharq adabiyotini keng va chuqur egallagan olim bo`lib etishdi. Bu hol uning talaygina hukmdorlar saroyida zo'r e'tibor qozonishiga sabab bo`ldi. Ruzbexon Sulton Yaqub Oq qo`yunlu, Sulton Husayn Boyqaro (1470-1506), Shayboniyxon va nihoyat, Buxoro hukmdori Ubaydullaxon (1533-1539) saroyida xizmat qildi. Eng muhim, u bu sohalar bo'yicha birmunkha yirik ilmiy asarlar yozib qoldirdi.

"Halli tajarrid" ("Abstraktsiyaning hal etilishi"), "Ta'liqot bar muxolot" ("Aqlga sig`maydigan narsalarning izohi"), "Badi'uzzamon fi qissa-yi Xayy ibn Yaqqon" ("Hayy ibn Yaqqon" qissasida zamон badi'alari"), "Tarix-i olamoroyi Aminiy" ("Aminiyning jahonga bezak bo`luvchi tarixi"), "Abtal nahj al-botil va axmal kashf al-o'til" ("Noto`g`ri yo`ldan voz kechish va bid'atni inkor etish"), "Suluk al-muluk (Podsholarning xulq-atvori haqida risola), "Sharhi "Qasida-yi burda" al-Busiriy" (Al-Busiriyning "Payg`ambarlarning jandası" risolasining sharhi), "Mehmonnoma-yi Buxoro" shular jumlasidandir.

O'rta Osiyo va Qozog`istonning XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrning boshlaridagi tarixini o`rganishda Ruzbehonning keyingi asari, ya'ni "Mehmonnoma-yi Buxoro" zo'r qimmatga ega. Mazkur asar 1509 yilda ezib tamomlangan. "Mehmonnoma-yi Buxoro" Shayboniyxonning 1509 yil qish oylarida qozoq sultonlari Jonish sulton, Ahmad sulton va boshqalarning ulusi ustida qilgan bosqinchilik yurishi tarixini bayon etadi. Bu yurish Ruzbehon keltirgan ma'lumotlarga qaraganda, mazkur sultonlarning 1508 yilning kuzida, 1508-1509 yilning qish oylarida Movarounnahrning o'troq rayonlari ustiga qilgan talonchilik xurujiga javoban qilingan. Ruzbehon bu yurishda shaxsan ishtirot etgan, yuz bergan voqealarning ko`pchilagini o`z ko`zi bilan ko`rgan, ba`zilarini esa xon va uning yaqin kishilaridan eshitgan. XV asrning ikkinchi yarmiga oid, shuningdek o`zbek va qozoq xonlarining kelib chiqishi hamda ularni o`zaro munosabatlari haqidagi voqealar esa Shayboniyxon qo`lida bo`lgan "Nasabnama" asosida yozilgan.

Asarning biz uchun qimmati shundaki, unda Dashti Qipchoq, Turkiston va qozoq ulusining geografik holati, o`zbek va qozoqlarning kelib chiqishi, etnik tarkibi, turish-turmushi, urf-odati, shuningden feodallarning xo`jaligida qo`l mehnatidan foydalanish hollari haqida benihoyat qimmatli ma'lumotlar bor.

Mazkur asar Shayboniyxon va ko`chmanchi o`zbek feodallarining maqsad va manfaatlarini ko`zlab yozilgan. Masalan, Ruzbehon Shayboniyxonning qozoq ulusi ustiga qilgan bu bosqinchilik yurishini g`ayridinlarga qarshi qilingan g`azot, deb ataydi va bu bilan uning yovuzliklarini oqlamoqchi bo`ladi. Shuning uchun ham asar va unda keltirilgan materialdan foydalanganda uning mana shu tomoniga e'tibor berish zarur.

Asarning qo`lyozma nusxalari kam. Hozircha uning faqat ikki nusxasigina aniqlangan. Ulardan biri avtograf bo`lib O`zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida (inv №1414) saqlanmoqda. Ikkinchisi Turkiyada, "Nuri Usmoniya" kutubxonasidadir (inv №3431). Asarning matni, keyingi nusxa asosida, eronlik mashhur sharqshunos olim Minuchehr Setude tarafidan 1962 yilda Tehronda chop etilgan. "Mehmonnoma-yi Buxoro"ning qisqartirilgan ruscha tarjimasi 1976 yili R.P.Jalilova tomonidan nashr etilgan.

Xondamir (1475-1535 yy). XV asr oxiri va XVI asrning birinchi yarmida o'tgan yirik tarixchi olim. To`la ismi: G`iyosiddin Muhammad ibn xoja Xumomuddin Muhammad ibn xoja Jaloluddin Muhammad ibn xoja Burxonuddin. Otasi xoja Xumomuddin Muhammad Temuriy Sulton Mahmud mirzoning (1459-1494 yy) davrida Chag`oniyon, Xuttalon, Qunduz, Bag`lon va Badaxshon hokimi) vaziri bo`lgan. Ona tarafdan u yuqorida tilga olingan Mirxondning nabirasidir.

Xondamir 15-16 yoshlarida A. Navoiyning e'tiborini qozonadi va xizmatiga qabul qilinadi. U to Navoiyning vafotiga qadar uning boy kutubxonasiga mutasaddiylik qildi. Xondamir o`zining keng ma'lumoti, ilm-fanga bo`lgan intilishi va salohiyati bilan ko`planning tahsiniga sazovor bo`ldi.

Uning haqida, masalan, "Majolis un-nafois"da (1490 y yozilgan) mana bularni o`qiymiz: "Mavlono Xondamir Mirxondning farzandidir va salohiyatlari yigitdir. Tarix ilmida mahorati bor".

Navoiy vafot etgan so`ng Xondamir mamlakatda kuchayib ketgan o`zaro urushlar ayniqsa, saroyda avjiga mingan fisqu-furuj tufayli Balxga ketib qoldi va Badi'uzzamon Mirzoning (1496-1506 yy Balx hokimi)xizmatiga kirdi. Hirot ko`chmanchi o`zbeklar tarafidan ishg`ol qilingandan keyin, Zahiriddin Muhammad Bobur huzuriga ketib qoldi. Bobur Movarounnahrdan surib chiqarilgach (1512y), Xondamir Garchistonga bordi va to 1514 yilgacha Pasht qishlog`ida istiqomat qildi va ilmiy ish bilan mashq`ul bo`ldi. 1514-1517 yillari Xondamir o`sha yillarda Balx uchun kurash olib borgan Muhammad Zamon (Badi'uzzamon Mirzoning o`g`li) bilan birga bo`ldi va uning shaxsiy kotibi bo`lib xizmat qildi. Muhammad Zamon mirzo qizilboshlardan engilgach, Xondamir yana Garchistonga qaytib keldi va ilmiy ishlarini davom ettirdi.

1521 yili Xondamir vazir Habibullo Sovajiyning taklifi bilan Hirotga qaytib bordi va uning topshirig`i bilan o`zining yirik tarixiy asari "Habib us-siyar"ni yozishga kirishdi. Oradan olti yil o`tgach, 1527 yilning iyul oyida Xondamir Hirotni yana tark etdi va Hindistonga qarab jo`nadi. qishni Qandahorda o`tkazib, 1528 yilning 17 sentyabrida Agraga keldi va Boburning xizmatiga kirdi. Uning vafotidan keyin esa Humoyun bilan birga bo`ldi. Xondamir 1535 yili vafot etdi va o`zining vasiyatiga binoan Dehlida, shayx Nizomuddin avliyo mozorida buyuk shoir Xusrav Dehlaviy yoniga dafn etildi.

Xondamir sermahsul olim. U O`rta Osiyo, Yaqin va O`rta Sharq xalqlari tarixi va madaniyatiga oid o`nga yaqin asar yozib qoldirgan. "Xulosat ul-axbor" ("Tarixlar xulosasi"), "Humoyunnoma", "Maoisir ul-muluk" ("Podsholarning asrdoshlari"), "Nomayi nomiy" (Atoqli maktublar") va "Habib us-siyar" shular jumlasidandir.

Xondamirning ilmiy merosi "Habib us-siyar" (to`la nomi: Habib us-siyar fi axbor afrod ul-bashar"- "Inson xabarlari va fardlarida do`sning tarjimai holi") alohida o`rin tutadi va O`rta Osiyo hamda Xurosonning XV asr oxiri va XVI asrning birinchi choragidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o`rganishda muhim va qimmatli manbalardan hisoblanadi. Asar 1521 -1524 yillar orasida yozilgan. Lekin olim Hindistonda turgan yillari ham asar ustida muntazam ish olib bordi: uni yangi faktlar bilan boyitdi, tahrir qildi asar to`la ravishda 1529 yili yozib tamomlandi.

"Habib us-siyar" umumiy tarix tipida asar bo`lib, muqaddima (iftitoh), xotima (ixtitom) va uch jild (mujallad) dan iborat. O`z navbatida har bir jild to`rt qismga (juz) bo`linadi. Asarning 1-2 jildlari hamda 3 jildning 1-2 qismlari Turkiston xonlari, Chingizzon va uning Mo`g`uliston, Dashti Qipchoq, Movarounnahr va Eronda hukmonlik qilgan avlodni, Mamlyuklar, Kirmon Qoraxitoylari, Muzaffariylar, Luriston, Rustamdar hamda Mozandaron hukmdorlari, Kartlar va Xuroson sarbadorlari tarixini o`z ichiga oladi. 3 jildning 3va 4 qismlari esa original bo`lib, Xuroson va Movarounnahrning XV asrning 90-yillaridan to 1524 yilgacha bo`lgan ijtimoiy-siyosiy ahvolini chuqur va atroficha bayon etadi. Xondamir ham hukmon feodal sinfnинг vakili edi. Shuning uchun ham mehnatkash xalqning og`ir va ayanchli ahvoli uning diqqat-e'tiboridan chetda qolgan. Shunga qaramay, asarda feodal ekspluatatsiya, tinimsiz urushlar tufayli xalqning elkasiga tushgan og`irliliklar xususida ayrim, lekin diqqatga sazovor faktlarni uchratish mumkin. Masalan, asarda o`z aksini topgan 1498 yil Samarqand qamali vaqtidagi shahar xalqining ayanchli ahvoli ( xalq ochlikdan it va mushuk gushtini ham iste'mol qilishga majbur bo`lgan), 1512 yili Qarshi xalqining qizilboshlar va Bobur qo`shini tarafidan qirg`in qilinishi, 1514,1515 yillari Xurosonda yuz bergen ochlik va qahatchilik haqidagi xabarlar shular jumlasidandir. Bundan tashqari, "Habib us-siyar"da muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga oid, masalan, feodal-er egaligi, taxxonlar va suyurg`ol egalari va ularning jamiyatda tutgan o`rni, feodal ekspluatatsiya, temuriylar davlatining ma'muriy tuzilishi haqida qimmatli ma'lumotlar bor. Shuningdek, asar etnografik va geografik materialga ham boy. Asarning qo`lyozma nusxalarini ko`p. Asarning matni Bombey (1857y) va Tehronda (1954y) chop qilingan. Undan ayrim parchalar rus, frantsuz va ingliz tillarida e`lon qilingan.

Hofiz Tanish Buxoriy. (1549-1589). XVI asrda o`tgan buxorolik shoir va yirik tarixchi olim. Otasi Mir Muhammad al-Buxoriy Buxoroning ko`zga ko`ringan boyonlaridan bo`lib, Shayboniy Ubaydullaxonning yaqin kishilaridan bo`lgan; 1550 yil boshlarida Qoshg`arga ketib qolgan va oradan ikki yil chamasi o`tgach, o`sha o`lkada vafot etgan.Hofiz Tanish o`z davrining chuqur va keng ma'lumotli kishilaridan bo`lib, 1584 yili Qulbobo ko`kaltoshning tavsiyasi bilan Abdullaxonning (1583-1598) xizmatiga qabul qilingan va shaxsiy voqeana visi vazifasiga tayinlangan. Hofiz Tanish umrining oxirigacha shu lavozimda xizmat qildi. Ba`zi ma'lumotlarga ko`ra, Hofiz Tanish 1589 yili xotini tarafidan zaharlab o`ldirilgan.

Hofiz Tanish o`zining "Sharafnama-yi shohiy" (Podshohni sharaflovchi kitob") nomli kapital asari bilan nom chiqargan. Asar "Abdullahoma" nomi bilan ham mashhur. O`rta Osiyo va Qozog`iston, shuningden qisman, Afg`oniston va Eronning XVI asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o`z

ichiga oladi. Asar XVI asr 80-yillari oxirlarida yozib tamomlangan. Hofiz Tanishning zamondoshi shoir va adabiyotshunos Mutribiyning guvohlik berishiga qaraganda, asarning oxirga qismini xonning topshirig`i bilan qozi payanda Zominiy yozgan. Lekin bu fikr boshqa manbalar bilan tasdiqlanmaydi. "Sharafnama-yi shohiy" muallifning rejasiga ko`ra , muqaddima, ikki qism (maqola) va xotimadan iborat qilib yozilishi mo`ljallangan. Masalan, muqaddimada odatdagidek oly hukmdorning (Abdullahxon) sha'niga hamdu sano, asarning yozilish sabablari, Abdullaxonning otabobolari, qadimdan Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan turk-mo`g`ul qabilalari, Chingizxon va uning avlodи haqida qisqacha ma'lumot: birinchi maqolada O`rtta Osiyoda 1533-1583 yillar orasida sodir bo`lgan voqealar, ikkinchi maqolada O`rtta Osyo, Qozog`iston va qo`shni xorijiy mamlakatlarda 1583 yildan keyin yuz ber(gan)ishi mumkin mumkin bo`lgan voqealar: xotimada esa Abdullaxonning sifatlari, uning bilan zamondosh bo`lgan shayxlar, olimlar, shoirlar, vazirlar va amirlar, shuningdek Abdullaxon zamonida qurilgan binolar haqida ma'lumot berilishi aytilgan. Lekin asar yozilish jarayonida reja o`zgargan-birinchi va ikkinchi maqolalar qo'shib yozilgan, xotima esa muallifning bevaqt vafoti tufayli yozilmay qolgan.

Muallif asar muqaddimasini yozishda Narshahiyning "Tarix-i Buxoro", shayxuislom Safiuddin Abubakr Abdulloh Balxiyning "Fazoil-i Balx", Istanriyning "Kitob masolik ul-mamolik", Juvayniyning "Tarixi-i jahonkushoy", Rashiduddinning "Jome' ut-tavorix", Mirxondning "Ravzat us-safo", Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" va Muhammad Haydarning "Tarix-i Rashidiy " asarlarida keltirilgan ma'lumotlardan foydalangan. XVI asrning 30-60 yillari orasida yuz bergan voqealar saroya mutazam yuritib turiladigan kundalik daftar, sodir bo`lgan muhim siyosiy voqealarni shohidi bo`lgan keksa kishilarning og`zaki axboroti asosida, 70-80 yillar vokealari esa mualifning shaxsan o`zi qatnashib to`plagan material asosida yozilgan.

"Adullanoma" saj, ya'ni murakkab uslubda yozilgan. Unda she'riy parchalar, "Qur'on" oyatlari va hadislardan parchalar ham ko`p. Asarda siyosiy voqealar bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy xarakterdagi ma'lumotlar (masalan, feudal er egaligining iqto', suyurg`ol, tanhoh kabi shakllari: turlituman soliq va jarimalar: xiroj, ixrojat, tag`or, ulufa, ko`halg`a, madadi lashkar, boj, tamg`a, begor: o`lja va uning feudal jamiyatdagi roli, asirni qulga aylantirish hollari), XVI asr shaharlari va hunarmandchilikning umumiylahvoli: Shayboniyilar bilan Rossiya davlatining ma'muriy tuzilishi, Buxoro xonligi bilan Rossiya, Hindiston va Qoshg`ar o`rtasidagi munosabatlар haqida ham qimmatli faktlar mavjud. Bundan tashqari, asar etnografik hamda topografik ma'lumotlarga nihoyatda boy .

Mazkur asarning qo`lyozma nusxalari ko`p. Tanqidiy matni nashr qilinmagan. Ba'zi parchalar rus tilida ilmiy to`plamlarda e'lon qilingan. Asar 1942-1952 yillari toshkentlik mashhur sharqshunos olimlar Sodiq Mirzaev va oxirga qismi Yunusjon Xakimjonov tomonidan 60-yillarda o`zbek tiliga tarjima qilinib, 1-2 jiddari zarur tuzatishlar , tadqiqot va izohlar bilan 1966 va 1969 yillari chop qilingan; 3-4 jildlari esa nashrga tayyorlangan. Asarning ruscha nashri ham (leningradlik sharqshunos olima M.A.Salohiddinova tomonidan) hozirlanmoqda, uning birinchi qismi 1983, ikkinchisi 1989 yili nashrdan chiqdi.

#### NAZORAT TOPShIRIQLARI:

"Mehmonnoma-yi Buxoro" asari yozib tamomlangan vaqtini toping.

- A. 1501 y
- V. 1505 y
- S. 1509 y
- D. 1510 y
- E. 1512 y

XVI asrda yaratilgan fors tilidagi manbalarni aniqlang.

- A. "Tarixi Mas'udiy", "Sharafnama-yi shohiy"
- V. "Adullanoma", "Shaybonynomma", "Habib us-siyar"
- S. "Shaybonynomma", "Boburnoma", "Abdullanoma".
- D. "Zafarnoma", "Abdullanoma", "Siyosatnoma"
- E. "Boburnoma", "Habib us-siyar", "Mehmonnoma-yi Buxoro"

Manbalarni yaratilgan sanasiga binoan xronologik ketma-ketlikda joylashtiring.

- A. "Boburnoma"
- V. "Zubdat al-asar"
- S. "Fathnoma"

- D. "Habib us-siyar"
- E. "Tavorix-i guzide"
- J. "Abdullanoma"
- Z. "Shayboniynoma"

Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" asarini tahlil qilish (og`zaki).  
 XVI asrlardagi eski o`zbek va fors tilidagi manbalarni qiyosiy konspekt qilish.

Adabiyotlar:

Hofiz Tanish Buxoriy. Abdulanoma. 1-jild T.: Sharq, 1999.

Istoriya Uzbekistana. t .3-T.:Fan, 1993.

Mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar:

- 1.
- 2.
- 3.

## **7-MAVZU: XVII-XIX asrlar Markaziy Osiyo xonliklari tarixini yorituvchi manbalar**

**2 soat**

### **Fanni o`qitish texnologiyasi:**

**“MAVZU: XVII-XIX asrlar Markaziy Osiyo xonliklari tarixini yorituvchi manbalar”  
 mavzusi bo`yicha ma`ruza darsining texnologik xaritasi**

| <b>Nº<br/>Bosqich</b> | <b>Bajariladigan ish mazmuni</b>  | <b>Amalga<br/>oshiruvchi<br/>shaxs, vaqt</b> |
|-----------------------|---|--|
| 1                     | <p><b>Tayyorlov bosqichi</b></p> <p><b>1.1 Dars maqsadi:</b> Xiva xonliginin XVII-XIX asrlardagi tarixini yorituvchi manbalarning mazmun-mohiyatini ochib berish, talabalarni Xiva xonligi taixiga oid manbalarni tadqiq etishga qiziqtirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.</p> <p><b>1.2.Identiv maqsadlar:</b></p> <p>Xiva xonligi tarixini yorituvchi manbalarni bilib oladi.<br/> Xiva xonligi tarixiga oid manbalarni sharhlaydi.<br/> Xiva xonligi tarixiga oid manbalarni xususiyatlarini ko`rsatib beradi.<br/> Xiva xonligi tarixini yorituvchi manbalarni tahlil qiladi.<br/> Xonlik tarixini aks ettirgan manbalarning ahamiyatini umumlashtiradi.<br/> Xiva xonligi tarixini o`rganishda uning tarixini yorituvchi manbalarning roli va o`rniga baho beradi.</p> <p><b>1.3.Asosiy tushunchalar:</b> Xiva xonligi, Abulg`ozixon, "Shajarayi turk va mo`g`ul", Munis, Ogahiy, "Firdavs ul-iqbol", "Shajarayi Xorazmshohiy", Mahmud ibn Vali, "Dastur al-muluk", Muhammad Yusuf munshiy, "Tarixi Muqimxoniy", Muhammad Amin Buxoriy, "Ubaydullanoma", "Tarixi Abulfayzxon", "Tarix-i amir Haydar", Mir Olim buxoriy, Ahmad Donish, Fazliy, Mushrif, "Tarixi muhajiron", Toyib, Nieg Muhammad Xo`qandiy, "Tarixi Shohruhiy".</p> <p><b>1.4.Dars shakli:</b> Ma`ryusa</p> <p><b>1.5.Metod va usullar:</b> Ogzaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum</p> <p><b>1.6.Kerakli jihoz va vositalar:</b> O`quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor.</p> | O`qituvchi                                   |
| 2                     | <p>Oquv mashg`ulotni tashkil qilish bosqichi:</p> <p>2.1. Mavzu e`lon qilinadi.</p> <p>2.2. Ma`ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.</p>   | O`qituvchi<br>30 min.                        |
| 3                     | <p>Guruhda ishlash.</p> <p>Mavzu bo`yicha talabalarning fikrini bilish;</p> <p>Talabalarda tahlil qilish qobiliyatini kuchaytirish;</p> <p>Talabalarni bahsga jalb qilish.</p>  | O`qituvchi –<br>talaba<br>30 min.            |
|                       | <b>Mustahkamlash va baholash:</b>   | O`qituvchi –                                 |

|   |  |                               |
|---|--|-------------------------------|
| 4 | Berilgan ma'lumotni talabalar tomonidan o'zlashtirilganini ani?lash uchun quyidagi savollar beriladi:<br>Ogahiy qalamiga mansub asarlarni ko'rsating.<br>Abulg'ozixon "Shajaratyi turk va mo'g'ul" asarining V bobi kimning tarixiga bag'ishlanganligini toping.<br>Xiva xonligi tashkil topgan sanani aniqlang. | <b>talaba<br/>10 min.</b>     |
| 5 | <b>O'uv mashg'ulotini yakunlash.</b><br>• Ma'ruba va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo'yicha yakuniy fikr aytildi va mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi<br><b>Mustaqil ish topshirig'i:</b>   | <b>O'qituvchi<br/>10 min.</b> |

#### **Asosiy savollar:**

1. Xiva xonligi tarixiga oid manbalar
2. Manbalarda Buxoro xonligi tarixinining yoritilishi
3. Qo'qon xonligi tarixinining manbalarda aks ettirilishi

1-asosiy savol:

Xiva xonligi tarixiga oid manbalar

Bayon:

Xorazm - qadimiylar markazlaridan biridir. Bu tabarruk zamindan o'z vaqtida Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, allomai Zamaxshariy kabi qator buyuk olimlar etishib chiqqanlar va o'rta asr fanining turli sohalari bo'yicha ko'plab ilmiy asarlar ijod etib, jahon madaniyati xazinasiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar.

XVII-XIX va XX asr boshlariga kelib ana shu zamindan Abulg'ozixon (1605-1664), Shermuhammad Munis (1778- 1829), Muhammad Rizo Ogahiy (1809-1874) va Muhammad Yusuf Bayoni (1879-1923) kabi buyuk va zabardast tarixnavislar olimlar, shoirlar va mohir tarjimonlar va davlat arbobi etishib chiqqan edilar. Bular ham qator qimmatli tarixiy va adabiy asarlar ijod etib, o'zbek madaniyati xazinasiga bebafo hissa qo'shdilar va uni yangi-yangi asarlar bilan boyitdilar.

XVII asrda Xiva xoni va tarixnavisi Abulg'ozixon Xorazm tarixi bo'yicha o'zbek tilida tarixiy asarlar ezish ishini boshlab berdi. Keyinchalik XX va XX asr boshlariga kelib, uning bu ajoyib ishini atoqli tarixnavislar Shermuhammad Munis, Muhammad Rizo Ogahiy va Muhammad Yusuf Bayoniylar davom etdilar.

Shunday qilib, mazkur tarixnavislar bir-birlarining ishini davom ettirib, uzoq davrni o'z ichiga qamrab olgan, Xorazm tarixinining o'rganishda ajoyib ma'lumotlarga boy "Shajaratyi turk", "Shajaratyi tarokima", "Firdavs ul-iqbol", "Zubdat ut-tavorix", "Jome' ul-voqeoti sultoniy", "Gulshani davlat", "Shohid ul-iqbol", "Shajaratyi Xorazmshohiy" va "Xorazm tarixi" nomli qator qimatli tarixiy asarlarini ijod etdilar.

Xivalik tarixnavislar tomonidan yaratilgan bu tarixiy asarlarning qo'lyozma nusxalari hozirda Toshkentda UzR FA Sharqshunoslik institutida qo'lyozma asrlar xazinasida va Rossiya FA Sharqshunoslik intsitutining Sankt-Peterburgda saqlanmoqda. Sankt-Peterburgga borib qolganligining sababi, Xiva xonligi chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan vaqtida Xiva xoni saroyida saqlanaetgan qator qimmatbaho ashelar qatori bu asarlar ham Sankt-Peterburgga olib ketilgan edi. Bu haqda ana shu voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan Muhammad Yusuf Bayoni o'zining "Shajaratyi Xorazmshohiy" asarida ko'rsatib o'tgan.

Xiva xonligi tarixini yorituvchi birinchi manba bu Abulg'oziyning qalamiga mansubdir. Abulg'ozixon Xiva xoni (1644-1663 yy): yirik tarixchi olim. 1603 yilda Urganchda tug'ilgan va 1619 yilgacha ana shu shaharda istiqomat qilgan, so'ngra inilari Habash va Ilbars bilan toju taxti uchun bo'lgan kurashda mag'lubiyatga uchrab, Buxoroga qochib bordi va Imomqulixon (1611-1642 yy) saroyidan panoh topdi. Akasi Isfandiyor xon bo'lgach (1623 y), yana Xorazmga qaytib bordi va Urganchga hokim etib tayinlandi. Lekin oradan ko'p vaqt o'tmay (1627 y), u yana o'zaro feodal kurashda, bu gal Isfandiyorxonning o'zi bilan bo'lgan kurashda, mag'lubiyatga uchradi. Bu safar u turkistonga qochib bordi va qozoq xonlaridan Ishimxon (1598-1628 yy) huzurida panoh topdi.

Oradan 1 yil chaması o`tgach, 1628 yili yana bir qozoq xoni - Tursunxon uni Toshkentga olib ketdi va Abulg`ozi Toshkentda 1630 yil oxirigacha istiqomat qildi.

Oradan ko`p vaqt o`tmay, Abulg`ozi Xiva turkmanlarining taklifi bilan yana Xorazmga qaytib bordi, lekin 6 oy o`tar-o`tmas, Isfandiyorxon uni Niso va Durunga bosqinchilik yurishi uyushtirganlikda ayblab hibsga oldi va Eronga, shoh Safi' 1 (1629-1642 yy) huzuriga omonat tariqasida berib yubordi. Abulg`ozi o`shanda Isfahondagi Taborak qal`asiga qamab qo`yildi va shu tarzda Eronda 10 yil atrofida kun kechirdi. 1639 yili Isfandiyorxon vafotidan 1 yil o`tgach, Orol o`zbeklari uni xon qilib ko`tardilar. O`sha yili Abulg`ozi Xivadagi raqiblari ustidan ham g`alaba qozondi va Xiva taxtiga o`tirdi.

Abulg`ozixon "Shajarayi turk" asarida o`zi haqida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi:"Bu fakirga Xudoyi Taolo inoyat qilib, ko`b nimarsa bergan turur Xususan uch xunar bergan turur. Avval sipoxiygarlikning Qonuni va yo`suni. Ikkinchisi, masnaviet va kasoyid va g`azaliet va mukattaot va ruoiet va barcha ash'orni faxmlamaklik, arabi, forsiy va turkiy lug`atlarning ma'nosini bilmaklik. Uchinchi, Odam axdindin to bu damgacha Arabistonda, Eron va Turonda va Mo`g`ulistonda o`tgan podshohlarning otlari va umrlarining va saltanatlarining kam va ziyoda bilmaklik".

Uning o`zi tomonidan keltirilgan bu ma'lumotlarga qaraganda, Abulg`ozixon tarix ilmini, she'riyatni, sipoxiygarlikni yaxshi bilish bilan bir qatorda, arab, fors va turkiy tillarni mukammal egallagan. Ana shunday iste'dod egasi bo`lgan Abulg`ozixon Xorazm tarixiga oid qimatli tarixiy asarlar ijod etgan.

Abulg`ozi 1663 yili toju taxtni o`g`li Anushaga (1663-1687) qoldirib, umrining oxirini butunlay ilmiy ishga bag`ishladi. U 1664 yili vafot etdi.

Abulg`ozixon tarix sahifasida feodal hukmdor sifatida emas, balki keng ma'lumotli olim sifatida ajoyib asarlari tufayli qoldi. U "Shajarayi turk va mo`g`ul" hamda "Shajarayi tarokima" nomli ikki yirik va muhim tarixiy asar yozib qoldirdi.

"Shajarayi tarokima" turkman xalqi va Turkmanistonning o`rtta asrlardagi tarixini o`rganishda bosh manba rolini o`taydi. "Shajarayi turk va mo`g`ul" esa O`zbekistonning XV-XVII asrlardagi tarixini o`rganishda muhim o`rin tutadi. "Shajarayi turk va mo`g`ul" 1664 yili yozilgan, lekin Abulg`ozixonning og`ir dardga chalinib qolishi va tez orada vafot etganligi sababli tamomlanmay qolgan. Asar IX bobining davomi, ni 1644-1663 yillar voqealari Anushaxonning topshirig`i bilan Mahmud ibn mulla Muhammad Urganjiy degan shaxs tomonidan yozilgan. Asarning I-VI boblari ham o`sha Mahmud ibn Muhammad Urganjiyning qalamiga mansubdir.

"Shajarayi turk" asari haqida Abulg`ozixon quyidagicha yozadi:"Tarix hijriy ming tki etmish to`rt (1074 (1663-1664) erdikim, biz bu kitobni ibtido qilduk va taki "Shajarayi turk" deb ot qo`yidik. Taki to`qqiz bob qilduq". Muallif aytganidek, asar qisqacha muqaddima va 9 bobdan iborat. Muqaddimada asosan asarning ezelish sabablari haqida gap boradi. 1 bobda Odam Atodan to Mo`g`ulxongacha, 2 bobda Mo`g`ulxonidan Chingizxongacha, 3 bobda Chingizzonning to`g`ilishidan to vafotigacha, 4 bobda O`gaday qoon va uning Mo`g`ulistonda hukmronlik qilgan avlodi, 5 bobda Chig`atoxon va uning Movarounnahrda podsholik qilgan vorislari, 6 bobda Elxoniylar, 7 bobda Jo`chixon va uning Dashti Qipchoqda podsholik qilgan avlodi, 8 bobda Shayboniyxon va uning Movarounnahr, Qozog`iston, Sibir va Qirimda hukmronlik qilgan farzandlari va, nihoyat, 9 bobda Shayboniyxonning 1511 yildan Xorazmda podsholik qilgan avlodi hukmronligi yillarda yuqorida qayd etilgan mamlakatlarda sodir bo`lgan ijtimoiy-siyosiy voqealar bayon etilgan.

Asarning 1-8 boblari kompilyativ bo`lib, Rashiduddinning "Jome' ut-tavorix", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarlari, shuningdek, 18 ta boshqa tarixiy kitoblar asosida yozilgan. Uning faqat 9 bobi original hisoblanadi va unda Xorazmning 1512-1663 yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixi keng va atroflicha bayon etiladi.

Bundan tashqari asarda muallif zamonida obod bo`lgan shaharlar (Urganch, Vazir, Tirsak, Yangi shahar, Buldumsoz, Bog`obod, Kot, Durun, Qumkent, Mizdarkhan, Dorug`an ota, Baqirg`og, xos minora, Ism Mahmud ota, Chilik), Amudare va dare o`zanining o`zgarishi, xivalik turkmanlarning og`ir ahvoli, XVI-XVII asrlarda Xiva xonligi bilan Buxoro o`rtasidagi siyosiy munosabatlar haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

Abulg`ozixon va uning "Shajarayi turk va mo`g`ul" asari tez orada ilmiy jamoatchilikning diqqat-e'tiborini qozondi. U XVIII asrdayoq bir necha Evropa tillarida: nemis va frantsuz (1726 y), rus (1770 y), ingliz (1780 y) tillariga tarjima qilindi. O`tgan asrda bu asar nemis (G.Ya.Kyor), rus (Ya.O.Yartsev va G.S.Sablukov), frantsuz (P.I.Delizon), turk (Ahmad Vefiq poshsho) tillarida chop etildi. Asar 1897 yili rus, 1913 yili yana turk (Rizo Nur) va 1935 yili fors tillariga tarjima qilindi.

Asarning G.S.Sablukov (1906) va P.I.Delizon (1871-1874) amalga oshirgan nashrlari mukammal va zo`r ilmiy qimmatga egadir.

Xiva xonligi tarixiga oid manbalardan yana biri Munis va Ogahiy asarlaridir. XVIII asrning so`nggi choragi va XIX asrda o`tgan xorazmlik yirik shoir, tarjimon va tarixshunos olimlar.

Munis (asl ismi: Shermuhammad ibn Avazbiy) 1778 yili Xorazmning Kot qishlog`ida dunyoga kelgan. Xiva madrasalarida tahsil ko`rgan. 1800 yildan boshlab xon saroyida kotib bo`lib xizmat qilgan. U 1829 yili 51 yoshda vafot etgan.

Munis atroficha ma'lumot oлган, turli fanlar, ayniqsa adabiyot va tarixdan keng xabardor bo`lgan etuk olim va iste'dodli shoir sifatida tarixda qoldi. U 1806 yilda Eltuzarxonning topshirig`i bilan "Firdavs ul-iqbol" (Jannat bog`i) asarini yoza boshlaydi. Lekin asar ayrim sabablar bilan tugallanmay qolgan. Munis zo`r tarjimon sifatida ham ma'lum. U Mirxondning "Ravzat us-safo" asari tarjimasini ham boshlab bergen va uning birinchi jildini tarjima qilib tamomlagan.

Ogahiy (haqiqiy ismi Muhammad Rizo ibn Erniyozbek) ham asli kotlik va 1809 yili tug`ilgan. Munisning jiyani va uning qo`lida tarbiya topgan. Yaxshi o`qib, turli fanlarni ayniqsa tarix va adabiyotni chuqur egallagan. Munis vafotidan keyin saroyni tark etib, ota kasbi miroblik bilan kun kechirgan. Ogahiy 1874 yili vafot etgan.

Ogahiy ham iste'dodli shoir, tarixnavis olim va tarjimon sifatida mashhurdir. U tog`asi boshlagan "Firdavs ul-iqbol"ni oxiriga etkazdi. Bundan tashqari Ogahiy "Riyoz ud-davla" (Davlatning jannat bog`i), "Zubdat ut-tavorix" (Tarixlar sarasi), "Jome' ul-voqe'oti sultoniy" (Sulton voqealarining majmuasi), "Gulshan ud-davlat" (Davlat gulshani) kabi asarlar ham yozgan. Ogahiy 19 asarni fors tilidan o`zbek tiliga tarjima qilgan. Mirxondning "Ravzat us-safo"si, Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Zaynuddin Vosifyining "Badoe' ul-vaqoe" asarlari shular jumlasidandir.

Munis va Ogahiy Xorazmning qadim zamonlardan to Qo`ng`irot sulolasidan Olloqulixon (1825-1842yy) zamonigacha bo`lgan tarixidan bahs yurituvchi "Firdavs ul-iqbol" nomli muhim asar yozib qoldirganlar.

Asar muqaddima va 5 bobdan iborat. Asar 1806 yili boshlangan va 1840 yili ezib tamomlangan.

Muqaddimada Eltuzarxon nomiga hamdu sano o`qiladi; Munisning mazkur xonning xizmatiga kirish sabablari aytildi. Shuningdek asar mundarijasi keltiriladi. Asarning 1-2 boblari islomiyatdan avval o`tgan payg`ambarlar, eski tarix kitoblarida turkqmo`g`ul qabilalarining ajdodi hisoblangan Yofas ibn Nuh va qo`ng`irot amirlarining ilk tarixiga bag`ishlangan.

3 bobda Burtajon va Chingizzon tarixi, mo`g`ul imperiyasining Chingizzon zamonidan to Oltin O`nda xoni Berdibek (1357-1361 yy) davrigacha bo`lgan tarixi bayon etilgan.

4 bob Xorazmning Shayboniylar davridagi ijtimoiy-siyosiy tarixi haqidadir.

5 bob Xiva xonligining 1804-1825 yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o`z ichiga oladi.

Munis va Ogahiy asarining asosiy ahamiyati shundaki, unda Xorazmning qariyb 300 yillik (1511-1825 yy) tarixi yaxlit, xronologik tartibda aks ettirilgan. Qolaversa, asar turli mazmundagi faktik materialga nihoyatda boy. Asarda, masalan, Xorazm o`ramida istiqomat qilgan turkman, qoraqolpoq va qozoq xalqlari va ularning, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o`rni, feodal er egaligi, feodal ekspluatatsiya va mehnatkash xalqning og`ir ahvoli (masalan, mehnatkash xalqdan undiriladigan soliq va jarimalar: xiroj, zakot, peshkash, tajuqot va b.; 14 urug`ning tarqatib yuborilishi, 1714, 1722-1723, 1768 yillarda sodir bo`lgan ocharchilik va qahatchilik va hk); Xorazm shaharlarining (Urganch, Kot, Vazir, Yangi shahar, Tirsak, Gandumxon, Hazorasp, Shohobod va b.) umumi ahvoli; turkmanlar va Xorazm o`zbeklarining etnik tarkibi; Xiva xonligining boshqa mamlakatlar, xususan, Eron, Buxoro xonligi va Rossiya bilan bo`lgan iqtisodiy va siyosiy munosabatlari xususida qimmatli ma'lumotlar bor.

"Firdavs ul-iqbol" kam o`rnailgan, chop etilmagan. Qo`lyozmalari xorijiy mamlakatlarning kutubxonalarida saqlanadi.

Shunday qilib, Munis va Ogahiyarning yuqorida ko`rsatib o`tilgan tarixiy asarlarida Xiva xonligining 1825 yildan 1872 yilgacha bo`lgan siyosiy tarixi tadrijiy tartibda mufassal bayon etilgan. Shuningdek, bu tarixiy asarlarda Xorazm ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy haetini o`rganishda ham katta ahamiyatga ega bo`lgan qimmatli ma'lumotlar keltrilgan.

Ogahiydan so`ng Xorazm tarixini ezish ishi zabardast tarixnavis olim, ajoyib shoir va mohir tarjimon Muhammad Yusuf Bayoni yomonidan davom ettirilgan edi. Bayoniying yashagan davri XIX asrning 2 yarmi va XX asrning boshlariga to`g`ri keladi. Bayoni tarixnavis olim sifatida Xorazm tarixiga oid qimmatli "Shajarayi Xorazmshohiy" va "Xorazm tarixi" nomli tarixiy asarlar ijod etadi. Bayoniying "Shajarayi Xorazmshohiy" nomli asarida Abulg`oziyxon, Munis va

Ogahiylarning "Shajarayi turk", "Shajarayi tarokima", "Firdav ul-iqbol", "Riez ud-davla", "Zubdat ut-tavorix", "Jomi' ul-voqe'oti sultoniy", "Gulshani davlat" va "Shohid ul-iqbol" nomli tarixiy asarlarida keltirilgan davr, ya'ni Xorazmda qadim zamonlardan 1873 ylgacha bo`lib o'tgan tarixiy voqealarni keltirish bilan birga, undan so`nggi davr, ya'ni 1873 yildan 1914 ylgacha Xiva xonligida sodir bo`lgan tarixiy voqealar bayon etiladi. O`z mazmuni bilan BAYONlyning bu asari, yuqorida nomlari zikr etilgan tarixiy asarlarning xulosasi va davomi hisoblanadi.

Munis va Ogahiyning tarixiy asarlari xashamdon qiyin til bilan yozilgan bo`lib, ularda arabcha va forscha so`zlar va og`ir iboralar ko`p uchraydi. Shu sababli o`quvchilarga bu asarni tushunish qiyin bo`lgan. Ana shu qiyinchiliklarni bartaraf qilish va o`quvchilar uchun tushunarli qilish maqsadida, BAYONly Munis va Ogahiy asarlarini bir jildga to`plab, ma'lum darajada qisqartirib, sodda til bilan qayta ezib chiqadi. Bu haqda BAYONly bunday deb ezadi: "Bu yil 1329y g`1911yildir. 1873 yildan 1911 ylgacha bo`lgan voqealar yozilmay qolgan. Bu davrda Xorazmda bo`lgan tarixiy voqealarni ezish faqirning zimmasiga tushadi. O`z asarimni "Shajarayi Xorazmshohiy" deb atadim va 16 bobga bo`ldim.". BAYONlyning ko`rsatishicha, bu asarni ezish vaqtida Ogahiyning "Jomi' ul-voqe'oti sultoniy" va "Shohid ul-iqbol" nomli asarlarni topishning imkonи bo`Imaganligi tufayli, 1846 yildan 1872 ylgacha Xorazmda bo`lgan tarixiy voqealar, Ogahiydan tashqari, bu asarda ikkinchi marta BAYONly tomonidan ham yozilgan. Shunday qilib, bu asarda 1846 yildan 1914 ylgacha bo`lgan tarixiy voqealar BAYONly tomonidan yozilgan.

BAYONlyning mazkur tarixiy asari Xorazm tarixini o`rganishda aniq ma'lumot beruvchi asosiy manba bo`lib xizmat qiladi. Avvalo bu asarda siesiy haet juda mufassal bayon etilgan.

BAYONlyning mazkur asarining 15 bobida Muhammad Rahimxon II - Feruz (1865-1910 yy) hukmronligi davrida Xiva xonligida bo`lgan voqealar haqida gapiriladi. Xiva xonligining siesiy hayotida ro`y bergen katta voqealardan biri- Xiva xonligini chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi edi. Bu voqealari Xorazmda Muhammad Rahimxon II hukmronligi davrida sodir bo`lgan edi. Muhammad Yusuf BAYONly o`zining "Shajarayi Xorazmshohiy" asarida bu masalaga mufassal to`xtalib o`tgan. Bu borada qimmatli ma'lumotlar keltirgan.

Ayniqsa bosqin vaqtida shaharlarni mudofaa qilishda olib borilgan ishlар ko`rsatilgan qarshiliklarga qaramay Xiva xonligiga qarashli shaharlarning chor Rossiyasi tomonidan birin-ketib bosib olinishi, chor Rossiyasi generallarining bu erda olib borgan ayovsiz va shafqatsiz siyosati aniq ko`rsatib yozilgan. BAYONly shu davrda ana shu voqealar ichida yashadi va ularning shohidi bo`lgan. Bu masalani aniq ma'lumotlar asosida o`rganishda va eritishda Xorazmlik tarixnavis olim BAYONly tomonidan yozilgan bu tarixiy asar katta ahamiyat kasb etadi.

Xorazm tarixiga oid bu qimmatli manbada Xorazm ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hamda madaniy hayotini o`rganishda ham juda qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Qisqacha qilib aytganda, xorazmlik buyuk va zabardast tarixnavis olimlar Abulg`oziyxon, Munis, Ogahiy, BAYONlylar Xorazmda qadim zamonlardan boshlab to 1914 ylgacha bo`lib o`tgan tarixiy voqealarni bayon etuvchi qimmatli tarixiy asarlarni ijod etdilar. Kelajakda Xorazm tarixini atroflicha o`rganishda mazkur asarlar asosiy manba bo`lib xizmat qiladilar.

#### NAZORAT TOPShIRIQLARI:

Xiva xonligi tashkil topgan sanani aniqlang.

- A. 1505 yil
- V. 1510 yil
- S. 1512 yil
- D. 1527 yil
- E. 1533 yil

Abulg`ozixon "Shajarayi turk va mo`g`ul" asarining V bobi kimning tarixiga bag`ishlanganligini toping.

- A. Chig`atoy va uning vorislariiga
- V. Chingizxoniga
- S. Dashti Qipchoq tarixiga
- D. Shayboniylarga
- E. Elxoniylarga

Ogahiy qalamiga mansub asarlarni ko`rsating.

- A. "Firdavs ul-iqbol", "Shajarayi tarokima", "Riyoz ud-davla"
- V. "Gulshan ud-davlat", "Zubdat ut-tavorix", "Riyoz ud-davla"
- S. "Ravzat us-safo", "Zubdat ut -tavorix", "Firdavs ul-iqbol"

- D. "Zafarnoma", "Firdavs ul-iqbol", "Gulshan ud -davla"
- E. "Riyoz ud- davla", "Firdavs ul-iqbol", "Badoi' ul - vaqoiy

Abulg'ozixonning "Shajarayi turk" asarining Xiva xonligiga bag`ishlangan qismini konspekt qilish.

"Shajarayi turk" va "Shajarayi xorazmshohiy" asarlarining Xiva xonligining XVI-XVII asrlardagi tarixiga oid qismini qiyoslash( og`zaki)

Adabiyotlar:

Ahmedov B. O`zbekiston xalqlari tarixi manbalari.- T.:O`qituvchi, 1991

Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. - T.:O`qituvchi, 1994.

Abulg`oziyxon. Shajarayi turk.- T.:Cho`pon, 1992.

Muhamad Yusuf BAYONly. Shajarayi xorazmshohiy.- T., 1994.

2-asosiy savol:

### **Manbalarda Buxoro xonligi tarixining yoritilishi.**

Maqsad:

XVII-XIX asrlardagi Buxoro xonligi tarixini aks ettirgan manbalar bilan tanishtirish, talabalarda Buxoro xonligi tarixiga oid manalarni o`rganishga qiziqish uyg`otish, ularni milliy istiqlol mafkurasi ruhida tarbiyalash.

**IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

XVII-XIX asrlardagi Buxoro xonligi tarixini yorituvchi manbalarni aytib beradi.

Buxoro xonligining XVII-XIX asrlardagi tarixini aks ettiruvchi manbalarni tushunadi.

XVII-XIX asrla Buxoro xonligi tarixini o`rganishda yozma manbalardan foydalanadi.

Buxoro xonligiga oid manbalarni tahlil qiladi.

Buxoro xonligining XVII-XIX asrlardagi tarixini o`rganishda manbalarning ahamiyatini asoslaydi.

Bayon:

XVII asrdan Buxoro xonligida Ashtarkoniylar hukmronligi boshlangan. Faqatgina 1753 yilga kelgandagina Buxoro xonligida hukmronlikni mang`itlar urug`idan bo`lgan Muhammad Rahimbiy egalladi va shu davrdan Buxoro xonligi Buxoro amirligi deb atala boshlandi. Shuningdek, bu davrdan to 1920 yilgacha Buxoro amirligini mang`it urug`i vakillari boshqargan.

XVII-XIX asrlardagi Buxoro xonligining, so`ngra amirligining ijtimoiy-siyosiy tarixi, iqtisodiy va madaniy hayoti ziddiyatlarga boydir. Mana shu davrni yorituvchi ko`plab tarixiy asarlar yaratilgan. Quyida ularning ba`zilari bilan tanishib chiqamiz.

Mahmud ibn Vali. XVII asrda o`tgan balxlik yirik entsiklopedist olim. Otasi Mir Muhammad Vali asli farg`onalik bo`lib, Shayboniylardan Pirmuhammadxon 1 (1546-1567yy) davrida Balxga kelib qolgan. U o`qimishli va keng ma'lumotli kishi bo`lib, asosan fiqh ilmida zamonasining peshqadamlaridan hisoblangan; Mir Xislat taxallusi bilan she`rlar ham ezgan. Mahmud ibn Valining amakisi Muhammad Poyanda (1602 y vafot etgan) Samarqand hokimi Boqi Muhammadxon devonida xizmat qilgan, akasi amir Abulvoriy esa fiqh, tafsir va tib ilmini yaxshi egallagan olim kishi edi.

Mahmud ibn Vali 1596 yili tug`ilgan. 19 yoshida u yirik fiqh va hadis olimi Mirakshoh Xusayniyning xizmatiga kiradi va qariyb 10 yil undan saboq oladi. Mirakshoh Xusayniyning boy kutubxonasi bo`lib, unda Mahmud ibn Valining so`zlariga qaraganda, tarix, geografiya, klassik adabiyot, hadis va boshqa ilmlar bo`yicha juda ko`p kitoblar saqlanar edi. Bu yosh olim uchun bebaho xazina edi. Mahmud ibn Vali bulardan ko`p istifoda qilganligini aytadi. Mirakshoh Husayniy vafot etgandan (1624 y) keyin Mahmud ibn Vali kitobiy bilimini chuqurlashtirish maqsadida boshqa mamlakatlarga sayohat qilishga qaror qildi va bir yillik tayyorgarlikdan keyin, 1625 yilning iyulida savdo karvoniga qo`silib Hindiston tomon yo`l oldi. U Hindistonda qariyb 7 yil bo`ldi va uning Peshovar, Lohur, Dehli, Agra, Roj mahal, Haydarobod, Vijayanagar, Kalkutta, Bihar kabi bir qator yirik shaharlarini borib ko`rdi va ularning xalqi, urf-odati, tarixi, madaniyati va nihoyat, osori-atiqalari haqida qimmatli ma'lumotlar to`pladi. Balxga qaytib kelgandan (1631 y) so`ng Nadir Muhammadxonning (1606-42 yy Balx, 1642-45 yy Buxoro xoni) xizmatiga kirdi va to umrining oxirigacha uning kutubxonasida kitobdor bo`lib ishladi. Uning qachon vafot etganligi noma'lum.

Mahmud ibn Vali fanning juda ko`p sohalarini: tarix, geografiya, astronomiya, mineraloziya, botanika va hokazolarni qamrab olgan "Bahr ul-asror fi manoqib ul-aher" (Olijanob kishilarning jasorati haqida sirlar dengizi) nomli entsiklopedik asar muallifidir. Bundan boshqa u "Ravoix-i

tayyiba" (Xushbuy islar), "Muhabbatnoma", "Najli soqib" (Yorug` yulduz), "Risola-yi bahoriya"(Bahor haqida risola) va "Axloq-i Husayniy"(Yaxshi xulqlar) kabi talaygina ilmiy va adabiy asarlar ham yozgan. Lekin Bahr ul-asror"dan boshqasi bizgacha etib kelmagan.

"Bahr ul-asror" (1634-40 yyda yozilgan),asar mundarijasida ko`rsatilishicha, 7 jild bo`lgan. Uning 2-7 jildlari tarix bo`lib, O`rta Osiyo va u bilan qo`shni mamlakatlarning qadim zamonlardan to 1640 yilgacha kechgan tarixidan bahs etadi. 1 jild esa astronomiya, geografiya, mineralogiya va botanika fanlarini o`z ichiga oladi. Afsuski, bu muhim va qimmatli asarning faqat 1 va 6 jildlari saqlangan, xolos.

Asarning 1 jildida 7 iqlim mamlakatlarining, shuningdek O`rta Osiyoning o`rta asrlardagi shahar va viloyatlarining geografik holati, xalqi va uning hayoti hamda urf-odati haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.Asarning ayniqsa 6 jildi alohida qimmatga ega. Unda XIII-XVII asrning 1 yarmida O`rta Osiyo, Mo`g`uliston, Dashti Qipchoq va Shimoliy afg`oniston tarixi keng va atroficha yoritilgan.

Mahmud ibn Vali va uning mazkur asari ilmiy jamoatchilikka ko`pdan beri (1902 y) ma'lum bo`Isa-da, hali juda kam o`rganilgan. Asar to`la ravishda biron tilga tarjima qilinmagan. Undan ayrim parchalar V.Bartold, B.Ahmedov va K.A.Teshulina tomonidan chop qilingan.Asarning 6 nafar qo`lyozma nusxasi bor. 4tasi O`zFA Sharqshunoslik institutida (1 jild va 6 jildning 1-3 qismi), 3 nusxasi Angliya va pokistonda (6 jildning 4 qismi) saqlanmoqda.

Hoja Samandar Termiziy. XVII asr tarixchilari jumlasidandir. Haqiqiy ismi: Muhammad Baqoxoja; Mir Haydariy tariqati shayxlardan biri oilasida dunyoga kelgan. Hoja Samandar Termiziyning tug`ilgan va vafot etgan yillari ma'lum emas. U Ashtarkoniylardan Abdulazizzon (1645-1681 yy) va Subhonqulixon (1681-1702 yy) bian zamondosh bo`lgan. U 1702 yilgacha Qarshida raislik mansabida turgan; Abdulazizzon va Subhonqulixonning harbiy yurishlarida ishtirok etgan. Oxiri ana shu Mir Haydariy tariqati shayxlardan ba`zilarining ig`vosi bilan 1702 yili raislik lavozimidan iste'foga chiqishga majbur bo`lgan va umrining oxirigacha faqat ilmiy ish bilan mashq`ul bo`ldi.

Muhammad Baqoxoja o`z davrining keng ma'lumotli kishilaridan bo`lgan. O`sha vaqtida yozilgan bir qator manbalarning ("Muzakkir ul-ahbob", "Muhit at-tavorix") ma'lumotlariga ko`ra, u etuk shoir, yozuvchi va tarixchi olim bo`lgan; ilohiet fanini ham yaxshi egallagan. U ko`p sayohat qilib, nazariy bilimini chuqurlashtirgan.Bizgacha olimning 2 asari etib kelgan. Bulardan biri "Dastur al-muluk" (Podsholarga qo`llanma), ikkinchisi "Onis ul-fuqaro" (Faqrilar do`sti) nomi bilan mashhur. Birinchi asar taxminan 1695, ikkinchisi esa 1735 yilda yozilgan.

"O`zbekiston tarixi"ni o`rganishda hoja Samandar Termiziyning "Dastur al-muluk" asari zo`r ahamiyatga ega. Asar Buxoro xonligining XVII asrning 70-90 yillardagi ijtimoiy-siyosiy ahvolini, shuningdek Buxoro bilan Xiva xonliklari o`rtasidagi siyosiy munosabatlarni o`rganishda zo`r ahamiyat kash etadi. Asarda feodal kurash, oliy martabali mansabdorlar orasida keng tarqalgan buzuqlik, poraho`rlik, feodal ekspluatatsiya va mehnatkash xalqning og`ir ahvoli haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. "Dastur al-muluk"da o`zbeklarning etnik tarkibi haqida ham muhim faktlarni uchratamiz. Asar 1971 yili (forscha matni ruscha tarjimasi, zarur izohlar bilan) M.Salohiddinova tomonidan enashr etilgan.

Muhammad Yusuf Munshiy. XVII asrda o`tgan yirik tarixchi olim. Hayoti va ilmiy faoliyatiga oid ma'lumotlar kam. Asarida keltirilgan ayrim faktlarga qaraganda, u asli balxlik bo`lgan va Subhonqulixon hamda Muhammad Muqimxon saroyida munshiy bo`lib xizmat qilgan.

Muhammad Yusuf Munshiy Muhammad Muqimxonga bag`ishlangan "Tarix-i Muqimxoni" asari bilan mashhur. Asar 1697-1704 yillar orasida yozilgan bo`lib, Balx va qisman Buxoro xonligining XVII asrdagi ijtimoiy-siesiy tarixini bayon etadi. Muhammad Yusuf Munshiy agar "jahon hodisalarining kuchli shamoli" uning "hayot alangasini o`chirmasa, yo`qsizlik dengizining to`lqinlari esa o`ynoqi otini o`z girdobiga tortib ketmasa" ushbu asarining ikkinchi qismini ham yozish niyatidaligini aytadi. Lekin "Tarix-i Muqimxoni"ning ikkinchi qismi yozilmay qolgan. Fikrimizcha, bunga qandaydir kutilmagan hodisa, balki muallifning bevaqt vafot etganligi sabab bo`lgan.

Asar muqadima va 4 bobdan iborat.Muqaddimada turkiy xalqlarning afsonaviy onasi Alanquva; Chingizxonning ota-bobolari; mo`g`ul qo`shinlari tomonidan Mavarounnah, Balx va Badaxshonning bosib olinishi tarixi bayon qilingan.

Asarning birinchi bobo Shayboniyalar davrida Mavarounnahrning umumiyligi ahvoligi hikoya qiladi. Asarning original va muhim qismi uning 2-3 boblaridir. 2chi bobda Balx va qisman Buxoro xonligining XVII asrdagi ijtimoiy-siyosiy hayoti, shuningdek, buxoro va Balx xonliklarining Hindiston, Eron, Turkiya va Koshg`ar bilan bo`lgan siyosiy munosabatlari, 3chi bobda esa 1702-

1704 yillar voqealari, xususan Buxoro bilan Balx o`rtasida boshlangan qurolli kurash o`rin olgan. Asarda xonlar va feodallar zulmi, mehnatkash xalqning og`ir ahvoli haqida ham qimatli ma'lumotlar uchraydi. Asarning qo`lyozma nusxalari ko`p. Asardan ayrim parchalar frantsuz va rus tillarida e`lon qilingan. To`la ravishda eski o`zbek tiliga tarjima qilingan (1861), rus tilida chop etilgan (1956).

Mir Muhammad Amin Buxoriy. Buxorolik o`qimishli va fozil kishilardan (XVII asr); 1645 yilda tug`ilgan; vafot etgan yili noma'lum. Ashtarkoniylardan Subhonqulixon va Ubaydullaxon (1702-1711 yy) saroyida bosh munshiylilik vazifasida xizmat qilgan.

Mir Muhammad Amin Buxoro xonligining 1702-1716 yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti haqida hikoya qiluvchi va "Ubaydullanoma" nomi bilan mashhur bo`lgan muhim asar muallifidir. Mazkur asar 1716 yildan keyin yozilgan va muqaddima, xotima va 80 bobdan iborat. Muqaddimada muallifning ahvoli, ya`ni Subhonqulixon hukmronligining so`nggi yillarida xizmatdan chetlashtirilib, og`ir ahvolga tushib qolganligi va Ubaydullaxon xizmatiga qabul qilinishi; Abdulazizzon va Subhonqulixon davrida Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy ahvoli qisqa tarzda bayon qilingan.

1-80 boblarda Buxoro xonligining qariyb 15 yillik (1702-1716 yy) ijtimoiy-siyosiy tarixi batafsil yoritilgan. Muallif asarda feodal er egaligi; feodal ekspluatatsiya; Buxoro xonligining davlat tuzumi; feodal tarqoqlikning kuchayishi, mamlakat boshiga tushgan iqtisodiy qiyinchiliklar va uning ayrim sabablari kabi masalalarga ham keng o`rin bergan. Bundan tashqari, asarda geografik va etnografik ma'lumotlar ham ko`p. Xotimada muallif bilan zamondosh bo`lgan va buxoroda istiqomat qilgan olimlar, shoirlar (Sayyido Nasafiy, Qosimxoja, mulla Sarfaroz, Fitrat, Mulhom va b.), mashhur qozilar haqida qisqacha, lekin e'tiborga molik ma'lumotlar keltirilgan. "Ubaydullanoma"ning 10 dan ortiq qo`lyozma nusxalari mavjud. Asar to`la ravishda rus tiliga tarjima qilingan (A.Semenov) va 1957 yili nashr etilgan.

Abdurahmon Davlat. Ubaydullaxon va Abulfayzxon (1711-1747 yy) saroyida xizmat qilgan munajjim, shoir va tarixshunos olim. Ko`proq Abdurahmon Tole' nomi bilan mashhur. Tug`ilgan va vafot yili ma'lum emas. Abdurahmon Davlat "Tarix-i Abulfayzxon" nomli tarixiy asar ezib qoldirgan. Mazkur asar hajm jihatdan kichik (161 varaq) bo`lib, yuqorida zikr etilgan "Ubaydullanoma"ning davomi hisoblanadi va buxoro xonligining 1711-1723 yillar orasidagi tarixini o`z ichiga oladi. Ma'lumki, XVIII asrning 1chi choragida Buxoro xonligining iqtisodiy va siyosiy ahvoli yanada zaiflashdi; ulus boshliqlarining, ya`ni mahalliy hukmdorlarning mustaqillik harakati kuchaydi, ularning ayrimlari (Balx va Samarcand) markaziy hukumatga bo`ysunmay qo`ydilar. Farg`ona XVIII asr boshlarida (1709 y) Ashtarkoniylar davlatidan ajralib chiqdi va bu o`lkada mustaqil Qo`qon xonligi tashkil topdi. 1722 yili Samarcand ham mustaqillik e`lon qildi va Rajabxon ismli shaxsni xon deb e`lon qildilar (1722-28yy). Feodal urushlar borshlanib ketdi. "Tarix-i Abulfayzxoni" mana shu masalalarni keng yoritib bergan. Bundan tashqari, asarda Buxoro xonligining etnik tarkibi haqida ham ayrim diqqatga sazovor faktlar va ma'lumotlar bor. Asarning to`la ruscha tarjimasini zarur izohlari bilan 1959 yili A.A.Semenov tarafidan nashr qilingan.

Muhammad Qozim. XVIII asrda o`tgan O`rta Osiyolik mashhur tarixnavis. 1721 yili Marvda tug`ilgan. Otasi Nodirshohning yaqin kishilaridan bo`lib, uning dastlabki harbiy yurishlarida qatnashgan va muhim diplomatik topshiriqlarini bajargan. Muhammad Qozim boshlang`ich ma'lumotni Marvda oldi, so`ng 1731 yildan Mashhaddagi majrasalardan birida o`qigan. 1736 yili u Darbandga, Ibrohimxon huzuriga chaqiritib olindi va 1739 yilgacha xonning yasovuli lavozimida xizmat qiladi. 1739 yilda Muhammad Qozim Nodirshohning o`g`li Rizoquli xizmatiga qabul qilinadi va 1741 yilgacha lashkarnavis vazifasida xizmat qiladi. 1744 yildan Nodirshoh huzurida xizmat qilgan. Taxminan 1752 yili vafot etgan.

Muhammad Qozim "Noma-yi olamoro-yi Nodiriy" (Nodir(shoh)ning jahonga bezak bo`luvchi tarixi) nomli yirik tarixiy asar yaratgan. Asar 1750-1752 yillarda yozilgan. Asar 3 jiddan iborat, forstojik tilida. 1 chi jildi Eronning 1688-1736 yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o`z ichiga oladi. 2 jidda 1736-1743 yillari Eronda, shuningdek, O`rta Osiyo va kavkaz ortida bo`lib o`tgan voqealar voqealar bayon etiladi. Asarning 3chi jildi Eron va qisman O`rta Osiyo, Hindiston, Turkiya va Kavkazortini ng 1743-1747 yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixiga bag`ishlangan.

O`zbekistonning XVIII asrdagi tarixini o`rganishda "Noma-yi olamoro-yi Nodiriy"ning 2 va 3 jildlari asosiy manbalardan biri sifatida muhim. Ayniqsa, asarda Eron qo`shinining 1737 yili O`zbekiston hududiga bostirib kirishi va G`uzor, Qarshi, Shulluq va boshqa joylarning talon-taroj qilinishi, Buxoro xonligining Nodirshoh tarafidan bo`ysundirilishi (1740 y); Xorazmnинг 1746 yildagi og`ir ahvoli, Eron askarlarining 1747 yili qaytadan O`rta Osiyoga bostirib kirishi va oqibatda

mehnatkash xalqning ayanchli ahvoli, 1741-1742 yillarda Ko`lob, Hisori Shodmon, Badaxshon, balx va boshqa viloyat aholisining mahalliy hukmdorlarga va chet el bosqinchilariga qarshi qo`zg`olonlari xususidagi ma'lumotlar zo`r ilmiy qimmatga ega.

"Noma-yi olamoro-yi Nodiriy"ning qo`lyozma nusxalari kam. Asar to`la ravishda biron tilga tarjima qilinmagan. 1 jildning bir qismi, ya`ni Nodirshohning Hindistonga yurishibayon etilgan qismi P.I.Petrov tomonidan rus tilida 1961 yilda nashr etilgan. 1960, 1965 va 1966 yillari asarning fotofaksimile nashri Moskvada N.D.Mikluso-Maklay tomonidan chop etilgan.

Mulla Ibodulla va Mulla Muhammad Sharif. XVIII asrning ikkinchi va XIX asrning birinchi yarmida o`tgan buxorolik tarixchilar. Hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlarga ega emasiz. Lekin ularning qalamiga mansub bo`lgan "Tarix-i amir Haydar" asarining noma'lum muharrir tomonidan qisqartirilgan nusxasi mavjud.

"Tarix-i amir Haydar" kichik asar, 96 varaqdan iborat. Asar muhim tarixiy manbalar asosida yozilgan bo`lib, unda Buxoro xonligining Ashtarkoniylar, shuningdek, mang`itlar sulolasidan bo`lgan amir Haydar hukmronligi davridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o`z ichiga olgan. Asar 81 bobdan (dostondan) iborat. 1-2 boblar Buxoro shahri tarixiga, 3-6 boblari Ashtarkoniylarning qisqacha tarixiga, 7-81 boblar esa buxoro amirligining amirzoda Haydarning to`g`ilishidan to uning vafotigacha bo`lgan tarixga bag`ishlangan. Asar 50-yillarda A.Semenov tomonidan rus tiliga tarjima qilingan, ammo chop etilmagan. Asar qo`lyozmasi va A.Semenovning tarjimasini O`zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda.

Mir Olim Buxoriy. Hayoti va faoliyati haqida quyidagilarga ma'lum. Amir Nasrullo vaqtida G`uzor hokimi bo`lgan Muhammad Olimbekning xizmatida bo`lgan va uning topshirig`i bilan "Fathnomayi sultoniy"(Sulton zafarnomasi) nomli tarixiy asar ezgan. Asar amir Shohmurod davridan to amir Nasrullo hukmronligining dastlabki yillarigacha bo`lgan buxoro amirligi tarixini eritadi. Biroq Shohmurod va Amir Haydar davrlari asarda qisqacha berilgan bo`lib, Nasrullo davri esa batafsil bayon etilgan. Mazkur nusxa asarning birinchi jildi bo`lib, ikkinchisi noma'lum sabablarga ko`ra ezilmay qolgan. "Fathnomayi sultoniy"ning 1 qismini O.D.Chexovich tomonidan tarjima qilingan. Ammo tarjima nashr etilmagan. Asar qo`lyozmasi va O.D.Chexovich tarjima qo`lyozmasi O`zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

Ahmad Donish. Haqiqiy ismi Ahmad ibn Mir Nosir ibn Yusuf al-Hanafiy al-Buxoriy; XIX asrda o`tgan ko`zga ko`ringan shoir, adib va tarixchi olim. 1827 yili Buxoroda tug`ilgan. U yoshlidan yaxshi o`qib, tarix, adabiet, matematika, astronomiya, musiqa va tibbiet ilmlarini yaxshi urgandi, usnixat va musavvirlik sirlarini egalladi.

Ahmad Donishning faoliyati xattotlikdan boshlangan va XIX asr 50-yillar boshlarida amir Nasrullo xizmatiga qabul qilingan, 1870 yili iste'foga chiqib, ilmiy ish bilan shug`ullangan. Ahmad Donish 1857 yili amir Nasrullo, 1869 va 1874 yillari amir Muzaffar elchiligi tarkibida Peterburgda bo`ldi va Rossiyaning iqtisodiy, siesiy va madaniy hayoti bilan yaqindan tanishdi. Bu safarlar Donish dunyoqarashiga katta ta'sir ko`rsatdi. U jamiyatni mavjud qonun va davlat tartibini takomillashtirish yo`li bilan odil podshohning qo`li bilan qaytadan qurish mumkin deb hisoblardi. Olimning bu qarashlari uning "Navodir ul-vaqoe"(Nodir voqealar) asarida o`z aksini topgan. Muallif ushbu asarini 1875-1882 yillar orasida ezgan. Ahmad Donish bu asarida amirga davlatni boshqarish ishlarini qaytadan qurishni maslahat berdi. Amir Muzaffar bundan darg`azab bo`lib, 70-yillarning oxirida Ahmad Donishni poytaxtdan uzoqlashtirdi, ya`ni u G`uzorga qozi qilib yubordi. Ahmad Donish 1885 yil amir Muzaffar vafotidan so`nggina Buxoroga qaytdi va ilmiy ish bilan shug`ullandi. Ahmad Donish 1897 yil vafot etgan.

Ahmad Donish ilohiet, astronomiya, geografiya, adabiet va tarixga oid 20ga yaqin asar yaratgan. "Manozir ul kavokib" (Sayeralarning manzaralari), "Navodir ul-vaqoe", "Tarjimai ahvol amironi Buxoroyi sharif az amir Doniyol va asri amir Abdulahad (Buxoroyi sharif amirlarining tarjimai holi. Amir Donieldan to amir Abdulaxadgacha) asarlari shular jumlasidandir.

O`zbekistonning XIX asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o`rganishda olimning so`nggi asari alohida ahamiyatga ega. Asar 1885 yildan keyin yozilgan. Unda katta so`zboshidan (Sayeralarning inson hayotidagi roli, din va uning o`rni) keyin qisqa tarzda amir Doniel (1758-1785 yy), Shohmurod (1785-1800 yy), Haydar (1800-1826 yy), Nasrullo (1826-1860 yy)larning hukmronligi yillarida bo`lib o`tgan voqealar bayon etilgan. Asarning katta va so`nggi qismi amir Muzaffarga bag`ishlangan. Bu qismda Buxoro amirligining XIX asr 2 yarmidagi ijtimoiy-siyosiy haeti, shuningdek, chor Rossiyasi qo`shinlari tomonidan Jizzax hamda Samarqandning bosib olinishi tarixi batafsil yoritilgan. "Tarjimai ahvol amironi Buxoroyi sharif"ning qo`lyozma nusxalari Toshkent, Samarqand,

Buxoro, Dushanbe kutubxonalarida saqlanadi. Asarning matnini Abdugani Mirzoev chop ettirgan. Uning qisqartirilgan ruscha tarjimasi ham 1960 yili Dushanbeda nashr qilingan.

Buxoro amirligining XVII-XIX asrlardagi tarixini yorituvchi yozma manba ko`p. Yuqorida ulardan bir nechalarigagina to`xtalib o`tildi, xolos. Bugungi kunda haqqoniy tariximizni yaratar ekanmiz, albatta, manbalarni chuqr o`rganmog`imiz va ulardan unumli foydalanmog`imiz lozim.

#### NAZORAT TOPShIRIQLARI:

Buxoro xonligi tarixini yorituvchi Muhammad Yusuf munshiyning asarini toping.

- A. "Ubaydullanoma"
- V. "Sharafnomayi shohiy"
- S. "Tarix-i Muqimxoniy"
- D. "Tarix-i Amir Haydar"
- E. "Dastur al-muluk"

Ashtarkoniylar hukmronligi davri tarixini yorituvchi manbalarni aniqlang.

- A. "Shajarayi tarokima", "Ubaydullanoma", "Nomayi olamoro-yi Nodiriy"
- V. "Tarix-i amir Haydar", "Tarix-i Abulfayzxon", "Tarix-i Muqimhoniy".
- S. "Dastur al-muluk", "Sharafnomayi shohiy", "Bahr ul-asror"
- D. "Gulshan ud-davlat", "Ubaydullanoma", "Dastur al- muluk".
- E. "Tuhfat ul-xoniy", "Noma-yi olamoro-yi Nodiriy", "Tarix-i Muqimxoniy".

1) Xiva xonligi tarixiga oid manbalar

2) Buxoro xonligi tarixiga oid manbalar

- A. "Dili g`aroyib"
- V. "Riyoz ud-davla"
- S. Muxammad Vafoyi Karminagiy
- D. Fazliy
- E. 1664 yil
- J. Abdurahmon Davlat
- Z. "Shajarayi turk"
- I. Dastur al-muluk
- K. "Silsilat as-salotin"

Buxoro xonligi tarixiga oid manbalar to`g`risida ijodiy ish tayyorlash.

Buxoro xonligi va Xiva xonligi manbashunosligini qiyosiy tavsiflash (og`zaki)

Adabiet:

Ahmedov B. O`zbekiston xalqlari tarixi manbalari.- T.:O`qituvchi, 1991.

Ahmedov B. tarixdan saboqlar.- T.:O`qituvchi, 1994

O`zbek pedagogikasi antologiyasi.- 1 jild. T., 1995.

3-asosiy savol

Qo`qon xonligi tarixining manbalarda aks ettirilishi

Maqsad:

Qo`qon xonligining tarixini aks ettiruvchi manbalarning ahamiyatini yoritib berish, talabalarni

Qo`qon xonligi tarixining manbashunosligini o`rganishga qiziqtirish, ularni tarixiy merosni asrab-avaylab o`rgatish.

#### IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:

Qo`qon xonligi tarixini aks ettiruvchi manbalarni biladi.

Qo`qon xonligi tarixiga oid manbalarni tushunadi.

Qo`qon xonligi tarixiga oid manbalarni o`ziga xos tomonlarini aniqlaydi.

Qo`qon xonligi tarixini yorituvchi manbalarni umumlashtiradi.

Qo`qon xonligi tarixini yorituvchi manbalar ahamiyatini isbotlab beradi.

Bayon:

Xiva va Buxoro xonligi manbashunoslididan farqli o`laroq Qo`qon xonligi tarixiga oid manbalar nisbatan kam o`rganilgan. Ilmiy jamoatchilik Qo`qon xonligi tarixini eritishda Niez Muhammad Ho`qandiyning "Tarixi Shohrubiy", Ibratning "Tarixi Farg`ona", Hakimxon To`raning "Muntahab at-tavorix" va yana bir necha manbalarga suyanishar edi. Mustaqillik yillardan so`ng Qo`qon xonligi manbashunosligi bo`yicha ham qator ishlar qilindi. Bu borada XIX asr va XX asr boshlaridagi Qo`qon tarixnavislik maktabi tarixi bo`yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan

(1998 y) tarixchi olim Sh. Vohidovning ilmiy faoliyatini alohida ta'kidlash joiz. Chunki Sh.Vohidov keng o`quvchilar ommasiga ma'lum bo`Imagan, O`zbekiston Respublikasi FA qo`lyozmalar instituti, Sharqshunoslik instituti va boshqa institutlar qo`lyozmalar fondida saqlanayotgan Qo`qon xonligi tarixiga oid 20dan ortiq qo`lyozmani ilmiy muomilaga kiridi.

Quyida Qo`qon xonligi tarixiga oid ba`zi manbalarni keltirib o`tamiz.

Fazliy Farg`oni (Abdulkarim Namangoniy) - shoir, tarixchi olim. XVIII asr oxiri-XIX asr birinchi yarmida yashagan. Umarxon saroyida saroy shoiri bo`lgan. Umarxonning topshirig`i bilan qo`qon xonligi tarixiga oid nazmda "Umarnoma" asarini yaratgan. Asar 1820 yilda yozilgan, tojik tilida. Asar muqaddima, 42 bob, xotimadan iborat. Lekin asar qo`lyozmasi to`liq emas. U 158 betda uzilgan. Asarda Fazliy Olimxonni qattiq qoralaydi. Shuningdek, Buxoro amiri Haydarga ham salbiy baho beriladi. Asarni tugatib Umarxonga taqdim qilganda, asar Umarxonga yoqmaydi. Sababi, asarda "Oltin beshik qissasi" berilmagandi.

Mirza Qalandar Mushrif Isfaragiy - XVIII asr oxiri-XIX asrda yashagan shoir, tarixchi. Mushrif Umarxon saroyida saroy shoiri bo`lgan. U Fazliyning "Umarnoma" asari asosida 1822 yil "Shohnomayi nusratpoyom" nomli asar yaratgan. Asar tojik tilida. 149 varaq. Asarda Qo`qon xonligi tashkil topgandan 1822 yilgacha bo`lgan voqealar yoritilgan. Mushrif Fazliy "xato"sinu to`g`rilaydi. Asarga oltin beshik qissasini qo`shadi va yana Umarxonning sayyidlar avlodidan bo`lgan Sayyid ekanligini isbotlaydi.

Dilshodi Barno. 1800 yil O`ratepada to`g`ilgan. 1814 yil Umarxon O`ratepaga qilgan yurishida Dilshodi Barnoni Qo`qonga olib ktegan. Umarxonning unga o`ziga turmushga chiqishi bo`yicha taklifini rad etgan va "men zolimga turmushga chiqmayman" degan. Shundan so`ng zindonband qilingan. Zindondan qochgan. Mullo Tosh imomga turmushga chiqqan. Imom vafotidan so`ng o`zi yashagan. G`azallar, dostonlar yaratgan. Mashhur shoir. Dilshodi Barno Qo`qon xonligida qizlar maktabini ochib, iqtidori qizlarni o`qitgan. Taxminan 1905-1906 yillarda vafot etgan. Dilshodi Barno "Tarixi Muhojiron" degan nazmda asar yaratgan. Asar tojik tilida. Asarda mualif qo`qon xonligining 1814 yildagi O`ratepaga yurishi, yurishda asi qilib olib kelinganlarning xonlikdagi og`ir ahvoli to`g`risida ma'lumot beradi.

Muhammad Hakimxon ibni Sayid Ma'sumxon to`ra - Norbo`tabekning nabiralaridan bo`lgan. Umarxon vafotidan so`ng taxtga da'vogar bo`lgan. Madalixon taxtga o`tirgandan so`ng qo`qon xonligidan chiqib ketgan. Keyinchalik Qo`qonga qaytgan. Hakimxon to`ra 1802-1803 yillar - 1843-1844 yillar orasida "Muntahab ut-tavorix" nomli asar yaratgan. Asar tojik tilia, 5 bobdan iborat. Asarning 5 bobi 12 qismga bo`lingan. "Muntahab ut-tavorix"da Qo`qon xonligi tashkil etilgandan to 1842 yilgacha bo`lgan voqealar, ya`ni Sheralexonning taxtga o`tirishigacha bo`lgan voqealar yoritilgan. Asardan tarixchi olimlar keng foydalanganliklariga qaramay, asar nashr qilinmagan.

Niyoz Muhammad Xo`qandiy. XIX asrda o`tgan farg`onalik tarixchi, taxminan 1803 yili qo`qonda yirik harbiy xizmatchi oilasida tug`ilgan. Xudoerxon qo`shinida harbiy kotib bo`lgan bo`lishi kerak. 60chi yil boshlarida iste`foga chiqib, ilmiy ish bilan mashg`ul bo`lgan. 1876 yil vafot etgan. Niyoz Muhammad keng ma'lumotli kishi bo`lib, "Niyoziy" taxallusi bilan she`rlar ham ezgan. Lekin yirik tarixiy asari "Tarix-i Shohruhiy" bilan ko`proq mashhurdir. "Tarix-i Shohruhiy" Qo`qon xonligining (1709-1876 yy) mukammal tarixi bo`lib, unda Farg`ona va Qo`qon xonligiga qaram bo`lgan boshqa o`lkalarning (Toshkent, Qиргизистон, Qozog`istonning janubiy qismi) ijtimoiy-siyosiy tarixi ham bayon etilgan. Asarda Qo`qon xonligining Buxoro, Sharqiy Turkiston va boshqa mamlakatlar bilan bo`lgan iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy aloqalari haqida ham qimmatli ma'lumotlar bor.

"Tarix-i Shohruhiy"ning matni N.N. Pantusov tomonidan 1885 yili Qozonda chop etilgan. Ayrim parchalari V.Bartold, N.G.Mallitskiy va V.A.Romodin tarafidan rus tiliga tarjima qilingan. Asarni keyingi yillarda T.K.Beysembiev o`rgandi va 1987 yilda Olmaotada rus tilida chop etdi.

Qo`qon xonligi mukammal tarixi Ibratning 1916 yilda yaratgan "Tarixi Farg`ona" asarida ham berilgan. Bundan tashqari Qo`qon xonligi tarixiga oid ma'lumotlar Uvaysiyning "Voqeoti Muhammad Alixon" dostonida, Mutribning "Shohnomayi devona Mutrib" asarida, Abdulg`affurboyning "Zafarnomayi Xudoerxon" asarida, Mulla Shamsiyning "Jangnomayi Xudoerxon" asarida, Avaz Muhammad Attor Xo`qandiyning "Tarixi jahonnomayi", "Tuhfat ut-tavorixi xonyi" asarlarida va boshqa asarlarda ham yoritilgan.

#### NAZORAT TOPShIRIQLARI:

Qo`qon xonligi tarixiga oid Avaz Muhammad Attor Ho`qandiyning asarini aniqlang.

A. "Tarixi Shohruhiy"

V. "Umarnoma"  
 S. "Jangnomayi Hudoyorxon"  
 D. "Tuhfat ut-tavorixi xoniy"  
 E. Tarixi muhojiron"  
 Qo`qon xonligining mukammal tarixini yaratgan mualliflarni toping.  
 A. Mushrif, Mulla Shamsiy  
 V. Niyoz Muhammad, Ho`qandiy, Ibrat  
 S. Fazliy, Mutrib  
 D. Muhammad Yusuf munshiy, Ibrat  
 E. Dilshodi Barno, Muhammad Kozim  
 1)Shayboniyxonlar davriga oid manbalar  
 2)Qo`qon xonligiga oid manbalar  
 A. "Shohnomayi devona Andalib" J. Ibrat  
 V. "Sharafnomayi shohiy" Z. "Ubaydullanova"  
 S. Kamoliddin Binoiy. I. Muhammad Solih Toshkandiy  
 D. Oltin beshik qissasi K. "Tavorixi guzide. Nusratnoma"  
 E. "Firdavs ul-iqbol"  
 Qo`qon xonligi manbashunosligini Xiva va Buxoro xonligi manbashunosligi bilan qiyosiy tavsiflash (og`zaki)  
 Ibratning "Farg`ona tarixi" asarini tahlil qilish.  
 Adabiet:  
 Vohidov Sh. Fazliy va Mushrif.- T.,1996.  
 Ibrat. Farg`ona tarixi. - Meros.- T.:Kamalak, 1991.

#### **8 - MAVZU: Chor Rossiyasi tomonidan mustamlakachiligi siyosatini aks ettiruvchi tarixiy manbalar**

**2 soat**

##### **Fanni o`qitish texnologiyasi:**

**"Chor Rossiyasi tomonidan mustamlakachiligi siyosatini aks ettiruvchi tarixiy manbalar" mavzusi bo`yicha ma'ruza darsining texnologik xaritasi**

| <b>No<br/>Bosqich</b> | <b>Bajariladigan ish mazmuni</b>   | <b>Amalga<br/>oshiruvchi<br/>shaxs, vaqt</b> |
|-----------------------|--|--|
| 1                     | <p><b>Tayyorlov bosqichi</b></p> <p><b>1.1 Dars maqsadi:</b> O`rtal Osiyon Rossiya tomonidan bosib olinishiga oid manbalarni ko`rsatib berish. Talabalarni mazkur manbalarni o`rganiga qiziqtirish , ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.</p> <p><b>1.2.Identiv maqsadlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Chor Rossiyasining O`rtal Osiyon bosib olishiga oid manbalarni aytib beradi.</li> <li>2. Chorizm istilosini yorituvchi manbalarni sharhlaydi.</li> <li>3. Rus bosqinini o`rganishga bu davrga oid manbalarni qo`llaydi.</li> <li>4. Rus bosqiniga oid manbalarni guruhlaydi</li> <li>5. O`rtal Osiyon Rossiya tomonidan bosib olinishiga oid manbalarni umumlashtiradi.</li> <li>6. Chor Rossiyasi istilosini aks ettiruvchi manbalarni bir-biri bilan qiyoslaydi.</li> </ol> <p><b>1.3.Asosiy tushunchalar:</b> Ahmad Donish, "Tarixi Shohruhiy", Mirza Olim Toshkandiy, "Tarixi Salimi", "Tarixi salotini mang`itiya", "Shajarayi Xorazmshohiy", "Tarixi Farg`ona", "Tarixi Aziziy", "Tarixi Alimquli lashkar", "Tuhfayi Toyib", "Mukammali tarixi Farg`ona", "Dukchi Eshon voqeasi", A.Kostenko, "O`rtal Osiyo va unda rus fuqaroligining joriy etilishi", "Osiyo bibliografiyasi", M.A.Terentev, "Rossiya O`rtal Osiyosi statistik ocherklari", "O`rtal Osiyon bosib olishi tarixi" general- gubernatorlik kantselyariyasi materiallari,</p> | O`qituvchi                                   |

|   |   |                                   |
|---|---|-----------------------------------|
|   | siyosiy tashkilotlar materiallari va h.k<br><b>1.4.Dars shakli:</b> Ma'ryuz'a<br><b>1.5.Metod va usullar:</b> Ogzaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum<br><b>1.6.Kerakli jihoz va vositalar:</b> O`quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor.  |                                   |
| 2 | Oquv mashg`ulotni tashkil qilish bosqichi:<br>2.1. Mavzu e`lon qilinadi.<br>2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.  | O`qituvchi<br>30 min.             |
| 3 | Guruhda ishslash.<br>Mavzu bo`yicha talabalarning fikrini bilish;<br>Talabalarda tahlil qilish qobiliyatini kuchaytirish;<br>Talabalarni bahsga jalb qilish.  | O`qituvchi –<br>talaba<br>30 min. |
| 4 | <b>Mustahkamlash va baholash:</b><br>Berilgan ma'lumotni talabalar tomonidan o`zlashtirilganini ani?lash uchun quyidagi savollar beriladi:<br>Mirzo Olim Toshkandiy asarini toping.<br>1898 yil Andijon qo`zg`oloni yoritilgan asarlarni aniqlang.<br>"Marhum meros" yoritilgan asarlar bu...             | O`qituvchi –<br>talaba<br>10 min. |
| 5 | <b>O`uv mashg`ulotini yakunlash.</b><br><ul style="list-style-type: none"> <li>• Ma'ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo`yicha yakuniy fikr aytildi va mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi</li> </ul> <b>Mustaqil ish topshirig`i:</b> | O`qituvchi<br>10 min.             |

Asosiy savolar:

O`rta Osiyoning istilo qilinishiga oid manbalar.

Chorizmning mustamlakachilik siyosatiga oid manbalar.

1-Asosiy savol.

### O`rta Osiyoni istilo qilinishiga oid manbalar.

Bayon:

X1X asning o`rtalaridan boshlab chor Rossiyasi O`rta Osiyoni bosib olish uchun harbiy harakatlarni boshlab yubordi. Ruslarning O`rta Osiyoga birinchi harbiy yurishlari 1832-1840 yillardagi Xiva xonligiga qarshi olib borilgan Perovskiy ekspeditsiyasi edi. Ammo bu ekspeditsiya muvaffaqiyatsizlik bilan tugadi. Shundan so`ng ruslar harbiy tayyorgarliklar ko`rdi va 1851 yil Qo`qon xonligiga qarashli Oqmachitga hujum qildi va faqat 1853 yilda egalladi. Shunday qilib chor Rossiyasining O`rta Osiyoni bosib olishi boshlandi va bu bosqin 1873 yilga kelganda Turkiston o`lkasini egallash, Buxoro va Xiva xonliklarining vassalga aylantirish bilan yakunlandi. Rus bosqini tarixini yorituvchi juda ko`p yozma manbalar mavjud bo`lib, ular turli- tumandir. Ularga mahalliy tarixchilar asarlari, rus sarkardalari, tarixchilari asarlari va xotiralari, vaqtli matbuot materiallari, Turkiston general-gubernatorligiga oid arxiv hujjalarni kiritish mumkin.

Yozma manbalar nafaqat turli jihatidan bir-biridan farq qiladi, balki ular mazmun jihatidan ham bir-biridan keskin farq qiladi. Mahalliy tarixchilar asarlarida chor Rossiyasining bosqinchilik yurishining mohiyatini va harbiy yurishlar vaqtidagi bosqinchilarning vahshiyliklari xaqqoniy yoritib berilgan. Rus sarkardalari va tarixchilari asarlari, xotiralarida esa ruslarning harbiy yurishlarining asl mohiyati xaspo`shlab ko`rsatiladi, go`yo ular "yovvoyi xonliklarni bosib olib, ularga madaniyat keltirgan"dek, qilib tasvirlanadi. Shuningdek, rus davlatining va uning armiyasining qudratini ulug`lanadi.

Quyidagi chor Rossiyasi tomonidan O`rta Osiyoni bosib olinishiga oid ba'zi manbalarga to`xtalib o`tamiz.

Niyoz Muhammad Ho`qandiy - X1X asrda o`tgan farg`onalik tarixchi. U taxminan 1803 yili Qo`qonda yirik harbiy xizmatchi oilasida dunyoga kelgan. Xudoyorxon qo`shinida xizmat qilgan. 60- yillarning boshlarida Ho`qandiy iste'foga chiqib, ilmiy ish bilan shug`ullangan. 1876 yildan so`ng vafot etgan.

Niyoz Muhammad keng ma'lumotli kishi bo`lib, "Niyoziy" taxallusi bilan she'rlar ham yozgan. Lekin yirik tarixiy asari "Tarix-i Shohruxiy" bilan mashhur. "Tarixi Shohruxiy" Qo`qon

xonligining (1709-1876 y.y) mukammal tarixi bo`lib, unda xonlikka qaram bo`lgan Toshkent, Qirg`iziston, Qozog`istonning janubiy qismining ijtimoiy siyosiy tarixi ham bayon etilgan. Asarda Qo`qon xonligining Sharqiylar Turkiston va boshqa mamlakatlar bilan bo`lgan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalarini va Qo`qon xonligining ruslar tomonidan bosib olinishi, Po`latxon qo`zg`olonidan so`ng xonlikning tugatilishi to`g`risida ma'lumotlar bor.

"Tarix-i Shohruxiy"ning matni N.N.Pantusov tomonidan 1885 yili Qozonda chop etilgan. Ayrim parchalari V.V.Bartold, N.G. Mallitskiy va V.A. Ramodin tarafidan rus tiliga tarjima qilingan. Asar 1987 yili qozog`istonlik tarixchi T.K. Beysembiev tomonidan rus tilida chop etilgan.

Muhammad Yunus ibn Muhammad Amin al- Mutaxallis Toib- davlat arbobi, shoir va tarixchi. Qo`qon xonligining XIX asrdagi ilmiy, madaniy hayotida salmoqli iz qoldirgan ma'rifatparvar shaxs. Tarjimai holiga oid ma'lumotlar juda kam bo`lib, ular ham Toibning o`z asarlarida keltirilgan parchalardan iborat. Toib to`g`risida uning hayoti va ilmiy faoliyatini tadqiq etgan tarixchi olim Shodmon Vohidov quydagilarni keltiradi.

Muhammad Yunusning "Tuhfai Toib", "Hadoiq ul-anvor"("Nurlar bog`lari") asarlari bo`lib, ular O`zbekiston F.A. Sharqshunoslik instituti qo`lyozma fondida 4243G`11 va 596 raqamlari ostida saqlanadi.

Muhammad Yunus Toib "Tuhfai Toib" asarini yozayotgan vaqtida, ya`ni 1903 yili 73 yoshda ekanini va shu yili Oqmachit voqeasidan ellik yil o`tganini eslaydi. Demak, Muhammad Yunus 1830 yil tug`ilgan. Shu erda u o`zi haqida "Shoshiy tavalludu Farg`oniy al-muhattit" deganki, bundan uning Toshkentda tug`ilib, Farg`ona mulkida yashagani ma'lum bo`ladi.

Muhammad Yunus yoshligidan Toshkent hokimlariga, keyinchalik Shodmonxo`ja qumbegi, Xudoyorxon, Mallabek, Sulton Said, Aliquli amirlashkarga xizmat qilib, uzoq yillar Sharqiylar Turkiston hokimi amir Muhammad Yoqubbek Badavlatga ham yovar va devonbegi, so`ng 1877 yilgacha Yorkentda hokim bo`lgan. Aliquli amirlashkar 1864 yili Muhammad Yunusni shig`ovul etib tayinlaydi. U Oqmachit himoyasida, Ikon muhoribasi, Chimkent va Toshkent mudofaasida faol qatnashib, Qo`qon xonligining elchilik ishlariha ham aralashib yurgan. Toib vafotining sanasi aniq emas. "Hadoiq ul-anvor" asarini 1914 yili ko`chirgan kotib Muhammad Yunusni "marhum" deb eslaydi. Shunga asoslanib Muhammad Yunus vafotini 1905-1914 yillar orasida ko`rsatish mumkin.

Muhammad Yunus "Tuhfai Toib" degan 3 boblik asarining 1-2-boblarida, shuningdek, "Tarixi Alimquli amirlashkar" degan asarlarida chor Rossiyasining Qo`qon xonligini bosib olishini yoritib beradi. Muallifning "Tarixi Alimquli amirlashkar", "Tuhfai Toib" asarlari Turonzamin qahramoni, Toshkent himoyasida vafot etgan Aliquli amirlashkar ibni Hasanbiy ibni Shohmirzaga bag`ishlangan. Bu asarlar amirlashkarning o`g`li Mullo Shermuhammad Mirzo mingboshi iltimosi bilan yozilgan. Asarlardagi dalil va ma'lumotlar tarixiy vokealar ishtirokchisi tomonidan yozilganligi uchun ham juda qimmatlidir. Asarlardagi ma'lumotlar Turkiston rus bosqini davridagi tarixini ham Rossiya istilosi davridagi har xil kuchlarning o`zaro munosabati va qarama- qarshiliklarini o`rganishda muhim ahamiyatga ega. "Tarixi Alimquli amirlashkar"ning boshi va oxiri yo`qolgan, o`zbek tilida yaratilgan. Asarni Shodmon Vohidov 1996 yil "Sharq Yulduzi" jurnalida e'lon qilgan. "Tuhfai Toib" esa tojik tilida, 1903-1905 yillar orasida yozilgan. Biografik -tarixiy bu asar hali nashr qilinmagan.

Mirzo Abdurazim Somiy Bo`stoniy (1838-39-1941 yildan keyin)- Buxorolik mashhur tarixshunos olim va shoir. Boshlang`ich ma'lumotni ona yurti- Buxoroning Bo`ston qishlog`ida olgan, so`ngra Buxoro madrasalarida o`qigan, dastlab viloyat xukmdorlari qo`lida kotib, amir Muzaffar taxtga kelgandan so`ng uning shaxsiy kotibi bo`lib xizmat qilgan. Amir Abdulahad hukmronligi yillarida, ya`ni 1898 yoki 1899 yilda podsholikka qarshi fikrlari uchun saroydan chetlatilib, umrining oxirini nochorlikda kechirgan.

Somiy "Mir'ot ul-xayol" ("Hayot ko`zgusi"), "Insho", "Tuhfayi shohiy" ("Podshoxning tuhfasi"), "Tarixi salotini Mang`itiya" ("Mang`it hukmdorlari tarixi") kabi qator adabiy va tarixiy asarlar yaratgan. Bular ichida 1900-1902 yillar orasida yaratilgan "Tuhfayi shohiy" va 1907 yilda yozib tamomlangan "Tarixi salotini Mang`itiya" asarlari muhim bo`lib, ular Buxoro amirligining amir Muzaffar davridagi tarixiga bag`ishlangan. Ammo bu ikki asar ma'lum darajada bir-biridan farq qiladi. Masalan, "Tuhfayi shohiy" to`laroq, biroq panegirizm ruhida bitilgan, "Tarixi salotini Mang`itiya" esa nisbatan ob'ektiv yozilgan. Asarlarda Buxoro amirligining rus bosqini arafasidagi iqtisodiy va siyosiy ahvoli, Buxoro- Rossiya munosabatlari, Buxoro amirligining ruslar tomonidan bosib olinishi keng yoritilgan.

"Tarixi salotini Mang`itiya"ning qo`lyozmalari ko`p. Asar sharqshunos olma L.M.Epifanova tomonidan rus tiliga tarjima qilingan va 1962 yili Moskvada chop etilgan.

Mirzo Olim Toshkandiy. To`la ismi - Mirzo Olim ibn domla Mirza Rahim Toshkandiy, hayotiga oid ma'lumotlar yo`q. U "Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin" ("Sultonlar shajarasini va hoqonlar tarixi") nomli asari bilan mashhur. Asar eski o`zbek tilida, XIX asr so`ngida yozib tamomlangan. Shunga qaraganda olim XIX asrning ikkinchi yarmida o`tgan va keng ma'lumotli kishilar jumlasidan bo`lgan.

"Ansob us-salotin" Farg`onaning XV-XIX asrlar orasidagi tarixini o`z ichiga oladi. Asarda muallif ayniqsa 1842-1875 yillar tarixiga keng to`xtalgan. Asarda, shuningdek, Qo`qon xonligini ruslar tomonidan istilo qilinishi tarixi ham yaxshi yoritilgan.

Asar chop qilinmagan. Uning qo`lyozma nusxalari O`zbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondida 3753,7515,9841,1314 raqamlari ostida saqlanadi.

Muhammad Yusuf BAYONly (1840-1923y.y)-Xorazmlik mashhur tarixchi olim "Tarix kitobi yozishning bir sharti bor,- deb yozgandi BAYONly.- Tarixiy voqealarni yozuvchi muarrix tarafdarlik etmasdan, bo`lgan hodisalarini rostlik bilan bayon etishi kerak. Agar rostlik bilan bayon etmasa, uning so`zlari hech bir odamga ma'qul bo`lmaydi". O`zining bu so`zlariga bir umr sodiq bo`lgan BAYONly Xiva xonligi tarixiga oid "Xorazm tarixi" va "Shajarayi Xorazmshohiy" nomli asarlar yaratdi.

Xiva xonligining ruslar tomonidan bosib olinishini yorituvchi "Shajarayi Xorazmshohiy" asarini Muhammad Yusuf 1911-13 yillar orasida yaratgan. Asar o`zbek tilida bo`lib, 16 bobdan iborat. "Shajarayi Xorazmshohiy"ning 15-16 boblari chor Rossiyasining istilosini va mustamlaka davrida ijtimoiy-siyosiy tarixiga bag`ishlangan.

Asarni N.Jumaev, I.Adizova o`rganishgan, 1991 yil ular asarni nashr qilishgan. Asar 1994 yili ham chop etilgan.

Chor Rossiyasining O`cta Osipyoni bosib olishi tarixi Mullo Xolbek bini Muhammad Muso Andijoniyning "G`aribnama" ("Aliquli jangnomasi va g`aribnama") asarida, Muhammad Umar-Umidiy Namangoniyning "Maktubchayi xon", Muhammad Fozilbek ibni qozi Muhammad Otabekning "Mukammali tarixi Farg`ona", Avaz Muhammad Attor Ho`qandiyning "Tuhfat ul-tavorixi xoniy" asarida, Mulla Olim Mahmudhojaning "Tarixi Turkiston", Mirza Salimbekning "Tarix-i Salimi" asarida va boshqalarda ham yoritilgan.

O`cta Osipyoni ruslar tomonidan bosib olinishi tarixi yuqorida aytigandek, rus sarkardalari, tarixchilari asarlarida ham yoritilgan. Bunga M.A.Terentevning "O`cta Osyo Rossiyasining statistik ocherklari"(SPb, 1874), "O`cta Osioning bosib olinishi tarixi" 1-3 tomlar (SPb, 1906) asarlarini, A.Kostenkoning "O`cta Osyo va unda rus fuqaroligining joriy etilishi" (SPb, 1871) asarini va boshqalarni misol keltirish mumkin.

M.A. Terentevning "O`cta Osyo Rossiyasining statistik ocherklari" degan asari uchta ocherkdan iborat bo`lib, birinchi ocherk "Sirdare liniyasi 1862, 1863 va 1864 yillarda" deb nomlangan. Unda muallif rus qo`shinlarining Sirdare liniyasi bo`yicha 1862-1864 yillardagi harbiy harakatlarni yoritib bergen.

"Sirdare viloyati 1870 yilda" nomli ikkinchi ocherkda esa muallif Sirdare viloyatining rus bosqinidan keyingi mustamlaka davridagi 1870 yilgacha bo`lgan holatini yoritgan. Ocherknha yozishda M.A.Terentev ko`rsatib o`tganidek, uezd boshliqlarining yillik hisoboti, 1868 yildagi komissiya ishi, Turkiston kazennoy palatasining kassa hisobotlari, Turkiston harbiy okrugi shtabi ishlari, muallifning shaxsiy kuzatuvni asos bo`lgan. Asarda e'tiborga molik bo`lgan, rus bosqini davrida chor Rossiyasi armiyasi tarkibida 1861 yil polkovnik Simmermann otryadida mahalliy aholidan tuzilgan 225ta yigit va 7ta ofitserdan iborat otryad, Chimkentga yurishda general Chernyaev qo`shinida 1000ta yigitdan iborat otryad, Samarcandga yurishda katta bo`limgan shunday miliitsiya otryadi bo`lgani to`g`risida ma'lumotlar berilgan.

Asarning uchinchi ocherki Sirdare viloyati uezdlarining tuzilishi va ahvoliga bag`ishlangan. Shuningdek, asarda Sirdaryo viloyati va uezdlarining mustamlakachilik davridagi holatini ko`rsatuvchi 17ta tablitsa keltirilgan.

M.A.Terentevning "O`cta Osioning bosib olinishi tarixi" nomli 3 tomlik fundamental asari ham bo`lib, uning 1-2 tomlarida chor Rossiyasining O`cta Osipyoni bosib olishi to`la yoritib berilgan.

L. Kostenkoning "O`cta Osyo va unda rus fuqaroligining joriy etilishi" nomli asari ham chor Rossiyasi istilosini o`rganishda ahamiyatga ega. Asarda muallif Petr 1 davridan to Buxoro amirligini bosib olinishigacha bo`lgan tarixni keng yoritgan. Ayniqsa, 1839-1840 yillardagi Xiva xonligiga qarshi amalga oshirilgan Perovskiy ekspeditsiyasi juda yaxshi ko`rsatib berilgan.

1891 yil nashr qilingan, V.I.Mejov tuzgan "Osiyo bibliografiyasi"da rus va xorij tillarida O`rta Osiyoga bag`ishlangan 1921ta adabiet ko`rsatilgan. Shu asarlarning katta qismida O`rta Osiyoning ruslar tomonidan istilo qilinishi yoritilgandir.

Umuman aytganda, O`rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi tarixini o`rganishda mahalliy va rus manbalarini har tomonlama tadqiq etmoq lozim.

**NAZORAT TOPShIRIQLARI:**

- Mirzo Abduazim Somiy Bo`stoniy asarini aniqlang
- A. Tarixi Shohruhiy
  - V. Tarixi salotini Mang`itiya
  - S. Tarixi Salimi
  - D. Tarixi Alimquli amirlashkar
  - E. Tarixi Aziziy

Qo`qon xonligining bosib olinishi yoritilgan asarlarni toping

- A. Tarix-i Salimi, Tuhfayi Toib
- V. Tarixi Alimquli amirlashkar, Navodir ul-vaqoe'
- S. Umarnoma, Tarixi Farg`ona
- D. Shajarayi Xorazmshohiy, Maktubchayi xon
- E. Tarixi Shohruhiy, G`aribnoma

Manbalarni yaratilgan vaqtiga ko`ra xronologik ketma-ketlikda joylashtiring

- A. Tarixi Farg`ona
- V. G`aribnoma
- S. Shajarayi Xorazmshohiy
- D. O`rta Osiyoning bosib olinishi tarixi
- E. Tarixi Alimquli amirlashkar

Mahalliy tarixchilar asarlari bilan rus sarkardalari va tarixchilari asarlarini qiyosiy tavsiflang (og`zaki)

Muhammad yunus Toibning "Tarixi Alimquli amirlashkar" asarini va BAYONIyning "Shajarayi Xorazmshohiy" asarini rus bosqiniga oid qismini konspekt qiling.

Adabiyotlar:

- Ahmedov B. O`zbekiston xalqlari tarixi manbalari.- T.,1991  
Muhammad Yunus Toib. Tarixi Alimquli amirlashkar.- Sharq yulduzi 1996. 1-2 sonlar.  
Bayoni. Shajarayi Xorazmshohiy.-Meros turkumi. - T.:Kamalak, 1991.

2-asosiy savol:

Chorizmning mustamlakachilik siyosatiga oid manbalar

Maqsad:

Chor Rossiyasi mustamlakachilik siesatini va unga qarshi ko`tarilgan milliy ozodlik harakatlarini ko`rsatib berish, talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

**IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:**

- Turkistondagi rus mustamlakachilik siyosatining yorituvchi manbalarni bilib oladi.  
Rus mustamlakachiligidni yorituvchi manbalarni sharhlaydi.  
O`lkada rus mustamlakachiligi davridagi tarixini aks ettiruvchi manbalarni tahlil qiladi.  
Rus mustamlakachiligiga oid manbalarni tizimlaydi.  
Turkistonda chorizm mustamlakasi davrini yorituvchi manbalarga baho beradi.

Bayon:

Chor Rossiyasi O`rta Osiyoni bosib olgach, bu erda o`zining mustamlakachilik siesatini yurita boshladi. Ruslar avvalo o`zlarining asosiy maqsadi - o`lkani xom ashe bazasiga va tovarlari uchun bozorga aylantirish borasida sa`yi-harakatlar qildilar. Buning uchun Turkistonda mustamlakachilik boshqaruv tizimini - Turkiston general-gubernatorligini tashkil etdi va o`lkani yuqorida quyigacha bo`lgan boshqaruvini o`z qo`liga olib, jamiyat haetining barcha sohalarini o`zlariboshqardilar. Chorizmning Turkistondagi vahshiena mustamlakachilik siesatiga qarshi o`lka xalqlari milliy ozodlik kurashini olib bordilar.

Ruslarning Turkistondagi mustamlakachilik siesati va unga qarshi o`lka xalqlarining milliy-ozodlik harakatini yorituvchi ko`plab manbalar mavjud. Bu borada avvalo shuni ta'kidlash kerakki, chorizmning mustamlakachilik siesatiga oid ma'lumotlar aksariyat holda rus bosqiniga oid manbalarda berilgan. Shu bilan birga ko`rilayotgan masala keng tahlil qilingan manbalar ham mavjud. Bunga Muhammad Aziz Marg`iloniyning "Tarixi Aziziy" asarini misol keltirish mumkin.

Muhammad Aziz Marg`iloniy X1X asr-XX asr boshida yashagan tarixchi, asli Marg`ilonlik bo`lgan. Uning tarjimai holiga oid ma'lumotlar kam. Uning asarda bergan ma'lumotiga ko`ra ruslar davrida Marg`ilon uezdida 27 yil mirza bo`lib xizmat qilgan. U "Tarixi Aziziy" degan asar yaratgan. Asar o`zbek tilida yozilgan. Bugungi kunda faqatgina bitta qo`lyozmasi mavjud. Qo`lyozma O`zRFA Sharqshunoslik instituti qo`lyozmalar fondida 11108 raqami ostida saqlanmoqda. "Tarixi Aziziy" 5 bob, 166 fasl va 436 betdan iborat. Asarda Chingizzon hujumidan to 1910 yilgacha bo`lgan tarixiy voqealar yoritiladi. Asarning 5 bobi original hisoblanib, uning nomi yo`q. Bu bobda Muhammad Aziz tomonidan X1X asrning 60-yillardan XX asr boshlarigacha bo`lgan voqeyleklar aks ettirilgan. Asarni yozishda Muhammad Aziz Marg`iloniy ko`plab manbalar, o`zining kuzatishlaridan foydalangan. "Tarixi Aziziy"da chor mustamlakachiligi davridagi iqtisodiy, ijtimoiy-siesiy haet to`g`risida ko`plab muhim ma'lumotlar keltirilgan. Bulardan narx-navo, paxtachilik, ipakchilik, tog`-kon ishlari, Xudoerxonning Kaufman bilan munosabatlari, Po`latxon, Dukchi Eshon qo`zg`oloni to`g`risidagi ma'lumotlar ahamiyatga molikdir. Asar D.Sangirova tomonidan o`rganilgan, Sh.Vohidov va D.Sangirova 1999 yili chop ettirishgan.

Rus mustamlakachilik siesati tarixini yorituvchi manbalardan yana biri Fozilbek Otobek o`g`lining "Dukchi Eshon voqeasi" asaridir. Fozilbek Otobek o`g`li 1879-1938 yillarda yashagan, asli Andijonlik, mashhur Otobek qozining o`g`li. Fozilbek rus-tuzem maktabida, 1923 yili Moskvada Qishloq xo`jaligi akademiyasida o`qigan. O`qishdan so`ng Turkistonga qaytib yangi paxta navlarini etishtirish bilan shug`ullangan. U Farg`ona viloyati harbiy gubernatori Gippius topshirig`i bilan "Mukammali tarixi Farg`ona" nomli 2 bobdan iborat va "Dukchi eshon voqeasi" degan asarlar yaratgan. Birinchi asar Shohruhbiy davridan to Qo`qon xonligi tugatilgungacha bo`lgan davrni eritadi. Ikkinci asar esa rus mustamlakachiligi, unga karshi 1898 yilda Andijon qo`zg`olonia bag`ishlangan.

Fozilbek Otobek o`g`li qo`zg`oloning bevosita guvohi bo`lgan. Shuning uchun ham asarda muallif Mingtepa qishlog`i, Dukchi Eshon va uning "avlieligi" to`g`risida, qo`zg`olonga tayergarlik ko`rishi, qo`zg`oloning boshlanishi, qo`zg`olenchilardan vahshiena o`ch olinishi, qo`zg`olondon keyin chor mustamlakachilarining istibdodlari to`g`risida ko`plab muhim ma'lumotlarni bergen. Asar mustaqillikdan so`ng o`rganildi. Sirojiddin Ahmad, Ulug`bek Dolimov, Shuhrat Rizaevlar tomonidan 1992 yili chop etilgan.

Rus mustamlakachiligidagi qarshi olib borilgan ozodlik harakatlariga oid manbalar o`rganilar ekan, bu borada qo`zg`oloni larga, ularning rahbarlariga hamisha ham ijobji baho berilmaganligi ko`zga tashlanadi. Bunga Mullo Muhammad Yunus Toyibning "Tuhfayi Toyib" asari misoldir. Bu asar 1903-1905 yillar orasida yaratilgan bo`lib, u Aliqli amirlashkarning o`g`li Mullo Shermuhammad Mirzo iltimosi bilan yozilgan. Muallif asarning 3 bobida Dukchi Eshon qo`zg`oloni to`g`risida ezar ekan, unga salbiy munosabat bildirgan. Uni quyidagi asarda keltirilgan fard ham ko`rsatadi:

Pir agar inu karomat in ki, shud az vay padid,  
Muxlisi ko`yi mo`ridam ko` ba rishi pir rid.

(Tarjimasi: Agarda pir bu-yu, ko`rsatilgan karomati shu bo`lsa, Men o`z piri yuziga tupirgan muridning muxlisiman.)

Demak, bu shuni ko`rsatadiki, biz har bir tarixiy voqeani o`rganishda barcha manbalarni o`rganmog`imiz, shundan so`ng o`sha tarixiy voqeaneing to`laqonli tarixini yaratmog`imiz darkor.

Umuman olganda, rus mustamlakachilik davri tarixini yorituvchi manbalar biser, faqat ularni xolis o`rganish va tadqiq qilish lozim.

#### NAZORAT TOPShIRIQLARI:

- Mirzo Olim Toshkandiy asarini toping.
- A. Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin
- V. Mukammali tarixi Farg`ona
- S. Habib us-siyar
- D. Tarixi salotini Mang`itiya
- E. Tarixi jadidayi Toshkand

1898 yil Andijon qo`zg`oloni yoritilgan asarlarni aniqlang.

A. Tuhfayi Toyib, Tarixi Farg`ona  
 V. Tarixi Aziziy, Tarixi Shohruhiy  
 S. Sharafnomayi Shohiy, Tuhfayi Toyib  
 D. Dukchi Eshon voqeasi, G`aribnoma  
 E. Tarixi Aziziy, Tuhfayi Toyib  
 "Marhum meros" yoritilgan asarlar bu...  
 A. Tarixi Farg`ona, Tarixi Salimiy  
 V. G`aribnoma, Tuhfayi shohiy  
 S. Dukchi Eshon voqeasi, Tarixi Aziziy  
 D. G`aribnoma, Tarixi Farg`ona  
 E. Tarixi Aziziy, Tarixi Farg`ona  
 "Tarixi Aziziy"ning rus mustamlakachiligiga oid qismini konspekt qiling.  
 "Tarixi Aziziy" va "Dukchi Eshon voqeasi" asarlarini qiyoslang (og`zaki).  
 Adabiyotlar:  
 Muxammad Aziz Marg`iloniy. Tarixi Aziziy.- T.:Ma'naviyat, 1999.  
 Fozilbek Otabek o`g`li. Dukchi Eshon voqeasi. - T.:Cho`lon, 1992.

## **9 MAVZU: Davriy matbuot va arxiv xujjatlari xamda statistika mustaqil O`zbekistonning so`nggi yillardagi tarixini o`rganishda muxim manba sifatida**

**2 soat**

### **Fanni o`qitish texnologiyasi:**

**"Davriy matbuot va arxiv xujjatlari xamda statistika mustaqil O`zbekistonning so`nggi yillardagi tarixini o`rganishda muxim manba sifatida"**  
**mavzusi bo`yicha ma'ruza darsining texnologik xaritasi**

| <b>No<br/>Bosqich</b> | <b>Bajariladigan ish mazmuni</b>  | <b>Amalga<br/>oshiruvchi<br/>shaxs, vaqt</b> |
|-----------------------|---|--|
| 1                     | <p><b>Tayyorlov bosqichi</b></p> <p><b>1.1 Dars maqsadi:</b> Arxiv hujjatlarining manba sifatidagi ahamiyatini va turlarini yoritib berish, talabalarni arxiv hujjatlarini o`rganishga qiziqtirish va ularni manbalarni avaylab-asrashga o`rgatish.</p> <p><b>1.2.Identiv maqsadlar:</b><br/>           Arxiv hujjatlarining tarixni o`rganishdagi ahamiyatini farqlaydi.<br/>           Arxiv hujjatlarining O`zbekiston tarixini o`rganishdagi o`rni va rolini tushunadi.<br/>           X1X asr ikkinchi yarmi - XX asr O`zbekiston tarixini yoritishda arxiv hujjatlarining ahamiyatini aniqlaydi.<br/>           Arxiv hujjatlarini guruholaydi.</p> <p><b>1.3.Asosiy tushunchalar:</b> Tashkiliy hujjatlar, Nizom, qoida, majburiyatlar, shartnomalar, taqsimlovchi hujjatlar, qaror, rezolyutsiya, buyruq, farmoyish, dekret, Konstitutsiya, qonunlar, kodeks, konvensiya, nota, memorandum, yozishmalar, axborot, qayd hisobot, lavha, mukotiba, intervyu, maqola, taqriz, sharh, ocherk, feleton.</p> <p><b>1.4.Dars shakli:</b> Ma`ryuzaga</p> <p><b>1.5.Metod va usullar:</b> Ogzaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum</p> <p><b>1.6.Kerakli jihoz va vositalar:</b> O`quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor.</p> | O`qituvchi                                   |
| 2                     | Oquv mashg`ulotni tashkil qilish bosqichi:<br>2.1. Mavzu e'lon qilinadi.<br>2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.  | O`qituvchi<br>30 min.                        |
| 3                     | Guruhda ishlash.<br>Mavzu bo`yicha talabalarning fikrini bilish;<br>Talabalarda tahlil qilish qobiliyatini kuchaytirish;  | O`qituvchi –<br>talaba<br>30 min.            |

|   |  |  |
|---|--|--|
|   | Talabalarni bahsga jalb qilish.  |  |
| 4 | <p><b>Mustahkamlash va bahlash:</b><br/>           Berilgan ma'lumotni talabalar tomonidan o'zlashtirilganini ani?lash uchun quyidagi savollar beriladi:<br/>           Turkistonda arxiv ishlari bo'yicha markaziy boshqarma tuzilgan sanani toping.<br/>           Taqsimlovchi hujjatlar turlarini aniqlang.<br/>           Turkistonadagi birinchi davriy matbuot nashrini toping.</p> | <b>O'qituvchi – talaba<br/>10 min.</b> |
| 5 | <p><b>O'quv mashg'ulotini yakunlash.</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Ma'ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo'yicha yakuniy fikr aytildi va mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi</li> </ul> <p><b>Mustaqil ish topshirig'i:</b></p>  | <b>O'qituvchi<br/>10 min.</b>          |

Asosiy savollar:

Arxiv hujjatlari - X1X asr ikkinchi yarmi - XX asr O'zbekiston tarixini o'rganishda muhim manba.

Davriy matbuot manba sifatida

1-asosiy savol:

Arxiv hujjatlari - X1X asr ikkinchi yarmi- XX asr O'zbekiston tarixini o'rganishda muhim manba.

O'zbekiston tarixini o'rganishda arxiv hujjatlarining ahamiyatini asoslaydi.

1-asosiy savolning BAYONI:

1919 yil Turkistonda Xalq maorifi komissarligi qoshida Arxiv ishlari bo'yicha markaziy boshqarma tashkil etildi. Shu vaqtan boshlab davlat ahamiyatiga ega bo'lgan barcha hujjatlar, yozishmalar arxivlarda saqlanadigan bo'ldi. Arxivlarda nafaqat 1919 yildan keyingi, balki undan oldingi hujjatlar - Turkiston general-gubernatorligi kantselyariyasi hujjatlari, viloyat, uezd, uchastkalar boshqarmalari faoliyatiga oid hujjatlar ham to`planib, saqlanadigan bo'ldi.

Arxivlarda hujjatlardan foydalanishni osonlashtirish uchun hujjatlar fondlarga bo`linib chiqildi. Masalan, 17 fond, Turk MIQ, R-25 - O'zbekiston SSR MIQniki va hokazo.

Arxivlar respublika miqyosidagi arxivlarga (MDA, Vazirliklar arxivi, Prezident apparati arxivi va hk), viloyat, tuman va shahar arxivlariga bo`linadi. Ularda hujjatlar ahamiyatiga ko`ra joriy va doimiy saqlanadi. Arxivlarda yozma hujjatlardan tashqari kino, foto, fono hujjatlar ham saqlanadi.

Arxiv hujjatlari davlat tashkilotlar, vazirliklar, korxonalar, jamoat tashkilotlari, diplomatik tashkilotlar hujjatlaridan tashkil topadi. Bu hujjatlarni avvalo davlat ichki hayoti va tashqi siyosatiga oid hujjatlarga bo`lish mumkin. Davlat ichki hayotiga oid hujjatlarni manbashunoslar tashkiliy hujjatlar va taqsimlovchi hujjatlarga bo`lishadi. Tashkiliy hujjatlarga Nizom, ustav, qoidalar, normativ hujjatlar, majburiyatlar, shartnomalar kiradi.

Taqsimlovchi hujjatlarga esa qarorlar, rezolyutsiyalar, buyruqlar, instruktsiyalar, farmoyishlar,nakazlar kiradi.

Yuqorida hujjatlardan tashqari O'zbekistonning XX asrdagi tarixini o'rganishda qonuniy xujjatlarning ham ahamiyati katta. Qonuniy hujjatlarga dekretlar, konstitutsiyalar, qonunlar, kodekslar, sudlov-tergov hujjatlari kiradi.

Mamlakatimizning tashqi siyosatini, boshqa mamlakatlar bilan hamkorligini o'rganishda diplomatik hujjatlar muhim o'rinn tutadi. Diplomatik hujjatlarga notalar, yozishmalar, nomalar, memorandumlar, bayonotlar, shartnomalar, konventsiyalar kiradi.

Diplomatik yozishmalar - davlat rahbarlari o'rtasida, Tashqi ishlar Vazirligi, davlatlarning tashqi siyosiy idoralari (elchixonalar, konsulliklar va hk) o'rtasida ma'lum bir masala eki masalalar bo'yicha bo'ladi.

Diplomatik hujjatlarning yana biri notadir. Notalar 2 xil bo`lib, shaxsiy nota va verbal notalar farqlanadi. Shaxsiy nota - biror masala bo'yicha birinchi shaxs nomidan yozilgan xat. Joriy masalalar bo'yicha uchinchi shaxs nomidan yozilib, tasdiqlanmaydigan diplomatik xujjat - verbal nota deyiladi.

Memorandum oldin muhokama qilinmagan masala, faktlar asosida huquqiy tomoniga e'tibor berib tuziladigan diplomatik hujjatdir.

Diplomatik hujjatlardan biri konvensiya bo`lib, u ma'lum masalalar bo'yicha hamkorlik to`g`risida tuziladi. Shartnomalar ham diplomatik hujjat bo`lib, u tomonlarning majburiyatlarini

ko`rsatuvchi aktdir. Xalqaro shartnomalar juda ko`p bo`lib, bunga Tinchlik shartnomalari, o`zaro yordam, hujum qilmaslik, iqtisodiy hamkorlik to`g`risidagi shartnomalar kirishi mumkin. Shartnomalar ikkitomonlama va ko`ptomonlama bo`ladi.

Diplomatik hujjatlar maqsad, vazifalari ko`rsatilgan preambula qismidan, majburiyat, hamkorlik formalari ko`rsatilgan maqola-qaror qismidan (bayonnomadan) hamda muddati ko`rsatilgan yakunlovchi maqola (kommyunike) qismidan iborat bo`ladi.

Yuqoridagi arxiv hujjatlarining har biri O`zbekistonning XX asrdagi tarixini o`rganishda va yaratishda muhim ahamiyatga ega ekanligi har bir tarixchiga kunday ravshandir. Lekin arxiv hujjatlaridan foydalanaetganda albatta ulardan tanqidiy foydalanmoq zarur. Chunki har bir hujjatga uni tuzgan sub`ekt va u tuzilgan davr ruhi singdirilgan bo`lishi tabiiydir.

#### NAZORAT TOPShIRIQLARI:

Turkistonda arxiv ishlari bo`yicha markaziy boshqarma tuzilgan sanani toping.

- A. 1917 yil
- V. 1918 yil
- S. 1919 yil
- D. 1920 yil
- E. 1921 yil

Taqsimlovchi hujjatlar turlarini aniqlang.

- A. qaror, buyruq, shartnama, farmoyish
- V. majburiyat, qoida, qaror, instruktsiya
- S. buyruq, rezolyutsiya, farmoyish, qaror
- D. ustav, qoida, qaror, farmoyish
- E. instruktsiya, buyruq, qoida, nizom

1) Diplomatik hujjatlar

2) Qonuniy hujjatlar

- A. Qonun
- V. Verbal nota
- S. Mehnat Kodeksi
- D. Preamble
- E. Memorandum
- F. Rezolyutsiya
- G. № 125-ish
- H. tinchlik to`g`risidagi dekret
- I. 1975 yil 1 sentyabr

Diplomatik hujjatlarga XX asrdagi O`zbekiston tarixidan misollar keltirib, tahlil qiling.(yozma)  
Tashkiliy-taqsimlovchi hujjatlarni qonuniy hujjatlar bilan qiyosiy tavsiflang (og`zaki).

2-asosiy savol:

Davriy matbuot manba sifatida.

Maqsad:

Davriy matbuotning manbashunoslikdagi o`rni va rolini ko`rsatib berish, talabalarni davriy matbuotni manba sifatida o`rganishga qiziqtirish.

#### IDENTIV O`QUV MAQSADLARI:

Davriy matbuotning manba sifatidagi ahamiyatini biladi.

Davriy matbuotning manbashunoslikda o`rni va rolini sharhlaydi.

Davriy matbuotni manba sifatidagi hususiyatlarini aniqlaydi.

Davriy matbuot janrlarini tahlil qiladi.

Davriy matbuot janrlarini qiyoslaydi.

2-asosiy savolning BAYONI:

1870 yili Turkistonda birinchi davriy matbuot nishonasi "Turkestanskie vedomosti" gazetasi nashr qilina boshladi. XIX asrning oxiridan boshlab "Tarjimon" kabi mahalliy ziyorolar tashkil etgan gazeta ham chiqa boshladi. XX asr boshlaridan esa Turkistonda ko`plab gazeta va jurnallar nashr qilina boshladi. Davriy matbuotni (bizda chor mustamlakasi davri va sovet mustamlakasining

dastlabki yillariga to`g`ri keladi) olimlar rasmiy va norasmiy matbuotga bo`lishadi. (Danilevskiy I.N., Kabanov V.V., Medushevskaya O.M., Rumyantseva M.F. Istochnikovedenie. Teoriya, istoriya, metod.- M., 1998. S.451.)

XX asr 20-yillarigacha davriy matbuotning turlari ko`payib bordi. Bular gazeta, jurnal, televidenie, radiodir.

Davriy matbuotda beriladigan materiallar uch guruhga bo`linadi. Ular quyidagilar:

axborot;

analitik (tahliliy);

badiiy-publitsistik.

Axborot guruhiga quyidagi matbuot janrlari kiradi: qayd, lavha, hisobot, intervyu

Tahliliy materiallarga esa mukotiba (korrespondentsiya), taqriz, sharh, maqola janrlari mansub.

Badiiy -publitsistik materiallarga ocherk, feleton, pamflet janrlariga oid materiallar kiradi.

Davriy matbuot, ya`ni gazeta-jurnallardagi maqolalar, radio-televideniedagi ko`rsatuv va eshittirishlar, ilmiy, ilmiy-ommabop, publitsistik, badiiy, ommabop xususiyatlarga ega bo`ladi.

O`zbekiston tarixining XIX asr ikkinchi yarmi- XX asrdagi davrini o`rganishda ilmiy, publitsistik materiallar muhim ahamiyatga egadir. Chunki ulardagagi faktologik materiallar, ma'lumotlar ilmiy ahamiyatga ega bo`ladi.

Davriy matbuotning yuqorida keltirilgan turlari va guruhlarining tarixni o`rganishdagi ahamiyatini ko`rsatish uchun birgina misol keltiramiz. XX asr boshlarida jadidlar tomonidan "Taraqqiy", "Xurshid", "Osiyo", "Samarkand", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg`ona", "Hurriyat", "Ulug` Turkiston" kabi gazetalar, "Oyina", "Al-isloh" nomli jurnallar nashr qilingan. Turkistonda rus mustamlakachiligiga qarshi milliy demokratik harakat - jadidchilik tarixini biz yuqoridagi davriy matbuotsiz o`rgana olmaymiz, ularsiz o`rgangan taqdirimizda bu jadidizmnning haqqoniy to`laqonli tarixi bo`lmaydi. "Oyina" jurnali, "Samarqand" gazetasiziz jadid munavvari, "Haq olinur, berilmas" deb hayqirgan Mahmudxo`ja Behbudiy faoliyati to`g`risida gapirish noo`rindir.

Demak, XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr Vatanimiz tarixini o`rganishda davriy matbuotning o`z o`rni va roliga ega. Davriy matbuotdagi ma'lumotlar, dalillarni olishda unga tanqidiy yondoshish, shuningdek, har bir janr, har bir matbuot turi xususiyatlaridan kelib chiqish maqsadga muvofiqdir.

#### NAZORAT TOPShIRIQLARI:

Turkistondagi birinchi davriy matbuot nashrini toping.

A. Tarjimon

V. Turkestanskie vedomosti

S. Kurer

D. Xurshid

E. Qizil O`zbekiston

Davriy matbuot materiallarining guruhlarini aniqlang.

A. axborot, maqola, tahliliy

V. tahliliy, qayd, badiiy-publitsistik

S. axborot, hisobot, lavha, mukotiba

D. axborot, tahliliy, badiiy-publitsistik

E. badiiy-publitsistik, feleton, maqola

## SEMINAR MAVZULARI

| No | SEMINAR MAVZULARI  | Mavzular yuzasidan savollar  | Darslik   |
|----|--|--|---|
| 1  | <b><u>IBOB.</u></b><br><b><u>MANBASHUNOSLIKNING</u></b><br><b><u>NAZARIY MASALALARI</u></b><br><b><u>Manbashunoslik fani</u></b><br><b><u>predmeti, vazifalari va</u></b><br><b><u>ahamiyati</u></b> | 1. Manbashunoslik fanini o`rganishdan maqsad.<br>2. Manbashunoslik faninq maqsad va vazifalari.<br>3. Manbalar turlari.<br>4. Manbashunoslik va tarix faninq yordamchi sohalari.   | 4 ; 5 ; 5 ; 9 ; 7 ; 8 ; 8 ; 10 ;  |
| 2  | <b><u>Manbashunoslikning</u></b><br><b><u>yo'nalishlari ,</u></b><br><b><u>Manbalarni o'ranish va</u></b><br><b><u>o'rgatish usullari</u></b>  | 1. Manbashunoslik faninq maqsad va vazifalari.<br>2. Nazariy manbashunoslik.<br>3. Arxeografiya.<br>4. Manbalarni ichki belgilariga garab tahlil etish.<br>1. Yozma manbalarni tavsif etish<br>2.Kodikologik ma`lumotlar.<br>3. Asarning tarkibi va mazmuni tahllili.<br>4.Manbaning o`rganilishi va tarixshunosligi.  | 11 ; 11 ; 13 ; 15 ; 18 ; 21 ; 22 ; 24 ; 13 ; 17 ; 15 ;                              |
| 3  | <b><u>Hujjatlar.</u></b><br><b><u>Tarixiy asarlar</u></b><br><b><u>xususiyatlari</u></b>   | 1. Hujjatlar O`zbekiston tarixining muhim manbalari.<br>2. O`zbekiston tarixiga oid hujjatlar.<br>3. Rasmiy yozishmalar.<br>4.Turli masalalar hagudagi hujjat, farmon va maktublar.<br>1. Arab tilidagi manbalar va ularning xususiyatlari.<br>2. Fors tilining manbalarda tutgan o`rni.<br>3. Manbalarning yaratilishida o`zbek tilining tutgan o`rni.<br>4.O`zbek tilidagi manbalarning xususitlari. | 26 ; 28 ; 32 ; 38 ; 41 ; 44 ; 46 ; 48 ; 14 ; 68 ; 111 ; 142- 199 ; 187 ; 187 ;      |
| 4  | <b><u>Geografiya va</u></b><br><b><u>kosmografiyaga oid</u></b><br><b><u>manbalar</u></b><br><b><u>Biografik asarlar</u></b>   | 1. «Mo`uam ul-buldon»<br>2. «Hudud ul-olam»<br>3. «Samariya»<br>4. «Dili g`aroyib»<br>1. Biografik asarlar xususiyatlari va tavsifi.<br>2. «Muzakkiri ahbob»<br>3. «Xotiroti Mutribiy»<br>4. «Muzakkiri al-as`hob».  | 50 ; 51 ; 53 ; 58 ; 62 ; 64 ; 66 ; 68 ; 246; 249; 256; 255; 263 ; 289 ; 269 ; 272 ; |
| 5  | <b><u>Agiografik asarlar</u></b><br><b><u>va Memuar asarlar</u></b>  | 1. Agiografik asarlarning xususiyatlari va tavsifi.<br>2. «Maqomati xoja Ahror»<br>3. «Jomi ul-maqomati Maxdumi A`zam Kosoniy»<br>4. «Matlab ut-tolibin».<br>1.Memuar asarlar xususiyatlari va tavsifi.<br>2. «Baqoyi` ul-vaqoyi`»<br>3. «Mir`ot ul-mamolik»<br>4. «Mujmali Fasihiy»   | 71 ; 74 ; 79 ; 83 ; 88 ; 90 ; 91 ; 88 ; 297 ;                                       |

|    |   |   |  |  |
|----|---|---|--|--|
| 6  | <b>Sayyoh va elchilar esdaliklari</b>   | 1.Sayyoh va elchilarning esdaliklari-ning xususiyatlari.<br>2.Sayyoh va elchilarning esdaliklari tavsifi.<br>3.I.D.Xoxlov elchiligi hujjatlari.<br>4.Filipp Nazarovning esdaliklari.  | 93 ;<br>94 ;<br>98 ;<br>105 ;  | 306 ;<br>315 ;   |
| 7  | <b>Manbashunoslik tarixi va muammolari</b>  | 1.Manbashunoslik fanining paydo bo`lishi, tarixi, o`ziga xos xuxusiyatlari.<br>2.O`zbekistonda manbashunoslik fani tarixi.<br>3.Zamonaviy manbashunoslik muammolari.<br>4.O`zbek xalqining shakllanishiga oid manbalar.   | 108 ;<br>112 ;<br>111 ;<br>113 ;                                     | 348 ;<br>259 ;   |
| 8  | <b>Qadimgi zamon manbalari VI-VIII asrlar manbalari</b>   | 1. Asosiy siyosiy-ijtimoiy voqealar.<br>2. Qadimgi Eron manbalari.<br>3. Qadimgi Hind manbalari.<br>4. Qadimgi Yunon va Rim manbalari.<br>1.Muxim siyosiy voqealar.<br>2. Qadimgi Turk manbalari.<br>3. Xitoy manbalari.<br>4. So`g`d tilidagi manbalar.            | 117 ;<br>120 ;<br>124 ;<br>124 ;<br>131 ;<br>134 ;<br>136 ;<br>139 ; | 20 ;<br>24;<br>33 ;<br>34;<br>46 ;<br>50 ;<br>54 ;       |
| 9  | <b>IX-XII va XIII-XIV manbalari</b>   | 1. Asosiy siyosiy-ijtimoiy voqealar.<br>2.Arab tilida yozilgan manbalar.<br>3. Mo`g`ul va xitoy tillarida yozilgan manbalar.<br>4. Fors tilidagi manbalar.  | 141-161 ;<br>146 ;<br>162 ;<br>166 ;                                 | 42-<br>57 ;<br>111 ;<br>107 ;<br>142 ;                   |
| 10 | <b>Temuriylar davri manbalari va Shayboniylar davri manbalar</b>  | 1. Asosiy siyosiy-ijtimoiy voqealar.<br>2. O`zbek tilidagi manbalar.<br>3. Fors tilidagi manbalar.<br>4. «Ravzat us-safo»<br>1. Asosiy siyosiy-ijtimoiy voqealar.<br>2. Fors tilidagi manbalar.<br>3. «Akbarnama».<br>4. O`zbek tilidagi manbalar.                  | 182 ;<br>183 ;<br>194 ;<br>204 ;<br>206 ;<br>207 ;<br>218 ;<br>219 ; | 57 ;<br>165 ;<br>180 ;<br>171 ;<br>185<br>199 ;<br>187 ; |
| 11 | <b>Markaziy Osiyo xonliklari tarixini yorituvchi manbalar</b>   | 1. Asosiy siyosiy-ijtimoiy voqealar.<br>2. O`zbek tilidagi manbalar.<br>3. Fors tilidagi manbalar.<br>4. «Tarixi Shohruhiy».  | 222 ;<br>223 ;<br>228 ;<br>246 ;                                     | 185 ;<br>187 ;<br>199 ;                                  |
| 12 | <b>Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davriga oid manbalari va Sho'rolar davri tarixini aks ettiruvchi manbalar</b> | 1. Asosiy siyosiy-ijtimoiy voqealar.<br>2. Mahalliy manbalar.<br>3. Rossiya manbalari.<br>4. «Turkiston to`plami»<br>1. Asosiy siyosiy-ijtimoiy voqealar.<br>2. Rasmiy manbalar.<br>3. Davr tarixi tadqiqotlarda.<br>4. So`ro davri tarixi zamonaviy tadqiqotlarda. | 247 ;<br>248 ;<br>249 ;<br>250 ;<br>251;<br>253;<br>253;<br>254;     | 314 ;  |
| 13 | <b>Mustaqil O`zbekiston tarixini yorituvchi manbalar</b>  | 1. Asosiy siyosiy-ijtimoiy voqealar.<br>2. Rasmiy hujjatlar.<br>3. Prezident I.A.Karimov asarlari.<br>4. Mustaqillik davri tarixi zamonaviy tadqiqotlarda.  | 255;<br>258;<br>258; 259;  |  |

## TALABALAR MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARI

### **Mustaqil ish topshiriqlari ishlansasi:**

Kurs bo'yicha mustaqil ish hajmi 53 soat belgilangan. Mustaqil ish topshiriqlaridan tashqari uyga vazifa sifatida asar tahlili, Internetdan ma'lumot olish va uni tahlil qilish, ma'ruza yozish, esse yozish, test tuzish, tezis tayyorlash, seminarlarga tayyorgarlik ko'rish kabi ishlar belgilangan.

#### **1-mustaqil topshiriq: Manbalarni o'rganish usullari**

##### **1.1. Mavzu matnini o`zlashtirish**

- Yozma manbalarni tafsif usuli haqida fikr yuriting
- Kodikologik ma'lumotlar tushunchasini izohlang
- Manbaning mazmuniga qarab tahlil etish haqida tushuncha bering
- Manbaning o'rganilishini ochib berishda qayd etiladigan belgilari haqida ma'lumot bering

##### **1.2. Mustaqil uy vazifasi**

Manbaning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etish

Manbaning xarakterini aniqlash

##### **1.3. Konspekt uchun adabiyotlar**

**1) Vamberi Herman. Buhoro yohud Movarounnahr tarixi.**

**2) Muhammad Aziz Marg'iloni. Tarixi Azizi.**

##### **1.4. Testlar tuzish va ularni yecha bilish**

**1) "Sharq qo'lyozmalarini tafsiflash va fihristlash" nomli risolaning muallifi kim?**

M.Hasaniy

B.Ahmedov

A.Ahmedov

A.Mdraimov

**2) Kodikologik ma'lumot deganda nima tushuniladi?**

barchasi to'g'ri

yozma manba muallifining nomi va hayot yillari

asarning yaratilgan vaqtini

varaqlar soni va o'lchami

##### **1.5.Tezislар taylorlash va seminarga tayyorgarlik ko'rish**

1) Manbalarning tafsif tamoyili kataloglarda keltiriladi.

2) Kodikologiya qo'lyozma kitobning o'ziga xos xususiyatlarini anglatadi.

3) ... ... ...

##### **Adabiyotlar va manbalar**

1. Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti, 2010

2. Аҳмадов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.:Ўқитувчи, 2001.

3. Насаний М. Шарқ қўлёзмаларини тавсифлаш ва фиҳристлаш. – Т., 2004.

4. Вамбери Ҳерман. Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи. – Т., 1990

5. Муҳаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азизий.- Т.:Маънавият, 1999

6. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)

7. <http://Guldu.zn.uz>

**2-mustaqil topshiriq: Tarixiy asarlar xususiyatlari va turlari**

##### **2.1. Mavzu matnini o`zlashtirish**

- Arab tilida yozilgan manbalarning guruhlarga ajrating
- Fors tilidagi manbalarning xususiyatlarini ochib bering
- O'zbek tilida yaratilgan manbalar xususiyatlarini tahlil qiling
- Tarixiy asarlar turlarini ajratib ko'rsating

##### **2.2. Mustaqil uy vazifasi**

Tarixiy asarlar turlarini tasniflang

##### **2.3. Konspekt uchun adabiyotlar**

**1) Abu Tohirxo'janing "Samariya" asari**

##### **2.4. Testlar tuzish va ularni yecha bilish**

**1) Arab tilidagi yozma manbalarda ko'proq O'zbekiston tarixinining qaysi davriga oid tarixi yoritilgan?**

VII asr oxiridan XII asrgacha

mil.av.IV asrdan milodiy IV asrgacha

XVII asrdan XIX asrgacha

XIV-XV asrlar

## **2) As-Safiyning “Rashahotu ayn ul-hayot” asari qaysi turga mansub?**

agiografik asarlar

biografik asarlar

kosmografiq asarlar

memuar asarlar

### **2.5.Tezislар taylorlash va seminarga tayyorgarlik ko`rish**

1) Arab tilida Vatanimiz tarixiga oid yozma manbalarni mualliflarning kelib chiqishiga qarab ikki guruhga ajratish mumkin

2) XVIII-XIX asrlardagi yozma manbalar qo'lyozmalarini shohona qo'lyozmalar hamda keng jamoatchilik uchun yaratilgan qo'lyozmalarga ajratish mumkin

3) ... ... ...

### **Adabiyotlar va manbalar**

1. Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010

2. Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.:Ўқитувчи, 2001.

3. Абу Тоҳирхўжа. Самария. Мерос туркуми. – Т., 1992

4. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)

5. <http://Guldu.zn.uz>

### **3-mustaqlil topshiriq: Manbashunoslik tarixi va muammolari**

#### **3.1. Mavzu matnini o`zlashtirish**

- Manbashunoslikning paydo bo'lishi haqida fikr yuriting
- Zamonaviy manbashunoslik muammolarini izohlang
- O'zbekistondagi manbashunoslik fani rivojini tahlil qiling

#### **3.2. Mustaqil uy vazifasi**

Manbashunoslikka oid adabiyotlarni tahlil qiling

#### **3.3. Konspekt uchun adabiyotlar**

*Tarixiy manbashunoslikning dolzarb muammolari. T.:TDPU, 2001*

#### **3.4. Testlar tuzish va ularni yecha bilish**

##### **1) Manbashunoslik maxsus fan sifatida qachon shakllangan?**

XIX asr oxiri-XX asr boshlari

V-VIII asrlarda

XIV-XV asr o'rtalari

XIX asr ikkinchi yarmi

##### **2) Toshkentda “Sharq qo'lyozmalarini o'rGANISH instituti” qachon tuzildi?**

1944 yili                    1918 yili                    1987 yili                    1991 yili

#### **3.5.Tezislар taylorlash va seminarga tayyorgarlik ko`rish**

1) Manbashunoslik fan sohasi sifatida o'z tarixiga ega bo'lib, unda nazariy va amaliy masalalar hamda manbashunoslikni o'qitish masalalari o'rGANILADI

2) Ilk o'rta asr tarixchilari barcha yozma matn yoki og'zaki xabarlarni manba sifatida qabul qilganlar.

3) ... ... ...

### **Adabiyotlar va manbalar**

1. Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010

2. Восточное историческое источниковедение и специальные исторические дисциплины. Выпуск 1. – Москва:Наука, 1989

3. Tarixiy manbashunoslikning dolzarb muammolari. T.:TDPU, 2001

4. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)

5. <http://Guldu.zn.uz>

### **4-mustaqlil topshiriq: Davriy matbuot va arxiv hujjatlari**

#### **4.1. Mavzu matnini o`zlashtirish**

- Arxiv hujjatlari muhim manba ekanligini asoslab bering

- Arxiv hujjatlari turlarini aniqlang

- Davriy matbuotda beriladigan materiallar haqida tushuncha bering

- Statistik ma'lumotlarning ahamiyatini ochib bering

#### **4.2. Mustaqil uy vazifasi**

O'zbekistondagi arxivlarni tavsiflab bering

O'zbekiston tarixiga oid materiallar mavjud bo'lgan davriy matbuoti: asosiy gazetalar va tarixiy muammolar yoritiladigan ilmiy jurnallar ro'yhatini tuzing

#### **4.3. Konspekt uchun adabiyotlar**

1. "Turkestanskiye vedomosti" gazetasini tarixiy manba sifatidagi ahamiyatini ochib bering.

2. Narshahiyning "Buxoro tarixi" asari.

#### **4.4. Testlar tuzish va ularni yecha bilish**

1) Davriy matduotda beriladigan materiallar guruhlari ro'yhatini toping

Axborot, tahliliy, badiiy-publisistik

Axborot, hisobot, mukotiba

Maqola, felyeton, statistika

Hikoya, maqola, yangiliklar

2) Diplomatik hujjatlarning muddati ko'rsatilgan yakunlovchi maqola qismi qanday ataladi?

Kommyunike

Preamble

Memorandum

Nota

#### **7.5.Tezislар taylorlash va seminarga tayyorgarlik ko`rish**

1) Arxivlar respublika miqyosidagi arxivlarga (MDA, Vazirliklar arxivi, Prezident apparati arxivi va b.), viloyat, tuman va shahar arxivlariga bo'linadi.

2) Davriy matbuot rasmiy va norasmiy matbuotga bo'linadi.

3) O'zbekiston tarixining XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr davrini o'rganishda ilmiy, publisistik materiallar va statistik ma'lumotlarning ahamiyati katta

4) ... ... ...

#### **Adabiyotlar va manbalar**

1. Тўйчибоев Б. "Манбашунослик" фани бўйича замонавий педагогик технология асосида ёзилган маъруза матнлари. – Гулистан, 2007

2. Данилевский И.Н., Кабанов В.В., Медушевская О.М., Румянцева М.Ф. Источниковедение: Теория, история, метод. – М., 1998

3. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)

4. <http://Guldu.zn.uz>

## **IX. FAN BO`YICHA NAZORAT SAVOLLARI.**

1. Manbashunoslikning maqsadi nimadan iborat?
2. Manbashunosliknng vazifalari nimalardan iborat?
3. Qanday manbalarni bilasiz?
4. Manbashunoslikning qaysi yo`nalishini bilasiz?
5. Nazariy manbashunoslikning maqsadi va vazifasi nimadan iborat?
6. Amaliy manbashunoslik deganda nimani tushunasiz?
7. Manbaning moddiy-texnik belgilari deganda nimani tushunasiz?
8. Manbaning mazmuni nimadan iborat?
9. Yozma manbalarning qanday tavsif usullari mavjud?
10. Kodikologik ma'lumotlar deganda nimani tushunasiz?
11. Yozma manbadagi asarning tarkibi va mazmuni qanday tahlil qilinadi?
12. Yozma manbalar tarkibi qanday qismlardan iborat bo'ladi?
13. Yozma manbalarning ilmiy ahamiyati nima bilan belgilanadi?
14. Xujjalarni o'rganadigan fan nima deb ataladi?
15. Tarixiy hujjat deganda nimani tushunasiz?
16. Qanday tarixiy hujjatlarni bilasiz?
17. Arab tilidagi manbalar qanday xususiyatga ega?
18. Fors tilidagi manbalar to'g'risida nimalarni bilasiz?
19. O'zbek tilidagi manbalarning tariximizni o'rganishdagi ahamiyati nimada?
20. Geografik asarlar deganda nimani tushunasiz?
21. Qanday geografik asarlarni bilasiz?
22. Kosmografik asarlar deganda nimani tushunasiz?
23. Qanday kosmografik asarlarni bilasiz?
24. Geografiya va kosmografiyadagi oid asarlar qanday xususiyatlarga ega?
25. Geografiyaga oid asarlarda qanday tarixiy ma'lumotlar uchraydi?
26. Yoqut Hamaviyni "Mo"jam-ul buldon" asarida Markaziy Osiyo tarixiga oid qanday ma'lumotlar bor?
27. "Ajoyib at-taboqat" asari haqda so'zlab bering
28. "Samariya" asarining Samarcand tarixining o'rganilishdagi ahamiyatini olib bering?
29. Biografiya yoki biografik asar deganda nimani tushunasiz?
30. Qanday biografik xarakterga ega bo'lgan asarlarni bilasiz?
31. "Muzakkiri al-ashob" tazkirasida Shayboniylar davri to'g'risida qanday ma'lumonlar bor?
32. Agiografiya so'zinig ma'nosini aytib bering?
33. Dindorlar hayotiga oid qanday adabiyotlarni bilasiz?
34. Diniy adabiyotlarning tarix fanini o'rganishdagi ahamiyati nimada?
35. Memuar so'zining ma'nosini aytib bering?
36. Qanday memuar adabiyotlarni bilasiz?
37. Memuar adabiyotlarning tarix fanini o'rganishdagi ahamiyati nimada?
38. Elchi va sayyohlarning asosiy maqsadi nima?
39. Elchi va sayyohlar estaliklarida qanday masalalar yoritiladi?
40. Elchi va sayyohlar estaliklarining o'rganishdagi ilmiy ahamiyati nimada?
41. Manbashunoslik fani qachon shakllangan?
42. Eng qadimgi zamon tarixchilari voqeа, hodisalarni qanday bayon qilgan?
43. O'rta asr tarixchilarining manbaga munosabati qanday bo'lgan?
44. O'zbekiston tarixiga oid qo'lyozma asarlar qaysi kataloglarda tavsifa olingan?
45. Qaysi o'zbek manbashunoslari bilasiz?
46. O'zbekiston tarixiga oid qanday Eron manbalarini bilasiz?
47. "Shohnoma" asarida O'zbekiston tarixiga oid qanday ma'lumotlar bor?
48. Hindlarning "Mahobharat" asarida qadimgi O'zbekiston to'g'risida qanday ma'lumotlar bor?
49. Qaysi Yunon tarixchilari asarida Iskandarning yurtimizga yurishi aks etgan?
50. "Avesto" da qanday tarixiy ma'lumotlar mavjud?
51. Qanday turkiy tildagi bitiklarni bilasiz?

52. Qaysi Xitoy manbalarida VI-VIII asr O'zbekiston tarixi yoritilgan?
53. Mug' qal'asidan topilgan So'g'd tildagi hujjatlarning ilmiy ahamiyati nimada?
54. So'g'd tildagi manbalarni kimlar o'rgangan?
55. Turkiy tildagi bitiklarni kimlar o'rgangan?
56. Arab tilida yozilgan manbalar va ularning yurtimiz tarixini o'rganishdagi axamiyati qanday?
57. Beruniyning "Osor ul-boqiya" asarining tarixni o'rganishdagi ahamiyati nimada?
58. Tabariyning "Tarix ar-rusul va-l-muluk" asari tarixiy manba sifatida qanday xususiyatlarga ega?
59. Shihobiddin Nisoviyning "Sirot us-sulton Jaloliddin Menkburni" asari mazmuni nimadan iborat va uning manba sifatidagi ahamiyati nimada?
60. "Devonu lug'at at-turk" asarining ahamiyati nimada?
61. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida nima haqida so'z boradi?
62. Beruniyning "Osor ul-boqiya" asari nima haqida?
63. "Al komil fi-t-tarix" asari muallifi kim?
64. Abu Safar Tabariyning tarixiy asari nomi nima?
65. Alisher Navoiyning tarixga oid qaysi asarlarini bilasiz?
66. "Tarixi anbiyo va hukamo" asari nimaga bag'ishlangan?
67. "Tarixi muluki Ajam" asarida qaysi sulolalar haqida so'z boradi?
68. "Xamsat ul-mutahayyirin" asari kimga bag'ishlangan?
69. "Holot Sayyid Hasan Ardasher" asari kim to'g'risida?
70. "Holot Pahlavon Mahmud" asari mazmunini so'zlab bering?
71. Shayboniyalar davriga oid qanday manbalarni bilasiz?
72. "Shaybonynoma" dostonining muallifi kim?
73. "Imom uz-zamon xalifat ul-rahmon" kimning laqabi edi?
74. "Abdullanoma" asari muallifi kim?
75. "Akbarnoma" asarida O'zbekiston tarixiga oid qanday malumotlar bor?
76. "Tarixi Roshidiy" asarini kim yozgan?
77. "Silsilat ul-salotin" asari necha qismidan iborat?
78. "Tarixi jadidayi Toshkand" asari mazmunini so'zlab bering?
79. Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davriga oid qanday manbalarni bilasiz?
80. Vayoniy asarlarida ruslarning bosqini qanday tasvirlangan?
81. Rus tarixchilari Turkiston o'lkasining zabit etilishini qanday yoritganlar?
82. Turkistonning tarixi zamонавијада ababiyotlarda qanday yoritilgan?
83. Sho'ro davridagi qanday manbalarni bilasiz?
84. Sho'ro davri rasmiy manbalar deganda nimani tushunasiz?
85. Sho'ro davri tarixiga oid qanday tadqiqotlarni bilasiz?
86. Qaysi chet ellik tarixchilar asarlarida sho'ro davri tarixi yoritilgan?
87. Zamонавијада tadqiqotlarda sho'ro davri tarixi tarixi qanday talqin qilinadi?
88. Mustaqillik deklaratsiyasi nima?
89. Prezident I. A. Karimov asarlarida O'zbekiston tarixi qanday yoritilgan?
90. O'zbekiston oliy davlat organlari to'g'risida ma'lumot qaysi manbada aks etgan?
91. O'zbekistonning xalqaro munosabatlari qanday manbalarda yoritilgan?
92. Diplomatik hujjatlarning qanday turlarini bilasiz?
93. Memorandum nima?
94. Konventsya nima?
95. O'zbekistonda qanday arxivlar bor?
96. Statistik ma'lumotlarda nimalar aks ettiriladi?
97. Davriy matbuot materiallari yordamida O'zbekiston tarixining qaysi davrini o'rganish mumkin?
98. Davriy matbuot materiallari qaysi guruhlarga bo'linadi?
99. Rasmiy hujjatlarga nimalar kiradi?
100. O'zbekistonda dastlabki gazeta qachon sciqqan?

## TEST NAMUNALARI

- 1.Yozma manbalar 3 turga bo'linadi, qaysilarga?
- a. Rasmiy hujjat va yozishmalar, geokosmografik va biografik
  - b. Etnografik va lingvistik
  - c. Rasmiy hujjatlar, rasmiy yozishmalar
  - d. Tarixiy, geokosmografik hamda biografik
- 2.Manbashunoslik fani tarix fanining qaysi yordamchi fanlari yutuqlariga tayanadi?
- a. Barchasi to'g'ri
  - b. Paleografiya va diplomatika
  - c. Geraldika va sfragistika, xronologiya
  - d. Epigrafika, numizmatika, metrologiya
- 3.Geografiya va kosmografiyaga oid asarlar qatorini toping?
- a. Ajoyib ul taboqot, Dili g'aroyib
  - b. Majmu al g'aroyib, Tazkiraiy Bug'roxoniy
  - c. Risolai shayx Najmiddin Kubro, Manoqiblar
  - d. Dili g'aroyib, Manoqiblar
- 4.«Tazkirat ush- shuar» asari kimning qalamiga mansub?
- a. Davlatshoh Samarcandiy
  - b. Rashiduddin
  - c. A.Navoiy
  - d. M.Ulug'bek
- 5.«Tazkirat ush shuar» asari
- a. Muqaddima, xotima va etti qismdan iborat
  - b. Muqaddima va etti qismdan
  - c. Muqaddima va olti qismdan
  - d. Hamma javob to'g'ri
- 6.Mutribiy asarlari berilgan qatorni aniqlang?
- a. Tazkirat ut shuaroi Mutribiy va Nusxai zabeti Jahongiriy
  - b. Tazkirat ut shuaroi Mutribiy
  - c. Nusxai zabeti Jahongiriy
  - d. To'g'ri javob yo'q
- 7.«Muzakkir al-asxab» asari qachon va kim tomonidan yozilgan?
- a. Malexo Samarcandiy, 1682-1692 yillar
  - b. Xondamir, 1720-1724 yillar
  - c. Mirxon, 1752-1756 yillar
  - d. Mutribiy, 1682-1692 yillar
- 8.«Matlab ut-tolibin» asari...
- a. Muqaddima , xotima va 8 bobdan iborat
  - b. Muqaddima , xotima va 3 betdan iborat
  - c. Muqaddima va 7 bobdan iborat
  - d. Muqaddima , xotima va 9 bobdan iborat
- 9.«Bade' ul vaqoe'» qachon va kim tomonidan yozilgan?
- a. Z.Vosify, 1538-1539 yillar
  - b. Seydi Ali Reys, 1528-1529 yillar
  - c. Fasih Ahmad Havofiy, 1538-1540 yillar
  - d. Bobur, 1540-1542 yillar
- 10.Zayniddin Vosify qalamiga mansub asarni aniqlang?
- a. Bade' ul vaqoe'
  - b. Ravzat-us safo
  - c. Hindiston
  - d. Jome' ul-maqomoiy
- 11.Kamoliddin Binoiyning «Shayboniynoma» asarida nechanchi yilga qadar voqealar bayon qilingan?
- a. 1505 yilga qadar
  - b. 1507 yilga qadar
  - c. 1508 yilga qadar
  - d. 1510 yilga qadar
12. «Habib us- siyar» qaysi yo'nalishda yozilgan asar hisoblanadi?
- a. Umumiylar
  - b. Tarix
  - c. Geografik
  - d. Avtobiografik
- 13.Zamonaviy axborot texnologiyalar yordamida manbalar bilan nima orqali tanishish mumkin?
- a. Barcha javoblar to'g'ri
  - b. Internet saytlari
  - c. Internet resurslari
  - d. Elektron kutubxonalar
14. Kodikologik tahlil deganda nima tushuniladi
- a. Yozma manba, uning muallifining nomlari va qo'lyozmalari haqida bayon etish
  - b. Yozma manbalarni ilk tavsifga olish, ilmiy muomalaga kiritish
  - c. Asarni xronologik tartibda tahlil qilish
  - d. Asarning ilmiy ahamiyatini aniqlash

## X. FANDA ECHIMINI KUTAYOTGAN ILMIY MUAMMOLAR VA MASALALAR:

Mustaqillik yillari ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning tezkorligi, voqeа va hodisalarning shiddatliligi, olam-u odam taqdiriga daxldor bo'lgan dunyoviy muammolar-u serqirra hayotning barcha jahbalarini qamrab oлган umumiylar qarashlarimizdan tortib, eng kichik, eng shaxsiy yumushlarimizgacha bo'lgan barcha hodisalarni o'zida mujassam etdi. Mudroq bosgan tuyg'ularimizni junbushga keltirdi. Boshqacha qilib aytganda, hayotga tiyrakroq qaraydigan bo'ldik. O'zligimizni anglay boshladik.

Tabiiyki, bunday hayotiy zaruriyat barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar qatori tarix fani oldiga ham yangi vazifalar qo'yadi. Tadqiqotchilar birinchi navbatda xalqning istiqlolga erishish yo'lidagi fidoyi mehnatini, milliy mustaqillikka erishish yo'llari va vositalarini, milliy davlatchilik qurilishiga doir tajribani, istiqlolni mustahkamlashning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy omillarini o'rganish va milliy istiqlol mafkurasini yaratish kabi bir qator muhim muammolarni har tomonlama mushohada qilmoqlari lozim. Darhaqiqat, o'rganishga, tadqiq etishga, dastlabki ilmiy-nazariy xulosalarni o'rtaga tashlashga asos bor.

2000-yil 6-aprel kuni Oq saroyda mamlakat Prezidenti bir guruh olimlar, faylasuflar, tarixchilar va mutaxassislar bilan uchrashib, milliy mafkura, milliy ong taraqqiyoti, uning zarurati haqida gapirdi.

«Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», - degan edi I.Karimov. Darhaqiqat, tarix xotirasi inson taraqqiyotiga kuchli ta'sir o'tkazadi, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Milliy ong, milliy tafakkur xalq tarixi, uning rivqjlanish bosqichlarini nechog'lik o'rganish, undan saboq chiqarish bilan bog'liq. Ulug' allomalar aytganidek, tarix insonni istiqbolga da'vat etadi. Ulkan yaratuvchilikni rag'batlantiradi. Zotan, uning murabbiyilik, tarbiyachilik, yo'naltiruvchilik kuchi xuddi ana shunda.

Shu ma'noda mamlakatimiz rahbarining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi qoshida «O'zbekistonning yangi tarixi» Markazini tashkil qilish to'g'risida chiqargan Farmoyishi katta tarixiy va siyosiy ahamiyatga ega.

O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishi, yangi jamiyatga o'tish davrida siyosiy islohotlarning amalga oshirilishi, O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurilishi, fuqarolik jamiyatining shakllantirilishi, iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishga doir tadbirlar, mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning ta'minlash omillari, ma'naviy-ruhiy poklanish va milliy qadriyatlarning tiklanishi hamda O'zbekistonning jahon hamjamiatidan munosib o'rinishi manbalarda aks etgan.

**Xullas**, hayot mustaqillik davrida o'tgan kunlarimizni manbalar asosida alohida o'rganishni, tadqiq etishni, ilmiy va nazariy xulosalar chiqarishni taqozo etmoqda. Buning o'ziga xos assoslari bor.

**Birinchidan**, istiqlol yillarida O'zbekiston mustaqil suveren davlat sifatida jahon hamjamiatida o'ziga xos nufuzga ega bo'ldi. U o'zining katta ishlab chiqarish imkoniyatlari, boy aqliy va jismoniy salohiyati, tengsiz tabiiy boyliklari bilan dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari diqqatini tortdi va ular bilan tengma-teng turib hamkorlik qilish qudratiga ega ekanligini ko'rsata oldi.

**Ikkinchidan**, eng og'ir, mashaqqatli va ziddiyatli paytlarda, o'tish davrining o'ziga xos murakkabliklari mavjud bo'lgan bir vaqtida mamlakatda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy barqarorlikning saqlab turilishi mamlakat hukumati siyosatining naqadar hayotiy va xalqchil ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, yuzdan ortiq millat va elat yashayotgan mamlakatda turli aqidalar va g'oyalalar ta'sirida bo'lgan aholining talab-ehtiyojlarini o'z vaqtida qondirish, ularning qarashlarini bir nuqtada jamlash alohida uddaburonlikni va qat'iyatlikni talab etadi. O'zbekiston hukumati xuddi ana shunday qat'iyatni ko'rsata bildi.

**Uchinchidan**, bozor munosabatlariga o'tish jarayonida aholini ijtimoiy himoyalash, dunyoviy davlat qurishning asosi bo'lgan qonun ustivorligiga erishish, qonun oldida barchaning tengligini ta'minlash tamoyillari vujudga keldi. Tub islohotlarning Prezident

1.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan mashhur besh tamoyili istiqlolning dastlabki yillaridayoq jahon hamjamiyatida yuqori baholandи va to'la tan olindi.

**To'rtinchidan**, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, chet ellik ishbilarmonlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, shu asosda mamlakat ishlab chiqarishini tubdan o'zgartirish, uni jahoning eng ilg'or texnologiyalari bilan qayta jihozlantirish yo'li tutildi. Bu O'zbekistonning jamiyatni bir holatdan ikkinchi bir holatga o'tkazishda barcha yosh mustaqil mamlakatlar o'rtasida eng to'g'ri yo'l tanlaganini ko'rsatdi.

**Beshinchidan**, O'zbekiston hukumatining islohotchilik siyosati bevosita xalq dunyoqarashi, uning ming yillar mobaynida shakllangan urf-odatlari, an'analari bilan uyg'un holda amalga oshirila boshlandi. «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin», «Vatan sajdah kabi muqaddasdir», «Savob ishni har kim qilishi kerak», «Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, aqli, dono va albatta baxtli bo'lishi kerak» singari shiorlar xalqimizning orzu-istagi, umid va intilishlari bilan uyg'un holda dunyoga keldi. Bugungi O'zbekistonning tom ma'noda ma'naviy tiklanish va ruhiy poklanish maydoniga aylanganligi ana shu eng ezgu niyatlar asosida davlat siyosati va xalq orzu-umidlarining uyg'unligi natijasidir.

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyotida shaxsnинг roli benihoya katta. Ayniqsa, o'tish davrida davlat arbobining, siyosiy yetakchining o'rni yana ham yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Chunki, bu paytda hali ma'lum bir siyosiy tuzum, siyosiy qatlam va jamiyatni yo'naltiradigan oqim shakllanmagan, qarashlar bir o'zanga tushmagan, turli qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar mavjud bo'lган murakkab bir vaziyat vujudga keladi. Bunday paytda xalq o'z kelajagini assosan davlat rahbariga qarab belgilaydi. O'zining iymon-e'tiqodini, taqdirini u bilan bog'laydi.

Ana shu nuqtayi nazardan qaraganda mustaqillikning o'tgan davrida mamlakatimizda amalga oshirilgan keng koiamli ishlar bevosita davlat rahbarining shaxsiyati, uning ish uslubi, voqeа-hodisalarga yondashish usuli bilan bog'lanib ketgan. Xohlaymizmi-yo'qmi, davlat arbobining siyosiy qiyofasi o'tish davrining noyob mahsuli sifatida tarix sahifalarida Bosh islohotchi qiyofasida mustahkam o'nashgan bo'ladi. Demak, mustaqillik davri tarixini o'rganar ekanmiz, bu jarayon bevosita mamlakat Prezidenti I.Karimov faoliyati bilan uzviy bog'langanligini yaqqol ko'ramiz va uni sahifalarga aynan ko'chirishga intildik. Tarixiy haqiqat ham, hayotiy va ilmiy haqiqat ham shuni taqozo etadi.

Shubhasiz, yuqorida tilga olingan masalalarni o'rganish va mushohada qilish kishilarda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, yoshlarni tarixiy an'analarga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashga ko'maklashadi.

## XI. GLOSSARIY:

**Gerodot** (er.av. 490 va 480 yillar o`rtasi - 425 y.) - yirik entsiklopedist olim, "tarix fanining otasi";

**Strabon** (er.av. 63- milodiy 28 yy) - qadimgi Gretsianing atoqli geograf olimlaridan; mashhur grek faylasufi Arastu (Aristotel)ning (er.av. 384-322 yy) shogirdi; qariyb 80 yil umr ko`rgan. 17 kitobdan iborat "Geografiya" nomli klassik asari bor.

**"Avesto"** - zardushtiylik dinining muqaddas kitobi

**Moddiy (asheviy) manbalar** - ibtidoiy davrdan boshlab istiqomat qilgan va dafn etilgan joylar, ularning mehnat va urush qurollari, bino va turli inshootlarning qoldiglari, uy-ro`zg`or va zeb-ziynat buyumlari tushuniladi. arxeologiya fani moddiy yodgorliklarni qidirib topish va o`rganish ishlari bilan shug`ullanadi.

**Etnografik manbalar** - Xalqlarning kelib chiqishi bilan bog`liq bo`lgan material va ma'lumotlar, masalan, xalq,qabila va urug` nomlari, inson qo`li va aql-zakovati bilan yaratilgan qurol va buyumlarning naqsh va bezaklari, kishilar ongida, shuningdek og`zaki va yozma adabiyotda saqlanib qolgan urf-odatlar va an'analar, kishilarning turmush tarzi etnografik manba hisoblanadi. Bularni etnografiya fani o`rganadi.

**Lingvistik manbalar** - Tilimizning leksik tarkibida uzoq o`tmishdan qolgan, ijtimoiy-iqtisodiy ,ma'muriy, siesiy va yuridik atamalar, masalan, hiroj, iqto', xalifa, miroxo'r, erlig`, saroy, mang`it kabi atamalar uchraydi. Bu qimmatli tarixiy atamalarning kelib chiqishi va etimologiyasini lingvistika fani o`rganadi.

**Xalq og`zaki adabiyoti** - Og`zaki adabiyot madaniyatning eng qadimgi ildizi ibtidoiy jamoa davriga borib taqaladi. Bizgacha Qayyumars, Jamshid, To`maris, Shiroq, boshqa afsona va qissalar etib kelgan. Yozma adabiyotdan avval paydo bo`lgan bu durdonalar uzoq o`tmish tarixini o`rganishda muhim ahamiyatga molikdir. Tarixiy manbalarning bu turi bilan folklor fani shug`ullanadi.

**Yozma manbalar** - Yozma manbalar tarixiy manbalarning muhim va asosiy turidir. Yozma tarixiy manbalar o`z navbatida ikki turga bo`linadi: 1)rasmiy hujjatlar, moliyaviy-hisobot daftarlari, rasmiy yozishmalar; 2) tarixiy, geo-kosmografik hamda biografik asarlar.

**Naqshi Rustam** - Persepoldan 6 milya (qariyb 5 km) masofada, shimol tarafida Xusaynkuh qoyalarida Axomoniylardan Doro I, Kserks I (er.av. 486-465 yy), Artakserks I (er.av. 465-424 yy) hamda Doro II (milodning 423-404 yy) larning maqbaralari hamda ularga kiraverishda o`yib yozilgan katibalar. Mazkur yodgorlik sosoniy sarkardalardan Rustam (636 yili arablar bilan bo`lgan urushda xaloq bo`lgan) nomi bilan ham bog`liq va tarixda ko`pincha Naqshi Rustam deb ataladi.

**Bexistun yozuvlari** - Bu yozuvlar (uzunligi 22 m, umumiy balandligi 7,8 m.) Shimoliy Eronda, Kirmonshohdan 30 km masofada, dara bo`ylab o`tgan qadimgi karvon yo`li yoqasida (uning chap tarafida) Zagros nomli tik qoyaga (taxminan 105 m balandlikda) Doro I ning amri bilan yozdirilgan g`alaba yodgorligidir. Yozuv elam, bobil va qadimgi eron tillarida bitilgan.

**"Xvaday namak"** ("Podshohnoma") - kadimgi Eronning 627 yilgacha bo`lgan ijtimoiy-siesiy hayotidan bahs etuvchi yarim afsonaviy tarixiy asar bo`lib, paxlaviy tilida yozilgan.

**"Matakdani xazar datastin"** ("Bir ming nafar yuridik ajirim") - pahlaviy tilida yozilgan (VIII asr) Eronning Sosonilar davridagi davlat tuzilishi va uning ijtimoiy hayoti haqida qimmatli asar.

**"Shohnoma"** - Abulqosim Firdavsiy (taxm. 940-1030 yy) qalamiga mansub, uch kism va 65 ming baytdan iborat epik asar. 976-1011 yillari yozilgan.

**To`nyuquq bitigi** - Ulan-Batordan 66 km sharqi-janubga, Bain Sokto manzilida joylashgan va ikkinchi Turk xoqonligining asoschisi Ilterish xoqonning (681-691 yy) maslahatchisi sarkarda To`nyuquqqa bag`ishlangan, 712-716 yillar orasida yozilgan bitik.

**Kultegin bitigi** - Bilga xoqonning (716-734 yy) inisi Kultegin (731 yili vafot etgan) sharafiga yozilgan. Mo`g`ulistonning Kosho Saydan vodiysida Ko`kshin Urxon daryosi bo`yida rus arxeolog va etnograf olimi N.M.Yadrintsev (1842-1894 yy) tomonidan 1889 yili topilgan bitik.

**Bilga xoqon bitigi** - Yuqorida zikr etilgan Kultegin bitigidan 1 km g`arbi-janubda Ko`kshin-Urxo`n daryosi havzasida topilgan obida 735 yili bitilgan bitik.

**Ongin bitigi** - Mo`g`ulistonning Kosho Saydan vodiysidan topilgan. Kimga atalganligi aniq ma'lum emas. Ba`zi fikrlarga qaraganda, yuqorida tilgan olingan Ilterish xoqon va uning xotini Elbilga xotun sharafiga qo`yilgan (735 y). Boshqa fikrga ko`ra, Qopog`on xoqonga (691-716 yy), yana boshqa bir ma'lumotga (J.Kloson) qaraganda, Bilga xoqonning harbiy boshliqlaridan Alp Eletmish (Taxminan 731 yilda o`lgan) sharafiga qo`yilgan bitik.

**Sima Syan** - Xitoy tarixchilarining otasi (er.av. 145 yoki 135 -er.av. taxminan 86 yillar); Sima Syan "Shi Szi" ("Tarixiy esdaliklar") nomli 130 bobdan iborat yirik tarixiy asar yozib qoldirgan. Asar Xitoyning qadimiy zamonlardan to er.av. 1 asr boshlariga qadar o'tgan tarixini o'z ichiga oladi. Asarda O'rta Osiyo, uning 123-bobida xususan Farg`ona va uning qadimiy xalqi, uning hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud.

**Ban Gu** (32-92 yy) - yirik tarixchi olim; "Syan-Xan shu" ("Avvalgi Xan sulolasining tarixi") asarini yozgan. "Syan-Xan shu"da, xususan uning 95-bobida, O'rta Osiyo(ayniqsa Kangyuy,yuechji va usunlar haqida) va Sharqiy Turkistonning qadimiy tarixi, xalqi va uning hayoti haqida ko'p muhim ma'lumotlarni uchratamiz.

**Fan Xua** (398-445 yy) - avvalgi Xan sulolasi (25-220 yy.) tarixchisi. Fan Xua Xitoyning avvalgi Xan sulolasi davridagi tarixini o'z ichiga olgan "Xou-Xan shu" ("Keyingi Xan sulolasi tarixi") nomli katta asar (130 bobdan iborat) muallifi. Asarda O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston va Jung`oriyaning 25-221 yillar orasidagi tarixi haqida diqqatga sazovor ma'lumotlar bor.

**Li Yan-shou** (taxm. 595-678 yy)- Tan sulolasi (618-907 yy) davrida o'tgan yirik tarixchi. U Shimoliy Xitoyda hukmronlik qilgan Vey (386-535 yy), Si (550-577 yy), Chjou (557-581 yy) hukmronligi, ya'ni 386-581 yillardagi tarixini o'z ichiga olgan 100 bobdan iborat "Bey-shu" (Shimoliy sulolalar tarixi) nomli asari bilan mashhur. Asarda O'rta Osiyo, Xorazm hamda Sharqiy Turkiston haqida ham qimmatli ma'lumotlar uchratamiz.

**Vey Chjen** (580-643 yy) Tan sulolasi davrida o'tgan tarixchi. Xitoyning Suy sulolasi davridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'z ichiga olgan "Suy shu" (Suy xonadonining tarixi) nomli 85 bobdan iborat asar yozib qoldirdi. Asarda uning 83 bobida O'rta Osiyo (Janubiy Qирғизистон, Pomir, Toshkent va b.) hamda Sharqiy Turkiston (Xara-shahar, Kucha, Qashg`ar, Xo'tan) haqida ham diqqatga sazovor ma'lumotlar uchratamiz.

**Ouyan Syu** (1007-1072 yy) va Sun Si (998-1061 yy) 960-1279 yillari hukmronlik qilgan Sun (Janubiy va Shimoliy Xitoy) sulolasi tarixchilari, imperator Jen-Tszunning (1023-1063 yy) topshirig`i bilan 940-945 yillari yozilgan "Szyu-Tan shu" (Tan sulolasining eski tarixi) o'miga (uning kamchilik va nuqsonlari aniqlangach), 1043-1060 yillari shu sulolaning yangi tarixini - "Sin Tan shu" (Tan sulolasining yangi tarixi) ni yozganlar

**Balazuriy.** IX asrda o'tgan yirik geograf va tarixchi olim; to`la ismi Abubakr Ahmad ibn Yah'yо Jabir al-Balazuriy; asli eronlik. "Kitob futux al-buldon" (Mamlakatlarning zabit etilishi haqida kitob) hamda "Kitob ansob al-sharaf"(Sharofatli kishilarning nasalari haqida kitob) asarlarining muallifidir.

**Tabariy.** Yirik entsiklopedist olim Abu a'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy (839-923 yy) Eronning Tabariston viloyatiga qarashli Omul shahrida to`g'ilgan. "Tarix ar-rusul va-l-muluk" umumiylar tarix tipida yozilgan asar muallifidir.

**Mahmud Qoshg`ariy.** XI asrda o'tgan yirik tilshunos olim. Mahmud Koshg`ariy o'zining turkiy tillarga bag`ishlangan ikki muhim asari bilan mashhur. Bulardan biri "Javohir an-nah' fi lug`at-it turk" (Turk tili sintaksisi asoslari), ikkinchi asari "Devonu lug`at at-turk" (Turkiy so`zlar lug`ati) dir.

**Narshaxiy** (899-959 yy) - X asrda o'tgan buxorolik yirik tarixchilardan biri. "Tarixi Buxoro" (Buxoro tarixi), "Tarixi Narshaxiy", "Taxqiq ul-viloyat" (Buxoro viloyatini tahqiq etish) nomlari bilan mashhur tarixiy asarlar muallifidir.

**Nizomulmulk** - XI asrda o'tgan yirik tarixchi olim va davlat arbobi. Nizomulmulk davlatni idora qilish masalalariga bag`ishlangan "Siyosatnama" (boshqa nomi "Siyar al-muluk" - Podsholarning turmushi) nomli asari bilan nom qoldirgan.

**Abulfazl Bayhaqiy** - XI asrda o'tgan yirik tarixchi olim. Bayhaqiy "Ziynat ul-kuttab" (Kitoblar ziynati), "Tarixi Oli Mahmud" ([Sulton] Mahmud xonadonining tarixi) yoki "Jome' fi tarixi Oli Sabuqtakin" (Sabuqtakin xonadoni tarixidan hikoyalari majmuasi) nomli asari bilan mashhur.

**Yoqut Hamaviy** - 1179 yilda tug`ilgan Kichik Osiyolik qul. Otasining kimligini bilmaydi, shuning uchun o`zini ibn Abdulloh deb atagan. Yoqut Hamaviy ikkita muhim asar yozib qoldirgan. Bulardan biri keng ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo`lgan "Mo`jam al-buldon" (Mamlakatlar ro`yxati) bo`lib, u 1224 yili yozib tugallangan.

**Shahobiddin Muhammad Nasaviy** - XIII asrning ko`zga ko`ringan tarixchi olimlaridan bo`lib, tug`ilgan yili noma'lum. Shahobiddin Nasaviy Markaziy Osiyo, Kavkaz, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining mo`g`ul istilosi davridagi, ya'ni 1220-1231 yillardagi ijtimoiy-siyosiy tarixini yorituvchi "Sirot us-sulton Jaloluddin Menkburni" (Sulton Jaloluddin Manguberdining tarjimai holi) nomli qimmatli asar yaratgan.

**Juvayniy** - XIII asrda o'tgan yirik tarixchi olim va davlat arbobi bo`lib, 1226 yili G`arbiy Xurosondagi Juvayn okrugiga qarashli Ozodvor qishlog`ida to`g'ilgan. Juvayniyning tarixiy xizmati

shundaki, u Markaziy Osiyo, Mo`g`uliston va Eronning XIII asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixini yorituvchi mashhur "Tarixi jahonkushoy" (Jahongir [Chingizxon] tarixi) nomli asar yaratgan. Mazkur asar 1260 yili yozib tamomlangan.

**Rashiduddin** - Eronlik mashhur entsiklopedist olim: tarixchi, filolog, vrach va yirik davlat arbobi. Rashiduddinning ota-bobolari zamonasining o`qimishli kishilar bo`lgan. Rashiduddin tarixda o`zining yirik asarlari bilan nom qoldirgan. U ilohiyot ilmining ba`zi masalalariga bag`ishlab, "Al-majmuat ar-Rashidiya", tibbiyotga oid "Al-asar va-l-ihya", "Bayon al-haqoyiq", qurilish masalalariga doir "As'ilva ajiba" va jahon tarixini o`z ichiga olgan "Jome' ut-tavorix" nomli asarlar yaratgan.

**Hamdulloh Kazviniy** - XIII asrning so`nggi choragi va XIV asrning birinchi yarmida o`tgan yirik geograf va tarixchi olim, davlat arbobi. Hamdulloh Kazviniy "Zafarnoma", "Tarixi guzida" hamda "Nuzhat ul-qulub" nomli asarlar muallifi.

**Banokatiy** - XIII asrning ikkinchi yarmi XIV asrning birinchi yarmida yashagan shoir va tarixchi olim. Qadimgi Shoshga qarashli Banokat shahrida tug`ilgan. Banokatiy jahon tarixiga oid "Ravzat uli-l-albob fi-tavorix al-akabir va-l-ansob" (Akobirlar va asil (kishi)lar tarixi xususida oqillar bog`i) nomli asari bilan mashhur. Umuman olganda, Banokatiyning ushbu asari Markaziy Osiyoning XIII va XIV asrning birinchi choragidagi tarixi, geografik holati va aholisining turish-turmushini o`rganishda muhim manbalardan hisoblanadi.

**"Tavorix-i guzide, Nusratnoma".** Muallifi noma'lum: "Tavori-i guzide, Nusratnoma" 1502-1505 yillar orasida yozilgan bo`lib, ikki mustaqil qismdan- "Tavorix-i guzide" va "Nusratnoma" dan iborat.

**Bobur** - (1483-1530). XVI asrda o`tgan yirik olim va iste'dodli shoir. Bobur o`zining ajoyib lirik shekr'lari hamda "Boburnoma" nomli entsiklopedik asari bilan tarixda o`chmas nom qoldirdi. "Boburnoma" memuar tipda yozilgan asar bo`lib, unda Farg`ona, Toshkent, Samarkand, Hisori shodmon, Chag`oniyon Afg`oniston hamda Shimoliy Xindistonning XV asrning 80-90 yillari va XVI asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli yoritilgan.

**Kamoluddin Binoiy** - XV-XVI asr boshlarida o`tgan atoqli shoir va tarixchi olim. Kamoluddin Binoiy iste'dodli va yirik shoir va ulkan tarixchi olim sifatida mashhur. U O`rta Osiyo va Qozog`istonning XV asrning so`nggi choragi va XVI asrning boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o`rganishda alohida ahamiyatga ega bo`lgan "Shayboniynoma" nomli kitob yozib qoldirdi.

**Fazlulloh ibn Ruzbehon** - XV asrning oxir va XVI asrning birinchi choragida o`tgan yirik olim. U birmuncha yirik ilmiy asarlar yozib qoldirdi. "Halli tajarrid" ("Abstraktsianing hal etilishi"), "Ta'liqot bar muxolot" ("Aqlga sig`maydigan narsalarning izohi"), "Badi'uzzamon fi qissa-yi Xayy ibn Yaqzon" ("Hayy ibn Yaqzon" qissasida zamon badi'alari"), "Tarix-i olamoroyi Aminiy" ("Aminiyning jahonga bezak bo`lувчи tarixi"), "Abtal nahj al-botil va axmal kashf al-o'til" ("Noto`g`ri yo`ldan voz kechish va bid'atni inkor etish"), "Suluk al-muluk (Podsholarning xulq-atvori haqida risola), "Sharhi "Qasida-yi burda" al-Busiriy" (Al-Busiriyning "Payg`ambarlarning jandas" risolasining sharhi), "Mehmonnomma-yi Buxoro" shular jumlasidandir.

**Xondamir** (1475-1535 yy). XV asr oxiri va XVI asrning birinchi yarmida o`tgan yirik tarixchi olim. Ona tarafdan u Mirxondning nabirasidir. Xondamir sermahsul olim. U O`rta Osiyo, Yaqin va O`rta Sharq xalqlari tarixi va madaniyatiga oid o`nga yaqin asar yozib qoldirgan. "Xulosat ul-axbor" ("Tarixlar xulosasi"), "Humoyunnoma", "Maosir ul-muluk" ("Podsholarning asrdoshlari"), "Nomayi nomiy" (Atoqli maktublar") va "Habib us-siyar" shular jumlasidandir.

**Hofiz Tanish Buxoriy.** (1549-1589). XVI asrda o`tgan buxorolik shoir va yirik tarixchi olim. Otasi Mir Muhammadl al-Buxoriy Buxoroning ko`zga ko`ringan boyonlaridan bo`lib, Shayboniy Ubaydullaxonning yaqin kishilaridan bo`lgan.

## Fanni bilish uchun !!!

Manbashunoslik fanini o'rganishdan maqsad talabalarda ushbu fan sohasi to'g'risida umumiy tushuncha hosil qilish va ularda qiziqish uyg'otish va O'zbekiston tarixini manbalar asosida mustaqil o'rganishga harakat qildirishdan iborat.

Tarixiy fakt va voqealar bayoni inson xarakteri, ma'lumot beruvchi shaxs, guruh, firqa, sulola, mazhab va mamlakatlar manfaati yo'lida turlicha talqin qilinishi mumkin.

Manbashunoslik fani tarix ilmining asosiy va muhim sohalaridan biri bo`lib, turli (moddiy, etnografik, yozma va boshqa) manbalarni o'rganish hamda ulardan ilmiy foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganadi.

Hozircha mavjud darslik va qo'llanmalar ichida akademik **B.Ahmedovning "O'zbekiston tarixi manbalari"** darsligi ikkinchi nashrini eng mukammal deb tan olishimiz mumkin. Qimmatli ma'lumotlar jamlangani bilan ajralib turgan bu asar yanada mukammal darslik uchun asos bo`lib xizmat qiladi.

Manbashunoslikni yaxshi egallash uchun talaba bir necha til, ayniqsa arab yozuvidagi turkiy til va g'arb tillaridan ingliz, nemis va fransuz tillaridan birini yaxshi bilishi kerak. Bu sohada rus tili ham ma'lum mavqega ega.

